Turkiy davlatlar tashkilotining geosiyosiy kuchga aylanishini Eron ham ehtiyotkorlik bilan kuzatadi. Eronning Kavkaz va Markaziy Osiyoda o'zining siyosiy va iqtisodiy manfaatlari bor va TDTning rivojlanishi uning ushbu mintaqalardagi ta'siriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Eron Ozarbayjon va Armaniston o'rtasidagi mojaro, shuningdek, Markaziy Osiyodagi savdo yo'llariga katta ahamiyat beradi. Turkiy davlatlar tashkilotining kuchayishi bu mintaqadagi savdo va transport yo'laklariga ta'sir qilishi, Eronning rolini cheklashi mumkin.bundan tashqari Eron va Turkiya mintaqa liderligi borasida raqobatchi davlatlar sanaladi. Turkiy davlatlar tashkilotining rivojlanishi Turkiyaning mintaqadagi qudratini oshirib yuboradi, bu esa Eron uchun xavotir tug'diradi.

Yevropa Ittifoqi va ayrim G'arb davlatlari turkiy davlatlar o'rtasidagi siyosiy va harbiy hamkorlikning kuchayishini o'zlari manfaatdor bo'lgan boshqa hududlarga ta'siri nuqtai nazaridan ehtiyotkorlik bilan kuzatishda davom etmoqda [6]. Bu bir tomondan ularni TDT ga xayrixohdek ko'rsatadi. G'arb davlatlari xalqaro geosiyosatda Rossiya, Xitoy va Eron pozitsiyasi, qolaversa bugun ular ishtirokida yuzaga kelgan BRIKSning kuchayishini istamaydi. Shu jihatdan Turkiy davlatlar tashkilotining kuchayishi mintaqadagi muvozanatni o'zgartirishi mumkin, buning esa xalqaro munosabatlarga kuchli ta'sir qilishi ehtimoli bor.

Hindiston ham Markaziy Osiyoda o'zining iqtisodiy manfaatlariga ega davlatlardan biri bo'lib, mintaqadagi savdo yo'llariga katta ahamiyat beradi [5]. Turkiy davlatlar tashkilotining kuchayishi Hindistonning mintaqadagi savdo imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Turkiy davlatlar o'rtasidagi hamkorlik va transport yo'laklarining rivojlanishi Hindistonning bu mintaqadagi savdo yo'llariga kirish imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

Turkiy davlatlar tashkilotining xalqaro geosiyosiy strategik kuchga aylanishiga qarshi chiqadigan davlatlar asosan Rossiya, Xitoy va Eron bo'lishi mumkin, chunki bu davlatlar mintaqada o'zining ta'sirini saqlab qolishga intiladi. Ular Turkiy davlatlar o'rtasidagi harbiy, iqtisodiy va siyosiy hamkorlikning kuchayishi ularning manfaatlariga tahdid tug'dirishini hisobga oladilar. G'arb davlatlari va Hindiston esa mintaqadagi o'z pozitsiyalarini yo'qotishdan ehtiyot bo'lib, TDTning kuchayishini ehtiyotkorlik bilan kuzatadi.

Shuni ham aytish lozimki, TDTning qudratli geosiyosiy kuchga aylanishiga o'z ichidagi bir qator omillar ham to'sqinlik qilishi mumkin. Bu omillar a'zo davlatlar o'rtasidagi ichki ixtiloflar, manfaatlar farqliligi va siyosiy yoki iqtisodiy muammolar bilan bog'liq.

Birinchidan, a'zo davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy va geosiyosiy manfaatlar to'liq uyg'un emas. Har bir a'zo davlatning alohida geosiyosiy maqsadlari va manfaatlari bor va bu farqlar tashkilotning birgalikda harakat qilish qobiliyatini pasaytiradi. A'zo davlatlar turli tabiiy resurslarga ega, va ularning iqtisodiy strategiyalari bir-biridan farq qiladi [1]. Masalan, gaz va neft eksporti bilan shug'ullanadigan davlatlar o'zaro raqobatga tushib qolishlari mumkin, bu esa birdamlikni zaiflashtiradi. Transport va logistika yo'laklarini nazorat qilish bo'yicha ham a'zo davlatlar o'rtasida o'zaro manfaatlar to'qnashuvi bo'lishi mumkin. Masalan, Kaspiy dengizidan o'tadigan yo'laklar yoki boshqa savdo yo'llari uchun Turkiya, Ozarbayjon, va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida raqobat yuzaga kelishi mumkin.

Ikkinchidan, a'zo davlatlar siyosiy tizimi va ideologiyasida farqlar sezilarli. A'zo davlatlar o'rtasida siyosiy tizimlar va hokimiyatning boshqarish uslublari turlicha. Turkiyaning prezidentlik tizimi va Markaziy Osiyo davlatlarining avtoritar boshqaruvi o'rtasida siyosiy farqlar bor. Shu kabi, masalan, Turkiya va Qozog'iston kabi davlatlar o'rtasida siyosiy islohotlarga bo'lgan yondashuvlar turli bo'lishi mumkin. Ba'zi a'zo davlatlar demokratiyani kuchaytirishga intilayotgan bo'lsa, boshqalari ko'proq avtoritar boshqaruvni saqlab qolishga harakat qilishmoqda. Bu ichki siyosiy

farqlar TDTning umumiy siyosiy yo‘nalishini belgilashda qiyinchiliklar aniq qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Yana, a’zo davlatlarda o‘zlarining milliy manfaatlarini ustun qo‘yish hissiyoti bor, bu bilan umumiy turkiylik g‘oyasiga asoslangan birdamlikni amalga oshirish oson kechmaydi. Milliylik va turkiylik orasidagi muvozanatni topish qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

Uchinchidan, a’zo davlatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi va resurslardan foydalanish imkoniyatlari o‘rtasida katta farq bor [1]. Bu notenglik iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashga to‘sqinlik qilishi mumkin. Turkiya va Ozarbayjon kabi davlatlar nisbatan yuqori iqtisodiy rivojlanishga ega, ammo ba’zi Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy jihatdan kambag‘allikdan aziyat chekmoqda. Markaziy Osiyo davlatlarining ayrimlari Rossiya yoki Xitoy sarmoyasiga qattiq bog‘langan. Agar turkiy davlatlar o‘zaro iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirmasa, tashqi sarmoyaga bo‘lgan qaramlik saqlanib qolishi va ularni Rossiya yoki Xitoydan mustaqil rivojlanishga to‘sqinlik qilishi mumkin.

To‘rtinchidan, TDTning geosiyosiy kuchga aylanishi tashqi kuchlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanmagani kabi, a’zo davlatlar individual shaklda ularning bosimiga ham duch kelmoqda. Bunday bosimlarga birgalikda javob qaytarish irodasi hali-hanuz shakllanmay kelmoqda. Mazkur kayfiyat TDTning yuksak maqsadlarini ishonchsizlashtirish ehtimoli mavjud. Rossiya va Xitoy ommaviy va ijtimoiy axborot tarmoqlari Markaziy Osiyoda bunday kayfiyatni kuchaytirishga zo‘r berib urinmoqda. TDT davlatlarida esa bunga qarshi turish o‘ta sust darajada.

Shunday holatlar ham borki, masalan, Turkiya G‘arb, xususan NATO va Yevropa Ittifoqi bilan geosiyosiy munosabatlarga ega bo‘lsa, Markaziy Osiyo davlatlari Rossiya va Xitoy bilan yaqin aloqalarga ega. Bu tashqi aloqalardagi farqlar TDTning umumiy tashqi siyosatiga salbiy ta’sir qilishi mumkin.

Turkiy davlatlar tashkiloti ichki va tashqi muammolar tufayli kuchli geosiyosiy tashkilotga aylanishda qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiy [4]. A’zo davlatlar o‘rtasidagi manfaatlar turlichaligi, siyosiy tizimlar va xavfsizlik muammolari, iqtisodiy notenglik va tashqi bosimlar asosiy to‘siqlar hisoblanadi. Bu muammolarni hal qilish va a’zo davlatlar o‘rtasidagi birdamlikni saqlash uchun ichki hamkorlikni chuqurlashtirish, tashqaridan keladigan bosimlarni yumshatish va umumiy manfaatlar yo‘lida strategik yondashuvni kuchaytirish kerak.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Turkiy davlatlar tashkiloti kelajakda kuchli va nufuzli tashkilotga aylanishi uchun bir qator muhim qadamlarni amalga oshirishi va a’zo davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirishi lozim. Buning uchun quyidagi kabi bir qator asosiy yo‘nalishlarda ish olib borish zarur:

1. Iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash, ya’ni TDTning muvaffaqiyati uchun a’zo davlatlar o‘rtasida savdo va sarmoyani erkinlashtirishga qaratilgan kelishuvlar va tashabbuslar rivojlanishi kerak. Maxsus savdo tariflari va bojxona to‘lovlarini yengillashtirish orqali savdo aylanmasi kuchaytirilishi, a’zo davlatlar o‘zaro investitsiyalarni oshirishi lozim. Turkiya kabi qudratli a’zolar Markaziy Osiyo va Kavkazdagi davlatlarga sarmoya kiritishda faol ishtirok etishi, yirik loyihalarga mablag‘ jalb qilishi kerak. Markaziy Osiyodan Turkiya orqali Yevropaga olib boradigan transport yo‘laklarini rivojlantirish strategik ahamiyatga ega. “Trans-Kaspiy xalqaro transport yo‘laklari” kabi loyihalarni yanada kuchaytirish, logistika tizimlarini zamonaviylashtirish va transport infratuzilmasini yaxshilash iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi.

2.TDT a’zo davlatlari katta energetik resurslarga ega. Neft va gaz sektoridagi hamkorlik va energetika yo‘laklarini rivojlantirish tashkilotga iqtisodiy kuchli platforma yaratish imkonini beradi. A’zo davlatlar o‘rtasida yangi gaz va neft quvurlarini barpo etish, mavjud yo‘laklarni kengaytirish mumkin. Turkiya bu yerda Yevropa uchun tranzit xab bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Turkmaniston

va Ozarbayjon kabi davlatlar TDTning energetika eksportchilari sifatida ushbu loyihalarda faol ishtirok etishi lozim.

3.TDTning mustahkam bo‘lishi uchun a’zo davlatlar o‘rtasida siyosiy birdamlik va diplomatik hamkorlik kuchaytirilishi zarur. **Umumiy diplomatik pozitsiya shakllantirilishi, ya’ni a**’zo davlatlar xalqaro tashkilotlar doirasida, masalan, BMT, YeXHT yoki Islom hamkorlik tashkiloti kabi institutlarda o‘z pozitsiyalarini muvofiqlashtirishlari kerak. Bu ularning xalqaro siyosatdagi mavqeini mustahkamlaydi va ularning ta’sir doirasini kengaytiradi. Turkiy davlatlar o‘zaro xalqaro darajada manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha umumiy strategiyaga ega bo‘lishi zarur. Bu ularning tashqi siyosatdagi ta’sirini oshiradi.

4. TDT o‘zaro madaniy, ta’lim, sog‘liqni saqlash, sport, turizm va mehnat hamkorligini kuchaytirishi zarur. Buning asosiy ustunlaridan biri milliy, madaniy, ma’naviy, til, urf-odat va qadriyatlar yaqinligi hisoblanadi. Madaniy hamkorlik va ta’lim almashinuvi a’zo davlatlarni yanada birlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Turkiy davlatlar o‘rtasidagi ta’lim almashinuv dasturlarini kengaytirish, turkiy tilli universitetlar o‘rtasida ilmiy hamkorlikni kuchaytirish muhimdir. Birgalikda tadqiqot loyihalari, talabalar almashinuv dasturlari yosh avlodlarni o‘zaro yaqinlashtiradi. Umumturkiy festivallar, an’anaviy san’atlar va qo‘shiqlar bayramlari turkiy madaniyatni mustahkamlashga yordam beradi. Bu yo‘nalishdagi hamkorlik turkiylarni o‘zlarining bir butunligini yanada chuqurroq anglashga va birlashishga turtki beradi.

5.Turkiy davlatlar o‘rtasida harbiy va xavfsizlik sohasida hamkorlikni kuchaytirish ham tashkilotning kuchayishiga yordam beradi. Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash sohasida o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish, xavfsizlik kuchlari o‘rtasida axborot almashish, qo‘shma harbiy mashqlar o‘tkazish, a’zo davlatlar harbiy sohada hamkorlik qilishi orqali qo‘shma harbiy texnologiyalar yaratishga yordam berishi mumkin.

6.TDT kuchli xalqaro tashkilotga aylanishi uchun Rossiya, Xitoy va G‘arb davlatlari bilan o‘zaro manfaatli aloqalar o‘rnatishi zarur. Bu aloqalar TDTning xalqaro maydonda qudratli kuchga aylanishi va manfaatlarini himoya qilishiga imkoniyatlar yaratishiga erishishi kerak. Xulosa qilib aytganda, Turkiy davlatlar tashkiloti agar a’zolar iqtisodiy, siyosiy, harbiy, madaniy va ta’lim sohalaridagi hamkorlikni izchil rivojlantirsalar kelajakda kuchli va nufuzli tashkilotga aylanishi mumkin. U mintaqa geosiyosatida katta qadamlar tashlashi, xalqaro maydonda kuchli, jiddiy va strategik kuch sifatida mavqe qozonishi imkoniyatiga ega tashkilotlardan biridir.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. **Муҳаммадиев Ж.А.** Туркий давлатлар ташкилоти ва Марказий Осиё: янги истиқболлар. -Т.: Фан, 2021. -220 б.

2. **Қараев Ҳ.Т.** Туркий давлатлар ва уларнинг ўзаро муносабатлари тарихи. -Т.: ЎзМУ нашриёти, 2022. -185 б.

3. **Князев А.И.** Турция и тюркские государства Центральной Азии: Геополитика и сотрудничество. -М.: РАН, 2020. -340 с.

4. **Болатов В.А.** Организация тюркских государств и её место в международной политике. -Астана: Евразийский национальный университет, 2021. -270 с.

5. **Cagaptay S.** The Rise of Turkey: The Twenty-First Century's First Muslim Power. New York: Potomac Books, 2014. -320 p.

6. **Aras B.** Turkish Foreign Policy and the Turkic World. London: Routledge, 2018. -245 p.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

To‘rayev Kamoliddin Samadovich
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti ilmiy xodimi

Published under peer review:
Doctor of Political Science, Associate Professor
Mansur Musaev

Received 4th Janvier 2025, Accepted 10th Janvier 2025, Online 11th Janvier 2025

INTERNETNING TARG‘IBOT VA IJTIMOIY FIKRNI SHAKLLANTIRISHDAGI IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada internetning targ‘ibot va ijtimoiy fikrni shakllantirishdagi global imkoniyatlari tadriji haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, inson ma’naviyatiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arzimas bo‘lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkinligi isbotlangan.

Kalit so‘zlar: axborot-kommunikatsiya, internet, global tarmoq, mentalitet, g‘oyaviy kurash, targ‘ibot, veb-sayt, ma’naviy tahdid.

ВОЗМОЖНОСТИ ИНТЕРНЕТА В ПРОДВИЖЕНИИ И ФОРМИРОВАНИИ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ

Аннотация. В этой статье обсуждается эволюция глобального потенциала Интернета в области защиты интересов и общественного мнения. Также было доказано, что даже небольшое послание, направленное против человеческой духовности, которое на первый взгляд может показаться незначительным, может быть вызвано интенсивностью глобализации в информационном мире и нанести огромный ущерб, невидимый, но непоправимый.

Ключевые слова: информация и коммуникация, интернет, глобальная сеть, менталитет, идеологическая борьба, пропаганда, веб-сайт, духовная угроза.

POSSIBILITIES OF THE INTERNET IN PROMOTION AND FORMATION OF PUBLIC OPINION

Annotation. This article discusses the evolution of the Internet's global potential for advocacy and public opinion. It has also been proven that even a small message directed against human spirituality, which at first glance may seem insignificant, can be driven by the intensity of globalization in the information world and cause enormous damage that is invisible but irreparable.

Key words: information and communication, internet, global network, mentality, ideological struggle, propaganda, website, spiritual threat.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Kirish(Introduction). XXI asrda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, internetning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyati shiddat bilan tobora oshib bormoqda. Bugun ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda global tarmoqning chegarasiz imkoniyatlarini hisobga olmaslik, undan ma’lum maqsadlar yo‘lida foydalanmaslik, ta’bir joiz bo‘lsa, zamondan orqada qolish, deganidir.

Internet orqali amalga oshiriladigan va katta mablag‘ talab qilmaydigan g‘oyaviy ta’sir va tazyiqning o‘ziga xosligi shundaki, u o‘quvchi, tinglovchi yoki tomoshabinga sezdirilmasdan amalga oshiriladi va bevosita qurbonlarni keltirib chiqarmaydi. Axborot urushi dushmanni yo‘q qilmagan, katta xarajatni talab qilmagan holda, yuqori samara beradi [1].

Bunda g‘oyaviy ta’sir yo‘naltirilgan mamlakatlar aholisining xohish-istaklari, mentaliteti, mavjud muammolari jiddiy o‘rganilgan holda, asosiy diqqat kishilar ongi va dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatishga, shakllangan qadriyatlarni o‘zgartirishga, ularning regulyatorlik rolini kamaytirishga yoki butunlay yo‘qqa chiqarishga qaratiladi.

Bugungi kunda internet g‘oyaviy kurash va targ‘ibotning asosiy maydoniga aylanganini ekstremistik va terroristik qarashlarni targ‘ib qilishdagi o‘rni misolida ham ko‘rish mumkin.

So‘nggi yillarda terroristik tashkilotlar g‘oyalarini targ‘ib-tashviq qilishga qaratilgan veb-saytlarning soni bir necha barobarga oshgan. Bugungi kunda dunyoda terrorchilar foydalanadigan 10 mingdan ortiq internet saytlari mavjud bo‘lib, ularga xizmat ko‘rsatuvchi portallar soni ortib bormoqda[2].

Bugungi kunda inson ma’naviyatiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arzimas bo‘lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkinligini anglash qiyin emas.

Diniy ekstremistlar va terrorchilarning internetdagi saytlarida tashkilotning maqsadi, tarixi hamda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy mazmundagi ma’lumotlarga keng o‘rin beriladi. Jumladan, terrorchilar kuch ishlatish yo‘liga o‘tishga go‘yoki majbur bo‘lganlarini asoslashga, terror va qo‘poruvchilik harakatlarini ma’naviy va axloqiy jihatdan oqlashga intilishadi. Bunda o‘zlarini “ozodlik kurashchisi”, “partizan”, “qarshilik ko‘rsatuvchi” deb atab, tinchlik tarafdori qilib ko‘rsatishga va ular bilan kurashda hukumat tinch yo‘l bilan harakat qilish lozimligini asoslashga intilish keng tarqalgan. Ular saytlarda hukumat tarafidan qo‘llanilayotgan usullarning “vahshiyligini” yoritishga ham alohida e’tibor beradilar.

Tezkor axborotlar, yangiliklarning bir vaqtning o‘zida bir necha tilda va terrorchilar uchun foydali bo‘lgan yo‘nalishda berib borilishi, ularning faoliyatni oqlovchi, “qahramonligini” kuylovchi qo‘shiqlar, kliplar berilishi bunday saytlarning mafkuraviy hamda emotsional ta’sir quvvatini oshirishga xizmat qiladi[3].

Bunday saytlar, bir tomondan, terrorchilik tashkilotining faol a’zolariga, ikkinchi tomondan, terrorchilarning asl maqsad muddaolarini bilmaydigan, ularni “kurashchilar”, “muxolifat” va shu kabi ijobiy maqom hamda sifatda qabul qilishga o‘rgangan odamlarga mo‘ljallangan. Ulardan jamiyatda tegishli ijtimoiy fikrni shakllantirish va qarama-qarshi (dushman) tomonga psixologik ta’sir ko‘rsatish, qo‘rquv, vahima tarqatish orqali ichki ikkilanishni keltirib chiqarishdek maqsadlar ko‘zlanadi[4].

Mana shunday vaziyatda odam o‘z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o‘tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog‘lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo‘lmasa, turli ma’naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko‘rinishdagi ta’siriga bardosh berishi amrimahol.

Yurtimizdagi kechayotgan jarayonlarni keskin va noxolis talqin qiluvchi, bo‘hton, tuhmat va g‘iybat bilan to‘lib-toshgan materiallarni o‘qiyotgan yurtdoshlarimiz yuqoridagi ma’lumotlardan to‘g‘ri xulosa chiqaradilar, deb umid qilamiz, albatta.

Tobora kuchayib borayotgan bunday xatarlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo‘lishi talab etiladi. Bunday tahdidlarga qarshi har tomonlama chuqur o‘ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan ma’naviy tarbiya bilan javob berish mumkin. Bu sharoitda axborot xavfsizligini ta’minlash uchun virtual olamda ham faol harakatlar olib borish zarur.

Eng avvalo, g‘arazli maqsadda amalga oshirilayotgan tashqi g‘oyaviy ta’sirlar, mamlakatimizda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga xolis yondashuv bayrog‘i ostida berilayotgan bir yoqlama axborotlar va baholarning oldini olish, ularga qarshi ob’ektiv ma’lumotlarni kishilarga tezkor, tizimli va tadrijiy yetkazib berish masalasi dolzarb vazifa hisoblandi.

Bugun axborot ham iste’mol qilinadigan tovarga aylangan ekan, har bir inson o‘zida uni iste’mol qilish madaniyatini tarbiyalashi lozim. Yoshlar shaxsiy xarakterdagi axborot himoyasi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, o‘zi foydalanayotgan salbiy axborotlardan himoyalana olishi zarur[5].

Axborot iste’moli madaniyati, eng umumiy ma’noda, axborot oqimidan inson manfaatlari, kamoloti hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ma’lumotlarni qabul qilish, saralash, tushunish va talqin etishga xizmat qiladigan bilimlar, qobiliyat va malaka tizimini anglatadi.

Inson o‘zida bunday madaniyatni tarbiyalashi uchun u yoki bu axborotni eshitar ekan, hech bo‘lmaganda: “Bu axborotni kim uzatayapti?”, “Nima uchun uzatayapti?” va “Qanday maqsadda uzatayapti?” degan savollarni o‘z-o‘ziga berishi, unga asosli javob topishga harakat qilishi kerak.

Shundagina turli g‘oyalar ta’siriga tushib qolish, taqdim etilayotgan ma’lumotlarga ko‘r-ko‘rona ergashishning oldi olinadi. Shakllangan axborot iste’moli madaniyati milliy manfaatlarimiz va qadriyatlarimizga zid bo‘lgan xabar, ma’lumotlarga nisbatan o‘ziga xos qalqon rolini o‘taydi, shaxs dunyoqarashi va xulqidagi sobitlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Yosh avlodda bu jihatlar shu darajada shakllangan va qaror topgan bo‘lishi lozimki, ular virtual makonda umummilliy manfaatga xizmat qiladigan, uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotni tanlay olsin. Faqat shundagina, globallashuv jarayonlarida yoshlarning ma’lumotlarga ko‘r-ko‘rona ergashish, ularni noto‘g‘ri talqin qilishining oldi olinadi. Axborot iste’moli madaniyatiga ega yoshlar, salbiy va noxolis axborotlar ta’siriga tushib qolmaydi, chunki ularda bunday axborotlarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitet shakllanadi [6].

“Kimki axborotga ega bo‘lsa, u dunyoga egalik qiladi”, – degan fikr bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani emas. Shunday ekan, bugungi kunda yoshlarda axborot olami imkoniyatlaridan oqilona foydalanish malakasini shakllantirish hayotiy-amaliy ahamiyatga ega.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha faoliyatni yanada rivojlantirish kelgusida jamiyatimiz oldida turgan muhim va ustuvor vazifalardan ekanini ta’kidlash zarur:

– yoshlarning axborot muhitidagi ijtimoiy ongini monitoring qilish tizimini shakllantirish;

– o‘sib kelayotgan avlodning media-savodxonligini muntazam oshirib borish;

– virtual axborot hududida yoshlarning ustuvor nuqtai-nazarlari va qiziqishlarini muntazam o‘rganish;

– kelajak avlodning ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga zarar yetkazuvchi axborotdan aholini himoya qilish;

– yoshlarning ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi “ommaviy madaniyat” tahdidi va yot oqimlarning haqiqiy mohiyatini fosh etuvchi ma’lumotlarni yetkazish tizimini yo‘lga qo‘yish[7].

Ochiq axborot tizimlarida axboriy-psixologik xavfsizlikni ta’minlash hozirgi kunning dolzarb talabi hisoblanadi. Har bir davlat buning ustida bosh qotirmoqda. Bu jahondagi yangi geosiyosiy taqsimot, yangi mintaqaviy nizolarning yuzaga kelishi, millatchilik, shovinizm, din niqobidagi ekstremizm, ekologik halokatning tahdidi kuchayishi va turli yuqumli kasalliklarning tarqalishi bilan bog‘liq. Bugungi kunga kelib, iqtisodiy, siyosiy va boshqa maqsadlarga erishish uchun harbiy ustunlik yoki kuchning o‘zi yetarli emas. Raqib tomonga axboriy-psixologik tazyiq o‘tkazish ham zarur bo‘ladi. Axborot tushunchasi bugungi kunda global ma’no kasb etdi. U inson tafakkuriga ta’sir o‘tkazuvchi, insoniyat hayoti va taqdirini u yoki bu tomonga burib yuboruvchi, goh salbiy, goh ijobiy mohiyat kasb etuvchi vositaga aylandi[8].

Ochiq axborot tizimi deganda axborot vositalari va unda berilayotgan axborotlarning oshkoraligi, dunyo axborot maydonida axborot almashinuv jarayonining jamiyat ehtiyoji sifatida namoyon bo‘lishi va axborotlarning shaxs hayoti-faoliyatining ajralmas qismiga aylanib borishi jarayoni tushuniladi. Axborot agentliklari, gazetalar, jurnallar, jurnal tarzidagi nashrlar, boshqa nashr mahsulotlar, radio, televideniye, audio va videomahsulotlar Ochiq axborot tizimlari (OAT) hisoblanadi. Internet, matbuot xizmati, jamoatchilik bilan aloqalar, davlat, jamoatchilik va boshqa tashkilotlar va muassasalar, reklama agentliklari bo‘yicha tuzilmalar ham shular jumlasidandir.

Hozirda internet orqali tarqalayotgan va yil sayin tobora keng xilma-xil tus olayotgan virtual zo‘ravonliklar, shuningdek, elektron OAV (ommaviy axborot vositalari) larida tasvirlanayotgan jangari manzaralar, yoshlarning ma’naviy rivoji va tafakkuriga ta’sir qilmoqda. Ayni paytda internet tarmog‘i hayotimizga tahdid ham olib kelmoqda. Axborot-psixologik havfsizlik bu bevosita inson ruhiyatiga ta’sir o‘tkazishi orqali uni o‘z aqidalaridan, muqaddas ideallaridan, e’tiqodlaridan ayiradigan buzg‘unchi g‘oyalardan asrashdir. Demak, axborot-psixologik xavfsizlikka ehtiyoj, eng avvalo bevosita inson va jamiyat, inson va davlat, shaxs va uning daxsizligi, millat va milliy qadriyatlar, jumladan, urf – odatlar, an’analar, tarixiy va madaniy meros, avlodlar vorisiyligi, millatning istiqboli bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlarga ma’naviy – ruhiy ta’sir buzg‘unchi g‘oyalar va tajovuzkor mafkuralarning mavjudligidan kelib chiqadi.

Bugungi kunda, rivojlangan texnika davrida turli xil ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalari orqali tez va oson topish mumkin. Jumladan, buzg‘unchilik, tajovuzkorlik, noaxloqiy xulqni shakillantiruvchi ma’lumotlar ham anchagina. Ayniqsa, bunday manbalar o‘sib kelayotgan yosh avlodlar ongiga ta’sir ko‘rsatayotganligi achinarli holdir. Ommaviy axborot vositalari ta’siridagi buzg‘unchi yoki ongni zararlovchi g‘oyalarning oldini olish faqat yosh avlodning ta’lim-tarbiyasiga e’tiborni kengaytirish va to‘g‘ri tashkil etish hamda sifatli ta’sirni kuchaytirishdan iborat. Bunda,

albatta, pedagoglar, psixologlar, jamoatchilik, ota-ona kabi bolaga ma’sul shaxsalarning bilim saviyasi va hayotiy tajribalari ahamiyatlidir[9].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya (literature review). O‘z davrida og‘zaki nutqning paydo bo‘lishi bilan axborot uzatish imkoniyatlari kengaygan bo‘lsa, yozma nutq rivoji bu borada o‘ziga xos yangi bosqichni boshlab bergan edi. Hozirgi fan-texnika taraqqiyoti, integratsiya va globallashuv sharoitida esa axborot makonida tub sifatiy holat kechmoqda. Endilikda axborot uzatish nafaqat xilma-xil (radio, televideniye, matbuot, telefon, faks, pochta, internet va b.) shakllari, balki, o‘ta tezkorligi bilan ham jamiyat taraqqiyotining oldingi davrlardagidan farq qiladi. Bunday sharoitda, axborot iste’moli jarayonida ham yangi tendensiyalar kuzatilmoqda. Axborot turli ijtimoiy qatlamlar, professional va milliy guruhlar vakillariga har xil ta’sir qilishi barobarida uni iste’mol qilish amaliyoti turli guruhlarda bir-biridan keskin farq qiladi. “Kimki axborotga ega bo‘lsa, u dunyoga egalik qiladi” degan fikrning paydo bo‘lishiga ham axborotning yuqoridagi xususiyatlari sabab bo‘lgan. Axborot har bir nizoning uchinchi tomoniga aylanib qoldi.

Olimlar urushga munosabatning o‘zgarganini aytishar ekan, qurolning yangi turi kashf qilinganini ta’kidlashmoqda. Bu qurol axborotdir. Bunday qurol yordamida buzg‘unchilar insonning ongi va qalbini nishonga oladi. Bu qurol yordamida ongga berilgan zarbalar kishini adashtiradi, uni o‘z manfaatlariga zid harakat qilishga undaydi. Shu tariqa nafaqat millatning turmush tarzi, balki uning yaxshilik va yomonlik, oq va qora, savob va gunoh, rost va yolg‘on haqidagi tasavvurlari ham o‘zgaradi. Odamlar dunyoqarashini buzg‘unchi g‘oyalar ta’siriga olayotgan g‘arazli kuchlar dunyoni o‘z xohish-irodalariga bo‘ysundirishga urinmoqda. Siyosiy kuchlarning asl maqsadlarini o‘z vaqtida sezish va anglash katta ahamiyatga egadir [10].

E’lon qilinmagan axborot urushlari zamirida yolg‘on axborot tarqatish, ijtimoiy ongni egallash, milliy va madaniy qadriyatlarni yo‘q qilish, yot va begona qadriyatlarni singdirish kabi yovuz maqsadlar yotgani aniq. Bu tahdidlardan doimo ogoh bo‘lishimiz kerak. Internet virtual, ammo ob’ektiv hodisadir. Uning hayotimizga kirib kelishiga to‘siq qo‘yib bo‘lmaydi. Lekin yoshlarni undan oqilona foydalanishga o‘rgatish lozim. Internet orqali ijobiy ma’lumotlar bilan birga yoshlar xulqu-odobiga salbiy ta’sir etuvchi axborotlar uzatilayotgani aniq. Axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish orqali bunday ta’sirlarning oldini olish kerak. Sog‘lom aql egalari internet qulayliklaridan o‘z bilimlarini oshirish yo‘lida oqilona foydalanadi. Lekin ba’zi yoshlar esa ushbu tarmoqdagi yovuzlikka, ma’naviy tanazzulga sabab bo‘ladigan saytlarda “sayr qilib” o‘zlari va atrofdagilarning ongini zaharlashlari mumkin. Bunday saytlar, bir tomondan, terrorchi tashkilotining faol a’zolariga, ikkinchidan, terrorchilarning asl muddaolarini bilmaydigan, ularni “kurashchilar” maqomda qabul qiluvchi o‘rgangan odamlarga mo‘ljallangan. Ulardan jamiyatda tegishli ijtimoiy fikrni shakllantirish va muxolifat tomonga psixologik ta’sir ko‘rsatish, vahima tarqatish orqali ichki ikkilanishni keltirib chiqarishdek maqsadlar ko‘zlanadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Internetga bog‘lanib qolish shaxsning yurish-turishida beqarorlik keltirib chiqaradigan kasallik hisoblanadi. Virtual olamga bog‘lanib qolish zerikishdan, o‘zini yolg‘iz his qilishdan, bekorchilikdan va internetning o‘ziga tortadigan ko‘p jihatlaridan kelib chiqadi. Amerikalik ruhshunos olima Kimberli Yang «internetga qaramlik» iborasini birinchi bo‘lib ishlatgan. Olima ushbu kasallikning quyidagi belgilarini sanagan:

1.Internetga bog‘lanib qolgan kishi vahimachi, sarosimaga beriluvchi bo‘lib, internetga bog‘lanmasa, tushkunlikka tushadi.

2.Oilaviy vazifalarga, ijtimoiy munosabatlarga beparvo bo‘lib, jamiyatdan begonalashadi.

3. O‘z vazifasini bajarishda sust bo‘ladi.

4. Uyqudan to‘satdan uyg‘onib, birdan internetga ulanishni istaydi.

5. Muammolarga qarshi turish, ularni hal etishda ojizlik qiladi, hayot qiyinchiliklariga bardosh berolmaydi.

6. O‘qishda o‘zlashtirishi pasayib ketadi.

7. Ixtirochilik qobiliyati yo‘qoladi.

Internet ikki taraflama - ham yaxshilikka, ham yomonlikka xizmat qilishi mumkin. Yoshlarning vazifasi uning imkoniyatlaridan yaxshilikka xizmat qildirib, yomonligidan ehtiyot bo‘lish choralarini ko‘rishdir. Internetdan foydalanishning inson bilimini oshirish, axborot olishning qulayligi, uzoqni yaqin qilish, qulay aloqa vositasi va boshqa shu kabi bir qancha ijobiy taraflari bor. Biroq terrorchi tashkilotlarning zamonaviy targ‘ibot usullarida internet asosiy o‘rinni egallayotgani barchani hushyor bo‘lishga undaydi. Qayd etish kerakki, terrorchilikka qarshi kurasgda e’tiqodiy butunlikka erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

Terrorchilar zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanishga urinayotgan bir vaqtda ularga qarshi eng zamonaviy uslublarda kurashish lozim. Bunday tahdidlarning oldini olishning asosiy yo‘li yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdir. Ko‘p foydalaniladigan internet saytlarini aniqlab, ularga ma’naviy – ma’rifiy ma’lumotlarni tizimli va tadrijiy ravishda joylashtirib borish kerak. Shundagina internetdagi tahdidlarga qarshi immunitet hosil qilish va ko‘lamini kengaytirish mumkin. Yoshlarda internetdan olinayotgan axborotlarga tanqidiy yondashish va uning ishonchli manbalar asosida o‘z dunyoqarashini kengaytirish, zararli ma’lumotlarni inkor eta bilish idrokini hosil qilish g‘oyat muhim[11].

Xulosa (Conclusion) Axborot xavfsizligini ta’minlashda quyidagi vazifalarni bajarish kerak: Milliy-ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib etish orqali yoshlarni to‘g‘ri e’tiqoddan ayiradigan buzg‘unchi g‘oyalardan asrash; Mahalliy axborotlar ta’sirchanligini oshirish choralari ko‘rilmasa, yot g‘oyalar milliy qadriyatlarni barbod etish orqali tarixan do‘st bo‘lgan xalqlar va millatlar orasiga nizo solishi turgan gap, bunday paytda har qanday voqea va hodisaga aql-idrok yo‘rig‘i bilan yondashish lozim. Tahdid qancha ko‘p bo‘lsa, qo‘rquv, hadik va ishonchsizlik shuncha ko‘payadi. Ana shunday paytda vaziyatdan kelib chiqib, yoshlar axloqini tartibga solish muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarda axborotni saralay olish, ya’ni axborot iste’moli madaniyatini yuksak darajaga ko‘tarish uchun, eng avvalo, yosh yigit-qizlarda sog‘lom e’tiqod va sezgirlik tuyg‘ularini shakllantirish muhim. Internet saytlarida yoshlarga kuchli ta’sir etuvchi axborotlarni quyidagicha tasniflash mumkin.

Birinchi toifadagi axborotlar sirasiga yot, buzg‘unchi g‘oyalar (diniy ekstremizm va terrorchilik g‘oyalari, millatchilik, irqchilik, sadizm kabilar)ni kiritish mumkin.

Ikkinchi toifadagi axborotlar esa garb hayot tarziga xos, o‘zbek mentalitetiga zid odatlar va ko‘nikmalarni targib etadi. Bu ayniqsa, g‘arb yoshlarining kiyinishi, odatlarini targ‘ib qiluvchi maqolalar, kliplar, filmlarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Uchinchi toifaga esa pornografik axborotlarni kiritish mumkin.

To‘rtinchi toifaga esa hali tekshirilmagan, o‘z isbotiga ega bo‘lmagan turli hujumkor axborotlarni kiritish mumkin.

Internet saytlaridan tarqatilayotgan bu kabi yot g‘oyalar va axborotlarni yoshlar tomonidan qabul qilinayotganligi va uning oqibatlari jahondagi barcha mamlakatlari xalqini ham tashvishga solmoqda.

Yoshlarimiz ongini egallashga qaratilgan har qanday xatti-harakatlarga, milliy manfaatlarimizga rahna solishga, ma’naviyatimizga tajovuz qilishga, umrimiz mazmuni bo‘lgan tarixiy xotiramizni buzishga urinayotgan g‘arazli kuchlarga karshi doimo ogoh turishimiz darkor. Ana shundagina bizni hech kim, hech narsa o‘z tanlagan yo‘limizdan ortga qaytara olmaydi va biz ko‘zlagan ulug‘vor maksadlarimizga albatta yetamiz[12].

Demak, bugungi yoshlarimiz Internetning bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikki jihatini, ya’ni uning «oqi va qorasi»ni yaxshi idrok etmoqdalar. Bundan ko‘rinadiki, jahon tarmog‘idan samarali foydalanish, unda yoshlar auditoriyasiga foydali bo‘lgan milliy segmentni yanada chuqurlashtirish, ular uchun bilim va professional ko‘nikmalarni boyitish yuzasidan yangi imkoniyatlarni yaratish to‘g‘risida ko‘proq bosh qotirish davri keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маклюэн М. Понимание медиа: внешние расширения человека. М.:Канон-Пресс-Ц. 2003
2. Айдарбек Тулепов. Интернетдаги таҳдидлардан ҳимоя.-Т.: “Мовароуннаҳр”,2016
3. Srivastava K.M. Social media in business and governance. Sterling. New Delhi, India. 2013. 267.
4. Raymond G. The Internet: The good, the bad and the ugly. https://www.teachers.ab.ca
5. Masuda Y. The Information Society as Post-Industrial Society. Wash., 1981; Тоффлер Э. Третья волна. М., 2002;
6. Бахриддин Умаров, Мяссар Ахмедова. “Очиқ ахборот тизимларида ахборотпсихологик хавфсизлик”.- Тошкент.: -2012.
7. Урсул А. Информатизация общества. Введение в социальную информатику. М., 1990;
8. Моисеев Н.Н. Расставание с простотой. М., 1998.
9. Айдарбек Тулепов. Интернетга ин қурган “ўргимчаклар”.-Т.: “Мовароуннаҳр”,2014.
10. Гидденс Э. Устроение общества. Очерк теории структурации. М. Академический проект 2018. - 528.
11. Дўстмуҳаммад Х. Оммавий ахборот воситаларини ривожлантиришнинг демократик андозалари. –Т.: “Ўзбекистон”, 2005 йил. – Б. 25.
12. Алимов Б. Интернет газеталар кўпаядими? “Ҳуррият” газетаси, 2012 йил 11 июль. 4-б.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Abduraxmonov Adxamjon Soxodilla o‘g‘li,
Namangan Davlat Universiteti tayanch doktoranti

Ilmiy rahbar:
Mansurov Ulug‘bek Umarovich,
t.f.f.d. (PhD), dotsent

Received 4th Janvier 2025, Accepted 10th Janvier 2025, Online 14th Janvier 2025

NAMANGAN VILOYATI TARIXI VA MADANIYATI DAVLAT MUZEYINING TASHKIL ETILISHI

Rezyume. Mazkur maqolada Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyining tashkil topishi va faoliyati davri xaqida atroflicha ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar. Namangan viloyati, madaniy muassasalar, eksponatlar, ko‘rgazma zallari, ko‘rgazma zallari, ko‘chma muzey, muzey xazina-fondi, madaniy hayot.

ОРГАНИЗАЦИЯ ГОСУДАРСТВЕННОГО МУЗЕЯ ИСТОРИИ И КУЛЬТУРЫ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

Резюме. В данной статье представлена подробная информация о периоде создания и деятельности Государственного музея истории и культуры Наманганской области.

Ключевые слова. Наманганская область, учреждения культуры, экспонаты, выставочные залы, передвижной музей, музейный фонд, культурная жизнь.

ORGANISATION OF THE STATE MUSEUM OF HISTORY AND CULTURE OF NAMANGAN REGION

Resume. This article provides detailed information about the period of creation and activities of the State Museum of History and Culture of Namangan region.

Keywords. Namangan region, cultural institutions, exhibits, exhibition halls, mobile museum, museum fund, cultural life.

Kirish (Introduction):

Muzeylar ajdodlarimizning avlodlarga qoldirgan munosib merosini targ‘ib qiluvchi, bizni ming yillik ildizlarimiz bilan bog‘lovchi, shuningdek bugungi rivojlanish va taraqqiyot davrlarini o‘zida aks ettiruvchi, o‘zligimizni namoyon etuvchi boy ma’naviy xazinadir.

Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi keksa va navqiron muzeylar sirasiga kiradi. Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi ma’naviy-ma’rifiy muassasa bo‘lishi bilan birga ajdodlar merosini saqlaydigan, avlodlarga ko‘rsatib faxr iftixor tuyg’ularini shakllantiruvchi maskandir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review):

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Mustaqillik yillarida tarixchi olimlar tomonidan bajarilgan tadqiqotlarda Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyining ba’zi qirralari ochib berilgan. Mazkur tadqiqot mualliflari Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyining tashkil topishi va taraqqiyoti masalalariga ham qisman e’tibor berganlar. Shuningdek, tarixchilar tomonidan muzeylar tarixining dolzarb masalalariga oid tadqiqotlarda Namangan shahrida tashkil topgan mazkur muzeydagi turli davrlarga oid eksponatlar sonining yillar davomida to‘ldirilib borilishi tahliliga ham alohida to‘xtalinganligini ko‘rish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology):

Maqola tarixiy metodlar-tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, davriylik, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo‘lib, unda bugungi tez fursatlarda rivojlanayotgan globallashuv zamonida madaniy maskanlardan biri bo‘lgan muzeylar faoliyatiga doir amalga oshirilgan ishlar haqida to‘xtalib o‘tilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results):

XX asr bo‘sag‘asida shaharlardagi madaniy muassasalar tizimida muzeylarni tashkil qilinishi ham o‘z o‘rniga ega bo‘ldi. Dastlabki o‘lkashunoslik muzeyi 1899 yilda Farg‘ona shahrida ochilib, u 3 ta (tabiat, etnografiya, qishloq xo‘jaligi) bo‘limlardan iborat bo‘lgan [1, – B.181-182]. Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi Namangan viloyatida 1920-yilda tashkil etilgan bugungi kunda 100 yillik tarixga egadir [2, – B. 18]. 1918-yil 19-apreldagi Turkiston Respublikasi Xalq Komissarlari sovetining dekretiga asosan Namangan shahrining markazidagi savdogar Hamdam Qalandarov do‘koni binosi 1920-yilda muzey uchun ajratib berildi. Muzey Namangan shahridagi 1-maktabning fizika fani o‘qituvchisi Ivanov Vladimir Ivanovich tashabbusi bilan tashkil etilgan. Vladimir Ivanov 1919-yili xalq ta’limi nozirligiga yozgan xatida o‘quvchilarga puxta bilim berish maqsadida Namangan shahrining maktablaridagi barcha fizika o‘quv asboblarini bir joyga jamlash va yagona fizika laboratoriya xonasini tashkil etishni taklif qilgan. Bu taklif esa xalq ta’limi nozirligi tomonidan ma’qullangan. Mahalliy tashkilot Turkiston oqsoqollari Kengashi madaniyat bo‘limining qaroriga asosan Namangan shahar xalq ta’limi bo‘limi tasarrufida fizika muzey kabineti ishga tushdi. Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi tashkil bo‘lgan dastlabki yillarda jamg’arma fondi, bo‘lim va ekspozitsiyalarni ochish uchun yetarli eksponatlar yo‘q edi. Asosan eksponatlar geologiya, minerologiya va zoologiyaga tegishli ashyolar bor edi. Bular ichida qisman mahalliy aholini uy ro‘zg’orda foydalanadigan etnografiya buyumlari uchrar edi.

1920-yilga kelib xalq ta’limi bo‘limi yangi muzeyni moddiy texnika bazasini mustahkamlashga e’tiborini kuchaytirib, eksponatlar sotib olish uchun mablag’ ajratdi. 1920- yilda ish boshlagan maskanda 1922-yilga kelib eksponatlari soni 900 taga yetdi. Muzeyni kengaytirish va eksponatlar sonini ortishida hamda xalq qo‘lidagi tarixiy osori-atiqalarni to‘plashda shahar aholisi qo‘ldan kelgancha o‘z yordamini ko‘rsatdi. Natijada 1923-yilga kelib muzeydagi eksponatlar turlariga qarab quyidagi bo‘limlar tashkil etildi:

1. Zoologiya.
2. Minerologiya.
3. Anatomiya.
4. Numizmatika,.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

5. O‘quv qurollari [3].

1923-yilning so‘ngida muzey 6 bo‘limdan iborat bo‘lib, eksponatlarning soni 770 tani tashkil etdi. 1922 – 1927-yillarda muzey tomonidan ilmiy xarakterdagi quyidagi ishlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan:

a) Etnografiya bo‘limini mahalliy aholining kiyim-kechaklari bilan to‘ldirish, uy – ro‘zg’or buyumlari ya’ni idish-tovoq kollektsiyasini to‘ldirish. Chust hunarmandlari mahsulotlari erkak va ayol do‘ppilari hamda pichoqlari kollektsiyasini boyitish;

b) Tabiatshunoslik bo‘yicha kollektsiyani to‘ldirish maqsadida yoz faslida viloyatning Chust, Yangiqo‘rg’on va Kosonsoy tumanlariga ekskursiya (poxod)lar uyushtirish;

v) Mahalliy aholining turmush tarzini hunarmandchilik san’atini, savdo-sotiq ishlarini, mehnat faolligini aks ettiruvchi fotosuratlar ko‘rgazmasini tashkil etish;

g) Aholi hadya qilgan sopol buyumlar kollektsiyasini tartibga keltirish;

d) Aholidan numizmatikaga oid eksponatlarni yig’ib olish va ularni davrlashtirish ishlarini amalga oshirish va boshqalar [4, – B. 11-12].

Muzey faoliyatini yuritishda 1920 – 1927-yillarda V.I.Ivanov muzeyga rahbarlik qilgan. Har bir muassasa va tashkilotni taraqqiyotida rahbarning o‘ziga xos roli bor. Xuddi shunday muzey rivojini va rolini oshirishda 1927–1937- yillarda muzeyga mudirlik qilgan Inomjon Nizambayevning ham alohida o‘rni bor. I.Nizambayev ma’rifatli inson bo‘lib, viloyatda maorifni rivojlantirishda ham ulush qo‘shib, muzeyga tarixiy eksponatlarni jamlash va fondni to‘ldirishda alohida jonbozlik ko‘rsatgan. Buni isbotini tarixiy hujjatlarga muhrlangan hisobotlardan, qayd etish daftarlaridan hamda 1930-yilga kelganda muzey xazina fondidagi eksponatlar soni 3000 taga, ziyoratchilar soni esa 20 000 ga yetganida ko‘rish mumkin. Dastlabki shakllanish davrida ma’lum bir shaxslar uchun xizmat qilgan muzeylar, asta-sekin ommaviylashib bordi va jamiyat madaniyatining ajralmas bir qismiga aylandi.

1930-yillardan keyin muzey jamoasi Namangan aholisini, ayniqsa maktab o‘quvchilarini tabiatga qiziqishlarini hisobga olib, sohaga oid eksponatlar to‘plash va namoyish etishga e’tiborni kuchaytirdi. “O‘lka geografik tuzilishi”, “Aholisi”, “Tuproqlari”, “Iqlimi”, “Suv manbalari”, “Tog’lari” kabi mavzularda ma’lumotlar to‘plandi. I.Nizambayev say’i-harakati bilan Namanganda hosil bayrami tashkil etilib, bunda shahar hunarmand birlashmalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi. Ko‘rgazma yakunidan so‘ng ularning ko‘p qismi muzey xazina fondiga hadya etildi, bu esa o‘z-o‘zidan eksponatlar soni ortganligini ko‘rsatadi.

1938-yilda muzey ko‘rgazma zallarini qayta jihozlash maqsadida muzey vaqtinchalik yopiladi. 1939-yilda tabiat, tarix, sotsializm qurilishi bo‘limlari tashkil etilib, jihozlash ishlari tugagach, yana o‘z ishini davom ettirdi. 1940-yilga kelib esa eksponatlar soni 10000 tani tashkil etdi. Namangan viloyat o‘lkani o‘rganish muzeyi 1941-yil mart oyida O‘zbekiston Respublikasi hududida Namangan oblastini tashkil topishi munosabati O‘zSSR Oliy Sovetining Namangan oblasti bo‘yicha tashkiliy komiteti tomonidan Namangan shahar o‘lkashunoslik muzeyini Namangan oblast o‘lkani o‘rganish muzeyi maqomida qayta tashkil etish to‘g’risida qaror qabul qilindi [5, – B. 58].

1941-yil 2-jahon urushi bo‘layotganligi sababli 1943-yilga qadar muzey o‘z faoliyatini vaqtincha to‘xtatdi. 1943-yil 8-sentyabrda O‘zbekiston Oliy Sovetining Namangan viloyatini tashkil

etish bo‘yicha tashkiliy qo‘mitasi tomonidan Namangan viloyat o‘lkashunoslik muzeyini qayta ochish to‘g’risida qaror qabul qilindi va muzey o‘z faoliyatini yurita boshladi ya’ni 1943-yildan viloyat o‘lkani o‘rganish muzeyida 4 ta bo‘limga ega bo‘lgan holda qaytadan ish boshladi [6, – B. 21]. Bu davrlarda muzeyga Haydarali Zokirov, keyinchalik Nabijon Ahmedov, Ivan Malenkov, Obidjon Kamolovlar rahbarlik qildilar. Ular rahbarlik qilgan davrlarda muzey ilmiy muassasa maqomida:

– o‘lka tabiati va tarixini o‘rganish;

– tabiat haqidagi ilmiy bilimlarni targ’ib etish;

– o‘lka tabiiy resurslari namunalarini yig’ish va targ’ib etish;

– viloyat ahlini Vatanga mehr va muhabbat ruhida tarbiyalash ishlarida ko‘maklashish kabi faoliyat turlarini olib borildi.

1945-yil 20-oktyabrdagi O‘zbekiston SSR xalq komissarlari Kengashining 1766-sonli Qarori bilan Namangan viloyat o‘lkashunoslik muzeyi Namangan viloyat xalq maorifi bo‘limidan Namangan madaniy – oqartuv muassasalari bo‘limi tasarrufiga o‘tkazildi [7, – B. 12].

1960-yilning 25-yanvarida O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidumi Farmoniga binoan Namangan viloyati tugatilishi munosabati bilan viloyat o‘lkashunoslik muzeyi ham ayni vaqtda Andijon viloyatiga bo‘ysunuvchi Namangan shahar o‘lkashunoslik muzeyiga aylantirildi. 1966-yili ushbu muzeyga 74 019 nafar kishi tashrif buyurgan. Muzey bo‘yicha 518 ta ekskursiya tashkil etilgan. 1966-yili viloyat tumanlarida ko‘chma muzey faoliyat yuritgan. Ushbu muzeyni 9108 kishi tomosha qilgan. Ko‘chma muzey ekspozitsiyalari bo‘ylab 222 ta ekskursiya tashkil etilgan. 1967-yil 1-yanvarda muzey ixtiyorida 22 375 ta eksponat mavjud edi [8, – B. 9].

1967-yil 18-dekabrda O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidumining Farmoniga binoan Namangan viloyati qayta tiklandi. Natijada 1968-yilda Namangan shahar o‘lkashunoslik muzeyi Namangan viloyat madaniyat boshqarmasi tasarrufidagi viloyat o‘lkani o‘rganish muzeyiga aylantirildi [9, – B. 15-16].

Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi xazina-fondida 64 455 dan ortiq eksponatlar mavjud. Shulardan 3 mingga yaqini noyob ashyolardir. Jumladan, Qoraxoniylar, Somoniylar, Amir Temur va Qo‘qon xonligi davriga oid tangalarni bu o‘rinda alohida tilga olish joiz [10, – B. 20-21]. 1970-yildan boshlab muzey ilmiy xodimlari etnografik ma’lumotlar hamda eksponatlar yig‘ish ishlarini kengaytirishdi. Natijada juda ko‘plab Namangan viloyatida rahbarlik qilgan va frontda qahramonlik ko‘rsatgan insonlar to‘g‘risida ma’lumotlar jamlangan. Respublikadagi keksa ma’naviy-ma’rifiy muassasa bo‘lgan muzey mazkur binoda 1988-yilga qadar faoliyat yuritgan. Namangan viloyatidagi madaniy muassasalar va ular binolari tekshiruvdan o‘tkazilganda, Namangan viloyat o‘lkashunoslik muzeyiga ham bino ajratish kerakligi ta’kidlandi va muzey uchun yer ajratish va yangi maxsus bino barpo etish masalasi viloyat hokimligining kun tartibiga kiritildi. Namangan viloyat o‘lkani o‘rganish muzeyi uchun yangi bino qurilishida bir qator rahbar xodimlarning xizmatlari katta bo‘lgan. Jumladan, viloyat partiya komitetining 1-kotibi viloyat ijroiya komitetining raisi Botirali Hakimov, viloyat madaniyat boshqarmasi boshliqlari Umarxon Iminov, Hafiza Ahmedova, Sanoat Ziyayevalarning say’i – harakatlarini alohida ta’kidlash mumkin.

Muzeyning eski binosida faoliyat yuritish davr talabiga javob bermay, ishchi guruh tomonidan o‘rganilib, Namangan oblast 1-sekretari vazifasidagi Rajabov say’i-harakati bilan Respublikadagi keksa ma’naviy-ma’rifiy muassasa bo‘lgan muzey mazkur binoda 1986-yilga qadar faoliyat yuritdi.

1986-yilda Namangan shahar hokimligi buyrug’iga asosan tipovoy loyiha asosida qurilish ishlari boshlangan va 1988-yilda nihoyasiga etkazilgan.1988-yil avgust oyida zamonaviy, yangi va ko‘rkam binoga ko‘chib o‘tildi.

Muzey Namangan shahar N. Namongoniy ko‘chasi 41-uyda joylashgan. Umumiy yer maydoni 5322 kv.m bo‘lib, shundan 1700 kv.m ko‘rgazma zallari, 520 kv.m eksponatlarni saqlash maydonini tashkil etadi. Ko‘rgazma zallari 7 ta, ma’muriy xizmat xonalari 6 ta, xo‘jalik va qo‘shimcha xonalar 8 tani tashkil etadi [11].

Xodimlarning jonbozliklari va samrali mehnatlari natijasida muzey 1998-yilda 1-toifali muzeylar qatoriga kirdi [12, – B. 78]. Ibrohimjon Yunusovich Yusupov 2004-yil avgustidan Namangan viloyat o‘lkani o‘rganish muzeyiga direktor bo‘lib tayinlandi. Shu kundan boshlab muzeyning ilmiy salohiyatida tubdan o‘zgarishlar yasaldi, muzey taraqqiyotida rivojlanish bosqichiga ko‘tarildi.

Jumladan, 2004-2008-yillarda 3-qavatda tarix, etnografiya, Namangan viloyati sporti, mustaqillik yillarida Namangan, Namangan adabiy muhiti ko‘rgazma zallari zamon talabi asosida rejali tematik-ekspozitsion reja asosida jihozlandi.

Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi 2010-yil o‘zining 90 yillik yubileyini nishonladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yildagi № 68 Qarorini bajarish uchun O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari Vazirligi tomonidan “SKM-muzey” Dasturi ishlab chiqilgani va 2013-yil oxiriga qadar 17 mingga yaqin eksponatlarni ilmiy pasportlari, suratlari ilmiy xodimlar tomonidan talab darajasida tayyorlandi va mas’ul xodimlar tomonidan kompyuterga kiritilganini e’tirof etamiz. 2014-yili esa 3731 dona eksponatlarni SKM ga tushirib, kompyuterga tushirilgan eksponatlar sonini 18 057 donaga yetkazildi.

2016-yilda ham shu an’anani davom ettirgan holda viloyatimizning Pop, To‘raqo‘rg‘on, Mingbuloq, Yangiqo‘rg‘on, Uchqo‘rg‘on, Chust, Namangan, Chortoq tumanlarida ko‘chma ko‘rgazmalari tashkil etildi. Unda “Muzey tarixiy yodgorliklar maskani”, “Mustaqillik – milliy g‘ururimiz”, “Farzand tarbiyasida muzeylarni o‘rni”, “Ajdodlar merosi maskani” kabi mavzularda muzey, viloyat tarixi, tabiati, etnografiyasi, san’atini ifodalovchi eksponatlar mavjud. Viloyatimiz tabiati, tarixi, etnografiyasi, san’ati va madaniyati, hunarmandchiligi va boshqa jihatlarni o‘zaro bog‘liq o‘rganish, istiqlol yillaridan oldin ta’qiqlangan mavzular: milliy o‘zlikni anglash, tasavvuf kabi ko‘plab mavzularda tadqiqot olib borish imkoniyati vujudga keldi. O‘lka tarixiga oid muzey ko‘rgazma zallarida va muzey xazina fondida 66827 ta eksponatlar mavjuddir [13, – B. 38].

2012-yil 27-mart O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari A.Aripov tasdiqlagan bayonnoma qaroriga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida 18-may “Xalqaro muzeylar kuni“ ning 35 yilligini keng nishonlash rejalashtirilgan va Namangan viloyat hokimligida ham bu to‘g’rida Dasturi ishlab chiqildi va 21- aprelda tasdiqlandi.

2012-yil 18-may kuni “Muzeylar xalq tarixi ko‘zgusidir“ mavzusida Namangan viloyatidagi barcha muzeylarni jamlagan holda festival tashkil etildi. Bu festivalda Farg’ona, Andijon muzeylari rahbarlari ham ishtirok etishdi [14].

Hozirgi kunda Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyida jami 47 023 dona eksponat mavjud bo‘lib, shundan 355 ta rassomchilik, 15 288 ta foto – suratlar, 27 ta haykaltaroshlik, 7445 ta arxeologik, 7093 ta numizmatik, 3367 ta etnografik, 11 140 hujjatlar 2308 tasi boshqa buyumlarni tashkil etadi. Muzeyda 4 ta bo‘lim, 3 ta sektor bo‘lib, Xazina, Adabiyot va san’at, Tabiat, tarix bo‘limlari bo‘lsa, Mustaqillik, san’at, ma’naviyat sektorlaridir va ular o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha faoliyat yuritadi. 2012-yil 1-may holatiga kelib muzeyda 57 shtat birligi mavjuddir.

Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyida bugungi kunda 57 ta xodim bo‘lib, shulardan 23 tasi ilmiy xodimlardir.

Ilmiy fond ishlari: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 12-apreldagi O‘zbekiston Respublikasining “Muzeylar to‘g‘risida” gi qonunini ro‘yobga chiqarish uchun zarur bo‘lgan normativ – huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida”gi 68-sonli qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari Vazirligi tasarrufidagi sertifikatsiya va kompyuterlashtirish markazi hamda muzeylarni qo‘llab-quvvatlash Respublika “O‘zbekmuzey” jamg‘armasi mutaxassislari tomonidan “SKM – muzey” hamda “SKM – GID” dasturi ishlab chiqilgan edi. Bu dastur asosida muzey ashyolarini hisobga olish va boshqarishni avtomatlashtirish tizimiga o‘tilgan edi.

“SKM – muzey” dasturining asosiy vazifasi Respublikamizdagi barcha muzeylar fondidagi eksponatlar harakatini nazoratga olish, mahalliy va xorijiy ko‘rgazmalarni o‘tkazish jarayoniniyengillatish hamda “SKM – GID” dasturi orqali sensorli kiosklar yordamida fond zaxira xonalaridagi eksponatlar haqida qo‘shimcha ma’lumotlar berishdan iborat.

Davlat katalogini yaratish jarayoni mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan muzeylarga toifa berish, muzey ashyolari va kolleksiyalarini qayta ro‘yxatdan o‘tkazish, muzey xodimlarini malakasini oshirish tadbirlarini o‘z ichiga oladi.

Hisobot yilida jami ilmiy xodimlar tomonidan 2536 dona eksponatlarga ilmiy pasportlar yozilgan. Fonddagi “hujjatlar” va “Arxeologiya” bo‘limlariga tegishli eksponatlar talab darajasida suratga oldirilmoqda. Yil davomida “SKM – muzey” dasturiga tushirish ishlari davom etdi va 3731 dona eksponat “SKM – muzey” dasturiga kiritildi. Hozirga qadar dasturga tushirilgan eksponatlar soni 18057 donani tashkil etadi.Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyida haqida, undagi o‘zgarish va yangiliklar, tarixi, ko‘rgazma zallari haqida internetda ham ma’lumot olish uchun muzey shaxsiy sayti www.nammuzey.uz nomi ostida yaratilgan.

Muzeyda o‘tadigan tadbirlarni qiziqarli o‘tkazish va tashrif buyuruvchilarni jalb etish uchun yangiliklardan tashqari maxsus voqealarni tashkil qilishga harakat qilishmoqda. Maxsus voqea muzey va uning atrofidagi zerikarli, ko‘nikilgan hayot maromini buzishi, jamoatchilik uchun voqeaga aylanishi lozim. Masalan, taqdimotlar, ochilishmarosimlari, ochiq eshiklar kuni, yubileylar, konferensiyalar, davra suhbatlari, uchrashuvlar va hokazo. Albatta har bir shunday tadbirlarda ommaviy axborot vositalari va keng jamoatchilik ham ishtirok etadi. Maxsus voqea esa olingan taassurotlarni bevosita ifodalash, erkin fikr almashish, yangi hamkorlik topish va bir vaqtning o‘zida

reklama qilish imkoniyatidir. Muzey jamoasining sa'yi-harakatlari va samarali mehnatlari tufayli 1998-yildan boshlab 1-toifali, 2017-yildan oliy toifali muzeylar qatoridan o'rin oldi [15]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrdagi "2017 – 2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida" gi 975-sonli Qaroriga muvofiq Namangan viloyati o'lkani o'rganish muzeyining nomi Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyiga almashtirildi [16].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations):

Xulosa qilib aytganda, Namangan viloyati o'lkashunoslik muzeyi viloyat aholisining ma'naviy olamini boyitish bilan bir qatorda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda asosiy vosita vazifasini o'tamoqda.

Foydalanilgan manbaa va adabiyotlar ro'yxati.

1. ЎзР МДА, Р.394-фонд, 3-рўйхат, 2-иш, 181-182-варақлар.
2. Haydarov Z. U. Namangan viloyatining sovet davri va mustaqillik yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tarixi: qiyosiy tahlil: Tarix fanlari nomzodi. ilmiy dar. olish uchun yozilgan diss. Avtorefarati. – Toshkent, 2007. – B. 18.
3. Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi joriy arxividan.
4. Мирзалиев Э. Наманган вилоят ўлкани ўрганиш музейи: кеча ва бугун. – Фарғона, 2010. – Б. 11-12.
5. Гласс Ю. И., Ланда Л. М. Музеи Узбекистана. – Ташкент, 1961. – С. 58.
6. Turdiyev B. I. Yoshlarni milliy qadriyatlarga xurmat ruhida tarbiyalashda muzeylarning o'rni(Namangan viloyati o'lkashunoslik muzeyi misolida). Bitiruv malakaviy ishi. – Namangan, 2014. – B. 21.
7. Наманган вилоят ўлкани ўрганиш музейининг 2006 йил йиллик ҳисоботидан. – Namangan, 2006.– Б. 12.
8. НВДА, 796-фонд. 1-рўйхат, 45-иш, 9-варақ.
9. Мирзалиев Э. Наманган вилоят ўлкани ўрганиш музейи: кеча ва бугун. – Фарғона, 2010. – Б. 15-16.
10. Axmadaliyeva L. O'lmas yodgorliklar maskani. // Ta'lim va tafakkur. 2006. - №3. – B. 20-21.
11. Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi joriy arxividan.
12. Мирзалиев Е. Наманган маданияти тарихидан лавхалар. – Наманган, 1994. – Б. 78.
13. Мирзалиев Э. Наманган вилоят ўлкани ўрганиш музейи: кеча ва бугун. – Фарғона, 2010. – Б. 38.
14. www.nammuzey.uz.
15. Namangan viloyati tarixi va madaniyati tarixi davlat muzeyi joriy arxividan.
16. Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11 dekabr " 2017-2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida " gi 975 – sonli Qarori / Lex.uz

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Doniyor BAXRANOV,
Fan va texnologiyalar universiteti
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Taqrizchi: tarix fanlari doktori,
dotsent I.Ostonaqulov

Received 4th Janvier 2025, Accepted 10th Janvier 2025, Online 11th Janvier 2025

JAHON TARIXI DOIRASIDA O‘ZBEKISTON VA LITVA MUNOSABATLARINI O‘RGANISH

Annotatsiya: Maqolada jahon ijtimoiy tarixi kontekstida O‘zbekiston bilan Litva davlati o‘rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hamkorlikning XXI asr birinchi choragi tarixi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: : O‘zbekiston, Litva, savdo-iqtisodiy hamkorlik, xo‘jalik aloqalari, iqtisodiy va madaniy hamkorlik, transport, qishloq xo‘jaligi, yonilg‘i sanoati, oziq-ovqat va yengil sanoat, meva va sabzavot konservasi, ip gaz-lama, mashina, asbob-uskuna, sut, go‘sht va baliq mahsulotlari, sariyog‘, "Inkaras" aksiyadorlik jamiyati.

ИЗУЧЕНИЕ ОТНОШЕНИЙ УЗБЕКИСТАНА И ЛИТВИ В РАМКАХ ВСЕМИРНОЙ ИСТОРИИ

Аннотация. В стате описивается история экономического, социалного и культурного сотрудничества Узбекистана и Литви в первой четверти XXI века в контексте мировой социалной истории.

Ключевые слова: Узбекистан, Литва, торгово-экономическое сотрудничество, экономические отношения, экономическое и культурное сотрудничество, транспорт, селское хозяйство, топливная промишленност, пишевая и легкая промишленност, плодоовошное консервирование, газ, машини, оборудование, молоко, мясная и рибная продукция, сливочное масло, АО "Инкарас".

STUDYING RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND LITHUANIA WITHIN THE FRAMEWORK OF WORLD HISTORY

Annotation. The article describes the history of economic, social and cultural cooperation between Uzbekistan and Lithuania in the first quarter of the 21st century in the context of world social history.

Key words: Uzbekistan, Lithuania, trade and economic cooperation, economic relations, economic and cultural cooperation, transport, agriculture, fuel industry, food and light industry, fruit and vegetable canning, gas, machinery, equipment, milk, meat and fish products, cream oil, JSC "Inkaras".

Kirish (Introduction)

O‘bekistonning Litva bilan do‘stligi asosan Sho‘ro davrida shakllangan. Litva Respublikasi Sharqiy Yevropada, Boltiq, dengizi bo‘yida joylashgan davlat. Mayd. 65,2 ming km2. Aholisi 4 mln.dan ortiq (2024). Poytaxti – Vilnyus shahri. Ma’muriy jihatdan 44 tuman (rajonas)ga bo‘linadi. Litva mustaqil demokratik respublika. Amaldagi konstitusiyasi 1992 yili qabul qilingan (1996 yili o‘zgartishlar kiritilgan). Davlat boshlig‘i – prezident. U umumiy teng va to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan 5 yil muddatga saylanadi. Qonun chiqaruvchi oliy organi “seym” deb nomlanadi. Bir palatali parlament. Ijroiya hokimiyatni hukumat amalga oshiradi. [1]

Litva hududi Sharqiy Yevropa tekisligida, Boltiq dengizining janubiy-sharqiy sohillarida, Nyamunas (Neman) daryosining o‘rta va quyi oqimi havzalarida joylashgan. Yer yuzasi pasttekislik va qirlardan iborat. Markazida O‘rta Litva pasttekisligi joylashgan. Sharqi va jan.da Boltiq qator tepalari bo‘lib, Litva hududida Z qirga bo‘linadi. Dengiz sohilida qum tepa va plyajlar ko‘p. Litvada neft, ohaktosh, dolomit, shisha qumlari, gil, torf, bo‘r, gips, kahrabo va shifobaxsh buloklar bor. Buloqlar atrofida kurortlar barpo etilgan. Litvada dengiz iqlimi kontinental iqlim bilan almashinib turadi. Daryolari Boltiq dengizi havzasiga mansub. Ko‘llar baliqchilik va suv parrandachiligida foydalaniladi. Hududining 17% yaylov va o‘tloq; 7% ga yaqini botqoqlik. [2]

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Litva tarixiga oid adabiyotlar rus tilida juda ko‘p. Litva tarixi mahalliy mualliflar tomonidan turli davrlarda, turli munosabatlarda qayta-qayta yozilgan[1]. Mazkur tadqiqotlar Litva tarixi, siyosiy hayoti to‘g‘risida yetarli ma’lumotlarni beradi. Ammo Litvaning Markaziy Osiyo davlatlari, xususan O‘zbekiston bilan aloqalari tarixiga oid ma’lumotlar juda kamdir. Bu mavzu asosan, har ikki mamlakat mustaqillikni qo‘lga kiritgandan keyin yoritila boshlandi[2].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Tadqiqot tarixiylik, qiyosiy tahlil va sivilizatsion metod asosida yozildi. O‘zbekistonning tashqi siyosati uchun ustivor bo‘lgan milliy istiqlol g‘oyasi tadqiqotning ilmiy asosi bo‘lib xizmat qildi.

Asosiy tahlil va natijalar (Results and analyses)

1795 yili Litva yerlari Prussiya, Avstriya, Rossiya o‘rtasida bo‘linib ketdi. Litva Rossiyaga qo‘shildi. 19-asr ikkinchi yarmida podsho hukumati zulmi ostida Litvada millatchilik siyosatini

[1] Барановский В., Поташенко Г. Староверие Балтии и Польши: краткий исторический и биографический словарь. Вильнюс, 2005.; Великие князья Литовские. / сост. в. спечюнас; пер. с лит. В. Пахомова. Вильнюс, 2006.; Гудавичюс Э. История Литвы с древнейших времен до 1569 г. / пер. С лит. Г. Ефремова. Москва, 2005.

[2] Aholisining 81% litvalar, shuningdek, ruslar, polyaklar, beloruslar ham yashaydi. Rasmiy til – litva tili. Dindorlarning aksariyati – katolik. Shahar aholisi 68,5%. Yirik shaharlari: Vilnyus, Kaunas, Klaypeda, Shyaulay. Litva katta tarixga ega mamlakat. 1240 yili Buyuk Litva knyazligi vujudga keldi. 13-asrdan Litvaga nemis ritsarlarining bosqinchilik yurishlari boshlandi. XIII-asr o‘rtalarida rus yerlarining feodal tarqoqligidan foydalanib, Litva knyazlari belorus, ukrain, rus yerlarini qo‘shib oldi. Gedimin, Olgerd va Keystut knyazliklari davrida Buyuk Litva knyazligi ancha kengaydi. XIV-asr o‘rtalarida Minsk, Sharqiy Volin, Podolye, Kiyev Litvaga ko‘shildi. Bu davrga kelib Litva Sharqiy Yevropada eng yirik davlatga aylandi. Ichki va tashqi kurash sharoitida Litva Polsha bilan Krevo ittifoqini tuzdi. XIV-asr ikkinchi yarmidan shaharlarda hunarmandchilik, kulolchilik, oyna ishlab chiqari, zargarlik rivoj topdi. Kaunas, Trakay kabi shaharlarda qasrlar qurildi. XV-asr o‘rtalarida Buyuk knyazlar kengashi asta-sekin Panlar radasiga aylandi. XVI-asrdan Panlar radasi va seym davlat hokimiyatining asosiy organlari bo‘lib qoldi.

kuchaydi. O‘lkada milliy ozodlik harakati boshlandi. 1888-yili Vilnyusda Litva kasaba uyushma harakatiga asos solgan O‘zaro yordam kassasi va Litva sotsial-demokratiyasi tashkil topdi. Birinchi jahon urushi yillarida Litva hududi harbiy harakatlar maydoniga aylandi. 1915-yil kuzida Litva hududini Germaniya qo‘shinlari bosib oldi. 1918-yil 16-fevalda Litva davlatining mustaqilligi e’lon qilindi. 1918-yilning dekabrida Litva hududining katta qismida sho‘ro hokimiyati o‘rnatildi. 1919-yili Litva-Belorussiya sho‘ro respublikasi e’lon qilindi. [3]

1920-yili Litva bilan RSFSR o‘rtasida imzolangan shartnomaga muvofiq, sho‘ro hukumati Litva mustaqilligini tan oldi. 1940-yili iyunda Litva hududiga sho‘ro qo‘shinlari kiritildi. 1940-yili iyul oyida Xalq Seymiga saylovlar bo‘lib o‘tdi. 1940-yili 21 iyulda Litva sho‘ro respublikasi e’lon qilindi. 1941-yili Litvani nemis-fashist qo‘shinlari bosib oldi, 1945-yili sho‘ro armiyasi tomonidan ozod qilindi. 1990-yilgacha Litva Sovet Ittifoqi tarkibida bo‘ldi. 1990-yil mayda Litva Oliy Kengashi Litvaning davlat mustaqilligi haqidagi deklaratsiyani qabul qildi. Litva 1991-yildan BMT a’zosi. 1992-yil 5-avgustda O‘zekiston Respublikasi bilan diplomatiya munosabatlari o‘rnatdi. Litva industrial-agrar mamlakat. Yalpi milliy mahsulotda sanoatning ulushi – 51,2%, qishloq xhjaligi ulushi – 24,7%. Sanoatning asosiy tarmoqlari – mashinasozlik va metall ishlash, yog‘ochsozlik, kimyo va neft kimyosi sanoati, binokorlik materiallari, to‘qimachilik va oziq-ovqat, neftni qayta ishlash sanoati. Energetika xo‘jaligida gidroenergiya va torf ikkilamchi ahamiyatga ega. Litva issiklik elektr stansiyasi va Vilnyus issiqlik elektr markazi keltirilgan gaz, mazut, ko‘mir bilan ishlaydi.

Shyaulyayda velosiped, moped dvigatellari, Panevejisda avto-kompressorlar ishlab chikariladi. Panevejisda yirik oyna zavodi deraza oynasi va oyna bloklari ishlab chiqaradi. Qog‘oz sanoatining asosiy markazlari – Kaunas, Grigishkes. Kaunasdagi qog‘oz fabrikasi yuqori sifatli qog‘oz, Klaypeda, Grigishkes, Pabradada karton, Klaypedada sellyuloza va faner, Kaunasda gugurt, Klaypeda, Vilnyus, Grigishkes, Kazlu-Rudada yog‘och plitalar ishlab chiqariladi. Yengil sanoatda to‘qimachilik va trikotaj, tikuvchilik, poyabzal tarmoqlari rivojlangan. Go‘sht, sut, baliq sanoati rivojlangan. Klaypeda – baliq ovlash va baliq, sanoati markazi. Baliq Boltiq, Barens dengizlaridan va Atlantika okeanidan ovlanadi. Qand-shakar, un, konditer, spirt-araq, pivo sanoati hamda meva va sabzavotni qayta ishlash, o‘simlik moyi olish rivojlangan.[4]

O‘rta maktab darsliklarida hamda oliy ta’lim dasturlarida O‘zbekistonning Boltiq bo‘yi respublikalari bilan o‘rtasidagi aloqalar tarixi juda kam o‘rganilgan deyish mumkin. Bu tarixga oid materillarni asosan O‘zbekiston va Litva davlatlari tashqi ishlar vazirligi matbuot xizmati saytlardan topish mumkin. Undan tashqari “Dunyo” axborot agentiligi xabarlari orasida O‘zbekistonning Litva bilan aloqasiga tegishli materiallar ham mavjud. Ularda keltirilgan iqtisodiy, ijtimoiy fakt va raqamlarni tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilish tarix fani uchun dolzarb sanaladi. Bu maqolada O‘zbekiston bilan Litva o‘rtasidagi munosabatlarning mustaqillik yillaridagi tarixini ko‘rib chiqamiz. O‘zbekiston bilan Litva davlati munosabatlari sobiq sho‘ro davrida tor doirada rivojlanib kelgan bo‘lsa, mustaqillik munosabati bilan butunlay yangi sharoitda davom etdi. O‘zbekiston Respublikasi bilan Litva Respublikasi o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar 1995 yilda imzolangan savdo-iqtisodiy hamkorlik haqidagi bitimga asoslanib olib borilmoqda. [5]

Shu bitimga binoan, ikkala mamlakat savdo-sotiqda bir-biriga ko‘p qulaylik yaratib berish va bevosita xo‘jalik aloqalari o‘rnatish ko‘zda tutilgan. Natijada mamlakatlar o‘rtasidagi tovar aylanmasi 1994-yildagi 23,692 mln. AQSH dollaridan 2001-yilda 29,9 mln. dollarga yetdi. Litva

prezidentining 1997-yil fevraldagi O‘zbekiston Respublikasiga tashrifi chog‘ida ikki tomonlama savdo-iqtisodiy munosabatlarni yanada chuqurlashtirish haqida kelishib olindi. 2002-yil sentabrdan boshlab ikki mamlakat o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratildi va bir qancha muhim shartnomalar imzolandi. Jumladan, transport, qishloq xo‘jaligi, yonilg‘i sanoati, oziq-ovqat va yengil sanoat sohalarida hamkorlik qilinadigan bo‘ldi.

Shu vaqtdan boshlab O‘zbekiston-Litva savdo-iqgisodiy hamkorlik hukumatlararo komissiyasi ish boshladi. O‘zbekiston Respublikasidan Litvaga paxta tolasi, neft va neft mahsulotlari, rangli metall, tomat mahsuloti, meva va sabzavot konservasi, o‘g‘it, ip gazlama, qimmatbaho toshdan yasalgan mahsulotlar yuborib turiladi. Litvadan O‘zbekistonga esa mashina, asbob-uskuna, sut, go‘sht va baliq mahsulotlari, qand-shakar va qandolat, yog‘och va mebel, trikotaj, poyabzal va bosh kiyimlar, sariyog‘ va o‘simlik yog‘i kabilar yuboriladi.[6]

Davlatlar o‘rtasida imzolangan shartnomalar ko‘p o‘tmay o‘z samarasini bera boshladi. Bozor iqtisodi sharoitida “O‘zbekiston-Litva” ishbilarmonlar hamkorligi kengashi tashkil etildi. Mamlakat elchixonasi ko‘magida O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi delegatsiyasining Litvaga tashrifi tashkil etildi. "Dunyo" xabariga ko‘ra, tashrif doirasida Vilnyus shahrida "O‘zbekiston-Litva" ishbilarmonlar hamkorligi kengashini tashkil etish to‘g‘risidagi bitim imzolandi va yangi tashkil etilgan platformaning birinchi majlisi bo‘lib o‘tdi.

Tashrif doirasida O‘zbekiston va Litva ishbilarmon doira vakillari va kompaniyalari rahbarlari ishtirokida biznes-forum bo‘lib o‘tdi. Bundan tashqari ikki mamlakat biznes vakillari o‘rtasida B2B shaklida muzokaralar uyushtirildi. Bo‘lib o‘tgan muzokaralar natijasida O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan keng turdagi to‘qimachilik, meva-sabzavot, kimyo mahsulotlari, kimyoviy o‘g‘itlar va metall prokatini Litvaga yetkazib berish bo‘yicha 30 million AQSH dollariga teng eksport shartnomalari imzolandi. O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi hamda Litva tadbirkorlari bilan teng ulish asosida Klaypeda shahrida o‘zbek savdo uyini tashkil etish masalasi kelishib olindi. Ushbu savdo uyi O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni Litva va YEI davlatlari uchun eksport qilish imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi. [7]

"O‘zbeksavdo" tashkilotlari Litvadagi "Avokado", "Vekta", "Klaypedos Balday prekiba", "Liora", "Inkaras" singari aksiyadorlik jamiyatlaridan sovitkichlar, mebel, ro‘zg‘or asboblari, kiyim-kechak, poyabzal, attorlik buyumlari, zig‘ir tolasidan to‘qilgan gazlama, deraza parda, mo‘ynali bosh kiyimlar oladi. Yuk tashish sohasidagi hamkorlik O‘zbekiston Respublikasi uchun ayniqsa ahmiyatlidir. Klaypeda portidan o‘zbek tovarlari Germaniya, Polsha, Niderlandiya, Belgiya, Shvetsiya, Finlandiya, Daniya va Fransiyaga yuboriladi. "O‘zbekmebel" davlat aksiyadorlik jamiyati "Audeyas", "Avokado" korxonalari bilan tuzgan shartnomalarga binoan, yuqori sifatli mebelbop gazlama, yog‘och tolali plitalar va yelim oladi. O‘zbekiston Respublikasida litvalik sarmoyadorlar ishtirokida tashkil etilgan 22 qo‘shma korxona faoliyat ko‘rsatmoqda. Litva Sanoatchilar konfederatsiyasi ikki mamlakat o‘rtasida savdo-iqtisodiy, transport, logistika, "yashil" energiya, qishloq xo‘jaligi va boshqa manfaatdor sohalarda o‘zaro hamkorlik aloqalarini olib bormoqda. Litva transport va kommunikatsiya vazirligi e’tirofiga ko‘ra, O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng katta iqtisodiy salohiyatga ega bo‘lgan davlat sanaladi.

Madaniy hamkorlik sohasida ham katta ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1992-yil Toshkentda tuzilgan Litva madaniyati jamiyati, 1994-yil Vilnyusda tuzilgan o‘zbek milliy jamiyati samarali ish olib borayotir, ikkala xalqning madaniy merosini saqlash va targ‘ib qilishga, tilini o‘rganish va adabiy asarlarini tarjima qilib nashr etishga hissa qo‘shayotir.[8]

Siyosiy maydonda ham bu ikki mamlakat o‘rtasidagi aloqalar yildan yilga rivojlanib bormoqda. O‘zbekiston va Litva parlamentlari orasidagi hamkorlik ham kengaymoqda. Jumladan, Litva Seymi spikerining o‘rinbosari boshchiligidagi delegatsiya amaliy ish yuzasidan O‘zbekistonda mehmon bo‘ldi. Delegatsiya a’zolari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining o‘rinbosari bilan uchrashdi. Bu o‘z navbatida O‘zbekistonda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiy sohalarni modernizatsiya qilishda parlament va siyosiy partiyalarning rolini yana-da kuchaytirish maqsadlariga xizmat qildi. Litvalik parlament a’zolari O‘zbekiston Qonunchiligidagi yangiliklar, sud-huquq tizimini isloh qilish, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish, ekologik barqarorlikni ta’minlash yo‘nalishlarida olib borilayotgan ishlarga yuqori baho berdilar. Ayni paytda O‘zbekiston bilan Litva o‘rtasida 33 ta hujjat imzolangan bo‘lib, ular ikki mamlakat aloqalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Parlamentlararo hamkorlik o‘z ichiga savdo, investitsiya, sog‘liqni saqlash, innovatsiya va ta’lim sohalaridagi hamkorlikni mustahkamlashni ham qamrab oladi. Xullas, 2013-yildan beri Litva Seymida tashkil etilgan O‘zbekiston bilan hamkorlik bo‘yicha parlamentlararo guruh hamda Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Litva parlamenti bilan hamkorlik bo‘yicha guruh faoliyati sezilarli natijalarga erishdi.[9]

“Ta’lim va karera” xalqaro ko‘rgazmasida Litva va O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlari o‘rtasida memorandumlar imzolangan. Istiqbolda ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida ham o‘zaro aloqalarni kengaytirish rejalari bor. Uchrashuvlarda savdo-iqtisodiy munosabatlarni yangi bosqichga yuqoriga ko‘tarish, madaniy-gumanitar va parlamentlararo aloqalarni mustahkamlashda ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlikni ta’minlash masalalari ham muhokama etilgan. Litvalik mutaxassislar O‘zbekistoning bir qator vazirlik va idoralarida ikki tomonlama manfaatli shartnomlarni ham qabul qilishda qatnashdilar. Shu kungacha Vilnyusda O‘zbekiston-Litva iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo komissiyasining to‘rtta yig‘ilishi bo‘lib o‘tgan.

Litva tomonining ma’lum qilishicha, 2012-yili ikkitomonlama tovar ayirboshlash 57% ga o‘sgan va 40,6 mln. yevroni tashkil etgan. 2013-yilning yanvar-aprel oyilarida esa 2012-yilning shu davri bilan taqqoslaganda o‘sish 3 barobarga ortgan. Kelgusida axborot texnologiyalari, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoati, qurilish materialari ishlab chiqarish, transport va tibbiyot xizmati sohasidagi Litva kompaniyalarining O‘zbekiston bilan hamkorlik qilishi kuchayadi.

O‘zbekiston Litva bilan transport sohasida hamkorlik qilishdan manfaatdor. Masalan, O‘zbekistonga strategik ahamiyatga ega bo‘lgan Klayped porti va Sharq-G‘arb yo‘lagida yuklarni tashish uchun Litva transport va logistika infrastrukturasidan foydalanishni taklif qilingan. Bu ish ko‘p yillardan beri o‘z natijalarini berib kelmoqda.

O‘zbekiston Litva bilan sport sohasini rivojlantirish bo‘yicha ham hamkorlik qilib kelmoqda. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti va Litva sport universiteti rahbariyatlari o‘rtasida onlayn uchrashuv bo‘lib o‘tganligi matbuotda e’lon qilingan. Onlayn uchrashuvda Litva sport universitetidan universitet rektori professor Diana Reklaiteine va universitet yuristi Saulius

Valasevicius ishtirok etgan edi. Mazkur uchrashuvda O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti rahbariyatidan universitet rektori, professor Mahmudjon Boltabayev, ilmiy ishlar va innovaciyalar bo‘yicha prorektor Kamil Bayazitov, Xalqaro hamkorlik bo‘limi boshlig‘i Shuxrat Toshturdiyev va O‘zbek - Belarus qo‘shma jismoniy tarbiya, sport va turizm fakulteti dekani Gulsara Asatova qatnashdi. Mazkur onlayn uchrashuvdan ko‘zlangan maqsad ikki universitet o‘rtasida umumiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha shartnomalar imzolashdan iborat bo‘lib, tomonlar turli yo‘nalishlar bo‘yicha hamkorlik qilish borasida muzokara olib bordilar. Bular asosan, universitetlar o‘rtasida talabalarning akademik almashinuvi joriy etish, shuningdek professor-o‘qituvchilarning malakasini oshirish bo‘yicha bir nechta takliflar ilgari surildi.

Litva sport universitet jismoniy tarbiya va sport sohasidagi o‘quv dasturlarini taqdim etadigan mutaxassislik oliy o‘quv yurti hisoblanadi. Bugungi kunda bu yerda mahalliy va dunyoning turli burchaklaridan 1500 dan ortiq talaba tahsil oladi. Universitet Litvadagi eng katta jismoniy tarbiya va sport fanlari markazi bo‘lib, mamlakatning sport qadriyatlari va an’analarini qo‘llab-quvvatlaydi. Universitet bitiruvchilari orasida ko‘plab taniqli olimlar, dunyoga mashhur murabbiylar, taniqli sportchilar, taniqli jamoat arboblari bor. Bir qator bitiruvchilari Olimpiya chempionlari, jahon va Yevropa chempionlari hisoblanishadi.[10]

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

O‘zbekiston dengiz transportidan foydalanish uchun Boltiqbo‘yi respublikalari bilan hamkorlik qilishga doimo intilib keladi. Bu masalada Latviya va Estoniyaga qaraganda Litva bilan aloqalar juda samarali deyishga barcha asoslarimiz bor. Bundan tashqari Litva Markaziy Osiyo davlatlari bilan hakorlik qilishda ko‘proq O‘zbekistona qiziqadi. Negaki, O‘zbekiston mahsulotlar Litva mahsulotlari bilan tovar ayirboshlashga juda mos keladi.

Har bir mamlakat o‘zida yo‘q mahsulot qaysi mamlakatda bo‘lsa o‘z mahsulotini u yerda mavjud bo‘lmagan tovarga ayirboshlashni istaydi. O‘zbekiston va Litva hamkorligi shu jihatdan bir biriga foydalidir. Bundan tashqari litva xalqi bilan o‘zbek xalqi o‘rtasida milliy va diniy muammo bo‘lmagan. Litva Bu esa o‘zaro iqtisodiy hamkorlikni emin-erkin rivojlantirishga keng yo‘l ochadi. Ayni kunlarda o‘zbek migrantlari Yevropaga Litva orqali chiqish imkoniga ham egadir. Bu o‘z navbatida ikki do‘st mamlakat hukumatlari o‘rtasidagi sherikchilikning yanada mustahkamlanishiga ko‘mak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

[1]. Эйдентас А. И др. История Литвы. Вильнус. 2013. 318 с.
[2]. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Barcha to‘plamlari (A.B,.. Y.) “L” harfi.
[3]. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Barcha to‘plamlari (A.B,.. Y.) “L” harfi.
[4]. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Barcha to‘plamlari (A.B,.. Y.) “L” harfi.
[5]. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Barcha to‘plamlari (A.B,.. Y.) “L” harfi.
[6]. https.// uz.wikipedia.org.
[7]. Kun/uz. 2024. 10.05.
[8]. Oid.gov.uz.
[9]. Zamin.uz. 2023. 31.05.
[10]. Yangi O‘zbekiston. https.// www.yuz.uz

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Jalilov Ixtiyor G‘aniyevich
Axborot texnologiyalari va menejment
Universiteti Tarix kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD)

Taqrizchi- s.f.d.,dots. M.Musayev

Received 4th Janvier 2025, Accepted 10th Janvier 2025, Online 24th Janvier 2025

QASHQADARYO VILOYATI MAHALLALARIDAGI IJTIMOIY-IQTISODIY ISLOHOTLAR: BA’ZI CHIZGILAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qashqadaryo mahallalarida istiqlol davrida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bayon etilgan. Shuningdek, maqolada Qashqadaryo viloyatining geografik joylashuvi, etnodemografik holati va voxaning o‘ziga xos farqlanib turuvchi xususiyatlari to‘g‘risidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Qashqadaryo viloyati, mahalla, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, istiqlol davri, kichik bizness, eksport,aholi bandligi, oilaviy tadbirkorlik, ishlab chiqarishga ixtisoslashuv.

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ РЕФОРМЫ В МАХАЛЛЯХ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ: НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ

Аннотация. В данной статье описываются социально-экономические реформы, проводимые в районах Кашкадарьинской области в период независимости. Также научно анализируются географическое положение Кашкадарьинской области, ее этнодемографическая ситуация, уникальные отличительные черты региона.

Ключевые слова: Узбекистан, Кашкадарьинская область, махалля, социально-экономические реформы, период независимости, малый бизнес, экспорт, занятость, семейное предпринимательство, специализация производства.

SOCIO-ECONOMIC REFORMS IN MAHALLAS OF KASHKADARYA PROVINCE: SOME ISSUES

Annotation. This article describes the socio-economic reforms carried out in the districts of Kashkadarya province during the period of independence. Also geographical position of Kashkadarya region, its ethno-demographic situation, unique distinctive features of the region are scientifically analysed.

Keywords: Uzbekistan, Kashkadarya province, mahalla, socio-economic reforms, independence period, small business, export, employment, family entrepreneurship, specialisation of production.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Kirish (Introduction). Qashqadaryo geografik joylashuvi, etnodemografik holati, geosiyosiy va geoiqtisodiy omillarga ko‘ra mamlakatimizning o‘ziga xos farqlanib turuvchi viloyatdir. Uning hududida joylashgan shahar va qishloqlar, ya’ni mahallalar ham bir-biridan ma’lum bir xususiyatlarga ko‘ra farqlanadi. Tadqiqotlar ushbu viloyatda o‘z navbatida aholining joylashuv xususiyatlarida ma’lum o‘ziga xosliklar mavjudligini tasdiqladi. O‘zbekistonda keyingi yillarda fuqarolar yig‘inlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida **1 ming 163 ta** mahalla idorasi yangidan qurildi, **3 ming 612 ta**si rekonstruksiya qilindi va ta’mirlandi**. 110 ta** tuman va shaharda **“Mahalla markazi”** majmualari barpo etildi, **4 ming 319 ta** mahalla binolarida kutubxonalar tashkil qilingan [1]; Ammo viloyatning ayrim tumanlaridagi mazkur masalada anchagina muammolar mavjudligi aniqlandi.

Shuningdek yana muhim muammolar qatorida turuvchi masala bu, viloyat aholisi, ayniqsa yoshlar bandligi bo‘lib, ularning ish bilan ta’minlanishi mahallalarning ijtimoiy ko‘rsatkichlarini qay darajada ekanligini anglatadi. Vaholanki, yoshlarning bandlik ko‘rsatkichlari respublikaning turli viloyatlarida turlicha bo‘lib, bu borada tadqiqotchi I. Bobojonovning yozishicha, 2018 yilning oktabr oyida Bandlik va Mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Respublika aholi bandligi va mehnatni muhofaza qilish ilmiy markazi mutaxassislari tomonidan mamlakatda ishsizlik darajasi va kambag‘allik holatlarini aniqlash maqsadida ijtimoiy so‘rov o‘tkazilgan.

Mazkur so‘rovnomada 66 ta shahar va tumanlardan 330 ta fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, 3300 nafar uy bekalari va 17 ming nafardan ortiq fuqarolar qatnashgan. So‘rovnoma natijasiga ko‘ra, Qashqadaryo viloyatida ishsizlik ko‘rsatkichi eng yuqori bo‘lib, u – 9,7 % ni tashkil qilgan. Ushbu ko‘rsatkich Toshkent shahrida eng past ko‘rsatkich – 7,9 %, ishga joylashish istagida bo‘lgan fuqarolar esa 1 368,6 kishini tashkil qilgan. Yoshlar orasida ishsizlik darajasi (30 yoshgacha) 15,1 %, 16-25 yosh atrofidagilar 17 % dan ortiq, ayollar orasida 12,9 % ni tashkil etgan [2, B.122];

Yuqoridagi ma’lumotlar asosida viloyat mahallalarida ishsizlik muammosining sabablarini quyidagi omillar bilan izohladik. Ular quyidagilardir:

Birinchidan, viloyat mahallalari aholisining aksariyat qismi qishloq joylarida istiqomat qilib, bu yerlarda aholini ish bilan ta’minlash, tadbirkorlikka jalb qilish bo‘yicha muammolarning yetarlicha ekanligidir;

Ikkinchidan, ayrim mahallalar markazdan uzoqda joylashgan bo‘lib, ularning joylashgan o‘rni va tabiiy sharoitining noqulayligidir;

Uchinchidan, aholining o‘sish darajasi va migratsiya jarayonlari ham muhim omillardan birib bo‘lib, viloyatda hamon tug‘ilishning yuqori darajada saqlanib qolishi ham bandlik muammosini keltirib chiqarmoqda.

To‘rtinchidan, aholining aksariyat ishsiz qatlami mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblar bo‘yicha talabga javob bermaganligi ham ta’sir ko‘rsatadi. Bunday holat Toshkent shahri mahallalarida ham ko‘zga tashlanadi [2, B.123];

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (literature review). Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha Muborak tumani respublikamizda eng oldingi o‘rinlarni egallab, aholining bunday tez o‘sishi nafaqat tabiiy ko‘payish, balki aholi migratsiyasi bilan ham bog‘liq bo‘lib, tabiiy resurslarni o‘zlashtirish natijasida bu yerga ko‘plab oilalar ko‘chib kelgan [3];

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Mahallada aholi bandligida hududning shakllanishi va rivojlanishida tabiiy- iqtisodiy hamda ijtimoiy omillar muhim rol o‘ynaydi. Viloyat mahallalarining shakllanishi va rivojlanishining asosini iqtisodiyot tarmoqlari orasida asosan qishloq xo‘jaligi va chorvachilik, qisman hunarmandchilik, tuman markazidagi va shahar mahallalarida sanoat tashkil qiladi. Bu jihatdan mahallalar uch toifaga bo‘linadi:

-aholisining asosiy qismi qishloq xo‘jaligi va chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi mahallalar;

- aholisining asosiy ko‘pchilligi qishloq xo‘jaligi bilan band mahallalar;

-aholisining katta qismi qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik bilan shug‘illanuvchi mahallalar;

-aholisining ko‘p qismi ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik va sanoat tarmoqlari bilan band mahallalar;

-aralash mahallalar. O‘z navbatida, qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan mahallalar bog‘dorchilik va uzumchilik, hunarmandchilik bilan shug‘ullanadigan mahallalardan tashkil topgan. Qishloq xo‘jaligi va chorvachilikka ixtisoslashgan mahallalarning maxsulot yetishtirish holati ham har xil. Nisbatan katta mahallalar sug‘orma dehqonchilik rivojlangan tumanlarda vujudga kelgan bo‘lib, chorvachilik bilan shug‘ullangan aholining yashash manzillari uncha katta emas.

Qashqadaryo viloyati mahallalarini ijtimoiy-demografik tavsifiga ko‘ra quyidagi toifalarga ajratishni lozim topdilib, unda mahallalarning katta-kichikligi bo‘yicha quyidagi guruhlarga ajratildi va o‘zgarishlar dinamikasini quyidagi ma’lumotlarda ko‘rish mumkin:

(4-jadval)



O‘zbekistonning ko‘plab boshqa hududlariga qaraganda, Qashqadaryo viloyatida mahallalari aholisining joylashuvida tog‘ va tog‘oldi hududlarida joylashgan kichik qishloq va ovullarning o‘rni anchagina sezilarli.

Fikrimizcha, Qashqadaryo viloyati sharoitida qishloq mahallalarini ularning tasnifidan kelib chiqib qisman optimallashtirish lozim. Ya’ni, bu hududda aholisi 500 nafar kishigacha bo‘lgan

mahallalarni aholi soni 100 nafar kishigacha, 101-200 nafar kishi, 201-300, 301-500 nafar kishidan iborat bo‘lgan mahallalarga birlashtirish o‘rinli. Bunday guruhlashtirish Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy-ijtimoiy va geografik xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Uni aholi zichligi yuqori bo‘lgan, qishloqlar tizimida yirik qishloqlar ko‘pchilikni tashkil qiladigan respublikamizning boshqa hududlari sharoitida qo‘llash maqsadga muvofiq emas. Umuman olganda, viloyatda mahallalar aholisining o‘sish sur’atlari borasida tumanlar darajasida farqlar katta. Bu avvalambor, aholining turmush tarzi, ularning bandligi, atrof-muhitning ta’siri, urbanizatsiya darajasi va boshqa omillar bilan bog‘liq.

Qashqadaryo viloyati mahallalari umumiy tavsifida vohaning o‘ziga xos tabiiy sharoiti va joylashuv xususiyatlari e’tiborga molik bo‘lib, unga ko‘ra oilaviy tadbirkorlik va kasanachilikda o‘ziga xos etnomuhit shakllangan. Xususan, mazkur sohalarning rivoji natijasida har ikkala viloyatda ham o‘ziga xos an’ana shakllanganligini e’tiborga olib, kelajakda ushbu sohalar rivojiga alohida e’tibor qaratish muhim hisoblanadi.

Viloyat misolida oilaviy tadbirkorlikda Kitob tumanidagi “Voha mash’ali” kichik korxonasi, Chiroqchi tumanidagi gilamdo‘zlik korxonasi, Qarshi shahri, G‘uzor, Kitob, Shahrisabz, Chiroqchi, Qamashi va Muborak tumanlari bo‘limlarida ro‘yxatdan o‘tgan 600 nafardan ortiq hunarmand faoliyat olib borib, viloyatda hunarmandchilikning zargarlik, milliy cholg‘u asboblari yasash, chokli buyumlar, kashtachilik, zardo‘zlik va biser tikish ustaxonlari tashkil etilgan [4, B.201-202]; Bu esa mazkur viloyatda azaldan an’anaviy xalq hunarmandchiligi turlariga alohida e’tibor qaratilganligini tasdiqlaydi.

Lekin viloyat mahallalarida sohada amalga oshirilgan ishlar qatorida muammo va kamchiliklar ham mavjud. Xususan, yirik sanoat salohiyatiga ega viloyatda import tovarlarining ulushi yuqori darajada saqlanib qolgan. Ichki bozorning mahalliy mahsulotlarga ehtiyoji o‘rganilmagan. Tayyor kiyim-kechak, charm ishlab chiqaruvchi korxonalar imkoniyatlaridan samarli foydalanish yo‘lga qo‘yilmagan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). 2012 yilgacha bo‘lgan davrda viloyatda talab yuqori bo‘lgan mahalliy mahsulotlar bilan viloyat ichki bozori past darajada ta’minlangan. Gipsokarton, turli xil gofrokarton, bir martalik idishlar, qog‘oz paketlar, qurilish va qishloq xo‘jaligi texnikalari butlovchi qismlari, tish yuvish pastasi va shampun, mix mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlari mavjud emas, bo‘lsa ham ular faoliyati hali talab darajasida emas. Xizmatlar sohasida 758 ta ta’mirlash, 1 078 ta veterinariya xizmati va go‘sht do‘konlari, 1 214 ta hammom va poyafzal tikish (ta’mirlash) xizmati, 1 319 ta kimyoviy tozalash (ximchistka) va maishiy jihozlarni ta’mirlash, 938 ta sartaroshxona va go‘zallik salonlari xizmatlariga aholi o‘rtasida ehtiyoj bo‘lishiga qaramasdan sohalarga tadbirkorlik subyektlari jalb qilinmagan edi [5, B.338].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Shu bilan birga mahallalarda aholi bandligi, ayniqsa yoshlar bandligini ta’minlash borasida kichik biznes, xususiy tadbirkorlik sohalari, qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan mahallalar, bog‘dorchilik va uzumchilik, hunarmandchilik bilan shug‘ullanadigan mahallalardan tashkil topganligini, bu viloyat mahallalarida an’anaviy hunamrandchilikning mainatqaga xos kashtachilik, gidamdo‘zlik, do‘ppido‘zlik, beshikchilik, qandolatchilik kabi sohalari shakllanganligi va rivojlanib kelayotganligini tasdiqladi. O‘z navbatida qishloq xo‘jaligi va chorvachilikka ixtisoslashgan mahallalarning (Chiroqchi, Dehqonobod, Ko‘kdala,

Yakkabog‘ tumanlari mahallalarida) maxsulot yetishtirish holati ham deyarli bir-biriga yaqin ko‘rinish kasb etadi. Nisbatan katta va aholisi zich joylashgan mahallalar lalmi va sug‘orma dehqonchilik rivojlangan tumanlarda vujudga kelgan bo‘lib, bunday mashg‘ulot turi bilan shug‘ullangan aholining yashash manzillari o‘ziga xos tarzda tarkib topganligini ko‘rsatdi.

Xullas, istiqlol davrida O‘zbekistonda, jumladan Qashqadaryo viloyati mahallalarida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yuqori pog‘onaga ko‘tarildi. Jahon andozalariga mos iqtisodiy-ijtimoiy hayot shakllanib, bu jarayonda mahalla instituti yetakchi o‘ringa egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston mahalla tizimi xodimlari va faollariga Murojaati. https://uza.uz/posts/250751
2. Bobojonovov I. O‘zbekistonda yosh avlodni tarbiyalash jarayonida mahalla institutining roli (Toshkent shahri mahallalari misolida. 1991-2019 yy.). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa dokt. (Phd) diss.-T. 2021. –B. 122.
3. https://www.samdu.uz/cy/news/32671
4. Mirzayev O. O‘zbekiston xalq amaliy san’atini qayta tiklash va rivojlantirish omillari. // “Boysun-bahori” ochiq folklor festivali. “Jahon sivilizatsiyasida boysunning moddiy va ma’naviy madaniyati” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi ilmiy maqolalar to‘plami. -Toshkent. 2019. -B 201-202.
5. Nadirxanov U. Regionalniye aspekti privlecheiniya inostrannix investitsiy v ekonomiku. // Strategiya dalneyshego povisheniya konkurentosposobnosti natsionalnoy ekonomiki. - Tashkent., 2012. -S 338.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Sanjar Olimov Vohidjon o‘g‘li
Namangan davlat universiteti magistranti
sanj01010928.arch@gmail.com.
Jamshid Xoldorov Vahobjon o‘g‘li
Namangan davlat universiteti magistranti,
Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi ilmiy xodimi
assafnurbek@gmail.com

Taqrizchi- s.f.f.d., O.Aripdjanov

Received 4th Janvier 2025, Accepted 10th Janvier 2025, Online 24th Janvier 2025

AXSIKENT ARXEOLOGIK YODGORLIGINING ISITISH TIZIMI

Annotatsiya: Ma’lumki, insoniyat paydo bo‘lgan davrdan beri o‘zi uchun qulay bo‘lgan sharoitni yaratib keldi va bugungi kungi yutuqlarga erishdi. Tarix davomida duch kelgan muammolarni orttirilgan tajribalar asosida hal qildi. Bulardan odamlar o‘zlari yashaydigan uylarining haroratini saqlash asosiy o‘rinlardan biridir. Qadimgi davrlardan beri dolzarb bo‘lgan ushbu masala bugun ham, davlatlar energiya tanqisligiga duch kelayotgan bir davrda, yana ham muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan o‘rta asrlar davrida Farg‘ona vodiysidagi markaziy shaharlardan biri bo‘lgan Axsikentda ham xonadonlardagi xonalar haroratini saqlash uy qurilishidagi eng asosiy o‘rindagi vazifalardan hisoblangan. Buni Axsikent yodgorligida so‘nggi paytlarda olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlar natijalari aniq ko‘rsatib beradi. Ushbu maqolada Axsikent yodgorligida aniqlangan isitish tizimlari, uning O‘zbekistondagi boshqa arxeologik yodgorliklaridan aniqlanganlaridan farqli va o‘xshash jihatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Axsikent yodgorligi, kan, ondol, sandal, o‘rta asrlar hammomi

СИСТЕМА ОТОПЛЕНИЯ АРХЕОЛОГИЧЕСКОГО ПАМЯТНИКА АХСИКЕНТ

Аннотация. Известно, что с момента зарождения человечества оно создало для себя благоприятные условия и достигло тех успехов, которых оно достигло сегодня. На основе накопленного опыта было решено проблемы, возникавшие на протяжении всей истории. Одной из главных задач людей является поддержание температуры в домах. Эта проблема, актуальная с древних времен, сегодня становится еще более важной, когда страны сталкиваются с нехваткой энергии. В развитом Средневековье в Ахсиканте, одном из центральных городов Ферганской долины, поддержание температуры помещений в квартирах считалось одной из важнейших задач при строительстве дома. Об этом наглядно свидетельствуют результаты недавних археологических исследований на памятнике Ахсикент. В статье рассматриваются отопительные системы, выявленные на памятнике Ахсикент, а также их различия и сходства с системами, выявленными на других археологических памятниках Узбекистана.

Ключевые слова: памятник Ахсикента, кан, ондоль, сандал, средневековая баня.

HEATING SYSTEM OF THE AKHSIKENT ARCHAEOLOGICAL SITE

Abstract. It is known that since the birth of mankind, it has created favourite conditions for itself and achieved the successes it has achieved today. Based on the accumulated experience, it solved problems that arose throughout the history. One of the main tasks of people is to maintain the

temperature in their homes. This problem, relevant since ancient times, is becoming even more important today when countries are faced with energy shortages. In the developed Middle Ages in Akhsikent, one of the central cities of the Fergana Valley, maintaining the temperature of the premises in apartments was considered one of the most important tasks when building a house. This is clearly evidenced by the results of recent archaeological research at the Akhsikent monument. The article discusses the heating systems identified at the Akhsikent monument, as well as their differences and similarities with the systems identified at other archaeological sites in Uzbekistan.

Keywords: Akhsikent monument, kan, ondol, sandalwood, medieval bath.

Kirish (Introduction)

Axsikent arxeologik yodgorligi Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumani hududida joylashgan bo‘lib, maydoni va tarixiy ahamiyati jihatidan Farg‘ona vodiysidagi yirik qadimgi shaharlardan biridir (1-rasm). Tadqiqotlarga ko‘ra, dastlab mil.avv. III asrda Axsikent 40 gektar maydonda Farg‘ona davlatining poytaxti sifatida tashkil qilingan [Anorboyev, 2022: 36]. Rivojlangan o‘rta asrlarda Farg‘ona shahri, Farg‘ona-Axsikat deb atalgan va bu davrda Farg‘onaning poytaxti bo‘lgan. Bu esa shahar mazkur davrlarda shaharning muhim mavqega ega bo‘lganidan dalolat beradi.

Farg‘ona vodiysi orqali o‘tgan xalqaro savdo yo‘lining shimoliy va janubiy yo‘nalishlarining Axsikent shahridan o‘tishi uning rivojiga xizmat qilgan omillardandir. IX – XIII asrlarda shahar 3 qismdan – qal’a, shahriston, raboddan tashkil topgan. Qal’aning faqatgina janubiy devorining bir qismi va Qoraxoniylar davriga mansub kazarma saqlangan [Anorboyev, 2022: 43]. XX asrning 80 – yillarida arxeolog olim A. Anorboyev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, X asrda Axsikat shahri hududi 400 gektardan ortiq bo‘lgan [Анарбаев, 1988: 184]. XIII asrda Chingizxon Xorazmshohlar davlatini bosib olish davomida Farg‘onaga ham qo‘shinning bir qismini yuborishi va shaharni vayron etilishida asosiy rol o‘ynagan [Anorboyev, 2022: 43].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Qadimiy Axsikent shahrida ilk bor tadqiqotlarni rus olimi N. I. Veselovskiy boshlab berdi. Bu ilmiy izlanish kichik ko‘lamda olib borilib, natijada o‘rta asrlarga taalluqli kulolchilik mahsulotlari aniqlangan [Веселовский, 1891: 15-19]. Undan keyin arxeologiya havaskorlar to‘garagi tomonidan Farg‘onada, xususan, Axsikent yodgorligida qisqa tadqiqotlar olib borildi. XX asrning 30 – yillari oxirlariga kelib Farg‘ona vodiysida Katta Farg’ona, Shimoliy Farg’ona va Janubiy Farg’ona kanallarining qurilishi munosabati bilan M. E. Masson boshchiligida katta arxeologlar jamoasi ish boshladi [Анарбаев, 2013: 12]. 1939-yillarda M. E Masson Eski Axsidagi tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, bu yerda 2000 yil oldin shahar markazi bo‘lganligini aniqladi. [Массон, 1940: 53]

1948-yildan boshlab A. N. Bernshtam Eski Axsi hududida arxeologik qazishmalar olib boradi va shaharning me’moriy rejasini yaratdi [Анарбаев, 1988: 171]. Keyingi davrlarda, 1950-yillarning 2-yarmidan boshlab va 1967-1969, 1971-1977-yillarda Farg‘ona shaharlari qatori Axsikat shahrini O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix va Arxeologiya instituti hamda O‘zbekistonning ko‘plab muzeylari xodimlari, ulardan keyin 1950-yillarning ikkinchi yarmi, 1967-1969, 1971-1977-yillarda

Y. G‘ulomov, S. Rahimov, I. A. Ahrorovlar tomonidan keng ko‘lamdagi tadqiqotlar olib borildi. Natijada yodgorlikning ark, 2 ta shahriston va katta hududni egallagan raboddan iborat ekanligi aniqlandi [Анарбаев, 2013: 18].

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Axsikent yodgorligidagi hozirgacha bo‘lgan tadqiqotlar davomida anchagina qurilmalar aniqlanib, ular orasida rivojlangan o‘rta asrlarga taalluqli hammom qoldiqlari ham muhim ahamiyatga ega topilmalardan hisoblanadi. Bu hammomda yer ostidan isitish tizimi qo‘llanilgan bo‘lib, u 5 ming yil oldin yaratilgan, *ondol* deb atalgan tizim [Bean, Olesen, Kim, Arch, 2010: 50-55] asosida qurilgan. O‘tgan yillardagi tadqiqotlarda sandal va ondol shaklidagi mahalliy va mahalliylashtirilgan isitish tizimlari aniqlangan bo‘lib, Shimoliy Xitoyda paydo bo‘lgan va qadimgi Rimda takomillashgan “kan” kabi [Kubayev, 2023: 201-209] isitish tizimi aniqlanmagan edi. Bu turdagi qurilmalar O‘zbekiston hududidagi ko‘plab arxeologik yodgorliklarda, xususan, Jarqo‘ton, Xontepa, Kofirqal’a, Qanqa kabilarda tadqiq qilingan hamda ularning kirib kelishi migratsiyalar, savdo aloqalari bilan bog‘liqligi hamda bunday tizimlarning bir qismi mahalliy an’analarga moslashtirilganligi haqidagi gipotezalardan kelib chiqib [Kubayev, 2023: 201-209], Axsikent yodgorligida *kan* isitish tizimiga o‘xshash qurilmaning aniqlanishi o‘rta asrlardagi Farg‘ona poytaxtining qadimdan Xitoy bilan nafaqat savdo aloqalarida, balki qurilish madaniyatida ham integratsiya qilganligini, shuningdek, O‘zbekiston hududidagi boshqa shaharlar aholisi o‘rtasidagi madaniy aloqalarni aholining turar-joylari misolida chuqurroq o‘rganishni taqozo qiladi.

Axsikent arxeologik yodgorligida 2024-yilda olib borilgan tadqiqotlar davomida ko‘plab qurilish qoldiqlari, turar joylar va boshqa noyob topilmalar aniqlandi. Ular orasida XI obyektning janubiy va g‘arbiy transheyasida qazib ochilgan isitish tizimiga ega xonalar e’tiborni tortadi (2-rasm). Mazkur xonalarning qatlamlari qoraxoniylar davriga mansub yerosti tagxonasi [Anorboyev, 2022: 55] bilan bir xil qatlamda joylashgan. Shu e’tibordan bu isitish qurilmalarini o‘z ichiga olgan xonalar va turar-joy qoldiqlarini X – XII asrlarga oid deyishga asos bo‘ladi.

Isitish tizimi janubiy transheyaning 2-xonasida, qo‘zg‘almas nuqtadan 1,60 sm pastda xonaning pol qismi joylashgan bo‘lib, poldan 60-70 sm pastdan pishgan g‘ishtdan issiqlik o‘tishi uchun maxsus yo‘laklar ishlangan. Yo‘laklarning balandligi 30, eni 25 sm kenglikda. Bu qurilish uslub jihatidan ilk o‘rta asrlar yodgorliklari bo‘lgan Farg‘ona vodiysidagi Qayrag‘och va Xorazmdagi Haydartepa yodgorliklaridagi xonalarni isitish tizimlariga juda o‘xshash. Bunda pol yoki supa ostidan maxsus yo‘laklar orqali markazlashtirilgan isitish tizimi hosil qilinib, u “kan” deb ataladi hamda janubiy transheya 2-xonasida aniqlangan ushbu qurilma ba’zi jihatlariga ko‘ra “kan” tizimini eslatadi. XI obyekt janubiy transheyasidagi xonadagi issiqlik o‘tuvchi yo‘laklar bu xonaga yaqin boshqa xonadan olib o‘tilgan bo‘lishi mumkin. Xonaga yaqinroq boshqa xona “olovxona” vazifasini o‘tab, bu yerdagi issiqlik yuqorida tilga olingan yo‘laklar orqali atrofdagi xonalarga o‘tkazilgan [Kubayev, 2023: 201-209]. Mazkur issiqlik o‘tuvchi yo‘laklar transheyaning shimoliy kesmasidan janub tomonga 1 metrgacha davom etgan va tugagan. Tugagan joydan 80 sm janubda diametri 20 sm, saqlanib qolgan balandligi 25 sm bo‘lgan, tikka qo‘yilgan sopol quvur joylashtirilgan. Tadqiqotchi Genri Jeymsning xulosalariga ko‘ra, bunday tartibda joylashtirilgan 3, 3,5 metr balandlikkacha o‘rnatilgan quvurlar orqali “kan” ichidan o‘tgan taxta yo‘laklarda harakatlanuvchi tutun tashqariga

chiqarilgan [Evan, James, 1888: 136-137]. Bu quvur xonaning devorlari orasiga joylashtirilib, nafaqat xona supasi, balki devorlarini ham yetarli issiqlik bilan ta’minlash imkonini bergan. Mazkur texnologiya Jarqo‘ton yodgorligida qo‘llanilgan usulning takomillashtirilgan shaklidir. Jarqo‘ton yodgorligida devorga o‘rnatilgan o‘choq-kaminlar faqatgina ovqat pishirish vazifasini bajaribgina qolmay, isitish uchun ham ishlatilgan [Rahimov, 2008]. Ularning o‘choq olovxonasi old ochiq qismi gumbazsimon shaklda bo‘lib, ichki qismi yuqoriga qarab torayib borgan va mo‘ri-dudburonga aylanib ketgan [Kubayev, 2023].

O‘zbekiston hududida joylashgan X-XI asrlarga oid deyarli barcha qadimgi turar-joylarni isitishda “sandal” tizimi keng ommalashgan [Kubayev, 2023]. Xususan, bunday uslub Axsikent yodgorligi XI obyektning sharqiy transheyasida ham aniqlangan. 2-xonaning shimoliy devoridan 1 metr janubda, xonaning g‘arbiy chegarasiga yopishtirilgan holatda pishgan g‘ishtlardan terilgan sandal qurilgan (3-rasm). Sandalning ostki qismiga 2-xonaning shimolidagi devori va 1-xonadagi supa ostidan olib kelingan, kul qoldiqlari saqlangan pishgan g‘ishtli yo‘lak qurilgan. Bu yo‘lak “kan” tizimidagi issiqlik o‘tuvchi “tunnel”larni eslatadi. Ushbu sandal xonaning markazida emas, balki g’arbiy chekkasida joylashgan. Bu jihatdan Samarqanddagi arxeologik yodgorliklarga o‘xshash tomonlari bor, chunki sandallarning xona chekkasida uchraydigan turlari ham aniqlangan [Saidov, 2012]. Samarqandning IX – XII asrlar qatlamlaridan aniqlangan ushbu qurilma, shuningdek, ko‘chma o‘choqlar joylashtirish uchun qo‘yilgan, degan fikrlar ham mavjud [Kubayev, 2023].

Yuqoridagi kabi alohida shaxslarning uylarini isitish uchun qurilgan tizimlardan tashqari, Axsikent yodgorligida jamoat hammomlarining haroratini ko‘tarish uchun “ondol”ga o‘xshash usuldan ham foydalanilgan. Ma’lumki, ondol tizimida olovxona turar joy tashqarisida joylashtirilib, ma’lum bir xonani isitish uchun mo‘ljallangan. Olovxonaga bog‘langan yo‘laklar orqali yer ostidan isitish tizimi samaradorlikni oshirgan [Kubayev, 2023]. Xuddi shunday uslubda isitilgan 2 ta hammom Axsikent yodgorligining rabod qismida aniqlangan. Qoraxoniylar davriga mansub sharqiy hammom majmuasi 3 ta qurilish davriga ega bo‘lib, 13 ta xonadan iborat. 7-8- xonalardan tashqari barcha xonalar issiq bo‘lgan hamda xonalarning asosiy qismi yer sathidan pastda joylashgan. Issiq xonalarning hammasining poli tagida o‘txona bilan bog‘langan issiqlik yo‘lakchalari (shaxtalar) va devor ichiga o‘rnatilgan sopol quvurlar mavjud. Hammomning 12-xonasi go‘laxxona deb atalib, u yerdan o‘t yoqilgan. O‘txonada yoqilgan o‘t va undan paydo bo‘lgan issiqlik 4-xonaning poli tagidagi pishiq g‘ishtdan arka ko‘rinishida qurilgan balandiligi 1 m., kengligi 0,60m. bo‘lgan yo‘lakchalar va devor ichiga o‘rnatilgan sopol quvurlar orqali xonaning poli va devorlarini bir me’yorda isitgan [Anorboyev, 2022: 75] .

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Xulosa qilib aytganda, ilk o‘rta asrlarga oid Sug‘d vohasidagi arxeologik yodgorliklarda aniqlangan *kan* va *ondol* tizimlariga o‘xshash qurilmalar Farg‘ona vodiysida, shuningdek, qadimgi Axsikent shahrida ham foydalanilgan. Rivojlangan o‘rta asrlar davrida Axsikent eng yirik savdo va iqtisodiy shaharlardan biriga aylangan paytda bu yerda nafaqat alohida xonadonlarda, balki jamoat hammomlarida ham yetarlicha haroratni ta’minlash uchun Xitoy va Koreyada dastlab qo‘llanilgan kan va ondol uslublari keng foydalanishda bo‘lgan. Bunday shakldagi isitish tizimlarining ilk shakllari yuqoridagi davlatlarda foydalanilganligi hisobga olinsa, Axsikent shahri va Sharq davlatlari

o‘rtasidagi integratsiya qadim ildizlarga borib taqalishi va u hududlardagi qurilish uslublari O‘zbekiston hududida, xususan, Farg‘ona vodiysida mahalliy an’analarga moslashtirilganligi oydinlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (Reference)

1. A. Anorboyev. Farg‘onaning qadimgi shaharlari va ularning Markaziy Osiyo tarixida tutgan o‘rni. – Toshkent. Fan. 2022, – B. 36-75.
2. А. Анарбаев. Ахсикент – столица древней Ферганы. – Ташкент. Тафаккур. 2013. – С.12.
3. K. A. Rahimov K. A. Sopolli madaniyatining isitish va oshxona o‘choqlari (Jarqo‘ton materiallari asosida) // IMKU. – Toshkent. Fan. 2008
4. H. Evan, al. M. James. The long white mountain // Longmans, Green companies. New York and London. P. 1888. 136-137.
5. M. Saidov Samarqandning o‘rta asr bezakli sopol o‘choqlari va ularning turar joylardagi o‘rni // O‘zbekiston arxeologiyasi. - № 1(2) son. Samarqand, 2012.
6. R. Bean, B. Olesen, K.W. Kim, D. Arch. The history of radiation heating and cooling systems. // Ashrae Journal. – 2010. – Pp. 50–55.
7. S. Kubayev. Qadimgi O‘zbekiston hududida turar-joylar isitish tizimi // Muzeyshunoslik XXI asrda: tadqiqotlar, an’analar va innovatsiyalar (Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari). O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi. Toshkent, 2023. – B. 201-209.
8. А. А. Анарбаев. Ахсикент в древности и средневековье (итоги и перспективы исследования) // СА. №1. С.184. М., 1988
9. Н. И. Веселовский. Отчет о работах в Средней Азии в 1884-1885 гг. // ОАК за 1882-1888 гг. СПб., 1891.С. 15-19.
10. Т. И. Лебедова. Здание близ Кафиркалы под Самаркадом – замок или дахма. Вып. 30. Ташкент, 1999. С. 152-165
11. М. Е. Массон. Экспедиция археологического надзора на строительстве Большого Ферганского канала // КСИИМК. Вып. IV. С. 53. М.-Л., 1940

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Ilovalar

1-rasm. Axsikent yodgorligining aerokosmik surati.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

2-rasm. Janubiy transheyadagi isitish tizimi.

3-rasm. Sandal va unga ulangan pishgan g‘ishtli yo‘lak

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Allaev Murodulla Choriyevich
Tarix falari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
IIV Qashqadaryo akademik litseyi Huquqiy va ijtimoiy-gumanitar
fanlar kafedrasi boshlig‘i
E-mail: allayevmurod093@gmail.com

Taqrizchi- f.f.f.d., N.Haqqulov

Received 4th Janvier 2025, Accepted 10th Janvier 2025, Online 24th Janvier 2025

MAMLAKATIMIZDA TARIXIY OBYEKTLARNI ASRASH IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining milliy tiklanish bosqichida tarixiy me’moriy meros yodgorliklarini saqlash va ta’mirlash masalalari hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlarning eng asosiy yo‘nalishlaridan hisoblanadi.Maqolada mamlakatimizda tarixiy me’moriy yodgorliklarni saqlash ishlarining mohiyati ochib berilib, moddiy-madaniy yodgorliklarga bo‘lgan munosabat, mamlakatlardagi yodgorliklar va ularni ta’mirlash kabi masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada O‘zbekiston madaniy meros obyektlarini asrab-avaylash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar va turizm sohasini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. Shahrisabz, arxitektura va shaharsozlik, Butunjahon merosi, arxeologiya merosi, madaniy meros, “Me’mor” ta’mirlash uyushmasi, O‘zbekturizm, turizm sohasi, rekonstruksiya.

ВОЗМОЖНОСТИ СОХРАНЕНИЯ ИСТОРИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ В НАШЕЙ СТРАНЕ

Аннотация. На этапе национального возрождения развития нового Узбекистана вопросы сохранения и реставрации памятников историко-архитектурного наследия являются одним из основных направлений реформ, проводимых нашим государством. В статье анализируются такие вопросы, как раскрытие сущности сохранения исторических архитектурных памятников в нашей стране, отношение к материальным и культурным памятникам, а также состояние памятников в странах и их реставрация. В статье также анализируется работа по сохранению культурного наследия Узбекистана и возможности развития туристической сферы.

Ключевые слова. Архитектура и градостроительство, Всемирное наследие, археологическое наследие, культурное наследие, реставрационная ассоциация «Меъмор», Узбектуризм, туристический сектор, реконструкция.

POSSIBILITIES OF PRESERVING HISTORICAL OBJECTS IN OUR COUNTRY

Abstract. At the stage of national revival of the development of new Uzbekistan, the issues of preservation and restoration of historical and architectural heritage monuments are one of the main directions of reforms carried out by our government.

The article analyzes the nature of the work on the preservation of historical and architectural monuments in our country, the attitude towards material and cultural monuments, monuments in the countries and their restoration. The article also analyzes the work being carried out on the preservation of cultural heritage sites in Uzbekistan and the opportunities for developing the tourism sector.

Keywords. Architecture and Urban Planning, World Heritage, Archaeological Heritage, Cultural Heritage, “Me’mor” Restoration Association, O‘zbekturizm, Tourism Sector, Reconstruction.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Kirish (Introduction)

Mustaqillikning dastlabki-yillaridan boshlab, O‘zbekiston hukumatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri tarixiy shaharlar va obidalarni asrab-avaylash va tiklash bo‘ldi. Buyuk davlat va jamoat arboblari, allomalar yubileylari munosabati bilan keng ko‘lamda ta’mirlash va rekonstruktsiya ishlari amalga oshirildi. Bu jarayonda nafaqat obidalarni asl holiga qaytarish, balki ularni kelajak avlodlar uchun saqlab qolishga ham alohida e’tibor qaratildi. Jahon miqyosida madaniy meros obyektlarini himoya qilishga bo‘lgan e’tibor ortib borishi O‘zbekistonga YUNESKO bilan hamkorlikni kuchaytirishga turtki bo‘ldi.

1992-yil 27-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasini tashkil qilish to‘g‘risida”gi farmonga imzo chekdi va aynan 1992-yilning 20-oktyabrida Vazirlar Mahkamasining 424-sonli qarori asosida Dastur qabul qilindi. Bu milliy turizmni tashkil qilish uchun asos bo‘ldi. 1993-yil O‘zbekiston 120 dan ortiq davlatni birlashtirgan Jahon turistik tashkiloti (VTO)ga a’zo bo‘ldi [1].

Tarixiy va madaniy yodgorliklar O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni bilan huquqiy muhofazaga olingan. Qolaversa, bir qator huquqiy hujjatlar ham qabul qilinmoqdaki, ular obidalarning tiklanishiga, qayta chiroy ochishiga sabab bo‘ldi [2;21].

O‘zbekiston tarixiy-madaniy meros bo‘yicha xalqaro qonunlar, konvensiyalarni o‘rganish va qabul qilishga alohida e’tibor qaratdi. Samarqand shahri “The Huffigton Post” internet nashri tomonidan inson o‘z umri davomida hech bo‘lmasa bir marta borib ko‘rishi shart bo‘lgan dunyodagi 50 shahardan biri sifatida e’tirof etilgan [2;23].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Tadqiqot ishida tarix fanida keng qo‘llaniladigan tarixiylik tamoyili, xronologik va tizimli yondashuv, arxiv materiallarining ilmiy-qiyosiy tahlili, og‘zaki tarix, masalaga ilmiy yondashuv kabi ilmiy-tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

1992-yili O‘zbekiston va Turkiya davlatlari hukumatlari tuzgan o‘zaro shartnomaga muvofiq madaniy aloqalarni yanada kuchaytirish maqsadida Turkiyadan bir guruh kishilar respublikamizga tashrif buyurishdi. Ulardan Turkiya Respublikasi Madaniyat vazirining o‘rinbosari Yahyo Oqsuybey, vazirlik bosh boshqarmasi boshlig‘i Ilxon Shamshekbey, vazirlikning mas'ul xodimlari Dug‘on Chevekbey, Murdjella Kaxverknlar Qashqadaryo viloyatida ham mehmon bo‘lishdi. Ular Qashqadaryo viloyati madaniyat boshqarmasi boshlig‘i Mamatqul Rajabov hamrohligida viloyat musiqali drama teatriga tashrif buyurishdi, xalq og‘zaki ijodining ravnaq topishiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan ayrim baxshilarning chiqishlarini tingladi, amaliy san'atimiz namunalari, tarixiy va madaniy yodgorliklarimiz bilan yaqindan tanishdilar. Shuningdek, ikki mamlakat vakillari o‘rtasida tarixiy yodgorliklarni ta’mirlash sohasida hamkorlik aloqalarini o‘rnatishga kelishib olindi [3].

1972-yilda YUNESKO tomonidan qabul qilingan rezolyutsiya [4] va 1983-yilda BMT tomonidan belgilangan “Yodgorliklar va tarixiy joylarni asrash xalqaro kuni” O‘zbekiston uchun madaniy merosni saqlash bo‘yicha xalqaro standartlarni qo‘llashga turtki bo‘ldi. O‘zbekiston bir

qator tarixiy shaharlari va obidalar majmuasini YUNESKOning “Butunjahon madaniy va tabiiy merosi” ro‘yxatiga kiritishga muvaffaq bo‘ldi. Xiva Ichan-Qal’asi (1991), Buxoro tarixiy markazi (1993), Shahrisabzdagi Amir Temur va Temuriylar davri me’moriy yodgorliklari (2000) va Samarqand tarixiy yodgorliklari (2001) shu ro‘yxatga kiritilgan. Samarqandning “Butunjahon merosi” ro‘yxatiga kiritilishi uning jahon miqyosidagi ahamiyatini yanada oshirdi va sayyohlik salohiyatini kengaytirdi. Samarqandning dunyodagi eng go‘zal shaharlar qatoriga kiritilishi esa uning turizm sohasidagi o‘rnini yanada mustahkamladi.

O‘zbekiston madaniy meros obyektlarini turizm sohasida qo‘llash orqali iqtisodiy rivojlanishga erishishga harakat qilmoqda. "O‘zbekturizm" milliy kompaniyasining tashkil etilishi (1992) va Jahon turizm tashkilotiga a’zo bo‘lish (1993) turizm sohasini rivojlantirish uchun muhim qadamlar bo‘ldi. Tarixiy obidalarni ta’mirlash va tiklash ishlari turizm infratuzilmasini yaxshilash bilan birga amalga oshirilmoqda. Mehmonxonalar, transport va boshqa xizmatlarning rivojlanishi sayyohlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan.

1997-yilning to‘qqiz oyi mobaynida Xiva va Buxoro shaharlarining 2500-yillik yubileylariga tayyorgarlik ko‘rish munosabati bilan tarix va madaniyat yodgorliklarida davlat byudjeti hisobidan 259,1 mln so‘mlik ta'mirlash-tiklash ishlari amalga oshirildi. Bu mablag‘ning 74 mln. so‘mi Xiva, 185,1 mln. so‘mi Buxoro shahridagi obyektlar uchun sarf qilindi [5].

O‘zbekistonda sohani rivojlantirishning huquqiy asoslari ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etib borildi. 1995-yili “Arxitektura va shaharsozlik” bo‘yicha qonun qabul qilindi. Ushbu yangi qonunga muvofiq tarixni, madaniy boyliklarni, iqlimni, hududimizga xos bo‘lgan holatlarni e'tiborga olgan holda 148 ta milliy-davlat “Qurilish me'yorlari va qoidalari” ishlab chiqildi va hayotga tatbiq etib borildi [6].

1996-yil aprel oyida O‘zbekiston “Butunjahon madaniyat va tabiat merosini saqlash konvensiyasi”ga qabul qilindi. Mazkur konvensiyaning umuminsoniy ahamiyatga ega bo‘lgan boyliklarini hisobga olish “Butunjahon merosi ro‘yxati”ga 1996-yil iyun oyida respublikaning 22 ta tarixiy yodgorligi ro‘yxati yuborildi. O‘zbekiston Respublikasi YUNESKO tashkilotining teng huquqli a'zosi sifatida Xivadagi Ichanqal'a qo‘riqxonasi (1990) hamda Buxoroning tarixiy markazida (1993) joylashgan yodgorliklar, Shahrisabz shahridagi Amir Temur va temuriylar me'moriy yodgorliklari (2001) va Samarqand shahri markazidagi tarixiy yodgorliklar (2002) Xalqaro jahon madaniy merosi qo‘mitasiga 13 ta mashhur yodgorliklar sifatida ro‘yxatga olindi [7].

1996-yil 14 martda Vazirlar Mahkamasining “Toshkentda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi huzurida Temuriylar tarixi davlat muzeyini tashkil qilish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risida”gi hamda “Xalqaro Amir Temur jamg‘armasini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. 1996-yilning aprel oyida Parijda, YUNESKO qarorgohida Amir Temur tavalludining 660-yilligi keng nishonlandi. Eng quvonarlisi shundaki, 1996-yilning 26 aprelida “Amir Temur” ordenini ta'sis etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yilning 28 avgustidagi farmoniga asosan Samarqand va Shahrisabz shaharlari Amir Temyp ordeni bilan mukofotlandi. 1996-yilning 18 oktyabrida Toshkent shahrida Temuriylar tarixi davlat muzeyi ochildi. Shu kuni Samarqand va Shahrisabzda ham Amir Temur haykallarining tantanali ochilish marosimi xalqaro miqyosda keng jamoatchilik o‘rtasida tashkil etildi.

“O‘zbekiston Respublikasining shaharsozlik kodeksi” loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 2-iyundagi farmoniga muvofiq ishlab chiqilib, unga shaharsozlik sohasini xalqaro darajaga ko‘tarish, shuningdek, aholi punktlarini rejalashtirish va qurishga, respublika hududlarini rejalashtirishga nisbatan shaharsozlik talablarining asosiy qoidalarini qonuniy ravishda mustahkamlash zaruratidan kelib chiqib yondashildi [8;47].

2001-yil 30-avgustda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi yangi qonun qabul qilindi. Milliy qonunchilik tizimidagi ushbu ijobiy o‘zgarish sohada jadal sur'atlar bilan ish yuritish va respublikada mavjud madaniy meros obyektlarini hisobga olish, ularning texnik holatidan kelib chiqqan holda barcha imkoniyatlarni ishga solib, qurilish-ta'mirlash va bunyodkorlik ishlarini amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Respublikada yetti mingdan ortiq yodgorliklar bo‘lib, ularning 2500 tasini arxitektura yodgorliklari tashkil etadi, 2700 dan ziyodi arxeologiya va 1000 dan ortiq mahobatli san'at yodgorliklari davlat himoyasiga olingan. Shundan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan 2008-yil 7 avgustda imzolangan 938-sonli qaror asosida muqaddas qadamjolarni saqlash va obod etish xayriya jamg‘armasini tashkil etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar naqadar muhim ekanligini ko‘rsatish mumkin [9].

1991 – 2009-yillar mobaynida turli mavzularda xalqaro miqyosda 25 ta tadbir o‘tkazildi. Bu tadbirlar respublikadagi shaharlar, tarixiy shaxslar hamda bevosita yoki bilvosita tarixiy-madaniy yodgorliklar bilan bog‘liq .

O‘zbekistonning har bir hududi tarixiy jarayonlarda ishtirok etgan bo‘lsa ham, bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida jami 1321 ta moddiy-madaniy meros obyektlari mavjud bo‘lib, shundan 1043 ta arxeologiya, 210 ta arxitektura, 43 ta monumental, 35 ta diqqatga sazovor joylar mavjud. Ma'lumki, O‘zbekistonda mavjud tarixiy obidalarning 411 tasi YUNESKO ro‘yxatiga kiritilgan. Islom madaniyati obidalarini asrab-avaylash va tarixiy obidalarga boy davlat sifatida O‘zbekiston 9-o‘rinni egallab turibdi. Madaniy tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan obyektlardan 545 tasi arxitektura, 575 tasi tarixiy, 1457 tasi san'at va 5500 dan ortig‘ini arxeologik obyektlar tashkil etadi [10].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations

Jahon sayyohlik tashkiloti (YUNVTO)ning 2011-yil oktyabr oyida Janubiy Koreyada o‘tgan Bosh assambleyasida O‘zbekiston Respublikasi ikkinchi marta BMT Jahon sayyohlik tashkiloti Ijroiya kengashi a'zosi etib saylandi. Bu maqomga dunyoning kam sonli davlatlari sazovor bo‘lgan. Mamlakatimizning ushbu tashkilotga a'zoligi doirasida va xalqaro maydonda tarixiy-madaniy merosimizni ommalashtirish, shuningdek, turizm industriyasini rivojlantirish maqsadida 2014--yilning iyun oyida Ispaniyaning Santyago-de-Kompostela shahrida bo‘lib o‘tgan BMT Jahon sayyohlik tashkiloti Ijroiya kengashining 98-sessiyasida Ijroiya kengashning navbatdagi 99-sessiyasini Samarqandda o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror qabul qilindi [11].

Bu xalqaro maydonda O‘zbekiston obro‘sining tobora oshib borayotganidan va mamlakatimizning ulkan sayyohlik salohiyati jahon hamjamiyati tomonidan yuksak e'tirof etilayotganidan yorqin dalolatdir [20].O‘zbekiston madaniy merosini asrab-avaylash va turizm sohasini rivojlantirishda xalqaro hamkorlik muhim rol o‘ynaydi. Turkiya bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar tarixiy obidalarni ta’mirlash va tiklash ishlarini yuqori sifatli amalga oshirishga yordam bermoqda. Bunday hamkorlik nafaqat moliyaviy yordamni, balki texnologik

tajriba almashinuvini ham o‘z ichiga oladi. Madaniy almashinuv dasturlari orqali O‘zbekistonning madaniy merosini dunyoga targ‘ib qilish imkoniyatlari kengaymoqda.

O‘zbekiston madaniy merosini asrab-avaylash va turizmni rivojlantirish bo‘yicha kelajakdagi rejalar quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

-zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali obidalarni saqlash va tiklash ishlarini yanada takomillashtirish

-turizm infratuzilmasini rivojlantirish va sayyohlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish

-madaniy meros obyektlarida zamonaviy turizm turlarining (ekoturizm, agroturizm va boshqalar) rivojlantirish

- madaniy merosni targ‘ib qilish bo‘yicha xalqaro hamkorlikni kuchaytirish

-yoshlar orasida vatanparvarlik va milliy g‘urur tuyg‘ularini tarbiyalashda madaniy merosni faol ishlatish.

O‘zbekiston madaniy meros obyektlarini asrab-avayla sh va ular orqali turizmni rivojlantirish mamlakatning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar va xalqaro hamkorlik madaniy merosni saqlash va uni kelajak avlodlarga yetkazishga xizmat qiladi. Kelajakda turizm sohasini yanada rivojlantirish orqali O‘zbekistonning jahondagi o‘rnini mustahkamlash va mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жаҳон Туризм Ташкилоти Бош Ассамблеясининг Бали шаҳрида (Индонезия) бўлиб ўтган мажлиси, 1993 йил. X сессия Манба: Основополагающие документы ЮНВТО. Том 1. Февраль, 2016. – С.19 – 21.
2. Савриев Ж. Навоий вилояти тарихий ёдгорликлари таъмирланишининг асосий йўналишлари (1991 – 2020 йиллар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Бухоро, 2020. – Б.20-23.
3. Маданий меросга бой ўлка // Қашқадарё ҳақиқати, 1992 йил 13 октябрь.
4. Конвенция об охране всемирного культурного и природного наследия // https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/heritage.shtml
5. Абриев Р. Мустақиллик йиллари Ўзбекистонда тарихий-меъморий обидаларни таъмирлаш ва қайта тиклаш тарихи (Зарфашон воҳаси мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Т., 2018. – Б.16.
6. Miralimov M.M. “Bino va inshootlar arxitekturasi” (Fuqaro binolari arxitekturasi). O‘quv qo‘llanma. –Toshkent:2018.- B.3.
7. Ҳошимов М. ЮНЕСКО фаолиятида диний бағрикенглик тамойиллари (Ўзбекистон Республикаси мисолида). Тарих фан. номз. дисс... автореф. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2009. – Б.11-13.
8. Ҳаққулов С. Ўзбекистонда замонавий шаҳарсозлик ва меъморчилик соҳасининг ривожланиши (1991-2021) // ҚарДУ ХАБАРЛАРИ, 2023,3/2-son. –B47.
9. Каримов И.А. “Тарихий хотира ва инсон омили – буюк келажагимизнинг гаровидир” рисоласини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. – Тошкент. 2012. – Б.89-90.
10. Bo‘riyev A. O‘zbekistonning moddiy-madaniy merosi obyektlarining YUNESKO umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilish tarixi //International scientific journal of Biruni. – 2023. – T. 2. – №. 1. – C. 49.
11. Самарқанд нуфузли анжуман мезбони // https://uza.uz/posts/66974

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Abdullayev Okhunjon Ikrom o‘g‘li,
Teacher of Karakalpak State University
https://orcid.org/0009-0006-1793-1583
E-mail: abdullayev-oxunjon@mail.ru

Taqrizchi- s.f.f.d., O.Aripdjanov

Received 4th Janvier 2025, Accepted 10th Janvier 2025, Online 24th Janvier 2025

O‘ZBEK TILIDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI SOHASIGA DOIR ZAMONAVIY LEKSIKA

Annotatsiya. Mazkur maqola o‘zbek tilidagi kopyuter texnologiyalari sohasiga doir zamonaviy so‘zlar tahliliga bag‘ishlangan. Tilning lug‘at tarkibi uzluksiz ravishda to‘lib boradi va bu lingvistik hodisa fan va texnikaning rivojlanishi, ularning jamiyatdagi mavqeining oshishi hisobiga, so‘nggi yillarda fan va texnika taraqqiyotining jadal sur’atlarda o‘sishi natijasida yuzaga kelgan yangi tushuncha va hodisalarni atash, nomlash uchun yaratilgan yangi maxsus terminlar hisobiga yuz bermoqda. Odatda, mohiyat-maqsadiga ko‘ra ilmiy-texnik adabiyot o‘zida ilm-fan va texnikaning so‘nggi yutuqlarini aks ettirishi kerak, neologizmlar esa jami leksikaning nisbatan katta foizini tashkil etadi.

Texnikaviy terminologiya o‘zbek tili so‘z boyligining salmoqli qismini tashkil qiladi. U texnikaning doimiy taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda tinimsiz boyib, takomillashib boradi. Maqolada bugungi kunda turmushimizning turli-tuman sohalarida ishlatiladigan texnikalar sonining juda keng ko‘lamni tashkil etishini hisobga olib shu sohaga doir so‘zlarni tahlil qilish maqsad qilingan.

Kalit so‘zlar: leksika, so‘z, termin, zamonaviy leksika, kompyuter texnologiyalari, mobil ilova, server, superkompyuter, mobil texnologiya, AKT (Axborot-kommunikatsion texnologiyalari).

СОВРЕМЕННАЯ ЛЕКСИКА В ОБЛАСТИ КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. Данная статья посвящена анализу современных слов в области компьютерных технологий в узбекском языке. Словарный состав языка непрерывно пополняется, и это языковое явление происходит за счет развития науки и техники, повышения их статуса в обществе, новых специальных терминов, созданных для обозначения новых понятий и явлений, возникших в результате стремительного роста науки и техники в последние годы. Как правило, по своей сути научно-техническая литература должна отражать последние достижения науки и техники, а неологизмы составляют относительно большой процент от общей лексики.

Техническая терминология составляет значительную часть лексики узбекского языка. Она непрерывно обогащается и совершенствуется в связи с постоянным развитием техники. В статье поставлена цель проанализировать слова, относящиеся к этой области, учитывая, что количество техники, используемой сегодня в различных сферах нашей жизни, составляет очень широкий круг.

Ключевые слова: лексика, слово, термин, современная лексика, компьютерные технологии, мобильное приложение, сервер, суперкомпьютер, мобильные технологии, ИКТ (информационно-коммуникационные технологии).

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

MODERN LEXICON IN THE UZBEK LANGUAGE IN THE FIELD OF COMPUTER TECHNOLOGIES

Annotation. This article is dedicated to the analysis of modern words related to the field of computer technologies in the Uzbek language. The vocabulary of the language is continuously replenished, and this linguistic phenomenon occurs due to the development of science and technology, the increase in their status in society, new special terms created to name new concepts and phenomena that have arisen as a result of the rapid growth of science and technology in recent years. As a rule, scientific and technical literature should reflect the latest achievements of science and technology, while neologisms constitute a relatively large percentage of the total vocabulary.

Technical terminology constitutes a significant part of the vocabulary of the Uzbek language. It is constantly enriched and improved in connection with the constant development of technology. The article aims to analyze words related to this field, taking into account the fact that the number of equipment used in various spheres of our lives today is very large.

Keywords: vocabulary, word, term, modern vocabulary, computer technologies, mobile application, server, supercomputer, mobile technology, ICT (Information and Communication Technologies).

Kirish (Introduction). Bugungi kunda ushbu sohaning terminlari professor Renat Doniyorov tomonidan tadqiq qilingan. Ma’lumki, tillar leksikasini boyitish, asosan, ichki resurslarda foydalangan holda so‘z yasash usulidan va boshqa tillardan leksemalar o‘zlashtirish hisobiga amalga oshiriladi[1, B.12]. So‘z yasash mohiyati va uning xilma-xil usullari (sintetik, analitik, leksik), o‘zlashtirmalarning ahamiyatiga yetarli baho bera olish va ulardan chiqadigan umumlashmalar bo‘yicha nazariy va amaliy xulosalar chiqarishga imkon tug‘diradi. Shu jihatdan olib qaraganda, ayrim tillar leksikasini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mubolag‘asiz ta’kidlash joizki, ayni kezlarda o‘zbek tili terminologik tizimiga G‘arbiy Yevropa tillaridan bevosita va bilvosita yopirilib kirib kelayotgan terminlarni tartibga solish, unifikatsiya qilish, ularni o‘zbek tili yoki qoraqalpoq tili qoidalariga bo‘ysundirish qiyin kechmoqda [2, B.124].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Chetdan kelayotgan axborotning haddan tashqari ko‘pligi va serqirraligi terminologiyaga xos jihatlarni har doim ham diqqat markazida ushlab turish imkoniyatini bermayapti. Bu holat terminlarni o‘zlashtirish, kalkalash, izohlash paytida muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. O‘zbek tilining ichki imkoniyatlaridan samarali foydalanishga zarur e’tibor qaratilmoqda, so‘z yasash usullaridan har doim ham unumli iste’foda etilmoqda, deb bo‘lmaydi. Chet tilidan o‘zlashayotgan terminlarni aynan qabul qilish an’anasi hamon yetakchilik qilmoqda.

Kompyuter lingvistikasining muhim tushuncha kategoriyalaridan “freymlar” (vaziyatning tematik tipiklashgan bilimlar deklarativ namoyishi uchun mo‘ljallangan kotseptual strukturalar), “ssenariy” (stereotip vaziyat yoki stereotip xulq haqidagi bilimlar namoyishi uchun taqdim qilingan konseptual strukturalar), “plan” (aniq maqsadlardagi yutuqlarga olib boruvchi bilim strukturasi, imkoniyatlar) bir qator masalalarning yoritilishiga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). AKT terminlariga doir lingvistik jihatidan bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Lynch Donal “A study of the lexicography of computing and information texnology and its practical applications” asarida AKT

terminlarini bir til doirasida tadqiq qilgan bo‘lsa, Слепов Н.Н. “Англо-русский тольковый словарь сокращений в области связи, компьютерных и информационных технологий” asarida qiyosiy yo‘nalishda tadqiq qilgan. N.Slepov, E.Maslovskiy kabi mutaxassislar AKT terminologiyasining leksikografik jihatlariga e’tibor qaratgan va ikki tilli tarjima lug‘atlarini tuzganlar. Qolaversa, AKT terminlarining leksikografik masalalari D.Kadirbekovaning “Inglizcha–o‘zbekcha axborot-kommunikatsiya texnologiyalari terminologiyasi va uning leksikografik xususiyatlari” nomli dissertatsiyasida zamonaviy AKT terminlari qiyosiy tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ushbu tadqiqot orqali hozirgi kunda o‘zbek va qoraqalpoq tili leksikasining tez va o‘zgaruvchan va faol qatlamini AKT terminologiyasi sohasiga doir leksik birliklarni tahlil qilishdan iborat. AKT sohasidagi terminlarni kompyutersiz tasavvur qilib bo‘lmaydi [3, B.52]. Chunki bu terminlar kompyuter bilan bevosita aloqador hisoblanadi. Ular quyidagilar:

Server kompyuteri(Server computer) kompyuter tarmog‘ida asosiy axborotlar bazasini saqlovchi maxsus ajratilgan kompyuter.

Super kompyuterlar (Super computers**)** – juda katta tezlikni talab qiladigan va katta hajmdagi masalalarni yechish uchun mo‘ljallangan kompyuterlardir. Ular oddiy shaxsiy kompyuterlarga nisbatan bir necha yuz barobar tez ishlaydi va maxsus amallarni bajaradi.

Shaxsiy kompyuterlar (Personal computer) (ShK) hammabop va qo‘llashda turli xil talablarni qondiruchi, bir kishi foydalanadigan kompyuterlardir. Shaxsiy kompyuterlarga kundalik ishlarimizda qo‘llaydigan, uyda, ish joylarida joylashgan kompyuterlar, masalan, Pentium tipidagi kompyuterlar kiradi.

Portativ kompyuterlar(Portable computer) yo‘lda olib yurishga mo‘ljallangan ko‘chma shaxsiy kompyuterlardir. Portativ kompyuterlarga Lap Top, Note Book, Palm Top, Elektron kotiblar (PDA), organizer kabi kompyuterlarni kiritishimiz mumkin.

Kompyuter-bloknotlar(Computer notebook) stolda foydalaniladigan ShKlarning barcha vazifalarini bajaradi. Ular uncha katta bo‘lmagan kitob hajmidagi chemodancha ko‘rinishida tayyorlanadi.

Cho‘ntak kompyuterlari (Pocket computer) (Palm Top, bu “kaftdagi” degan ma’noni bildiradi) 300 gramm og‘irlikka ega. Ular to‘laqonli shaxsiy kompyuterlar bo‘lib, mikroprotsessor, operativ va doimiy xotira, odatda monoxrom suyuq kristalli displey, ixcham klaviatura, ko‘chmas SHKga axborot almashuv maqsadlarida ulanish uchun port bo‘limlariga ega. Elektron yozuv daftarchalari (organizer – organayzerlar) ixcham kompyuterlarning “eng yengil sinfi”ga kiradi (bu sinfga ulardan tashqari kalkulyatorlar, elektron tarjimonlar va boshqalar kiradi); ularning og‘irligi 200 grammdan oshmaydi.

Mobil ilova — ma’lum bir platforma (ios, Android, Windows Phone va boshqalar) uchun ishlab chiqilgan smartfonlar, planshetlar va boshqa mobil qurilmalarda ishlashga mo‘ljallangan dastur. Ko‘pgina mobil ilovalar qurilmaning o‘zida oldindan o‘rnatiladi yoki ularni App Store, Google Play va boshqalar kabi onlayn dastur do‘konlaridan bepul yoki pullik yuklab olish mumkin.

Ushbu atama 2007-yildan beri juda mashhur bo‘lib, 2010-yilda Amerika Dialektik Jamiyati tomonidan “Yil so‘zlari” ro‘yxatiga kiritilgan.

Dastlab, mobil ilovalar elektron pochtani tezda tekshirish uchun ishlatilgan, ammo ularning

yuqori talablari boshqa sohalarda ham kengayishiga olib keldi, masalan, mobil telefon va GPS o‘yinlari, suhbatlashish, video tomosha qilish va internetdan foydalanish mumkin [4, B.56].

Ta’lim uchun mobil ilovalarning ahamiyati nafaqat yangi texnologiyalar nuqtayi nazaridan ularning umumiy mavjudligi va jozibadorligi, balki ular taqdim etayotgan imkoniyatlar tufayli ham ortib bormoqda: talabalarning topshiriqlar bo‘yicha hamkorlikada ishlashi, maktabdan tashqarida o‘rganish, hamma gapirish, qatnashish imkoniyatiga ega (aksincha qo‘l ko‘tarish bilan).

Leksik sath tez o‘zgaruvchanlik xususiyatiga ega. *Disketa* [*ingl.* diskette – kichik disk] texnika sohasiga oid bu leksema kompyuterning tashqi ma’lumotlar saqlanadigan, almashinuvchi yassi qurilmasi; egiluvchan magnit diskli kasseta sifatida izohlangan bo‘lib, hozirgi vaqtda arxaik xarakterga ega [5, B.8].

Google ilovalari (disk, pochta, play market, Google Maps, Google Earth) - fayllargatezkor kirish, kerakli dasturlarni yuklab olish uchun qulay interfeys. Onlayn ravishda sun’iy yo‘ldosh interaktiv xaritalari,virtual globus.

Onlayn–kutubxona (Aldebaran, Artefakt, Arxiv “TarraNova”, samoLIT, LitRes, LitMir va.b.) – Ba’zi manbalarda onlayn tarzda kitobni yuklab olish yoki o‘qish mumkin, turli janrdagi asarlarning katta to‘plami.

Mobil texnologiya – bu foydalanuvchi qayerga borsa, u yerga boradigan texnologiya. U portativ ikki tomonlama aloqa qurilmalari, hisoblash qurilmalari va ularni bog‘laydigan tarmoq texnologiyasidan iborat. Hozirgi vaqtda mobil texnologiyalar smartfonlar, planshetlar va aqlli soatlar kabi internetga ulangan qurilmalar bilan tavsiflanadi. Mobil texnologiya – foydalanuvchilarning mobil qurilmalar orqali ma’lumotlarni almashishda qo‘llaniladigan usul va vositalar majmuyi hisoblanadi.

Gadjet – kichik, qo‘lda olib yursa bo‘ladigan texnologik qurilma bo‘lib, u odatda bir yoki birnecha funktsiyalarni bajarishga mo‘ljallangan bo‘ladi. Gadjetlarning yana bir o‘ziga xos xususiyati shuki, ular ko‘pincha yangilik sifatida qabul qilinadi va katta qiziqish bilan o‘rganiladi. Bunday qurilmadan har bittasi o‘zining original dizayni hamda foydaliligi bilan maqtovlarga sazovor bo‘ladi. Shu sababdan ham gadjet o‘zigacha ishlatilib kelingan ko‘pchilik ixtirolardan ustun turadi. Gadget so‘zining kelib chiqishi XIX asrga to‘g‘ri keladi. Gadjet atamasini kemaning kichik mexanik qurilmasi, otishga mo‘ljallangan kichik mexanik asbob, aksessuar, barcha mayda detallar uchun belgi sifatida ishlatilgan. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, gadjet atamasining konnotatsiyasi ixchamlik va harakatchanlik belgisi sifatida o‘rnatildi. O‘zbek tilida hamixcham mexanik qurilma sifatida ishlatiladi.

Kontent – axborot tizimini ixtiyoriy mazmundagi axborot – matn, grafika, multimedia bilan to‘ldirish. Gipermatnli belgi qo‘yish vositalari bor sahifa ko‘rinishida tashkil qilinadi. Kontentning ahamiyatli ko‘rsatkichlari bo‘lib, uning hajmi, dolzarbligi va relevantligi hisoblanadi. Veb-saytning axborot resurslari (mazmuni, axborot to‘ldirilishi, mazmunli axborot). HTML-hujjatda shu sahifaning qisqacha tavsif joylashtiriladigan bir nomli maydondagi xizmat axborotining qismidir. Izlovchi mashinalar uchun ahamiyatlidir. Kontent termini o‘zbek tiliga o‘zlashishi natijasida kontenti boshqarish tizimi termini ham paydo bo‘ldi. Applet –applet atamasi oxirgi paytlarda ayniqsa, umumjahon o‘rgimchak to‘ri (WWW) texnologiyalarining rivojlanishi tufayli keng tarqalgan. Ushbu texnologiyalar interaktiv veb-sahifalarini yaratish maqsadida appletlarni veb-hujjatlariga qo‘shish

imkonini beradi. Bunday appletlarni yaratishda odatda, Java dasturlash tili qo‘llaniladi, shuning uchun ham ular Java appletlari deyiladi. [6, B.116].

Terminologiyada uchta jarayon mavjud ular: terminlashish, transterminlashish va determinlash. Transterminlashish terminlarning sohalararo ko‘chib yurishidir, bionika termini ham shunday terminlar sarasiga kiradi. Botnet –ma’lum sondagi xostlardan iborat va botlar (avtonom dasturiy ta’minot) ishlayotgan kompyuter tarmog‘i. Odatda, botnet tarkibidagi bot qurbon kompyuterida yashirin o‘rnatiladigan va badniyat shaxsga (botnet “egasiga”) kompyuter resurslaridan foydalangan holda ma’lum harakatlarni bajarishga imkon beradigan dasturiy ta’minotdir. Botnetlar ko‘pincha spam yuborish, uzoqdagi tizimda parollarni birma-bir ko‘rib chiqish, xizmat ko‘rsatishni rad etish kabi noqonuniy yoki ruxsat etilmagan faoliyat uchun foydalaniladi. Botnet bot termini asosida yasalgan.

Brandmauer –“Tarmoqlararo to‘siq” yoki “fayrvol” atamalarining sinonimi (ingliz tilidan “olovli devor” deb tarjima qilinadi). Tashqaridan kompyuterga yoki kompyuterlar guruhidan foydalanishni nazorat qiluvchi va hujumlarni bartaraf qiladigan dastur va apparat ta’minotining birikmasi. Asosan, internet tarmog‘iga ulangan lokal tarmoqda ishlatiladi. Qo‘shma terminlarning komponentlari genetik materiallariga ko‘ra turlicha bo‘ladi. Bir til qatlamiga mansub so‘z birliklaridan tashkil topgan qo‘shma terminlar, turli til qatlamiga mansub so‘z birliklaridan tashkil topgan qo‘shma terminlar. Brandmauer termini esa bir til, ya’ni ingliz tilidagi *brand+mauer* so‘zlarini qo‘shiluvidan hosil bo‘lgan qo‘shma termindir.

Buffer – ma’lumotlarni vaqtincha saqlash uchun ishlatiladigan kompyuterning tezkor xotira yacheykalarining bir qismi. Boshqa (masalan, kompyuterga kiruvchi) qurilmalardan kelgan ma’lumotlar bilan birgalikda qayta ishlash zarurati tug‘ilganda, ular buferdan chaqirib olinadi. Ma’lumotlarni buferga yozish va vaqtincha eslab qolish jarayoni buferlashtirish deb ataladi. Yuqori tezlikli katta bufer *kesh-xotira* deb ataladi. *Buffer* terminining tuzilishiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, birgina lug‘aviy ma’no ifodalovchi bir o‘zakdan tashkil topgan sodda termin hisoblanadi. Termin ijtimoiylashuvi natijasida buffer terminiga o‘zbek tili morfem tizimiga tegishli bo‘lgan “lash”, qoraqalpoq tilidagi “lew” affiksi qo‘shilib *“bufferlash”* va *“bufferlew”* terminlari paydo bo‘lgan.

Xulosalar (Conclusions). Dunyoning yetakchi davlatlari bilan o‘rnatilgan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, ijtimoiy, madaniy, diniy va boshqa aloqalar negizida taraqqiyotning yangi pallasini boshidan kechirayotgan xalqimiz chet ellardan olib kelinayotgan eng so‘nggi texnika va texnologiyalar bilan oshno bo‘lmoqda, ularni kundalik hayotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Vatandoshlarimiz, ayniqsa, iste’dodli yoshlarning xorijning nufuzli oliy ta’lim muassasalarida tahsil olishi, yosh mutaxassislarning chet ellardagi universitetlarda malaka oshirishi, zamonaviy axborot texnologiyalarining insonlar turmushidan o‘rin olishi kabi omillar oqibatida yangidan yangi tushunchalar va ular bilan bog‘liq terminlar tilimizning so‘z xazinasidan o‘rin olmoqda.

Adabiyotlar

1. O‘zbek tili leksikologiyasi (jamoa) – Toshkent, “Fan”, 1981-y., – 12-b.

2. Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati, 1974. – 124-b.

3. Islomov I., Bobojonov Sh. O‘zbek tilining so‘zlar darajalanishi o‘quv lug‘ati. 2007-y., 52-b.

4. Bazarov O. O‘zbek tilida darajalanish: Filol. fan. dokt. dis. ... avtoref. - T., 1997. – 56-b.

5. To‘raxojaeva A. Mustaqillik sharoitida o‘zbek tili ijtimoiy-siyosiy leksikasining taraqqiyoti. Filol.fan.nom.ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan diss. avtoreferati. –Toshkent, 2012.8-b.

6. Фахри Камол. Лексикология ва семасиология // Ҳозирги ўзбек адабий тили. Икки томлик. 1-том. Фонетика, лексикология, морфология. – Тошкент: “Фан”, 1966.–Б.116.

7. Шомақсудов Ш., Долимов С. Қайроқи сўзлар (халқ иборалари). – Тошкент: “Ўз.МЭ”, 2011. – Б. 224.

8. Худойберганова Д. Тил. Тафаккур. Маданият. – Тошкент: “Nodirabegim”, 2020. – Б.30.

9. Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. – М, 1972. С 76.

10. O‘zbek tili leksikologiyasi (jamoa) – Toshkent, «Fan», 1981-y., – 12-b.

11. Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati, 1974. – 124-b.

12. Islomov I., Bobojonov Sh. O‘zbek tilining so‘zlar darajalanishi o‘quv lug‘ati. 2007-y., 52-b.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Axmadjanova Madina Maxmudjon qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili ta’limi kafedrasi tayanch doktoranti
ORCID: 0009-0005-9609-7015
sadiya170420@gmail.com

Taqrizchi - f.f.d.,dots. K.Haydarov

Received 4th Janvier 2025, Accepted 10th Janvier 2025, Online 24th Janvier 2025

MORFOLOGIYA TA’LIMI XUSUSIYATLARI VA ILMIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya: Ushbu maqola ona tili ta’limida morfologiyani o‘qitishning lingvistik va metodik asoslarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda morfologik bilimlarning o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, grammatik qoidalarni amaliy qo‘llash va savodxonlikni rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Maqolada interfaol, muammoli, amaliy va kommunikativ metodlar orqali morfologiyani samarali o‘qitish usullari tahlil qilingan. Shuningdek, xalqaro tajribalardan, jumladan, Xitoyning “Ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan metod” (POA) va fanlararo yondashuvlar tajribasidan foydalanishning ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqot morfologik ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali o‘quvchilarning til o‘rganish jarayonini samarali qilish va ularni murakkab lingvistik qiyinchiliklarni hal qilishga tayyorlash zaruratini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: morfologiya, grammatik minimum, til ko‘nikmalari, interfaol metodlar, kommunikativ yondashuv, fanlararo integratsiya, madaniy ong, lingvistik savodxonlik, o‘quv dasturlari, ta’lim samaradorligi.

PECULIARITIES OF MORPHOLOGY TEACHING AND SCIENTIFIC APPROACHES

Abstract: This article is devoted to the study of the linguo-methodological bases of teaching morphology in the system of native language.morphology in the system of native language. It emphasises the importance of of morphological knowledge in expanding the vocabulary of learners, applying grammatical rules in practice and improving literacy. The article analyses effective methods of teaching morphology, such as interactive, problem-based, practical and communicative approaches. It also emphasizes the importance of using international experiences, including China's ‘Production-Oriented Approach’ (POA) and interdisciplinary approaches. The study emphasizes the need to develop morphological skills in order to make the process of language learning language effectively and prepare students to deal with complex language tasks.

Keywords: words: morphology, grammatical minimum, linguistic skills, interactive methods, communicative approach, interdisciplinary integration, cultural awareness, linguistic literacy, curriculum programmes, learning effectiveness.

ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ МОРФОЛОГИИ И НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ

Аннотация: Данная статья посвящена изучению лингвометодических основ преподавания морфологии в системе родного языка. В нем подчеркивается важность морфологических знаний в расширении словарного запаса учащихся, применении

грамматических правил на практике и повышении грамотности. В статье анализируются эффективные методы обучения морфологии, такие как интерактивный, проблемный, практический и коммуникативный подходы. В нем также подчеркивается важность использования международного опыта, в том числе китайского «Производственно-ориентированного подхода» (POA) и междисциплинарных подходов. Исследование подчеркивает необходимость развития морфологических навыков, чтобы сделать процесс изучения языка эффективным и подготовить студентов к решению сложных языковых задач.

Ключевые слова: морфология, грамматический минимум, языковые навыки, интерактивные методы, коммуникативный подход, междисциплинарная интеграция, культурная осведомленность, языковая грамотность, учебные программы, эффективность обучения.

Kirish (Introduction)

Morfologiya tushunchasi tilshunoslikda so‘zlarning tuzilishi va ularning grammatik xususiyatlarini o‘rganadigan fan sifatida tilning asosiy komponentlaridan biridir. Morfologiya asosan so‘zlarning shaklini, ularning o‘zgarishini va ularning boshqa so‘zlar bilan bog‘lanishini tahlil qiladi. Bu tushuncha tilning boshqa sohalari bilan birgalikda, masalan, sintaksis va leksikologiya bilan o‘zaro aloqada rivojlanadi.

Morfologiyani o‘rganish o‘quvchining mustaqil va ijodiy tafakkur doirasini kengaytiradi, so‘zning turli shakllarini o‘rganish va yangi so‘z hosil qilish, ularni o‘zaro qiyoslash va tanlash, tanlab olingan so‘zni gap tarkibida hamda bog‘lanishli nutqda o‘rinli ishlatish ko‘nikmalarini rivojlantiradi [1.86]. Shuningdek o‘quvchilarni morfologiyani o‘qitish bilan tanishtirish lug‘at boyligi, imlo va tilni tushunish qobiliyatini oshirishga zamin yaratadi. Ularni murakkab so‘zlarni samarali dekodlash va talqin qilish ko‘nikmalari bilan jihozlaydi [2.122]. Morfologiyani o‘qitish metodikasi so‘zlarning tuzilishi va shakllanishini o‘rgatish tamoyillarini tushunishni o‘z ichiga oladi. U murakkab lingvistik tushunchalarni soddaroq komponentlarga ajratishga qaratilgan. Morfologiyani samarali o‘rgatish so‘zlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni, ularning ildiz shakllarini, prefiks va qo‘shimchalarni ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi. Bu o‘quvchilarga so‘z shakllanishini tartibga soluvchi naqsh va qoidalarni tushunishga yordam beradi. Morfologiya grammatikaning bir qismi bo‘lib, so‘zlarning shakllari, bu shakllarning hosil bo‘lish yo‘llari va so‘zlarning ma’lum belgilar asosida guruhlarga, ya’ni so‘z turkumlariga bo‘linishini o‘rganadi. Shu bois, morfologiyani o‘qitishda asosiy e’tibor so‘zning tuzilishi, yasalishi, so‘z turkumlariga bo‘linishiga qaratiladi [3.205]. Morfologiya (yunoncha morpheme meaning “shakl” va logos meaning “so‘z”) - grammatikaning so‘zlarning ichki tuzilishi, ularning grammatik kategoriyalari va ularning ma’nolariga qaratilgan bo‘limidir [4].

Morfologik bilimlar lingvistik ko‘nikmalarni rivojlantirishda, ayniqsa so‘z boyligini oshirish va o‘qib tushunishni yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Lingvistik ko‘nikmaning o‘zi esa – tilni o‘rganish va undan foydalanish jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bilim va malakalar majmuasidir. Bu ko‘nikmalar tilning strukturasi, grammatikasi, leksikasi va fonologiyasini qamrab olib, tilni tushunish va ifodalash qobiliyatini rivojlantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, lingvistik ko‘nikmalar o‘quvchilarning o‘qib tushunishi va yozish qobiliyatiga bevosita

ta’sir qiladi. Morfologiyaga oid lingvistik ko‘nikmalar esa tilshunoslikda so‘zlarning tuzilishi, shakllanishi va o‘zgarish qonuniyatlarini o‘rganishga asoslangan ko‘nikmalardir. Bu ko‘nikmalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

So‘z turkumlarini farqlash: so‘zlarni ot, fe’l, sifat, ravish kabi grammatik guruhlarga ajratishni bilish.

So‘z shakllarini tanib olish: so‘zlarning yasovchi va shakl yasovchi affikslari yordamida qanday hosil bo‘lganini tushunish.

So‘zlarning turlanish va tuslanish qoidalarini bilish: o‘rganilgan qoidalarga asoslanib, otlarni turlantirish yoki fe’llarni tuslash.

Shakl va ma’no uyg‘unligini tushunish: so‘z shaklining o‘zgarishi ma’noga qanday ta’sir qilishini anglash (masalan, zamon, nisbat yoki egalik).

So‘z yasash qoidalarini qo‘llash: lug‘at boyligini oshirish uchun o‘zlashtirilgan yasama so‘zlarni yaratish.

Morfemik tahlil: so‘zlarni ildiz, qo‘shimcha, o‘zak kabi qismlarga ajratib tahlil qilish.

Ushbu ko‘nikmalar ona tili ta’limida, ayniqsa, til qoidalarini tushuntirishda va grammatik minimumni belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, **morfologik bilim (ko‘nikma)** – til o‘rganishda so‘zlarning tuzilishi, shakllanishi va grammatik vazifalarini tushunish qobiliyati – lingvistik ko‘nikmalarning ajralmas qismi hisoblanadi. Uning ahamiyati quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

Grammatik bilimlarni o‘zlashtirish

Grammatik qoidalarni muvaffaqiyatli o‘rganish uchun morfologik ko‘nikmalar muhim omil sanaladi. Bu ko‘nikmalar yordamida o‘quvchilar so‘zlarning shakllari va grammatik rolini yaxshi tushunib, o‘z bilimlarini mustahkamlaydi. Shuningdek, morfologik ko‘nikma, o‘quvchilarga so‘zlarning tuzilishi va ularning grammatik funksiyalarini tushunishga yordam beradi. Bu, o‘quvchilarning tilni to‘g‘ri va samarali qo‘llash qobiliyatini oshiradi. O‘quvchilar, so‘zlarning morfologik tuzilishini bilish orqali ularni muloqotda to‘g‘ri ishlatishlari mumkin [5.254].

Tilni tushunish va amalda qo‘llash

Morfologik ko‘nikmalar so‘z tuzilmalari va grammatik vazifalarni yaxshiroq anglash imkonini yaratadi. Bu esa tilni samarali ishlatish uchun muhim poydevor bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, morfologik bilimlarning rivojlanishi o‘quvchilarning so‘z boyligi, tushunish va to‘g‘ri talaffuz qilish qobiliyatlarini oshiradi [6.254].

Leksik salohiyatni boyitish

Morfologik tuzilmalarni o‘rganish orqali o‘quvchilar yangi so‘zlarni o‘zlashtirish va ularni kontekstda to‘g‘ri qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa ularning til boyligini kengaytirishga xizmat qiladi. Morfologik bilimlar til o‘rganish jarayonida, ayniqsa, so‘z boyligini oshirish va o‘qib tushunishni yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, morfologik bilim – ya’ni so‘z tarkibidagi morfemalarning tuzilishi va ma’nosini anglash qobiliyati – turli tillarda va ta’lim sharoitlarida so‘z boyligini oshirishga yordam beradi.

O‘qib tushunishni rivojlantirishning morfologik bilimlardagi o’rni

Morfologik bilimlarning ahamiyati faqat lug‘at boyligini rivojlantirish bilan cheklanmaydi; u o‘qib tushunishini ham sezilarli darajada yaxshilaydi. Gudvin va hamkorlari murakkab so‘z

shakllarini anglash qobiliyatining o‘qib tushunish jarayonida muhim rol o‘ynashini aniqlaganlar [7.265]. Tige va Shatshneyder tadqiqotlarida esa morfologik ongni o‘qitish natijasida o‘quvchilar lug‘at boyligini oshirishga va shu orqali o‘qish qobiliyatini yaxshilashga erishganliklari ta’kidlangan [8.293].

Aniq va tushunarli muloqot hamda savodxonlik

Morfologik qoidalarni chuqur o‘zlashtirish o‘quvchilarga o‘z fikrlarini aniq, izchil va mantiqan asoslangan tarzda ifodalash imkonini beradi. Bu esa nafaqat ularning og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki kommunikativ qobiliyatlarini ham sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, morfologik bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirish hamda tilni mukammal o‘zlashtirish jarayonida asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, morfologik ong, ya'ni tilning eng kichik ma'no birliklari – morfemalarni aniqlash va ulardan samarali foydalanish qobiliyati, turli yosh guruhlari hamda turli tillarni o‘zlashtirish jarayonida o‘qish va yozish ko‘nikmalarining shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ushbu jarayon morfologiyaning nafaqat lingvistik asoslarini, balki uning pedagogik va kognitiv jihatlarini ham o‘rganish zaruratini ta’kidlaydi. Grammatik minimumni belgilash maktab ta’limida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu o‘quvchilar uchun eng zarur bo‘lgan grammatik qoidalar va tushunchalarni aniqlab beradi, ularning ortiqcha va murakkab qoidalar bilan chalg‘imasdan, asosiy bilimlarni egallashlariga imkon yaratadi. Shu bilan birga, grammatik materiallarni o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajasi va qobiliyatlariga mos holda tanlash orqali ularni bosqichma-bosqich o‘zlashtirishga ko‘maklashadi.

Ona tili ta'limida morfologiyani o‘qitish samaradorligini oshirish uchun quyidagi metodlar eng ko‘p tavsiya etiladi. Bu metodlar o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan:

Interfaol metodlar: Ushbu metodlar o‘quvchilarning dars jarayonida faol ishtirokini ta’minlaydi va grammatik qoidalarni amaliy kontekstda o‘rganish imkonini beradi. Klasterlash, insert texnologiyalari, munozara va rolli o‘yinlar kabi usullar morfologik tahlilni qiziqarli va samarali qiladi.

Muammoli ta’lim metodlari: O‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish va mustaqil o‘rganish qobiliyatini shakllantirish uchun muammoli vazifalar, tahlil va sintez yondashuvlari qo‘llaniladi. Masalan, “So‘z qanday qilib bir nechta turkumga oid bo‘lishi mumkin?” kabi savollarni yechish.

Amaliy metodlar: Grammatik qoidalarni real hayotda qo‘llashni rag‘batlantirish uchun morfemik tahlil, mashqlar va mustaqil ishlar tashkil etiladi. Bu yondashuv o‘quvchilarning so‘zlarni tuzilishi va shakllanishini yaxshiroq anglashlariga yordam beradi.

Ko‘rgazmali metodlar: taqdimotlar, diagrammalar, kartochkalar kabi vizual vositalar orqali bilimlarni tushunishni yengillashtiradi va darslarni samaraliroq qiladi.

Induktiv va deduktiv metodlar: Induktiv metod o‘quvchilarga misollar asosida grammatik qoidalarni mustaqil aniqlash imkonini bersa, deduktiv metodda ular avval qoidalarni o‘rganib, so‘ng amaliy mashqlar orqali mustahkamlaydilar.

O‘yin va texnologik metodlar: Interaktiv dasturlar, onlayn platformalar va ta’lim o‘yinlari o‘quvchilarning qiziqishini oshirib, morfologik qoidalarni o‘zlashtirishga yordam beradi. Masalan, “So‘z turkumini toping” kabi o‘yinlar samarali.

Integrativ metod: Morfologik ko‘nikmalarni boshqa fanlar yoki adabiy matnlar bilan bog‘lab o‘qitish orqali bilimlar yanada boyitiladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish: Har bir o‘quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olib, dars jarayonini tashkil etish til o‘rganishdagi samaradorlikni oshiradi.

Kommunikativ metod: Grammatik qoidalarni real hayotdagi vaziyatlarda qo‘llashni o‘rgatadi va o‘quvchilarning amaliy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu metod tilni o‘qitishda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Ushbu metodlar morfologiyani o‘qitish jarayonini interaktiv, samarali va o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilgan holda tashkil etishga yordam beradi.

Morfologiyani o‘qitish bo‘yicha xalqaro tajribalar o‘quvchilarning lingvistik ko‘nikmalarini rivojlantirish va morfologik bilimlarni samarali o‘zlashtirishga qaratilgan. Xitoyda ishlab chiqilgan “Ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan metod” (POA) morfologik bilimlarni amalda qo‘llash va o‘quvchilarni faol ishtirok etishga rag‘batlantiradi. Bu metod o‘quvchilarning morfologiyani real hayotiy vaziyatlarda o‘rganishiga yordam beradi.

Fanlararo yondashuvlar morfologiyani boshqa fanlar bilan bog‘lash orqali talabalarni tanqidiy fikrlashga undaydi va morfologik bilimlarni kengroq kontekstdagi ahamiyatini ochib beradi. Bundan tashqari, ***madaniy ongni rivojlantirish*** morfologik tuzilmalarni o‘z madaniy kontekstida tushunishga yordam beradi, bu esa o‘quvchilarning tilning madaniy ahamiyatini chuqurroq anglashini ta’minlaydi.

Morfologiya o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, grammatik qoidalarni amaliy qo‘llash va savodxonlik darajasini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Bu bilimlar tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirib, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta’lim samaradorligini oshirish uchun interfaol va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarni joriy qilish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va o‘qituvchilar malakasini oshirish zarur. Ushbu yondashuvlar nafaqat tilni o‘rganish jarayonini samarali qiladi, balki o‘quvchilarni murakkab lingvistik masalalarni hal qilishga tayyorlaydi. Shu sababli, morfologik ta’limni rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. B. To‘xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. O‘zbekiston Yozuvchilari uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. Toshkent – 2006. 86-bet
2. Atiyazov S. O‘zbek tili ta’limida morfologiya o‘qitish metodikasining ahamiyati // Recently scientific researcher’s theory. Vol. 2. – B. 122-127.
3. Xolmonova Z. , Yusupova T. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Navoiy universiteti nashriyot-matbaa uyi, 2019. – 205-bet.
4. Fozilova R. The detailed examination of each part of speech, including its grammatical categories and syntactical functions // Pedagogs. – 2024. – Vol. 58. Issue-4. –B. 12-bet.

5. Law J. , Wouters J. , & Ghesquière P. Morphological awareness and its role in compensation in adults with dyslexia // Dyslexia. – 2015. – №21(3). – B. 254-272. https://doi. org/10. 1002/dys. 1495
6. Goodwin A. , Huggins A. , Carlo M. , Malabonga V. , Kenyon D. , Louguit M., … & August D. Development and validation of extract the base: an english derivational morphology test for third through fifth grade monolingual students and spanish-speaking english language learners // Language Testing. – 2011. – Vol. 29(2). P. 265-289. https://doi. org/10. 1177/0265532211419827
7. Tighe E. and Schatschneider, C. Exploring the dimensionality of morphological awareness and its relations to vocabulary knowledge in adult basic education students // Reading Research Quarterly. – 2015. –Vol. 50(3). P. 293-311. https://doi. org/10. 1002/rrq. 102

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Mahmud Rashidov

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“Estrada va ommaviy tomoshalar san’ati” kafedrasi professori

Received 4th Janvier 2025, Accepted 10th Janvier 2025, Online 22th Janvier 2025

ZAMONAVIY O‘ZBEK TEATR SAN’ATINING MA’NAVIY HAYOTIMIZDA TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya: Asrlar mobaynida shakllangan, avloddan-avlodga bebaho meros sifatida o‘tib kelayotgan urf-odatlar, marosimlar, bayramlar zamirida ma’naviyatimizning asosiy g‘oyalarini singdirish muhim omildir. Ko‘p sonli teatr shakllari, janrlari, uslublari, til vositalari mavjud. Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek teatr san’atining ma’naviy hayotimizda tutgan o‘rnini xususida tahliliy fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Teatr san’ati, uchinchi renessans, tarbiya, salohiyat, madaniyat, tendensiya, tomoshabin, aktyor.

МЕСТО СОВРЕМЕННОГО УЗБЕКСКОГО ТЕАТРАЛЬНОГО ИСКУССТВА В НАШЕЙ ДУХОВНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация: Важным фактором является закрепление основных идей нашей духовности в традициях, обрядах и праздниках, которые формировались веками и передавались из поколения в поколение как бесценное наследие. Существует большое количество театральных форм, жанров, стилей и языковых средств. В статье даются аналитические размышления о месте современного узбекского театра в нашей духовной жизни.

Ключевые слова: театральное искусство, третий ренессанс, образование, потенциал, культура, тенденция, зритель, актер.

THE ROLE OF MODERN UZBEK THEATRE ART IN OUR SPIRITUAL LIFE

Annotation: An important factor is the consolidation of the main ideas of our spirituality in traditions, rituals and holidays that have been formed over centuries and passed down from generation to generation as an invaluable heritage. There are a large number of theatrical forms, genres, styles and linguistic means. The article provides analytical reflections on the place of modern Uzbek theater in our spiritual life.

Key words: theatre arts, third renaissance, education, potential, culture, trend, spectator, actor.

Kirish. O‘zbekiston xalqining benihoya boy va rang-barang madaniyati necha ming yillar davomida yorqin tarixiy voqealar silsilasida, o‘lkamizning betakror tabiati va turli madaniyatlarning

bir-biriga ilhombaxsh ta’siri natijasida shakllanib, ravnaq topib kelmoqda. Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashgan bugungi O‘zbekiston hududida turli davrlarda o‘ziga xos sivilizatsiyalar vujudga kelgan. Ushbu o‘lka fan va madaniyat markazi sifatida butun dunyoga dong taratgan, bu yerda hayrotomuz go‘zallikka ega shaharlar barpo etilgan, buyuk shoirlar va allomalar yashab ijod qilgan. Buyuk ilmiy kashfiyotlar, adabiyotlar va san’at, xalq og‘zaki ijodining o‘lmas obidalari shu maskanda yaratilgan. Bu noyob milliy, tarixiy-madaniy meros, haqli ravishda butun insoniyat xazinasi bo‘lib, ayni paytda xalqimizning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan ulkan hissasidan dalolat beradi[1].

Istiqlol davrida tarixiy asarlarga munosabat birmuncha o‘zgardi. Yurtimizning mafkuraviy talablaridan kelib chiqib, buyuk ajdodlarimiz haqida ko‘plab spektakllar sahnalashtirildi. Bu borada professor D.Rahmatullayeva quyidagi fikrlarni bildiradi: “Tarixga munosabatning o‘zgarishi natijasida madaniy qadriyatlarga qiziqish ortdi va o‘z-o‘zidan sahnalarda ko‘p ming yillik tarixning ijtimoiy qatlamlarini ko‘rsatishga bo‘lgan ehtiyoj uyg‘ondi. Natijada mamlakat va xalq taqdiri bilan bog‘liq qator tarixiy voqea va hodisalar bugungi kun nuqtai nazaridan mushohada etilmoqda. Shu bilan birga, teatrlar mamlakatimiz tarixida alohida o‘rin tutgan buyuk allomalar hayoti va faoliyatiga bo‘lgan qiziqishlarni qondirish yo‘lida ham faol ishtirok etmoqda” [2].

Teatr san’at turi sifatida barcha san’atlar sintezidir. U adabiyot, aktyorlik, rejissyorlik, musiqa, plastika, rasm, sahna texnikasini o‘z ichiga oladi.

Ekspressivlikning asosiy vositasi aktyor bo‘lib, u harakat orqali sahnada sodir bo‘layotgan voqealarning mohiyatini tomoshabinga yetkazadi. Shu bilan birga, aktyor tirik odam bo‘lishi shart emas – bu qo‘g‘irchoq yoki odam tomonidan boshqariladigan har qanday narsa bo‘lishi mumkin. Teatrning san’at turi sifatida xususiyatlari mavjuddir.

Sintetik tabiat. Teatrda turli xil san’at turlari va ilmiy ishlanmalar birlashtirilgan: adabiyot, tasviriy san’at, musiqa, xoreografiya, vokal va boshqalar.

Ijodiy jarayonning kollektivligi. Bu nafaqat teatr harakatlarining bevosita ishtirokchilariga (aktyorlar, rejissyorlar, dramaturglar va boshqalar), balki tomoshabinlarga ham tegishli. Teatrlarning ayrim turlari:

Drama teatri. Spektakl adabiy asarga asoslangan – drama yoki improvizatsiyani o‘z ichiga olgan ssenariy.

Opera teatri. Opera asarlarini namoyish etish uchun maxsus mo‘ljallangan musiqiy teatr binosi.

Balet teatri. Sahna san’ati turi, mazmuni musiqiy va xoreografik obrazlarda aks ettirilgan spektakl.

Qo‘g‘irchoq teatri. Qo‘g‘irchoq teatri spektakllarida personajlarning tashqi ko‘rinishi va jismoniy harakatlari odatda hajmli, yarim hajmli va tekis qo‘g‘irchoqlar bilan tasvirlangan va yoki ko‘rsatilgan.

Teatrda deyarli barcha san’at turlari birlashadi. Bitta dramatik spektakl bir vaqtning o‘zida adabiyotni (spektakl matni, ssenariy), tasviriy san’atni (to‘plamlar, rekvizitlar, kostyumlar), instrumental va vokal musiqasini (sahnada, sahnada yoki yozuvda ijro etiladigan), xoreografiyani (sahnalashtirilgan va yoki improvizatsion aktyorlik raqslari) va boshqalarni o‘z ichiga olishi mumkin. Bundan tashqari, zamonaviy teatr texnik imkoniyatlardan keng foydalanadi (sahna dizayni, uning mashinasi, yorug‘lik va ovoz uskunalaridan foydalanish, turli xil sahna effektlari, masalan,

tutun, tasvir proeksiyasi va boshqalar). Hatto ilmiy yutuqlar teatr o‘z maqsadlari uchun foydalanishni o‘rgandi! Bu haqida kam odam o‘ylaydi, lekin aktyor va rejissyorning ishi psixologlarning bir necha avlodlarining ilmiy ishlanmalariga asoslanadi.

Tibbiyot va fiziologiya aktyor uchun sahna harakati, akrobatika, sahna nutqi va vokal bo‘yicha majburiy mashg‘ulotlar bilan bevosita bog‘liq. Teatr rivojiga tarixchilar va adabiyotshunoslarning tadqiqotlari katta xazina olib keldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy izlanishlar olib borishning qiyosiy-tarixiy tahlil metodidan foydalanildi.

Spektaklni yaratishda juda ko‘p odamlar ishtirok etmoqda. Aktyorlar (ko‘pincha bir nechta aktyorlar), rejissyor, rejissyor yordamchilari, kompozitor, dekoratsiyalar, kostyumlar, rekvizitlar, tikuvchilar, butaforlar, musiqachilar, grimyorlar, kostyumlar bo‘yicha rassomlar... bundan tashqari, spektakl ustida ishchi sahnalar (yoritgichlar, tovushchilar, boshqa sahna effektlari bo‘yicha mutaxassislar) ishlaydi. Teatr ma’muriyati, buxgalterlar, prodyuserlar, reklama bo‘yicha mutaxassislar – bularning barchasi badiiy asar yaratishga katta hissa qo‘shadi. Spektaklning butun taqdiri butun teatr jamoasi ishining uyg‘unligiga bog‘liq: sahnalashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilishdan boshlab uch yuz yillik yubiley tomoshasiga qadar. Ko‘p odamlar o‘z harakatlarini muvofiqlashtirish, ijodiy konsensusga erishish va san'at olamida yangi va chiroyli narsalarni yaratish qanchalik qiyinligi haqida gapirishga arziydimi? Biroq, teatrning “kollektivligi” teatr jamoasining ishi bilan cheklanmaydi. Rejissyorlar “teatr tomoshabinsiz mavjud emas” degan iborani takrorlashni juda yaxshi ko‘radilar. Bu haqiqatan ham shunday. Hatto eng zo‘r mashq qilingan spektakl ham tomoshabin ko‘rmaguncha badiiy asar emas. Tomoshabin spektaklning to‘liq hammuallifidir.

Tahlil va natijalar. Rassom ajoyib rasm chizishi mumkin va u ko‘p yillar davomida mukammal bo‘lib qoladi. Yozuvchi ajoyib roman yoki she’r yaratishi mumkin va ko‘p yillar o‘tgach kashf etilgan munosib asar, albatta, o‘z o‘quvchisini topadi va muallifiga shon-sharaf keltiradi. Teatr tomoshasi faqat ijro paytida mavjud. Uni saqlash, tomoshabinlarning keyingi avlodlariga yetkazish mumkin emas. Har bir spektakl “bu yerda va hozir” tamoyili asosida yashaydi, har bir spektakl o‘ziga xosdir. Aktyorlar (va ba’zi tomoshabinlar) aniq bilishadi: bir xil spektaklni o‘ynash bir xil darajada mumkin emas.

Spektakl tirik mavjudotdir, u tushunarsiz o‘zgaradi, yangi sifatga ega bo‘ladi, tafsilotlar va nuanslar bilan to‘lib-toshgan. Uni yaratish jarayoni kiyinish mashqlari bilan tugamaydi – tayyor asar tomoshabinda tekshirilishi kerak va ko‘pincha tomoshabinlarning reaksiyasi yoki uning yo‘qligi spektaklda o‘zgarishlarga olib keladi.

Buyuk tariximizdan bizga ma’lumki, har bir davrda yurtimiz qo‘shni mamlakatlar va davlatlar bilan faol hamkorlik aloqalarini o‘rnatib kelishgan. Bu orqali ko‘plab sohalar rivojlangan, do‘stlik munosabatlari o‘rnatilib tinchlik-totuvlikka erishilgan. Milliy davlatchiligimiz asoslari haqidagi mulohazalarni siz buyuk yozuvchi Abduqahhor Ibrohimovning “Bizkim, o‘zbeklar” asaridan o‘qib bilishingiz mumkin. Bu asarda vatanparvarlik, madaniyatimizning mustahkam, baquvvat ildizlari haqidagi o‘y-mulohazalar keltirilgan. Jumladan, Markaziy Osiyo hududida joylashgan O‘zbekiston Respublikasidagi tinchlik va barqarorligi butun mintaqada mo‘tadil siyosiy iqlim, tinchlik va barqarorlik bardavom bo‘lishiga sabab bo‘luvchi omillardan biri bo‘lib kelgan va ayni kunlarda ham shunday. Bu mulohazani shuning uchun ham aytmoqdamizki, milliy davlatchiligimiz tarixini

shunday chuqur, keng ko‘lamda va har tomonlama o‘rganaylikki va targ‘ib qilaylikki, do‘stu nodo‘stlarimiz bizkim, o‘zbeklar haqiqatan ham qadim xalqlardan biri ekanimizni, davlatchiligimiz ham boy tarix, tajriba va an’analarga ega ekanini, bu davlatchilik nafaqat o‘zbek xalqimizning taqdirida, balki bir qator Sharq xalqlari qismatida ham ijobiy o‘rin tutganini rad etib bo‘lmaydigan dalillar qarshisida lol qolib, e’tirof etsinlar, noilmiy qarashlaridan, yuqoridan boqishlaridan voz kechsinlar. Lekin ularning tan olishlari birinchi masala emas, uzluksiz ravnaq eta borishlik millatni o‘z-o‘zidan e’tirof ettirib qo‘yajak. Asosiysi shuki, unitalayotgan tariximizni o‘zimiz chuqur bilib olaylik. Ana shunda bugunimizning qadriga ko‘proq yetamiz, kelajakka ishonchimiz yanada oshadi, qaddimiz yanada tik bo‘ladi[3].

Inson ruhiyati cheksizlikni, cheksizlikdagi sokinlik va betakrorlikni istaydi hamisha. Bunga erishish maqsadida esa ilm olamiga murojaat qiladi. Men bolaligimdan adabiyotga, musiqaga, kitob o‘qishga umumiy olganda ijodiy faoliyatga qiziqardim. Shu boisdir balki kasbiy hayotim ham madaniyat, san’atga bog‘langandir. Atrofimizdagi olam, butun dunyo-yu borliq mo‘jiza aslida. Mo‘jizaviy dunyoda qilgan orzularimizning ro‘yobini ko‘rish esa kishini yanada olg‘a borishga undaydi.

Xulosa va takliflar. Ilm olish butun umr davom etadigan faoliyat bo‘lib cheksiz ummon kabidir. Uning asl afzalligini anglash uchun u bilan ko‘proq va puxta shug‘ullanmoq kerak. Ilmning afzalligi shularda ko‘rinadi-ki, u ko‘paygani sayin o‘zingiz va atrofingizdagi olamni yaxshiroq taniy boshlaysiz. Ilmning afzalligini sizni hech narsangiz qolmaganida ham tark etmasligi, ishlatilgani sayin ko‘payib borishi va albatta oldingizga qo‘ygan orzularingizga ertaroq yetishishingizga ko‘maklashishidan bilsangiz bo‘ladi. Alisher Navoiy bobomiz “Ulug‘lik xushboyliklarini taratuvchi muhabbat shabadalari” nomli asarlarida ilmning ahamiyati haqida quyidagi jumlalar keltiriladi: Ilm – biz ko‘p ishlatadigan atama. Ammo chuqur va nozik mazmunga ega ekanini Abu Tohir al-Abhariy bayonida yozadi: “Andin so‘rdilarki: Haqiqat nedur? Dedikim: Barchasi ilmdur. Dedilarki: Ilm nedur? Dedikim: Barchasi haqiqatdur”. Ya’ni har qanday haqiqat – ilm bilan isbotlanishi va har qanday ilm – haqiqatga tayanishidir.

Yangi O‘zbekistonda olimlarimizning ilm bilan shug‘ullanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan. Davlatimiz rahbari tomonidan ham bunga katta e’tibor qaratilib, yuksak taraqqiyotga ilm orqali erishish ko‘zda tutilyapti. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Yurtimizda Uchinchi renessans poydevorini barpo etish uchun bizga zamonaviy ilm va yana bir bor ilm kerak”-deb ta’kidlaganlari bejiz emas.

Inson hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, tevarak atrofda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalar ba’zan uning turg‘un holatdagi qarashlarini o‘zgartirishga turtki bo‘ladi. Atrofimizdagi olam, butun dunyo-yu borliq mo‘jiza aslida. Mo‘jizaviy dunyoda qilgan orzularimizning ro‘yobini ko‘rish esa kishini yanada olg‘a borishga undaydi.

Zamon tezlashib, tobora globallashib, xalqlar va davlatlararo integratsiya jarayonlari jadallashib borayotgan bugungi kunda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni, konfessiyalararo birdamlikni, jahon hamjamiyati bilan madaniy aloqalar ta’minlash nafaqat O‘zbekiston, balki dunyoning ko‘plab mamlakatlari uchun dolzarb masala hisoblanadi. Dunyoda qancha millat, xalq bo‘lsa, har biri o‘ziga xos fe’l-atvor, urf-odatlarga ega. Insonparvarlik, bag‘rikenglik qatorida

millatlararo totuvlikka intilish azaldan xalqimizning yuksak fazilati hisoblangan. Madaniy-ma'rifiy tadbirlar asosida xalqlarning birlashuvi yanada jadallashgan.

O'zbekiston davlatining milliy siyosati ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar va barqarorlikni ta'minlash, mustaqillik va suverenitetni mustahkamlash, xalqlar o'rtasida ishonch, hamkorlik, ma'naviy birligini saqlash, turfa shaklli, shu bilan birga, yaxlit madaniy makonni yuzaga keltirishda ta'sirchan, samarali mexanizmga aylanayotganidan dalolat beradi. Binobarin, bunday makonda har qanday etnik jamoa vakillari teng ijtimoiy-huquqiy maqomga ega bo'lishi ularning milliy an'ana va tarixiy qadriyatlarga tayangan holda barqaror rivojlanishi, ma'naviy o'zligini saqlab qolishiga imkoniyat yaratadi[4].Insoniyatning har bir tarixiy bosqichda yashagan avlodlari tomonidan yaratilgan va keyingi avlodga yetib kelgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar majmui meros hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2019. – 276 b.
2. Rahmatullayeva D. Tarix va teatr. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 264 b.
3. Ibrohimov A. Bizkim, o'zbeklar: Milliy davlatchiligimiz asoslari haqida mulohazalar. – Toshkent: Sharq, 2001. – 267 b.
4. Musayev O. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar rivoji: monografiya/–Toshkent: Istiqlol nuri, 2016. 2

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Kamildjan Mirzayev

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

“Milliy qo‘shiqchilik” kafedrasi professori

Taqrizchi- t.f.f.d., M.Muxamedjanova

Received 4th Janvier 2025, Accepted 10th Janvier 2025, Online 24th Janvier 2025

MUSIQA SAN’ATINING JAMIYATIMIZ IJTIMOIY-MADANIY HAYOTIDAGI O‘RNI

Annotatsiya: Bugungi zamonda barcha ezgu niyatli insonlarni birlashtirish, yoshlarni yuksak gumanistik ideallar ruhida tarbiyalashda musiqa san’atining o‘rni va ahamiyatini hech narsa bilan o‘lchab, baholab bo‘lmaydi. Shu sababdan maqolada musiqa san’atining jamiyatimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi o‘rni to‘g‘risida tahliliy fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Madaniyat, san’at, musiqa, ohang, ijtimoiy, sog‘lom muhit, hayot, jamiyat.

МЕСТО МУЗЫКАЛЬНОГО ИСКУССТВА В СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНОЙ ЖИЗНИ ОБЩЕСТВА

Аннотация: В современном мире роль и значение музыки в объединении всех людей доброй воли и воспитании молодежи в духе высоких гуманистических идеалов невозможно измерить и оценить ничем. По этой причине в статье дается аналитический взгляд на роль музыки в социально-культурной жизни нашего общества.

Ключевые слова: Культура, искусство, музыка, мелодия, социальный, здоровая окружающая среда, жизнь, общество.

THE ROLE OF MUSIC ART IN THE SOCIO-CULTURAL LIFE OF SOCIETY

Annotation: In the modern world, the role and significance of music in uniting all people of good will and educating youth in the spirit of high humanistic ideals cannot be measured or assessed by anything. For this reason, the article provides an analytical view of the role of music in the socio-cultural life of our society.

Key words: Culture, art, music, melody, social, healthy environment, life, society.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Kirish

San'at bilan oshno bo'lgan yoshlarning
hayotga munosabati, milliy urf-odat va umumbashariy
qadriyatlarga hurmati baland bo'ladi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

O'zbekiston xalqining benihoya boy va rang-barang madaniyati necha ming yillar davomida yorqin tarixiy voqealar silsilasida, o'lkamizning betakror tabiati va turli madaniyatlarning bir-biriga ilhombaxsh ta'siri natijasida shakllanib, ravnaq topib kelmoqda. Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan bugungi O'zbekiston hududida turli davrlarda o'ziga xos sivilizatsiyalar vujudga kelgan. Ushbu o'lka fan va madaniyat markazi sifatida butun dunyoga dong taratgan, bu yerda hayrotomuz go'zallikka ega shaharlar barpo etilgan, buyuk shoirlar va allomalar yashab ijod qilgan. Buyuk ilmiy kashfiyotlar, adabiyotlar va san'at, xalq og'zaki ijodining o'lmas obidalari shu maskanda yaratilgan. Bu noyob milliy, tarixiy-madaniy meros, haqli ravishda butun insoniyat xazinasi bo'lib, ayni paytda xalqimizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan ulkan hissasidan dalolat beradi[1]. Ushbu fikrlar muhtaram Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgandan keyin katta amaliy o'zgarishlar bo'ldi. Xalqaro hamjamiyat bilan yanada mustahkam aloqalar o'rnatish uchun qator ishlar amalga oshirildi.

So'nggi vaqtlarda mamlakatimizda milliy madaniyatni, musiqa san'atini yanada rivojlantirish, yangi O'zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ'ib etish, xalq og'zaki ijodiyoti va havaskorlik san'atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, madaniyat va san'at sohasini takomillashtirishga qaratilgan ishlar bo'lmoqda. 2020-yilning 26-may kuni "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekison Respublikasi Prezidenti farmoni e'lon qilindi. Ushbu farmonda milliy musiqa san'atimiz va yurtimizdagi madaniy integratsiyani faollishtirgan omillar keltirib o'tildi. Jumladan:

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan imzolangan "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonda so'nggi vaqtlarda yurtimizda milliy madaniyatimizni tizimli rivojlantirish, Uchinchi renessans davrida yangi O'zbekistonning yangi tarixini yaratish, mustahkam poydevor barpo etish, moddiy va nomoddiy madaniy merosimizni asrab-avaylash va targ'ib etish, xalq og'zaki ijodiyoti va havaskorlik san'atini yanada rivojlantirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, madaniyat va san'at sohasini innovatsion usullarda takomillashtirishga qaratilgan rejali chora-tadbirlar amalga oshirilganligi ta'kidlab o'tilgan.[2] Jumladan, mamlakatimizda muntazam ravishda o'tkaziladigan Xalqaro maqom san'ati anjumani, Xalqaro baxshichilik san'ati festivali, "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali, "Buyuk ipak yo'li" xalqaro folklor san'ati festivali hamda "Raqs sehri" xalqaro festivali tashkil etilyotganligi, o'zbek mumtoz va folklor san'atining noyob namunalari va an'analarini hamda madaniy muloqotni yanada rivojlantirish bo'yicha samarali tizim yo'lga qo'yilganligi yuqorida bildirilgan fikrlarni tasdiqlaydi.

Xalqimizning umummilliy boyligi hisoblanadigan madaniy merosimizni va musiqamizni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va undan foydalanish borasida mamlakatimizda qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari YUNESKOning Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga, “Boysun madaniy muhiti”, “Shashmaqom musiqasi”, “Navro‘z”, “Katta ashula”, “Askiya”, “Palov madaniyati va an’analari” nomzodlari Insoniyat nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro‘yxatiga, Usmon Qur’oni, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar to‘plami, Xiva xonligi devonxonasi hujjatlari Jahon xotirasi ro‘yxatiga kiritilgani yurtimiz madaniy merosining dunyo miqyosida e’tirof etilganiga yorqin misol bo‘la oladi. Jahon hamjamiyati bilan hamkorlikda O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish va targ‘ib qilish borasida qator amaliy loyihalar, tadbirlar, konferensiyalar va festivallar muntazam ravishda o‘tkazilib kelinmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma’lumot o‘rnida, 2019-yilning 22-27-avgust kunlari Toshkent, Samarqand hamda Buxoro shaharlarida O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish, saqlash va ommalashtirish Butunjahon jamiyatining “O‘zbekiston-buyuk yo‘llar va sivilizatsiyalar: imperiyalar, dinlar, madaniyatlar chorrahasi” nomli III xalqaro anjumani bo‘lib o‘tdi. Ushbu anjumanda ishtirok etish maqsadida xorijdan ko‘plab ekspertlar, olimlar, jurnalistlar taklif etildi.

Musiqa san’atini rivojlantirishda rahbarlarning o‘rni va ularning faoliyati ham muhim hisoblanadi. Rahbar tomonidan jamoaga o‘rgatishni oldindan rejalashtirib qo‘yilgan asarni puxta va mukammal o‘zlashtirilib olish, so‘ng uni ishtirokchilarga qay usulda o‘rgatish rejasini tuzadi. Mazkur rejada ashula va raqs ansamblida mavjud bo‘lgan xonandalar, sozandalar va raqqosalar uchun bu asarning qaysi bir jihatlari murakkabligi, asarning badiiy talqini va uni o‘rgatib bo‘lishning taxminiy bo‘lsada muddati, o‘rganish jarayonida nimalarga alohida e’tibor berish lozimligi, yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklarni qanday bartaraf etish yo‘l-yo‘riqlari kabilarni belgilab olib, xormeyster, musiqa rahbari va baletmeysterlarga topshiriq beradi. Murakkab va qiyinchiliklar tug‘diradigan holatlarini yengilroq yengib o‘tish maqsadida ba’zi guruhlar bilan jamoa rahbarining o‘zi ham ishlab ko‘rsatishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tahlil va natijalar. Professor J.Shukurovning ta’kidlashicha: “Ashula va raqs ansambllarida asarni asosan tinglab turib, ya’ni notasiz tarzda o‘rganib olish odatiy tusga aylanib ulgurgan. Shuning uchun ham xonandalar guruhi rahbari xormeyster, sozandalar guruhining musiqa rahbari kabi mas’ullarning o‘zlari asarning ijro talqinini jamoa rahbarining talabiga muvofiq mukammal o‘zlashtirgan bo‘lgan bo‘lishlari shart. Aks holda bular bilan jamoa rahbari talqinlari orasida tafovutlar paydo bo‘ladi va ishtirokchilarning ijrolarida qo‘nimsizliklar paydo bo‘lib qolishi mumkin”. Bundan shunday xulosa qilishi mumkinki, jamoa rahbarlarining o‘zaro ijodiy tomonlama kelishmovchiliklari, jamoaning ijodiy hamfikrligi va ijro hamohangligiga albatta salbiy putur yetkazadi[3].

O‘rganilayotgan davrda o‘zbek musiqa ijrochiligi, san’at turlari nazariy-uslubiy va amaliy jihatlarida ma’lum siljishlar yuz berdi. Shu o‘rinda o‘zbek milliy san’atining yozma ravishda to‘planishiga e’tibor berilishi, ularni qayta ishlash bilan bog‘liq masalalarni hal etishga kirishilganligini ijobiy hol sifatida baholash mumkin. O‘zbek xalq musiqa ijodiyotini o‘rganish va ularni yozib olish maqsadida 1919-yil dekabrda Maorif xalq komissarligining Musiqaviy-etnografik bo‘limi tuzildi. Bu bo‘lim shu yili Toshkentda ochilgan Xalq konservatoriyasi qoshida ish boshladi.

Mazkur komissiya faoliyatida G‘.Zafariy, V.Uspenskiy, N.Mironov, E.Melngaylislar turli mavzudagi qo‘shiqlarni notaga olib, taig‘ib qila boshladilar. 1923-yil V.Uspenskiy Buxoroga borib, yirik maqom ustalari Ota Jalol Nosirov va Ota qiyos Abdug‘anilar ijrosida Shashmaqomni notaga tushirdi va 1924-yil nashr qilindi. V.Uspenskiy tadqiqot ishlari bilan ham shug‘ullanadi. U 1927-yil “O‘zbek klassik musiqasi” nomli maqolasini nashr qildi.

Shu yili A.Fitrat ham o‘zining “O‘zbek klassik musiqasi” nomli kitobini yozdi. Fitrat bu kitobda ”Shashmaqom” qismlari, ijrochi-musiqachilar, musiqa cholgu asboblari haqida ma’lumot beradi.

Xulosa va takliflar. Musiqashunos tadqiqotchilar N.Yuldasheva, M.Raxmatovalar o‘zlarining izlanishlarida quyidagi fikrlarni aytib o‘tadilar [4]: “O‘zbek milliy san’atshunosi G‘ulom Zafariy milliy musiqa taraqqiyoti uchun o‘zining salmoqli hissasini qo‘shdi. U XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida Turkistonda yashab ijod qilgan mashhur xonanda va sozandalarning faoliyatlari haqida ma’lumot to‘pladi. Uning qalamiga mansub “Musiqa muammosi”, “O‘zbek musiqasi to‘g‘risida”, “Sharq kuylari va cholgulari” kabi maqolalari tarixdan bizga malum. Bundan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, XIX asr va XX asrda yurtimizda musiqa ilmini va ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ko‘plab olimlar va muallimlar o‘z hissalarini qo‘shdilar.

Musiqa san’ati jamiyatimizning ijtimoiy-madaniy hayotida muhim va ajralmas o‘rin tutadi. U insonlarning hissiy va estetik dunyosini boyitib, ruhiy holatini yaxshilashda, ijodiy fikrlash va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda katta rol o‘ynaydi. Musiqa nafaqat individual tarbiya vositasi sifatida, balki jamiyatdagi birlashuv, do‘stlik va hamjihatlikni mustahkamlashda ham faol ishtirok etadi. Shuningdek, musiqa san’ati xalqning madaniy merosini saqlash va uni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Musiqa jamiyatimizning ijtimoiy va madaniy taraqqiyotini ta’minlashda, uning estetik va axloqiy rivojlanishida katta rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. – Toshkent.: O‘zbekiston NMIU, 2019. 399 b.
2. Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni //Xalq so‘zi. -2020. -28 may.
3. Shukurov J.T. Badiiy jamoalar bilan ishlash uslubiyoti. – Toshkent.: 2020. 223 b.
4. Yuldasheva N., Raxmatova N. O‘zbek musiqa adabiyoti:– T.: Iqtisod-Moliya, 2016. – 144 b.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Mahmud Rashidov,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“Estrada va ommaviy tomoshalar san’ati” kafedrasi professori

Taqrizchi- t.f.f.d., M.Muxamedjanova

Received 4th Janvier 2025, Accepted 10th Janvier 2025, Online 22th Janvier2025

JADID MA’RIFATPARVARLARINING TEATR SAN’ATI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI

Annotatsiya: Jadid ma’rifatparvarlari xalqimizning kelajagi uchun katta ishlarni amalga oshirishdi. Inson qadri va ta’lim-tarbiyani rivojlantirish ularning asosiy g‘oyalaridan biri edi. Ular bu ishlarni teatr san’ati orqali amaliyotga joriy etishni ko‘zladilar Ushbu maqolada jadid ma’rifatparvarlarining teatr san’ati rivojiga qo‘shgan hissasi haqida tahliliy fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik harakati, “Shuhrat gazetasi”, Abdulla Avloniy, matbuot, o‘zbek teatri, taraqqiyot, modernizatsiya, spektakl, ijtimoiylashuv, jadid.

ВКЛАД ДЖАДИДСКИХ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ В РАЗВИТИИ ТЕАТРАЛЬНОГО ИСКУССТВА

Аннотация: Новые просветители совершили великие дела ради будущего нашего народа. Одной из их главных идей было поощрение человеческого достоинства и образования. Они стремились воплотить эти идеи в жизнь посредством театрального искусства. В этой статье представлен аналитический взгляд на вклад джадидского просвещения в развитие театра.

Ключевые слова: Джадидское движение, «газета Шухрат», Абдулла Авлони, пресса, узбекский театр, развитие, модернизация, перформанс, социализация, джадид.

THE CONTRIBUTION OF JADID EDUCATORS TO THE DEVELOPMENT OF THEATRE ART

Annotation: The new enlighteners did great things for the future of our nation. One of their main ideas was to promote human dignity and education. They sought to implement these ideas through theatrical art. This article presents an analytical look at the contribution of the Jadid Enlightenment to the development of theater.

Key words: Jadid movement, “Shukhrat newspaper”, Abdullah Avloni, press, Uzbek theatre, development, modernization, performance, socialization, jadid.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Inson va jamiyat hayotida, xalqning ma'naviy dunyosini, ongu tafakkurini yuksaltirishda teatr san'atining o'rni va ahamiyati beqiyosdir.
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

Kirish. Teatr hech qachon o'zining ijtimoiy xususiyatlaridan alohida bo'lolmaydi u har doim jamiyat hayoti bilan, o'zi mansub va mavjud bo'lgan jamiyatning bir bo'lagi sifatida faoliyat yuritadi. Bu ham mafkuraviy tomondan, ham madaniy tomondan jamiyatning bir bo'lagi sifatida, jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarning ishtirokchisi hamda ifodachisi sifatida namoyon bo'ladi.

Mustaqillik teatr san'atida uzoq yillik tarixga ega bo'lgan ijtimoiy-madaniy jarayonlarning yangi davrini boshlab berdi. Yangi siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar teatr san'atining ham yangicha tamoyillar asosida rivojlanishini talab qilishi tabiiy. Xususan, mafkuraviy yangilanishlar davrida zamon va tarixga ob'yektiv munosabat bildirish talabi qo'yildi. Taraqqiyotning bozor iqtisodiyoti yo'liga o'tgan jamiyatning teatrga munosabati va zamonaviy jarayonlarning badiiy ijodga ta'siri oldingidan o'zgacha ko'rinish oldi. Bu esa, mustaqillik davri ijtimoiy-madaniy jarayonlarida teatr san'atining tutgan o'rnini, dastavval, uning tarixiy-nazariy xususiyatlari asosida ko'rib chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

Jadidchilik harakatining asoschisi Ismoil G'aspirali o'zbek jadidchilari harakatiga ta'sir qildi va o'rnak ko'rsatdi. G'aspirali doimiy ravishda o'zbek jadidchilik harakatining ilg'or namoyandalari – Mahmudxo'ja Behbudiy, Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Tavallo, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Hamza va boshqalar bilan uchrashib, o'zbek, tatar, tojik bolalari uchun yangi uslubli maktablarni tashkil qilishda, matbuotchilikni rivojlantirishda va o'z oldilariga qo'ygan maqsadlarini amaliyotga chiqishida ko'maklashar edilar[1]. Ular eski turmushni, urf-odatlarni, maktablarda ta'lim-tarbiya usulini isloh qilish, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy yuksaklikka olib chiqishga qaratilgan dasturning asosiy yo'nalishini ishlab chiqdilar.

A.Avloniy, Munavvar qori, M.Behbudiy, Cho'lpon va boshqa bir qator ziyolilarimiz XIX asr oxiri – XX asr boshlarida teatrchilik harakatini amalga oshirishga kirishdi. Natijada 1914-yili Samarqand va Toshkentda birinchi dramaturgiya namunasi hisoblangan Behbudiyning "Padarkush" asari asosida ilk spektakllar sahna yuzini ko'rdi. Keyingi yillarda yevropa tipidagi zamonaviy teatr shakl va usullarini o'rganish, ijodiy o'zlashtirish, ularni milliy tomosha san'ati tajribalari asosida qo'llash, realistik teatr unsurlarini spektakl talqinida mujassam etishga intilish kuzatildi. 1914-1924-yillar teatr san'ati uchun tom ma'noda ijodiy izlanishlar hamda professional shakllanish davriga aylandi.

Birinchi o'zbek milliy teatr truppasi 1913-yili "Turon" nomi bilan Toshkent shahrida tashkil topgan. Dastlab kichik tarjima sahna asarlari qo'yib, ma'rifiy tadbirlar uyushtirib rasmiy faoliyatini 1914-yil 27-fevralda Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" fojiasi asosida sahnalashtirilgan spektakli bilan boshlaydi. Teatrning tashkilotchilari Toshkent shahrining o'lka miqyosidagi baobro' jadid ziyolilari bo'lib, Turkiston uchun yangilik bo'lgan teatr ishlarini san'atning bu turi rivojlangan mamlakatlar tajribasini puxta o'rganib amalga oshirishga qaror qiladilar. Ular ishni teatrning tarkibiy tuzilishi, ijrochi kuchlar – aktyor va rejissorlarning vazifalari, ijodiy, tashkiliy, moliyaviy ishlarni

boshqarish, teatr jamoasi haq-huquqlarini o‘zida ifodalovchi hujjat – teatr Nizomini yaratishdan boshlaydilar.

Jadidchilik harakatining yirik namoyondalaridan biri, buyuk shoir, yozuvchi, dramaturg, pedagog, jurnalist va xalq arbobi, o‘zbek madaniyati va adabiyotining asoschilaridan biri Abdulla Avloniydir. U o‘zbek pedagogikasi, dramaturgiyasi, milliy teatri, jurnalistikasi, bolalar adabiyotini yangi darajaga olib chiqqan. Abdulla Avloniy she’rlari 15 yoshidan boshlab matbuotda ko‘rina boshladi. Jadidchilik harakati rahbarlaridan biri bo‘lgan Avloniy 1904-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida jadid maktabini, 1909-yilda “Jamiyati xayriya” uyushmasini tashkil etadi. 1905-1917-yillarda matbuotdagi qizg‘in faoliyati, ko‘plab publitsistik maqolalari bilan “bir yoqdan milliy islohot uchun mafkura hozirlag‘on, ikkinchi yoqdan el orasiga o‘zgarish tuxmini sochg‘on” ham (Abdulla Avloniy bo‘ldi. Avloniy o‘zi nashr etgan “Shuhrat” (1907) nomli gazetasi faoliyatini shunday baholagan edi.

U Turkistonda birinchilardan bo‘lib maktabga geografiya, kimyo, xandasa, fizika fanlari kiritilishiga ta’sir ko‘rsatdi, ta’limni real turmush bilan bog‘lashga intildi, bir dars bilan boshqasi o‘rtasida muayyan tanaffusni, bir sinfdan ikkinchisiga o‘tishdagi imtihonni joriy etdi, ta’lim tizimining dunyoviy yo‘nalishini kuchaytirshiga alohida e’tibor berdi. Uning “Birinchi muallim” (“Muallimi avval”, 1909), “Ikkinchi muallim” (“Muallimi soniy”, 1912) nomli darsliklari, “Turkiy guliston yoxud axloq” (1913), “Gulistoni maktab” (1917), “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” (1909-1916, 6 qism) kabi qo‘llanmalari maktablarda o‘qitilgan. Avloniy “Turon” (1917) gazetasiga “Yashasin xalq jumhuriyati” degan shiorni tanladi, “Turon” nomli teatr to‘garagini tashkil etib, iqtidorli yoshlarni to‘pladi, ayrim rollarni ijro etishda o‘zi ham qatnashdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda olimlarimizning ilmiy maqolalaridan foydalanildi. Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy izlanishlar olib borishning qiyosiy-tarixiy tahlil metodidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Abdulla Avloniyning “Shuhrat” gazetasi — milliy, adabiy, ilmiy, siyosiy gazeta hisoblanadi. Ushbu gazeta 1907-yil 1-dekabrdan haftada 2 marta chiqa boshlagan. Sahifalarida xurofotga qarshi maqolalar chop etilgan. Zamona talabiga javob beradigan kadrlar tayyorlash kerakligini targ‘ib qilgan. Gazetada rasmiy muharrir Abdulla Avloniy deb yozilsa-da, ammo amalda unga Munavvarqori Abdurashidxonov rahbarlik qilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Tursunxo‘ja Homidxo‘ja o‘g‘li va Shoir Miskin Toshkandiylar gazetaning asosiy mualliflari sanalgan. 1907-yilda o‘z hovlisida “Shuhrat” gazetasini chiqara boshladi[2]. Gazetaning yo‘li ayon bo‘lishi bilan do‘stidan dushmani ko‘payadi. Natijada, 10-soni chiqib bekildi. Redaksiya asbob-ashyolari, qog‘ozlar va materiallar hammasi musodara qilindi. Lekin Avloniy bo‘sh kelmadi. A.Bektemirov nomiga ruxsat olib “Osiyoni” chiqara boshladi. Bu gazetalar o‘zbek milliy matbuotining dastlabki namunalari bo‘lishi bilan ham muhim edi.

O‘qishdan so‘ng pedagogika bilan shug‘ullanadi, yangi o‘quv tizimiga asos soladi va Sharq hamda G‘arb tillarini o‘qitish taklifini beradi. Avloniy birinchi bo‘lib jo‘g‘rofiya, kimyo, astronomiya va fizika fanlarini Turkiston maktabida o‘qitish taklifini beradi, u darslar orasida tanaffuslarni, o‘quvchilar bir sinfdan ikkinchisiga o‘tishi orasida imtihon topshirish tizimini yo‘lga qo‘yadi[3]. Shunday qilib, Turkistondagi ta’lim tizimini yangi bosqichga ko‘taradi. 1895-yildan e’tiboran, Avloniy “Qobil”, “Shuhrat”, “Hijron”, “Avloniy”, “Surayyo”, “Abulfayz”, “Indamas” kabi

tahalluslar ostida ijod qilarkan, feletonlar va dramatik asarlar yozadi. U o‘z xalqini ta’lim olib, ma’rifatli bo‘lishga chorlagan. 1909-yil u jadidchilik uslubidagi maktabni ochadi. Behbudiy bilan birgalikda u “Turon” ruppasiga asos solishadi va “Padarkush” pyesasini sahnalashtirishadi. 1917-yil revolyutsiyadan so‘ng “Yashasin xalk jumhuriyati” shiori bilan “Turon” gazetasini nashrdan chiqara boshlaydi.

1913-yilda Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari bosilib chiqdi. 1917-yilda ikkinchi martta nashr qilinadi. Kitob maktablarning yuqori sinf o‘quvchilariga darslik sifatida yozilgan. Lekin asrimiz boshlaridagi o‘zbek jadid ma’rifatchiligining noyob hodisalaridan bo‘lgan bu asarning ahamiyati faqat maktab doirasi bilan cheklanmadi. U adabiyot va axloq havaskorlari uchun ham qo‘llanma bo‘lib xizmat qildi[4].

XX asrning 20-yillari juda murakkab davr bo‘lib, unga nisbatan yengil, bir yoqlama qarab bo‘lmaydi. O‘sha davr siyosiy-ijtimoiy holatini anglagan holda imkon qadar xolis munosabat bildirish lozim. Tadrijiy ravishda millat istiqloli sari intilayotgan jadidlarning harakatlarini 1917-yildan bolsheviklarning hokimiyat tepasiga kelish jarayonlari uzib qo‘ydi. Bu davr O‘zbek teatri, xususan, dramaturgiyasi g‘oyaviy (jadidlar hamda sovetlar o‘rtasidagi) kurash maydoniga aylandi va qaysidir ma’noda o‘zida haqiqiy demokratik tamoyillarni namoyon qildi.

Sho‘rolar davrida o‘zbek teatr san’ati targ‘ibotchilik rolini, kishilarni hukmron mafkura nuqtai nazaridan tarbiyalash funksiyasini bajardi. Ehtimol shu bois mumtoz merosga murojaat etishda asarlarning zohiriy tomonlari ko‘proq e’tiborda bo‘lib, botiniy jihatlarga diqqat qaratilmagandir. Aslini olganda teatr insonnni shaxs sifatida shakllanishiga yordam beruvchi, kishining botiniy xis-tuyg‘ularini uyg‘otish, fikrlash va mushohada qilishi uchun imkoniyat, shart-sharoit yaratib berishga qodir bo‘lgan qudratli kuch bo‘lmog‘i lozim[5]. Bu borada xalq ijodiyoti va mumtoz adabiyot munosabatlarini chuqur o‘zlashtirishi muhim o‘rin tutadiki, ana shunda hayotning butun silsilasi, dramatik, poetik ko‘rinishi, oq-qora va turfa ranglardagi ifodasini idrok qilish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Oktabr to‘ntarishidan keyin sobiq Rossiya imperiyasining barcha o‘lkalarida birin-ketin sho‘ro hukumati va uning tartiblari o‘rnatila boshlandi. Sho‘ro hukumati xalqni ikki sinfga bo‘lib yuborgandi. Biri ishchi va kambag‘al dehqonlar sinfi ikkinchisi esa mulkdorlar sinfi. Ana shu mulkdorlar sinfining mol-mulkini musodara qilib, davlat ixtiyoriga o‘tkazish, egalarini esa sinf sifatida tugatish, xususiy mulkka egalikni yo‘q qilish sovet davlatining birlamchi vazifalaridan edi.

Bu vazifalar hamma sohada bo‘lganidek, san’at va madaniyat sohasida ham birin-ketin amalga oshirildi. Xususiy hisoblangan jamoat va tomosha binolari, kutubxonalar, ular bilan bog‘liq mulk va jamoalar – teatr to‘dalari, musiqa, sozanda va xonanda uyushmalari, sirk va dorbozlik bilan shug‘ullanuvchi guruhlar hisobga olinib davlat ixtiyoridagi idoralarga bo‘ysundirilib, davlat ko‘rsatmalariga binoan ish yuritadigan qilib qo‘yildi. Sho‘rolar tuzumining o‘rnatilishi qonuniy tarixiy jarayon, kommunistlar partiyasi esa xalqlar xaloskori sifatida baholanib, kechagi va bugungi kunni qarama-qarshi sinflar kurashi nuqtai nazaridan baholash va tahlil qilish davlat mafkurasi maqomini oldi. Qarama-qarshi sinflar kurashini ijtimoiy fan, adabiyot va san’at tomonidan aks ettirishda rus ishchilari sinfini mazlum ommaning, xususan, rus bo‘lmagan xalqlarning peshqadam og‘asi sifatida, kommunistlar partiyasi va sovet davlati rahbarlarini dohiy, sifatida targ‘ib va ta’rif etish adabiyot va san’atning bosh vazifasi etib belgilandi[6].

Xulosa va takliflar. Boshqa sohalarda bo‘lgani kabi, maorif va madaniyat, san’at sohalarida ham barcha ko‘rinishdagi ijodiy jamoalar va ularning ko‘chmas mulklari birin-ketin hisobga olingach, davlat tasarrufiga o‘tkazildi. Chunonchi, “Sovetskiy Turkestan” gazetasining 1918-yil 16-avgust sonida bosilgan maqolada ochiq-oydin shunday deyilgan edi: “Teatr daromad keltiruvchi tashkilot sifatidagina emas, avvalo, zamonning siyosiy-badiiy maqsadlarini to‘g‘ri anglab, yuz berayotgan hodisalarga mos ravishda javob topa bilishi, ommaning san’atga bo‘lgan tashna qalbini qondira olishi bilan davlat muassasasi bo‘lishi kerak” [7].

Jadidchilik harakati hamda o‘zbek jadid dramaturgiyasi haqida san’atshunos olim Sh.Rizayev ham o‘zining tadqiqotlarida muhim ma’lumotlarni keltirib o‘tadi. Olimning fikricha, o‘zbek jadid dramaturgiyasi va teatrining shakllanishi, avvalo, ijtimoiy hayot taqozosi va ehtiyoji tufayli sodir bo‘lgan[8]. 1911-yilda Maxmudxo‘ja Behbudiy “Padarkush yoxud O‘qumagan bolaning holi” nomli 3 parda 4 manzarali milliy, birinchi fojia”sini yozadi. Ushbu asar 1913-yili Samarqandda alohida kitob holida chop etiladi. “Padarkush” pyesasining e’lon qilinishi bu Behbudiy yoki Samarqand shahri ziyolilari uchun ahmiyatli bir hodisa bo‘lmay, butun Turkistonda ijtimoiy-madaniy hayotning yanada jonlanmog‘i uchun, teatr havaskorlari negizida yangi-yangi ma’rifatchi jamoalar maydonga kelishi uchun turtki bo‘lgan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. – Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2009-yil. 278 b.
2. Olim, Oltinbek. Jadidlar. Abdulla Avloniy.: risola. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 158 b.
3. https://arboblar.uz/uz/people/avloni-abdulla.
4. Karimov B. “Ma’naviyat asoslari”. – Toshkent.: Donishmand ziyosi, 2021. – 488 b.
5. Tojiboyeva O. Epos va teatr. Birinchi kitob. – T.: San’at jurnali nashriyoti, 2015. – 236 b.
6. Tursunov T., XX asr o‘zbek teatri tarixi. – Toshkent, 2009.
7. Keltirilgan manba

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Абдусаламова Фароғат Сунатиллаевна
Руководитель хора Государственного учреждения «Государственный симфонический оркестр Узбекистана» при Министерстве культуры Республики Узбекистан.
Email: farogat0192@gmail.com

Published under peer review:
Doctor of Science in History, Associate Professor
Durdona Rasulova

Received 4th Janvier 2025, Accepted 10th Janvier 2025, Online 11th Janvier 2025

ВНЕДРЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ МУЗЫКЕ

Аннотация: Статья посвящена анализу механизмов современных педагогических технологий в обучении музыке, с акцентом на их применение в образовательной системе Узбекистана. Рассматриваются цифровые и интерактивные методы, аудиовизуальные технологии и мультимедийные ресурсы, способствующие повышению эффективности музыкального образования. Проведен сравнительный анализ опыта Узбекистана и зарубежных стран, таких как Финляндия и Южная Корея, выявлены перспективные направления для заимствования лучших практик. Особое внимание уделено сохранению национальной идентичности в музыкальном образовании через использование инновационных подходов к изучению узбекского музыкального наследия. Обозначены проблемы, связанные с нехваткой оборудования и недостаточной подготовленностью преподавателей, а также предложены рекомендации по интеграции современных технологий в образовательный процесс для подготовки конкурентоспособных учителей музыки.

Ma’naviy va huquqiy normalarning o‘zaro bog‘liqligi. Ma’naviy va huquqiy normalar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan bir-biriga ta’sir qiladi va shakllantiradi. Yaxshi ishlaydigan jamiyat ularni o‘zaro mustahkamlash zarurligini tan oladi:

Axloq huquqning asosi sifatida: Qonunlar ko‘pincha o‘z qonuniyligini axloqiy tamoyillardan oladi. Jumladan, o‘g‘irlik, qotillik va firibgarlikka qarshi huquqiy ta’qiqlar inson qadr-qimmati va adolatini ustuvor deb hisoblaydigan umuminsoniy Ma’naviy qadriyatlarga asoslanadi. Ma’naviy konsensusdan uzilgan qonunlar jamiyat barqarorligiga putur yetkazuvchi zolim yoki adolatsiz deb qabul qilinishi xavfi bor[7].

Huquq axloqning kodifikatsiyasi sifatida: Huquqiy normalar axloqiy tamoyillarni rasmiylashtiradi, ularning jamiyatda izchil qo‘llanilishini ta’minlaydi. Masalan, diskriminatsiyaga qarshi qonunlar tenglik va inklyuzivlik kabi Ma’naviy qadriyatlarni kodlashtirib, Ma’naviy ideallarni amaldagi qoidalarga aylantiradi.

Huquqiy bo‘shliqlarda ma’naviy ko‘rsatmalar: Qonunlar noaniq yoki jim bo‘lishi mumkin bo‘lgan sohalarda ma’naviy me’yorlar yo‘l-yo‘riq beradi. Ma’naviy mulohazalar ko‘pincha sud qarorlari, qonunchilik ustuvorliklari va jamoatchilik fikriga ta’sir qilib, adolat jamiyat qadriyatlariga mos kelishini ta’minlaydi.

Huquqning axloqni shakllantirishdagi roli: Vaqt o‘tishi bilan huquqiy normalar maqbul xatti-harakatlar standartlarini belgilash orqali jamiyat axloqiga ta’sir qilishi mumkin. Masalan, bolalar mehnatini taqiqlovchi yoki atrof-muhitni muhofaza qilishni talab qiluvchi qonunlar asta-sekin jamiyatning ushbu masalalarga munosabatini shakllantirdi[8].

Ma’naviy va huquqiy normalarning uyg‘unligi jamiyatda ishonch, qonuniylik va uyg‘unlikni ta’minlaydi. Quyida ularning uyg‘unligi barqarorlikka hissa qo‘shishning asosiy usullari keltirilgan:

Boshqaruvning qonuniyligi va ijtimoiy hamjihatlik. Qonunlar umumiy ma’naviy qadriyatlarni aks ettirsa, ular jamoatchilik oldida qonuniylikka erishadi. Fuqarolar o‘zlari ma’naviy jihatdan adolatli deb hisoblagan qonunlarga ko‘proq rioya qiladilar, bu esa majburlash orqali ularni amalga oshirishga bo‘lgan ehtiyojni kamaytiradi. Masalan, ko‘plab demokratik davlatlarda fuqarolik huquqlari to‘g‘risidagi qonunlar tenglik va adolat haqidagi ma’naviy e’tiqodlarga mos keladi va keng jamoatchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Ma’naviy va huquqiy normalar birgalikda xulq-atvorning umumiy asosini ta’minlaydi, birlik va o‘zaro tushunishni kuchaytiradi. Tegishli me’yorlarga ega jamiyatlar nizolarning pastroq darajasini boshdan kechiradi, chunki shaxslar va guruhlar maqsad va axloqiy mas’uliyat hissini baham ko‘radi.

Nizolarni hal qilish va uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlash. Uyg‘unlashtirilgan normalar nizolarni hal qilishning aniq mexanizmlarini taklif qiladi. Ma’naviy tamoyillarga asoslangan huquqiy tizimlar adolatning adolatli va xolis sifatida qabul qilinishini ta’minlaydi, norozilikni kamaytiradi va yarashuvga yordam beradi. Ma’naviy va huquqiy normalarni uyg‘unlashtirishga ustuvor ahamiyat beradigan jamiyatlar boshqaruv uchun barqaror poydevor yaratadi. Ushbu uyg‘unlik uzoq muddatli

barqarorlik uchun muhim bo‘lgan Ma’naviy yaxlitlikni saqlagan holda o‘zgaruvchan jamiyat ehtiyojlariga moslashishni ta’minlaydi[9].

Huquq va erkinliklarni himoya qilish. Ma’naviy tamoyillarning huquqiy tizimlarga integratsiyalashuvi asosiy huquq va erkinliklarni himoya qiladi. Masalan, ma’naviy qadriyatlarga asoslangan inson huquqlari to‘g‘risidagi qonunlar shaxslarni haqorat va kamsitishlardan himoya qiladi, hamma uchun qadr-qimmat va tenglikni ta’minlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ma’naviy va huquqiy normalarni uyg‘unlashtirish muammolari. Ularning o‘zaro bog‘liqligiga qaramay, ma’naviy va huquqiy normalar o‘rtasidagi uyg‘unlikka erishish qiyin emas:

Madaniy xilma-xillik va rivojlanayotgan axloq: Plyuralistik jamiyatlarda turli xil axloqiy qarashlar umume’tirof etilgan huquqiy normalarni yaratishni murakkablashtirishi mumkin[10]. Turli qadriyatlarni muvozanatlash qonun ijodkorligiga inklyuziv va ishtirokchi yondashuvlarni talab qiladi. Ma’naviy qadriyatlar ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik o‘zgarishlar ta’sirida vaqt o‘tishi bilan rivojlanadi. Huquqiy tizimlar barqarorlik va uzluksizlikni saqlagan holda ushbu siljishlarga moslashishi kerak.

Axloq va qonun o‘rtasidagi ziddiyat: Keng tarqalgan Ma’naviy e’tiqodlarga zid bo‘lgan qonunlar ijtimoiy tartibsizliklarga olib kelishi mumkin. Masalan, aparteid yoki segregatsiya siyosati kabi adolatsiz qonunlarning tarixiy misollari bunday mojarolarning beqarorlashtiruvchi ta’sirini ko‘rsatadi.

Amalga oshirish muammolari, globallashuv va axloqiy *relativizm*: Huquqiy normalarning ma’naviy qadriyatlarni aks ettirishini ta’minlash korruptsiya, tengsizlik yoki avtoritarizm sharoitida qiyin bo‘lishi mumkin. Shaffoflik va javobgarlik bo‘lmasa, qonunlar jamoat manfaatiga xizmat qilmasligi mumkin. Globallashgan dunyoda mamlakatlarda turli xil ma’naviy va huquqiy normalar, xususan, inson huquqlari, atrof-muhit siyosati va savdo qoidalari kabi sohalarda keskinlikni keltirib chiqarishi mumkin[11].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Barqaror jamiyatlarni barpo etish uchun Ma’naviy va huquqiy me’yorlarni uyg‘unlashtirishga qaratilgan sa’y-harakatlarni amalga oshirish kerak. Asosiy strategiyalarga quyidagilar kiradi:

- Inklyuziv qonun ijodkorligi: Qonun ijodkorligi jarayoniga turli manfaatdor tomonlarni jalb qilish qonunlarda jamiyatning barcha qatlamlarining ma’naviy qadriyatlarini aks ettirishini ta’minlaydi.
- Ma’naviy yetakchilik: Ma’naviy halollik namunasi bo‘lgan yetakchilar jamoatchilik ishonchini uyg‘otadi va Ma’naviy boshqaruv standartini o‘rnatadi.
- Ta’lim va xabardorlik: Ma’naviy tarbiya va huquqiy savodxonlikni oshirish fuqarolarga ushbu normalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni va ularning jamiyat barqarorligidagi rolini tushunishga yordam beradi.
- Sud nazorati: Mustaqil va xolis sud tizimi qonunlarning Ma’naviy tamoyillarga mos ravishda talqin qilinishi va qo‘llanilishini ta’minlaydi.
- Moslashuvchanlik va islohot: Huquqiy tizimlarni muntazam qayta ko‘rib chiqish va isloh qilish ularning rivojlanayotgan ma’naviy qadriyatlar va jamiyat ehtiyojlariga mos kelishini ta’minlaydi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ma’naviy va huquqiy normalarning uyg‘unligi barqaror jamiyatlarning tamal toshi hisoblanadi. U ishonch, qonuniylik va hamjihatlikni rivojlantiradi, jamiyatlarga muammolarni hal qilish va umumiy manfaatni ilgari surish imkonini beradi. Madaniy xilma-xillik, rivojlanayotgan qadriyatlar va global murakkabliklar qiyinchiliklar tug‘dirsa-da, inklyuziv boshqaruv, ma’naviy yetakchilik va ta’lim orqali ushbu me’yorlarni

moslashtirishga qaratilgan qasddan sa’y-harakatlar ushbu to‘siqlarni engib o‘tishi mumkin. Qonunlar umumiy ma’naviy tamoyillarni aks ettirishini ta’minlash orqali jamiyatlar adolat, tinchlik va farovonlik uchun barqaror poydevor yaratishi, shaxslar va jamoalar o‘zaro hurmat va hamjihatlikda ravnaq topadigan dunyoni barpo etishi mumkin. Ma’naviy-huquqiy me’yorlar uyg‘unligi barqaror jamiyatlarning tamal toshi bo‘lib, ishonch, adolat va hamjihatlikni mustahkamlaydi. Ushbu tamoyillarni integratsiyalashgan holda, davlat boshqaruvi tenglik va barqarorlikni rag‘batlantirish orqali jamiyat muammolarini samarali hal qilishi mumkin. Qiyinchiliklar mavjud bo‘lsa-da, olimlarning istiqbollari va real misollar bu sintezning transformatsion salohiyatini ta’kidlaydi. Barqaror jamiyat qurish uchun nafaqat mustahkam huquqiy tizimlar, balki ma’naviy qadriyatlar tomonidan ta’minlangan ma’naviy yo‘l-yo‘riq ham talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Toxtabayevna I. O. DAVLAT BOSHQARUVINING ASOSIY PRINSIPLARIDAN BIRI HAM QONUNIYLIKNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //TADQIQOTLAR. UZ. – 2023. – T. 28. – №. 5. – C. 210-212.
2. Tolibovna R. N. JAMIYATNING MA’NAVIY BARQARORLIK DARAJASINI ANIQLASH MEZONLARI //PEDAGOG. – 2024. – T. 7. – №. 4. – C. 29-32.
3. Оболонский, Александр Валентинович. “Политическая этика, власть, право”. Вопросы государственного и муниципального управления 1 (2007): 79-106.
4. John Finnis: Highlights the interdependence of legal and moral norms in fostering societal stability (Finnis, 1980, Natural Law and Natural Rights, p. 23).
5. Max Weber: Discusses the role of spiritual norms in promoting societal cohesion and enhancing the legitimacy of legal systems (Weber, 1920, The Protestant Ethic and the Spirit of Capitalism, p. 112).
6. Amartya Sen: Links the incorporation of spiritual norms with the promotion of justice and human capabilities (Sen, 2009, The Idea of Justice, p. 54).
7. Марков, Юрий Геннадьевич. “Этика и право: проблема единства”. Государство и право 4 (2011): 88-90.
8. Amartya Sen: Links the incorporation of spiritual norms with the promotion of justice and human capabilities (Sen, 2009, The Idea of Justice, p. 54).
9. Марков, Юрий Геннадьевич. "Этика и право: проблема единства." Государство и право 4 (2011): 88-90.
10. Mexroj, Bannaqulov. "MADANIYATNING TARKIBIY QISMLARINI O‘RGANISHDA SINERGETIK YONDASHUV." UNIVERSAL JOURNAL OF TECHNOLOGY AND INNOVATION 1.8 (2023): 82-87.
11. Yuldasheva, F. X. "GLOBALLASHUV VA GLOBAL ONGNING SHAKLLANISHI." ILMIY XABARNOMA (2023): 5.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Musaev Mansur Tursunpo‘latovich
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i, siyosiy fanlar doktori (DSc), katta ilmiy xodim

Received 4th Janvier 2025, Accepted 10th Janvier 2025, Online 4th February 2025

YOSHLARNI VATANPARVALIK RUHIDA TARBIYALASHDA MILLIY G‘OYANING AHAMIYATI

Annotaciya. Mazkur maqolada yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy g‘oyaning ahamiyati haqidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada insonni o‘z xalqiga bo‘lgan sadoqati va fidoiyligi ona Vatanini himoya qilishi, uni cheksiz sevishi uning haqiqiy vatanparvarligini anglatishi borasidagi fikrlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Vatan, vatanparvarlik, tarbiya, jamiyat, mafkura, sadoqat, odob-axloq, fazilat, birdamlik, maqsad, manfaat.

ЗНАЧЕНИЕ НАЦИОНАЛНОЙ ИДЕИ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ ПАТРИОТИЗМА

Аннотация. В данной стате научно анализируются мнения о значении националной идеи в воспитании молодежи в духе патриотизма. Также в стате приводятся мнения о том, что верност и преданност человека своему народу защищают свою Родину, и его безграничная любов к ней, означают его истинный патриотизм.

Ключевые слова: Страна, патриотизм, воспитание, общество, идеология, верност, манеры, добродетел, единство, цел, интерес.

THE IMPORTANCE OF THE NATIONAL IDEA IN EDUCATING YOUNG PEOPLE IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM

Annotation. This article scientifically analyzes opinions on the importance of the national idea in educating young people in the spirit of patriotism. The article also provides opinions that a person’s loyalty and devotion to his people protect his homeland, and his boundless love for it means his true patriotism.

Key words: Country, patriotism, education, society, ideology, loyalty, manners, virtue, unity, purpose, interest.

Kirish(Introdustion). Tarixdan ma’lumki, har qanday insonning o‘z xalqiga bo‘lgan sadoqati va fidoiyligi ona Vatanini himoya qilishi, uni cheksiz sevishi uning haqiqiy vatanparvarligini anglatadi. Insonni kindik qoni to‘kilgan joy uning uchun hamma narsadan ulug‘ va muqaddasdir. Vatanni sevish, uning uchun jonni fido qilish har bir insondan buyuk ma’naviy jasoratini talab etadi. Vatan bu – Alloh inoyati bilan har bir millat, elatga berilgan bebaho ne’matdir. O‘z xalqini va millatini urf-odati, an’ana hamda qadriyatlarini e’zozlashi, o‘z yurtini himoya qilishi, moddiy va ma’naviy meroslariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi vatanparvarlikning oliy belgisi hisoblanadi. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev qayd etganidek: **“Vatanparvarlik har bir davlat**

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

hayotining ma’naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi”[1]. Zero, vatan – muqaddas qadriyat sifatida doimo ulug‘lanadi. Vatanparvarlik – vatanga sadoqat, unga xizmat qilish, yurt tinchligini asrash va uni ravnaqi uchun faol bo‘lishga undaydigan ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy fazilatdir.

O‘tmishdan ma’lumki, tarbiya insonda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Tarbiya insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan ijobiy fazilatlarini namoyon etuvchi beqiyos kuchdir. Aynan, tarbiya tufayli insonda go‘zal odob-axloq fazilatlari shakllanib, insonni jamiyatdagi mavqieni belgilab beradi. Eng qadimgi va abadiy qadriyat sifatida tarbiya insonning qalb bezagi hisoblanadi. Shu bois, jamiyat hayotda tarbiyaga bo‘lgan munosabat nihoyatda mas’uliyat bilan yondashishni taqoza etadi. Bu haqda taniqli ma’rifatparvar Abdulla Avloniyning **“Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir”** degan chuqur ma’noli so‘zlarida teran haqiqat aks etganini anglaymiz. Zero, jamiyatda tarbiya masalasiga e’tiborsizlik bilan yondashuv aksariyat holatlarda insonni ma’naviy tubanliklar girdobiga giriftor etadi. Bu borada fikr yuritganda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev: “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”,- degan fikrlarini doimo yodda tutishimiz kerak. Zero, bugungi kunda mamlakatimizda davlat va jamiyat hayotini tubdan yangilashga qaratilgan islohotlarimizning muhim ustuvor vazifalaridan biri har tomonla etuk barkamol avlodni tarbiyalash va voyaga yetkazishni taqoza etmoqda. Aynan, bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim – tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida xalqimizni mana shunday ezgu g‘oyalar sari dadil odimlayotganligini teran anglashimiz mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (literature review). Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida “oldimizga qo‘ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo‘ladigan milliy g‘oyani rivojlantirishimiz zarur. Xususan, milliy o‘zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashimiz lozim”[2] deya shart qilib qo‘yildi. Zero, dunyo miqyosida globallashuvning shiddatli tus olishi xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashga oid muammolarni yanada dolzarb ekanini ko‘rsatmoqda. Tobora avj olayotgan mafkuraviy xurujlar, yot g‘oyalar ta’sirida inson qalbi va ongini zabt etishga bo‘lgan harakat kengayib borayotganini kuzatish mumkin. Bu xaqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev qayd etganidek: **“Hozirgi globallashuv davrida, inson ongi va qalbi uchun kurash kuchaygan bir paytda turli g‘oyaviy tahdid va xurujlar jamiyatimizning ma’naviy hayotiga ta’sir ko‘rsatishning kuchli quroli sifatida namoyon bo‘lmoqda”[3].** Binobarin, mafkuraviy xurujlar inson e’tiqodiga, turli din, millat va elatlar hamjihatligiga raxna solish orqali siyosiy ta’sir doirasiga olish vositasiga aylanib qolayotganini inkor etib bo‘lmaydi. Binobarin, bugungi kunda dunyoda shiddatli kechayotgan bunday jarayonlar ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga, jumladan, ma’naviy-mafkuraviy sohalarga ham jiddiy ta’sir o‘tkazmoqda. Shunday murakkab sharoitda tinchlik, barqarorlikni asrash, mustaqillikni mustahkamlash har bir davlat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Xususan, dunyoning turli mintaqa va davlatlarida kechayotgan ayanchli voqealar tahlili ommaviy axborot vositalari, zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar va elektron nashrlar ko‘p

hollarda ayrim buzg‘unchi kuchlar qo‘lida turli soxta, zararli g‘oya va mafkuralarni targ‘ib etishning qulay va tezkor vositasiga aylanib qolayotganini ko‘rsatayotir. Bu kabi tahdidlar milliy va umuminsoniy qadriyatlar yemirilishiga, zo‘ravonlik, inson taqdiri, jamiyat hayotiga bepisandlik, mas’uliyatsizlik, loqaydlik, andishasizlik, behayolik kabi illatlar ildiz otishiga zamin yaratmoqda. Natijada odamzod o‘z tarixiy, diniy, milliy-ma’naviy ildizlaridan uzilib qolmoqda. Mazkur holat jahondagi ko‘plab davlatlarda umumiy tendensiyaga aylanib bormoqda.

Dunyo miqyosida yuz berayotgan eng xavfli yovuz illat mafkuraviy xurujlar o‘zga bir davlat fuqarolarining qalbi va ongini zabt etish, mafkurasidan voz kechtirish orqali “o‘zgacha” mafkuralarni ongiga singdirishda namoyon bo‘lmoqda. Bugun shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoda ma’naviy tubanlik ta’siri oqibatida madaniyatsizlik, e’tiqodsizlik kabi qator “ta’limotlar” oshkora, ba’zan esa yashirin tarzda targ‘ib etilmoqda. Natijada milliy ruh, millatning o‘ziga xosligi va asriy qadriyatlarini zimdan emirishga zamin yaratilmoqda. Yovuzlik, jaholat insonni va jamiyatni tubanlikka boshlovchi, odamlarni g‘arazli niyat va qabih maqsadlarga undovchi mafkuraviy xurujlar doimo insoniyat uchun xatarli hisoblangan. Insonparvarlik tamoyiliga zid bo‘lgan, jamiyatda parokandalikni vujudga keltirish orqali bir millatni boshqasidan ustun qo‘yadigan, oliy irq da’vosida boshqa xalqlarni qirg‘in qilishga chaqiradigan yovuz g‘oyalar mafkuraviy xurujlardir. Shu o‘rinda bu xurujlar muayyan kuchlar tomonidan kishilar qalbi va ongiga yot g‘oyalarni singdirish maqsadida ularning hissiyotlari, e’tiqodi va tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatishda jamiyat turmush tarzi va mentalitetdagi o‘zgarishlarni teran anglagan holda g‘oyaviy-mafkuraviy, ruhiy ta’sir o‘tkazishda noan’anaviy va noxolis usullardan foydalanib, o‘zlarining g‘arazli maqsadlarini “puxta” rejalar asosida amalga oshirishini anglash lozim.

Tadqiqot metodologiyasi (Researsh Methodology). Hozirgi paytda dunyo jamoatchiligi tomonidan keskin qoralanayotgan g‘oyaviy-mafkuraviy xurujlar, xalqaro terrorchilik, diniy ekstremizm va jaholatparastlik, giyohvandlik, odam savdosi ham buzg‘unchi g‘oyalarga asoslangan. Buzg‘unchi g‘oyalar tasnifidan o‘rin olgan yovuz qarashlar turli tarqalish doirasi va ta’sir kuchiga ega. Ayniqsa, dunyoda bo‘layotgan turfa voqea-hodisalar, tez o‘zgarayotgan bugungi kunda hayot jarayoni ertaga qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini oldindan tasavvur qilish qiyin. Davlatimiz rahbari qayd etganidek, **“Dunyoda turli informatsiya oqimlari, axborot makonlari va manbalari, mafkura poligonlari ko‘p. Ulardan qaysisi to‘g‘ri, qaysisi ishonchli, qaysi biri g‘arazli ekanini farqlash oson bo‘lmayapti. Mana, internetni olaylik, unda nimalar yo‘q, hamma narsa bor. Yolg‘on ham, to‘g‘ri narsa ham. Hatto odamlarning kurakda turmaydigan rasvo fikrlarini ham internetdan topish mumkin. Biz bolalarimizni ana shunday aldov va yolg‘on ma’lumotlar girdobida, buzuq, zararli g‘oya va mafkuralar qarshisida yolg‘iz qoldirolmaymiz”**. Mamlakatimizda mazkur harakatlarning oldini olish maqsadida Prezidentimizning 2022 yil 28 yanvardagi farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida “ekstremizm va terrorizmga qapshi kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirish, ya’ni fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlashga imkon beradigan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha samarali davlat siyosatini amalga oshirish, yot g‘oyalar ta’sirining oldini olish va ular ta’siriga tushib qolganlar bilan tizimli ishlash orqali ular muammolarini bartapaf etish, aholi, ayniqsa, yosh avlodda terrorizm va ekstpemizm mafkupasiga qarshi qat’iy va barqaror immunitetni shakllantirish” masalasi belgilab berilgan.

Shu o‘rinda XXI asrga kelib mafkura poligonlarida o‘zida yovuz va buzg‘unchi g‘oyalarni namoyon etuvchi va prozelitizm harakatlari tobora kuchayayotganini aytib o‘tish joiz. Mazkur harakatlar dunyo miqyosida din va diniy konfessiyalar o‘rtasidagi keskinlik va qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarishga sabab bo‘layotir. Bu esa g‘oyaviy-mafkuraviy tahdid sifatida namoyon bo‘layotgan missionerlik va

prozelitizm to‘g‘risida jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda. Missionerlik va prozelitizm zamirida o‘zga mamlakatlarning davlat suverenitetiga, konstitutsiyaviy tuzumiga nisbatan amalga oshirilayotgan siyosiy bosim va tajovuzlarni g‘oyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash yotadi. Boshqacha aytganda, bu ma’naviy-madaniy qadriyatlar hamda diniy vositalar orqali boshqa davlatlarning ichki ishiga aralashuvdir. Shu o‘rinda, o‘zida yovuz va buzg‘unchi g‘oyalarni targ‘ib etuvchi kosmopolitizm haqida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvoviq. **Kosmopolitizm** - (yunoncha, “kosmopolites”-“dunyo fuqarosi”) g‘oyasi asosida Vatan, millat degan tushunchalarni rad etish, **“inson dunyo fuqarosi”** shiori asosida vatanparvarlik, davlatlarni mustaqilligi, milliy madaniyat va ma’naviyat kabi qadriyatlarni inkor etib, faqat dunyo fuqaroligini targ‘ib qiluvchi dunyoqarash g‘oyasini singdirishga alohida e’tibor qaratiladi. Bu g‘oyaning asoschisi Aristotel bo‘lib, Iskandar yurishlari davrida ildiz otgan. Kosmopolitizm milliy an’ana va madaniyatdan, vatanparvarlikdan voz kechishga - bevatanlikka da’vat etadi. Ayniqsa, hozir kosmopolitizm (dunyo fuqarosi) g‘oyasi kuchayib bormoqda. Bunda milliy, diniy qadriyatlar, asriy an’analar tan olinmaydi. “Vatan”, “millat”, “milliy davlatchilik” tushunchalari eskirdi hammamiz bitta davlat, bitta hukumat tuzamiz, Vataningni qo‘y, dunyo fuqarosi bo‘l”, degan g‘oya kosmopolitizmga tegishlidir.

“Nigilizm” lotincha nihil – “hech nima” - o‘zining yoki yurtining kuch-qudratiga ishonmaslik, ularga past baho berish, ertangi kunga ishonchsizlik, umidsizlik ya’ni, muayyan millat vakillarining o‘z millati imkoniyatlarini kamsitib, pasaytirib baholashi, o‘z yurtining qadriga etmaslik, mamlakatda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar miqyosini anglay olmaslik holatlariga olib keladi. Nigilizm o‘zida tarixiy hamda madaniy qadriyatlarini inkor etish orqali umume’trof etilgan qadriyatlarga nisbatan salbiy va o‘ta tanqidiy munosabatlarda bo‘lish orqali axloqiy tubanliklarni namoyon etib, o‘zida bo‘zg‘unchilik g‘oyalarini aks ettiradi. Ayniqsa, milliy nigilizm illatlari ta’siriga tushgan insonlarning mafkuraviy immuniteti zaiflashishi oqibatida ularning qalbi va ongida o‘zgacha dunyoqarash shakllanadi. Natijada, nigilizm ta’siriga tushgan kishilar Vatan manfaatini himoya qila olmaydigan befarq, loqayd odamlar sifatida gavdalanayotganligi achinarli va tashvishli holdir. Shu bilan birga, ayrim yoshlarni xorijga borib ishlash kayfiyatining yuqori ekanligi, birdaniga boyib ketishga bo‘lgan xavasni ustunligi, yashash uchun pul topish oson bo‘lsa, o‘sha joyni “vatan” deya his etishi afsuski, vatanparvarlik tuyg‘usini parokanda bo‘layotganligi bu borada mafkuraviy tarbiya borasida jiddiy o‘ylashga majbur qiladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tarixdan ma’lumki, har qanday xalq va millatning birlashuvida usha xalqning milliy g‘oyasi muhim o‘rin tutadi. Zero, milliy g‘oya nozik va jiddiy masala sifatida har qanday xalq va millat hayotining asosi hisoblanadi. Milliy g‘oya xalqni birlashtiruvchi va harakatga keltiruvchi kuch sifatida mamlakatni istiqboldagi taraqqiyotini belgilab beradi.

Shu o‘rinda, dunyo tarixiga nazar solsak, har bir xalqni avvalo, ma’naviy birlashuvi, o‘zining milliy g‘oyasi bilan yuksalganligi hech kimga sir emas. Milliy g‘oya ezgulikka tayanar ekan, buzg‘unchi mafkuraga qarshi kurashishda aniq maqsadga qaratilgan targ‘ibot ishlarini tashkil etish masalasi dolzarblashib boraveradi. Mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida kurashda maktabning o‘rni alohida. Shu bois, bugun yurtimizda ta’lim-tarbiya sohasida keng ko‘lamli islohotlar kechayotgani bejiz emas. **“Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari”** g‘oyasi asosida O‘zbekiston taraqqiyotning yangi davriga qadam qo‘yib, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy- ma’rifiy sohalardagi islohotlar buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanib bormoqda. Ma’rifatparvar jadid bobolarimizning “**Najot - ta’limda, najot - tarbiyada, najot - bilimda. Chunki barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”,** degan so‘zlarida teran ma’no mujassam. Zero, har qanday davlat taraqqiyotining tamal toshi bevosita ta’lim masalalariga qaratilayotgan e’tibor bilan bog‘liq. **Xulosa va takliflar (Conslusion/Resommendations).**

Tarixan bolaning ta’lim-tarbiyasiga juda nozik va jiddiy masala sifatida alohida e’tibor qaratilgan. Bu orqali yurtning kelajakdagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va ma’naviy taraqqiyotiga zamin yaratilgan. Prezidentimiz Sharq donishmandlarining **“Eng katta boylik bu - aql-zakovat va ilm, eng katta meros bu - yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik bu - bilimsizlikdir!”[4]** degan hikmatli so‘zlarini keltirib, zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanib borayotganini, nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a’zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun, avvalo, ilm-ma’rifat, yuksak ma’naviyat kerakligini, ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish holatlari kuzatilishini ta’kidlagani bejiz emas, albatta.

Bugungi kunda globallashuvning tobora avj olishi tarbiyaga yangicha va tizimli yondashuvni taqoza etmoqda. Hozirgi paytda dunyo miqyosida keskin tus olib borayotgan shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqali munosib javob berish strategik vazifaga aylanmoqda. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek: “Farzandlarimizning iste’dod va qobiliyati, ezgu intilishlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o‘rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish bundan buyon ham bosh maqsadimiz bo‘lib qoladi”. Shu o‘rinda, mafkuraviy xurujlarga qarshi kurashda mamlakatimizning milliy g‘oyasi har birimizga kelajakka ishonch, madad, kuch-g‘ayrat, shijoat berib, xalqimiz va millatimizni ulug‘vor va bunyodkor ishlarga, Vatan, millat, mustaqillik himoyasi yo‘lida birlashishga safarbar etadi. Davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, **“Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan”[5]**. Binobarin, o‘z milliy g‘oyasiga ega davlat mustahkam, qudratli va obod bo‘lishini barcha yurtdoshlarimiz teran anglashi lozim. Xulosa qilib aytganda millatimiz ma’rifatparvari Maxmudxo‘ja Behbudiy qayd etganidek: “Yaxshi tarbiyalangan qalb va vijdon hech qachon egasini sharmanda qilib qo‘ymaydi”. Zero, bugungi davr va zamon shiddati har bir yurtdoshimizdan yoshlar tarbiyasi masalasida yanada jiddiy va teran fikrlashni taqoza etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Тошкент – “Ўзбекистон” - 2017. 230 – бет.
2.Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. http://www.uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirzieevning-oliasy-28-12-2018
3.Шавкат Мирзаёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Учинчи нашри. – Тошкент: «Ўзбекистон» нашриёти. 2021.Б- 263
4.Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020
5.Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 19 январ куни маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш, бу борада давлат ва жамоат ташкилотларининг ҳамкорлигини кучайтириш масалалари бўйича видеоселектор йиғилиши. Халқ сўзи. 2021 йил.20 январь.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

PAK GALINA EN—UNOVNA,

Senior teacher of UBS,
Namangan, Republic of Uzbekistan

Published under peer review:
Doctor of Science in History, Associate Professor
Ulugbek Mansurov

Received 4th Janvier 2025, Accepted 10th Janvier 2025, Online 4th February 2025

ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДА «ПОМИДОРА» ДЛЯ РАЗВИТИЯ САМОКОНТРОЛЯ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В статье рассматривается психолого-педагогическая проблема формирования самоконтроля в процессе обучения студентов, так как самоконтроль является одним из важнейших факторов, обеспечивающих самостоятельную познавательную деятельность студентов, позволяющую максимально развивать их творческий потенциал. В работе описан метод «помидора», способствующий усовершенствованию навыков самоконтроля.

Ключевые слова: самоконтроль, самостоятельная деятельность, метод «помидора», метод, прокрастинация

THE USE OF THE "TOMATO" METHOD FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' SELF-CONTROL

Abstract. The article examines the psychological and pedagogical problem of developing self-control in the process of teaching students, since self-control is one of the most important factors that ensure independent cognitive activity of students, allowing them to develop their creative potential to the maximum. The paper describes the "tomato" method, which helps improve self-control skills.

Key words: self-control, independent activity, "tomato" method, method, procrastination

O‘QUVCHILARNING O‘Z-O‘ZINI NAZORATINI RIVOJLANTIRISH UCHUN “POMIDOR” USULIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. Maqolada talabalarni o'qitish jarayonida o'z-o'zini nazorat qilishni shakllantirishning psixologik-pedagogik muammosi ko'rib chiqiladi, chunki o'z-o'zini nazorat qilish talabalarning mustaqil bilish faoliyatini ta'minlaydigan eng muhim omillardan biri bo'lib, ularning ijodiy salohiyatini maksimal darajada rivojlantirishga imkon beradi. Ishda o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradigan "pomodoro" usuli tasvirlangan.

Kalit so'zlar: o'z-o'zini nazorat qilish, mustaqil faoliyat, Pomodoro usuli, usul, prokrastinatsiya

Введение.

Современная система образования, включая высшие учебные заведения, должна

способствовать формированию аналитического мышления. Объективная оценка знаний играет ключевую роль в образовательном процессе, увеличивая ответственность как студентов, так и преподавателей. Без постоянной проверки невозможно развить самостоятельность и организованность в учёбе. «Обучение человека, способного к самосовершенствованию и самовоспитанию на протяжении жизни, является важной задачей образования. Однако, сегодня мы наблюдаем, что не каждый студент способен эффективно работать самостоятельно. Преподавателю поставлена серьезная задача — обучить студента навыкам самостоятельного обучения и создать условия, способствующие развитию его познавательной активности»[9]. Самоконтроль обогащает образовательный процесс, повышая активность в познании и содействуя критическому анализу собственных действий. Практика подтверждает, что студенты не обладают достаточными навыками самоконтроля, что подчеркивает актуальность выбранной темы. Мы считаем, что это и объясняет выбор нашей темы и ее значимость.

В рамках психологии и педагогики исследуются психологические аспекты самоконтроля (Л.И. Рувинский, А.Я. Арет, Н.Д. Левитов и др.), акцентируется внимание на его роли как важнейшего элемента образовательного процесса (Ю.К. Бабанский, С.И. Архангельский и другие). Осуществляются исследования закономерностей формирования самоконтрольных навыков у школьников и студентов профессиональных учебных заведений (А.С. Лында, Н.И. Кувшинов и др.), а также выделяются ключевые этапы этого процесса (А.Я. Арет).

Работы ученых, таких как Т.И. Гавакова и Ю.О. Овакимян, подчеркивают особенности оценочных и контрольных действий у учащихся, а также педагогические аспекты, связанные с их развитием. Представленный обзор литературы указывает на то, что связь между самоконтролем в учении и адекватной самооценкой у студентов требует дальнейшего рассмотрения. Самоконтроль и самооценка, выступая важнейшими компонентами учебного процесса, оказывают влияние на его успешность, позволяя анализировать собственные действия и корректировать планы.

«Современный педагог должен учить деятельности – не просто действовать, но и ставить цели, уметь контролировать и оценивать свои и чужие действия»[1]. Современное образование обязано обучать не только действиям, но и целеполаганию, а также умению контролировать и оценивать собственные и чужие поступки. Научная новизна данного исследования заключается в рассмотрении метода способствующего развитию навыков самоконтроля в учебном процессе, известного как «помидор» (Pomodoro).

В ходе анализа данного метода мы применили аналитический, описательный и сравнительно-сопоставительный подходы.

Основная часть.

Метод «помидора», который был разработан итальянцем Франческо Чирилло в конце 80-х годов прошлого века, является известной техникой тайм-менеджмента. Этот метод опирается на принцип выполнения задач в короткие, но продуктивные промежутки времени, сочетая их с необходимыми перерывами. Это способствует улучшению концентрации, увеличивает эффективность и предотвращает выгорание. Этот метод очень полезен для студентов, которые хотят оптимально организовать своё время для учёбы и контроля за собственным прогрессом.

Кухонный таймер-помидор, в честь которого назван метод:

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Ключевые принципы техники «помидора»: Каждый рабочий период составляет 25 минут (это один «помидор»). После каждого рабочего периода следует короткий перерыв в 5 минут. После завершения четырёх «помидоров» (100 минут работы) делается более длительный перерыв, который обычно длится от 15 до 30 минут.



Таким образом, эта техника помогает поддерживать концентрацию и продуктивность, чередуя труд и отдых. Рассмотрим, как студентов можно поддержать с помощью метода самоконтроля, в данном случае «помидора».

1. Подготовка задач и распределение времени. Прежде всего, студенту следует заранее определить список задач и оценить, сколько «помидоров» он затратит на каждую. К примеру, если требуется прочитать статью для лекции, студент может понять, что это займет 2 «помидора», а на написание реферата потребуется 4 «помидора». Примером может служить задача, написания курсовой работы с использованием изученной литературы. Для этой работы можно оценить время в 8 «помидоров» (4 часа): 4 × 25 минут труда, 3 × 5 минут перерыва и один длительный перерыв после 4 «помидоров».

2. Деление больших задач на более мелкие сегменты. Когда студент сталкивается с обширными или сложными задачами, метод «помидора» позволяет разбить их на более

простые части. Например, при подготовке к экзамену можно использовать метод для изучения определённых разделов в течение нескольких «помидоров», снижая тем самым риск прокрастинации и перегрузку[3]. Например, перед контрольной по литературе на тему: «Роды, жанры литературы» студент может разделить материал на 4 сегмента (проза, поэзия, драма, критическая литература), изучая каждый за один «помидор». После каждого изучения предусмотрен 5-минутный перерыв.

3. Поддержание высокой степени сосредоточенности. Каждый рабочий период (25 минут) требует полного внимания. Студенту необходимо сосредоточиться на одном задании и исключить все отвлекающие факторы, такие как социальные сети или мессенджеры. Это помогает повысить качество выполнения задач и предотвращает рассеянность[6]. Например, задача: написать литературное эссе. Студент устанавливает таймер на 25 минут и занимается написанием текста без перерывов на соцсети. По истечении времени он делает 5-минутный перерыв.

4. Мотивация через короткие перерывы. Перерывы играют важную роль в поддержании эффективности. Студент может использовать эти моменты для выполнения легких физкультурных упражнений, перекуса или просто для отдыха. Более продолжительные перерывы после четырех «помидоров» способствуют восстановлению сил. К примеру, задача: подготовка презентации. Студент работает 25 минут над слайдами, затем делает 5-минутный перерыв (разминается или пьет воду). По завершении четырех «помидоров» — 20-30 минут отдыха.

5.Отслеживание результатов и самоанализ. Студент имеет возможность фиксировать количество завершенных сессий «помидоров» и их продолжительность, что способствует мониторингу его продуктивности и планированию последующих задач. Такой способ помогает развивать самоконтроль и осознание собственных достижений и недостатков[5]. Например, при изучении русского языка студент понимает, что для повторения 20 новых слов ему понадобится 2 «помидора». Он записывает в своем дневнике: «Сегодня я использовал 6 «помидоров» на изучение русского языка» и анализирует, что ему удалось лучше запомнить, а в каких местах требуется больше усилий.

Все сказанное позволяет подчеркнуть преимущества метода «помидора» для студентов: он снижает уровень стресса, помогает избежать перегрузки благодаря разделению работы на небольшие интервалы, увеличивает продуктивность, так как регулярные перерывы позволяют избежать усталости и поддерживают концентрацию, способствует оптимизации временных затрат, так как метод улучшает самоконтроль и учит правильно планировать время, а также уменьшает прокрастинацию, так как четкое распределение времени на работу и отдых делает задачи более управляемыми и менее пугающими.

Заключение.

Хотя метод «помидора» является эффективным способом управления временем, он не подходит всем учащимся. Чтобы использовать его максимально результативно, нужно учитывать индивидуальные особенности, виды задач и предпочтения студентов. Учащиеся могут столкнуться с различными трудностями, такими как соблюдение назначенного времени, легкость отвлечения, проблемы с мотивацией и самоконтролем, а также несовпадение метода с некоторыми заданиями. Однако при грамотной адаптации и регулярной практике метод «помидора» может стать ценным инструментом для тех студентов, которые желают оптимально организовать свое время и эффективно учиться. Деление времени на короткие рабочие интервалы с паузами способствует улучшению концентрации и поддержанию

мотивации, а также снижает стресс, повышает продуктивность и способствует лучшей самоорганизованности в учебном процессе.

Использованная литература:

1.Амонашвили Ш.А. Психолого-дидактические особенности оценки. Воспитательная и образовательная функция оценки учения школьников. -М.: Педагогика, 1984. - 297 с.

2. Беляева, Т. А., Шмидт, И. М. (2019). Влияние метода Pomodoro на эффективность обучения студентов. //Психология и педагогика, 2010. - 16(2). – С. 134-141.

3. Иванова, Н. В., Реброва, К. А. Метод Pomodoro как средство борьбы с прокрастинацией у студентов. //Современные проблемы образования, 2020. - 12(3). – С.76-83.

4. Козлова, И. Н. Повышение продуктивности студентов с помощью метода Pomodoro.// Образовательные технологии и общество, 2020. - 23(1). – С.104-110.

5. Кузнецова, А. Ю. Саморегуляция и саморефлексия при использовании метода Pomodoro в учебном процессе. //Психология и образование, 2022. - 19(4). – С. 222-227.

6. Петрова, О. А. Роль концентрации внимания в продуктивности при использовании метода Pomodoro//Психологические исследования, 2017. -25(5). – С. 112-118.

7. Попова, Е. В. Применение техники Pomodoro для управления временем в учебном процессе. Научные исследования и разработки, 2018. - 10(1). – С. 45-50.

8. Сидорова, Л. В. Влияние коротких перерывов на работоспособность студентов. //Педагогика и психология учебной деятельности,2021. - 8(2). – С. 89-93

9. Челнокова Е. А.,Кузнецова С.Н. Роль самостоятельной работы студентов в образовательном процессе//https://cyberleninka.ru/article/n/rol-samostoyatelnoy-raboty-studentov-v-obrazovatelnom-protsesse-

10. Челнокова Е.А., Храбан Г.С. Тьюторская деятельность педагога по индивидуализации самостоятельной работы студентов // Вестник Мининского университета. - 2016. №1-1(13).

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Xoliqov Yunus Ortiqovich
Samarqand davlat chet tillar instituti “Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari” kafedrasi v.v.b,
professori falsafa fanlari doktori (DSc),
xolikovyunus88@gmail.com

Bauyrjan Saifunov
Qozog‘iston Respublikasi
Xoja Ahmad Yasaviy nomidagi xalqaro qozoq-turk universiteti, dotsenti. (PhD),
bauyrzhan.saifunov@ayu.edu.kz.

Received 4th Janvier 2025, Accepted 10th Janvier 2025, Online 4th February 2025

GLOBALLASHUV JARAYONIDA MILLATLARARO MADANIYATNING YOSHLAR MA’NAVIY-AXLOQIY QIYOFASIGA TA’SIRI

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv sharoitida O‘zbekiston jamiyati va madaniy tizimida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni, bu o‘zgarishlarning jamiyatda sodir bo‘lish xavf-xatarlarini tahlil qilish maqsad qilingan. Millatlararo bag‘rikenglik o‘zbek madaniyatining mohiyati bo‘lib, unda o‘zaro ta’sir va yaxshi xulq-atvor mavjud. Bularda bag‘rikenglik, hamkorlik kabi axloqiy qadriyatlar paydo bo‘lishi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ma’naviyat, globallashuv, falsafiy, axloqiy, ta’limiy, tarbiyaviy, postmodern, sotsium, millatlararo, qadriyat, modernizatsiya, strategiya, bag‘rikenglik, jamiyat, ko‘p, xilma-xil, xulq-atvor, mentalitet, milliy qadriyat, millat, elat, ong.

ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНОЙ КУЛЬТУРЫ НА ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫЙ ОБРАЗ МОЛОДЕЖИ В ПРОЦЕССЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация: Целью данной статьи является анализ изменений, происходящих в обществе и культурной системе Узбекистана в условиях глобализации, а также рисков, связанных с этими изменениями в обществе. Межэтническая толерантность является сутью узбекской культуры, которая включает в себя взаимодействие и хорошие манеры. Они свидетельствуют о появлении таких моральных ценностей, как терпимость и сотрудничество.

Ключевые слова: Духовность, глобализация, философский, нравственный, образовательный, воспитание, постмодерн, общество, межнациональный, ценность, модернизация, стратегия, толерантность, общество, множество, многообразие, поведение, менталитет, национальная ценность, нация, народ, сознание.

THE INFLUENCE OF INTERNATIONAL CULTURE ON THE SPIRITUAL AND MORAL FORM OF YOUTH IN THE PROCESS OF GLOBALISATION

Abstract: This article aims to analyze the changes taking place in the society and cultural system of Uzbekistan in the context of globalization, the risks of these changes occurring in society. Interethnic tolerance is the essence of Uzbek culture, which includes interaction and good behavior. It is revealed that such moral values as tolerance and cooperation emerge in this.

Keywords: Spirituality, globalization, philosophical, moral, educational, upbringing, postmodern, society, interethnic, value, modernization, strategy, tolerance, society, many, diverse, behavior, mentality, national value, nation, people, consciousness.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

KIRISH. Jahon xalqlari madaniyatida ma'naviy hodisa sifatida muhim o'rin tutgan bag'rikenglik fenomeni hozirgi globallashuv sharoitida alohida falsafiy-axloqiy, ta'limiy-tarbiyaviy shu bilan birga sinovdan o'tgan tajribagalarga asoslanib tahlil etish talab etmoqda. Postmodernistik sotsiumda umuminsoniy qadriyatlardan, ma'naviy o'ziga xoslikning inqirozidan xavotirga tushmoqda. Bu hayot mazmunini to'g'ri anglamaslik, vayronkorlikka moyillik, o'zaro munosabatlarda tajovuzkorlikni uyg'otuvchi illatga aylanish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bugun millatlararo madaniyat postmodern makonning global tendensiyasiga asoslangan bo'lib, unda shaxs o'zini namoyon qilishi va o'zining umumiy ehtiyojlari kontekstida axloqiy qarama-qarshiliklarni yengib borishi vujudga kelmoqda. Zamonaviy millatlararo madaniyatning rivojlantirilishi, har bir insonning o'zini namoyon qilishini ta'minlaydigan plyuralistik axloqiy munosabatlarning takomillashtirishini talab qilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI: Millatlararo bag'rikenglikning rivojlanish masalalari bilan F.Dobbler[1.], A.Golovastikova[2.], S.Glushkova, L.Grudsina E.Lukasheva[3.], V.Nersesyans, A.Sungurov[4.], L.P.Meshennikova, S.Karimov, I.Karimov, E.Karimova, N.Mamanazarov, T.Maxmudov, A.Ochildiyev, S.Otamuratov, T.Bolotina, I.Mishinalar, A.F.Shevxujev, O.Z.Arova, K.Ye.Troitskiy, A.Karnishev, A.V.Shestakova, G.V.Bezlyuleva, G.M.Shelamova[5; 58-C.] kabi olimlar ham millatlararo bag'rikenglik munosabatlariga oid o'z asarlarida bag'rikenglik madaniyatini shakllantirishning falsafiy va axloqiy tafovutlari, millatlararo madaniyatning bag'rikenglikka asoslanishida axloqiy tafakkur unsurlarini tadqiq etishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ushbu tadqiqotda qiyosiy tahlil, tahlil va sintez, nazariyalarni qiyoslash, dala etnografik ishi, tarixiylik, mantiqiylik, ketma-ketlik va tizimlilik usullaridan foydalanilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR. Zamonaviy globallashuv sharoitida millatlararo bag'rikenglik madaniyati ko'p jihatdan modernizatsiya jarayonlari asosida namoyon bo'lmoqda. Ya'ni, bu fanatizmdan chekinib konstruktiv muloqot o'rnatishgacha ijobiy rivojlanish dinamikasi hisoblanadi. Modernizatsiya samarasi bo'lgan muloqotga asoslangan bag'rikenglik madaniyatining zamonaviy modeli ko'p millatli, ko'p konfessiyali jamiyatning jadal ijtimoiy-madaniy rivojlanishi uchun eng samarali ekanligini jahon tajribasi yaqqol ko'rsatdi.

Bugungi globallashuv jarayoni turli sohalarda bo'lgani kabi millatlararo madaniyat va bag'rikenglik madaniyati masalalariga ham o'zining ta'sirini o'tkazmoqda. Shu jihatdan olib qaraganda ushbu masala dunyodagi ko'pmillatli davlatlarda bo'lgani kabi O'zbekiston uchun ham mamlakat kelajagi va taraqqiyotini belgilab beruvchi omillardan biriga aylanib bormoqda. Millatlararo nizolarning oqibatlari haqida so'z yuritganda uning jiddiy, qaytarib bo'lmas ko'lamini ta'kidlash joiz. Bir davlatning ichida boshlangan milliy nizo qisqa vaqt ichida xalqaro ahamiyat kasb etganini ayrim davlatlar misolida keltirish mumkin. "Globallashuv sharoitida ko'pmillatli davlatlarning rivojlanish sur'atlari oshishi, shubhasiz Bu jarayonda ba'zi millatlar o'zlarining milliy xarakterga ega xislatlarini ko'proq kiritshlari, qo'shishlarini ko'ramiz, ba'zi millatlar esa bu jarayonga nisbatan kam ulush qo'shadilar"[6; 111-B.].

O'zbekiston - ko'p millatli davlat. Bugungi kunda mamlakatimiz hududida 130 dan ortiq elat va millatlar tinch va farovon hayot kechirishmoqda. Bu tinchlik va farovonlikning zamirida mustaqillikning dastlabki davrlaridan boshlab, mamlakatda ishlab chiqilgan aniq strategik rejaning millatlararo munosabatlarda ifodalanishidir. Biroq bugungi globallashuv sharoitida insonlar o'rtasida muloqotning tezlashib ketishi, axborot olishning cheklanmaganligi millatlararo munosabatlar holatini tahlil qilish, aniq xulosalar qilish va mazkur sohada mamlakat ehtiyojlari va manfaatlaridan kelib chiqib qarorlar qabul qilishni talab etmoqda. Bunday vaziyatda, jamiyatning asosiy kuchi va kelajagi hisoblangan yosh avlod ongida qaror toptirishda konkret vazifalarni amalga oshirish zarur. Shunday

vazifalardan biri yoshlarda millatlararo munosabatlarni takomillashtirishdagi asosiy motivlar va imkoniyatlarni shakllantirishdir. Yurtimizning brinchi Prezidenti XXI asrda inson ongi va tafakkuri uchun kurash ketayotgan bir davrda: “O‘zbek xalqi ruhining tiklanganligi, millat ma’naviy-axloqiy ideallarining shakllanishi chuqur milliylik bilan umuminsoniylik ruhiyatiga, xulq-atvor falsafasiga ega bo‘lmoqdalar”[7; 129-B.], - deydi.

Shuni takidlash mumknki, bugungi globallashuv davrida “yangi mustaqil davlatlarga eski tuzumdan meros bo‘lib qolgan mazkur muammolar millatlararo munosabatlarni yo‘lga qo‘yishda alohida e’tibor berishni talab qilmoqda. Ko‘p millatli davlatlarda ijtimoiy-etnik munosabatlardagi uyg‘unlikni ta’minlashda barcha etnik guruhlarning manfaatlarini e’tiborga olish katta ahamiyat kasb etadi”[8; 17-B.]. Jamiyatda turli millat manfaatlariga mos falsafiy dunyoqarash qaror topishi adolatni ta’minlashi bilan birga, xalqning ruhiyatida keng ko‘lamli qiziqishlarni namoyon etadi. Millatlararo madaniyatda jamiyat ravnaqiga, xalqlarning ruhiyati oshishiga imkoniyat yaratadi. Ma’lum halq “o‘z ehtiyojlari va manfaatlarini boshqa millatning yoki boshqa xalqlar vakillarining xuddi shunday intilishlarini kamsitish hisobiga ro‘yobga chiqarmasligi lozim”[9; 74-B.]. Bunday falsafa har bir jamiyatning qoidasi sifatida unda yashaydigan millatlarning ezgu shiori, qat’iyatlilik belgisi bo‘lmoo‘i kerak.

Millatlararo madaniyat inson ijtimoiy borlig‘ining asosi bo‘lib, ijtimoiy taraqqiyotga intilishning pirovard maqsadidir. Biz barkamol jamiyat qurishimiz kerak bo‘lgan har bir millat bir-biri bilan hamkorlik qilishi mumkin. Madaniy muammolar tufayli yuzaga keladigan ichki nizolarni oldini olish va faol ravishda hal qilish, barcha odamlarning zavqlanishini ta’minlash madaniy yutuqlarni teng darajada ta’minlash hamda mamlakatda istiqomat qilayotgan har bir millat qatlamining madaniy huquqlarini ta’minlash zarur. “Millatning istiqboli, xalqning moddiy va ma’naviy mehnati, salohiyati yuksak qadrlanadigan kishilar, o‘z hayotini ijodiy va jamiyat taraqqiyotida ijobiy rol o‘ynaydigan mehnat asosida qurgan yoshlarga bog‘liq”[10; 279-B.]. Jamiyatning yangilanib borishi bilan turli millat vakillarining ushbu yangilanish jarayonlaridagi ishtiroki kuchayib boradi.

Muayyan bir jamiyatda millatlararo munosabatlarning shakllantira olgan ushbu tushunchalar millatlararo aloqaning turli xil ko‘rinishlari haqida fikr bildirish imkonini beradi. Aytish mumkinki, barcha ko‘pmillatli davlatlarda mazkur tushunchalar bir xil mazmunga ega. Ular ishlatishiga ko‘ra xilma-xil bo‘lsa–da, lekin tom ma’noda asl mohiyat davlatda tinchlikni ta’minlash, xalqlarning madaniyatidagi yangicha tafakkurni mantiqiy izchilligini yo‘lga qo‘yishdir. Madaniy omillar va xulq-atvor o‘rtasidagi munosabatga bo‘lgan e’tibor kundan kunga ilmiy tadqiqotlarning tadqiqot markaziga aylanib bormoqda. Agar millatlararo madaniyat va xulq-atvor madaniyat mahsuloti ekanligi e’tirof etilsa, multikulturalizm haqiqati umumiy tadqiqot idealini barbod qiladi. Shuning uchun millatlararo madaniyat va bag‘rikenglik subyektlarining aksariyati xulq-atvor madaniyatiga asoslangan obyektiv omillar va subyektiv sharoitlarning ta’siridan qat’inazar, alohida o‘rganiladi. Xulq-atvor madaniyat mahsulidir, demak, millatlararo madaniyatni rivojlantirish nafaqat yuqori sanoatlashgan mamlakatlarda va dunyoning hamma joyidagi odamlarning xulq-atvorini o‘rganishi kerak. Chunki insonning xulq-atvori bir kunda anglab yetiladigan dunyoqarash emas, uning uchun oylab, hatto yillab vaqt sarflash, ulardagi ichki hissiyotni tushunish mumkin bo‘ladi. Gap shundaki, millatlararo madaniyatning har qanday ta’rifi inson xulq-atvorini ilmiy o‘rganish dunyoning har bir burchagida uchraydigan xulq-atvorning xilma-xilligini hisobga olishi kerak.

Millatlararo madaniyat xalqlar madaniy ehtiyojlarini ta’minlashi bilan birga ularni monitoring qilib borishni va zarur bo‘lganda qarorlar qabul qilish muhim ahamiyatga egaligini ko‘rsatadi. Mazkur masalalarning ijobiy yechim topishi ijtimoiy hayotda kechadigan jarayonlarni tahlil qilish, ziddiyatli vaziyatlar paydo bo‘lgan hollarda uni bartaraf etish imkonini beradi. Yurtimizning brinchi

Prezidenti XXI asrda inson ongi va tafakkuri uchun kurash ketayotgan bir davrda: “O‘zbek xalqi ruhining tiklanganligi, millat ma’naviy-axloqiy ideallarining shakllanishi chuqur milliylik bilan umuminsoniylik ruhiyatiga, xulq-atvor falsafasiga ega bo‘lmoqdalar”[11; 129-B.], - deydi.

Shu asnoda yoshlar o‘rtasida bag‘rikenglik g‘oyasini targ‘ib qilish muhim. Bu mas’uliyat ko‘proq ta’lim-tarbiya, ma’naviy-axloqiy, milliy-madaniy jarayonlar bilan bog‘liq. Mualliflar A.F.Shevxujayev, O.Z.Arovalar yoshlarda milliy munosabatlarni ta’minlashning asosiy mexanizmi sifatida “san’at asarlarida, o‘quv materiallarida insonparvarlik g‘oyalarini aks ettirish zarur, chunki yoshlarning madaniyatlararo ta’lim sifati ko‘p jihatdan o‘quv yurtlarining madaniyatlararo munosabatlarni tarbiyalashda turli vositalarni, shakllarni, yondashuvlarni tanlashga bog‘liqligi bilan aniqlandi”[12.], deb fikr bildirishgan. Bizning fikrimizcha, yosh avlod ongida millatlararo munosabatlarni tizimni shakllantirsh, etnik va madaniy tafovutlarni bartaraf etish maqsadida ularga yordam beradigan bir qator usul va metodlarni joriy etish muhimdir.

Yoshlarda bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish jarayonida ma’naviy-axloqiy, milliy qadriyatlardan foydalanish, jamiyatimiz a’zolari, ayniqsa, yoshlarimizni yuksak axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalash dolzarb masaladir. Bu jarayonlar jamiyatimizning erkinlik, insonparvarlik, millatlararo madaniyat va adolatlilik yo‘limizni belgilab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. “Bola tug‘ilgan kunidan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an’analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi”[13; 52-B.]. Axloqiy qadriyatlarning negizi sanalgan insonparvarlik, ezgulik singari ko‘plab tushunchalar oilada shakllanib, ruvojlanib borayotganini bilamiz. Bugungi globallashuv davrida yoshlarda bag‘rikenglik tamyoillari asosida tarbiyalash davr talabi bo‘lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda Bugungi davrda butun dunyoga axborotning misli ko‘rilmagan tarzda tarqalishi asosida madaniyatlar qorishivga olib kelmoqda, bunday holatlarda, albatta insonlarda millatlararo bag‘rikenglik madaniyatini rivojlantirish muhim sanalmoqda. Millatlararo madaniyat va bag‘rikenglikning axloqiy tamoyillarini hayotning barcha jabhalarida baynalmilallik fazilatlari bilan bir qatorda dinlararo bag‘rikenglik (tolerantlik) g‘oyalarini ham rivojlanishtirishdan iboratdir.

Yurtimizda yashayotgan barcha millat farzandlarining o‘zaro axloqiy bag‘rikengligi, insonparvarligi, tug‘ilib o‘sgan yurtga sadoqat, Vatanga muhabbat, xalq farovonligi yo‘lida mehnat qilish, turli millat yoshlari o‘rtasidagi o‘zaro kelishmovchilik va mensimaslik kayfiyatlarini bartaraf etish bo‘yicha doimiy tashviqot ishlarini olib borish singari vazifalar belgilandi. Biz yurtimizning mahalalarida yashayotgan turli millalarning taqdiri, ertasini ularning madaniyatisiz tasavvur eta olmaymiz. Bu faoliyatda o‘ziga xos va mos millatning dunyoqarashi, an’analarining davomiyligi mavjud.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

FOYDALANGANA DABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Добблер Ф.Дж. Словарь международного публичного права. - Тошкент: ТГЮИ, 2018.
2. Права человека: учебник // А.Н.Головастикова, Л.Ю.Грудцына. - Москва: Эксмо, 2006;
3. Лукашева. Е.А. Права человека и процессы трансформации постсоциалистического общества; // «Права человека и культура», 2015.
4. Сунгуров А.Ю.Культурные аспекты и правоприменительная практика в области прав человека в Латинской Америке Ниу Вшэ. серия wp18 «Права человека в современном мире». 2012. № 04
5. Безюлева Г.В, Шеламова Г.М. Толерантность: взгляд, поиск, решение. - Москва: 2003. - С. 58.
6. Хоназаров Қ. Глобаллашув ва тил фалсафаси. - Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ интитути, 2009. -Б. 111.
7. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. 6-жилд. - Тошкент: Ўзбекистон,1998. - Б. 129.
8. Туленов Ж. Жамият фалсафаси. - Тошкент: 2001. - Б. 17.
9. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. - Тошкент: Ўзбекистон, 1997. - Б. 74.
10. Миллий истиқлол ғояси. - Тошкент: Академия, 2005. - Б. 279.
11. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. 6-жилд. - Тошкент: Ўзбекистон,1998. –Б. 129.
12. Шевхужаев А.Ф., Арова О.З. Формирование культуры межнациональных отношений в студенческой среде // Современные проблемы науки и образования. - 2014. - №1.; url: http://science-education.ru/ru/article/view?id=11795
13. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. - Тошкент: Маънавият, 2008. - Б. 52.
14. Холиков, Юнус Артикович. "Ўбекистонда миллатлараро бағрикенглик инсонпарварликнинг асосий тамойили сифатида." *Философия и жизнь международный журнал si-1* (2022).
15. Kholikov, Yunus Ortikovich. "Philosophical Fundamentals Of The Culture Of Tolerance." *The American Journal of Social Science and Education Innovations* 3.09 (2021): 48-51.
16. Kholikov, Yunus Ortiqovich. "MORAL ASPECTS OF NATIONAL ETHNIC IN BRINGING UP YOUNG GENERATION WITH GENEROSITY." *Theoretical & Applied Science* 7 (2019): 18-21.
17. Холиқов, Юнус Ортиқович. "Бағрикенглик маданиятнинг моҳияти ва унинг ахлоқий асослари." *Journal of Integrated Education and Research* 1.6 (2022): 17-21.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Ilkhom Uzokov
Researcher at the National University of Uzbekistan
E-mail: Shohzaminshoniyozov@gmail.com

Published under peer review:
Doctor of political sciences (DSc), professor
Bakhtiyor Omon

Received 4th Janvier 2025, Accepted 10th Janvier 2025, Online 4th February 2025

STRUCTURE AND FUNCTIONS OF POLITICAL CULTURE

Annotation: The article discusses scientific conceptual views on the structural structure of political culture. At the same time, the structure of political culture, its components and the relationships between the main elements, and their interrelationships were analyzed. In addition, the functions of political culture are discussed in their manifestations.

Key words: political culture, political structures, political participation, political activity, political consciousness, political behavior, political experience, political institutions, political feelings, fuction.

СИЁСИЙ МАДАНИЯТНИНГ ТУЗИЛИШИ ВА ФУНКЦИЯЛАРИ

Аннотация: мақолада сиёсий маданият таркибий тузилиши ҳақидаги илмий концептуал қарашларга тўхталиб ўтилган. Шу билан бирга, сиёсий маданият структураси, уни таркибидаги компонентлар ва асосий элементларни бир-бири билан алоқалари, уларни бир-бири билан боғлиқликлари таҳлил этилган. Бундан ташқари сиёсий маданият функциялари уларни кўринишлари талқиқ этилган.

Калит сўзлар: сиёсий маданият, сиёсий тузилмалар, сиёсий иштирок, сиёсий фаолият, сиёсий онг, сиёсий хулқ-атвор, сиёсий тажриба, сиёсий институтлар, сиёсий ҳис-туйғулар, фукция.

СТРУКТУРА И ФУНКЦИИ ПОЛИТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация: В статье рассматриваются научные концептуальные взгляды на структурную структуру политической культуры. При этом анализировалась структура политической культуры, ее компоненты, взаимосвязи основных элементов и их взаимосвязи. Кроме того, изучаются функции политической культуры и их проявления.

Ключевые слова: политическая культура, политические структуры, политическое участие, политическая активность, политическое сознание, политическое поведение, политический опыт, политические институты, политические эмоции, функция.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

КИРИШ

Сўнгги йилларда Янги Ўзбекистонда аҳолининг сиёсий маданиятини юксалтиришга хизмат қиладиган кенг кўламли ўзгаришларнинг жадал амалга оширилаётганлиги, фуқароларнинг сиёсий билимларини ошириш, уларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш учун турли ҳуқуқий ва сиёсий маърифат тадбирлари бўлиб ўтаётганлигига гувоҳ бўлиб турибмиз [1]. Мазкур ўзгаришлар шароитида сиёсий маданият муаммосини ҳар томонлама тадқиқ этиш бизга фуқаролар ўртасида сиёсат ва давлатчилик билан боғлиқ ҳолда шаклланадиган асосий қадриятлар, эътиқод ва муносабатларни аниқлаш, замонавий шароитда жамиятда сиёсий воқеа-ҳодисалар ва одамларнинг сиёсий соҳадаги хатти-ҳаракатларига қандай омиллар таъсир этаётганлигини билиш имкониятини осонлаштиради. Шунингдек, сиёсий маданиятнинг вазифаларини ўрганиш унинг жамиятда қандай вазифаларни бажаришини, қандай мақсадларни кўзлашини тушунишга ёрдам беради.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОД

Сиёсий маданият тузилиши ва функциялари бўйича илк илмий қарашларни шаклланишида америкалик тадқиқотчилар Г. Алмонд ва С. Вербанинг “Фуқаролик маданияти: сиёсий қарашлар ва беш мамлакатда демократия” номли китоби ҳамда Р. Такер, Т. Парсонс, Э. Шилз, Д.Пол, У. Розенбаум, Р.Далтон, С.Вайт, Ж.Плейно, А.Боднар, Е. Вятр, Е. Баталов, В. Бобосов, Р.Ингхарт, А.Соловьев, Н.Кейзеров каби олимларни бу борадаги қарашлари муҳим аҳамият касб этади.

МУҲОКАМА

Сиёсий маданият маълум бир жамиятнинг сиёсий тажрибаси ва умумэътироф этилган сиёсий билимлари, қадриятлари, меъёрлари, усуллари, сиёсий иштирок этиш моделлари ва бошқаларни ўз ичига олган маъно шакллантирувчи ва яхлит сиёсий муносабатларни тартибга солувчи, ҳаракатлантирувчи сифатида ишлайдиган элементлар тизимидир.

Сиёсий маданият ўзаро боғлиқ таркибий қисмлардан ташкил топган мураккаб ҳодисадир. Сиёсий маданиятнинг тузилиши ҳақидаги илмий қарашларни икки гуруҳга ажратишимиз мумкин. Биринчи гуруҳдаги олимлар *(Г. Алмонд, С. Верба, Д. Дивайн, Ю.Краснов ва бошқалар)* сиёсий маданиятга унинг шакллари, асосий йўналишлари, сиёсий хулқ-атвор нормалари, сиёсий рамзлар, тасвирлар, анъаналар, стереотиплар ва қадриятларни алоҳида кўрсатиб, сиёсий маданиятни билим *(сиёсат ҳақида билим ва тасаввурлар),* ҳиссиёт *(сиёсатга нисбатан ҳис-туйғулар)* ва баҳолаш *(сиёсий объектлар ҳақидаги фикрларни қиёслаш)* кабилардан иборат эканлигини таъкидлаб, унинг учта йўналишини аниқладилар: **когнитив** – сиёсий тизимнинг тузилиши, унинг асосий институтлари, ҳокимиятни ташкил этиш механизмлари ҳақидаги билимлар; **ахлоқий,** *(“ҳиссий”)* — одамларнинг давлат институтларининг ишлашини таъминлаганларга ва аҳоли олдида ўзига хос ҳокимиятга бўлган муносабати; **баҳоловчи** – сиёсий ҳодисаларни баҳолаш учун қиймат мезонлари ва стандартларига асосланган мулоҳазалар [2-28]. Иккинчи гуруҳ олимлари *(Р.Далтон, С.Вайт, Ж.Плейно, У.Розенбаум, Э. Вятра, А. Боднар ва бошқалар)* сиёсий маданиятга сиёсий хулқ-атвор талаблари, намуналари, усулларини сиёсатнинг ажралмас қисми сифатида талқин этишган.

Кейинчалик, Р. Такер, В. Розенбаум, Э. Вятр, Д. Пол каби олимлар Г.Алмонд ва С.Вербаларнинг фикрларидан фарқли равишда сиёсий маданият мазмунига субъектив руҳий элементлар билан бир қаторда муайян жамиятда қабул қилинган сиёсий хулқ-атворнинг баъзи “намуналар”ни ҳам аниқлашди [3-182].

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Жумладан, Э. Вятра сиёсий маданиятни ҳокимият ва фуқаролар ўртасидаги ўзаро муносабатларга тааллуқли позициялар, қадриятлар ва хулқ-атвор қоидалари йиғиндиси сифатида талқин этди. Унинг фикрича, қуйидагилар сиёсий маданиятни ўз ичига олади: а) сиёсат, фактлар ҳақидаги билимлар, уларга қизиқиш; б) сиёсий ҳодисаларга баҳо: ҳукмлар ҳокимият қандай амалга оширилиши кераклиги ҳақида; с) сиёсий позицияларнинг ҳиссий томони, масалан, ватанга муҳаббат, душманларга нафрат; сиёсатдан бегоналашиш ҳисси ва бошқалар; д) маълум бир ҳолатда қандай ҳаракат қилиш мумкинлигини ва қандай ҳаракат қилиш кераклигини белгилайдиган жамиятда тан олинган сиёсий хатти-ҳаракатлар намуналари.

Сиёсий маданият тузилиши ҳақидаги билимларни ривожлантирган полшалик олим А.Боднарнинг фикрига кўра, сиёсий маданият ҳаётнинг турли томонлари ҳақидаги аниқ ва яширин ғояларнинг тарихан шаклланган тўплами бўлиб, улар қуйидагиларни ўз ичига олади: сиёсий қадриятлар, сиёсий нормалар, сиёсий институтлар, сиёсий намуналар ҳамда шахслар ва ижтимоий гуруҳларнинг сиёсий ҳаракат усуллари [4-90-101].

Тадқиқот ишимиз доирасида сиёсий маданият тузилиши ҳақидаги қарашларни умумий кесишган нуқтасини аниқлашга ҳаракат қилдик

1-жадвал. Сиёсий маданиятга берилган таърифларни контент таҳлили.

Олимлар:	**Сиёсий маданият таркибидаги асосий тушунчалар**						
	Сиёсий онг	**Сиёсий билим, баҳо**	**Нормативқадриятлар**	**Хулқ-атвор**	**Сиёсий фаолият**	**Мақсад**	**Сиёсий фикр тасаввур ва рамз**
Г. Алмонд, С. Верба	**X**	**X**	**X**	**X**		**X**	**X**
Т. Парсонс Э. Шилз			**X**	**X**			
Д.Пол			**X**				
У. Розенбаум				**X**			**X**
А.Боднар		**X**		**X**			
Е. Вятр			**X**	**X**			
Е. Баталов	**X**			**X**	**X**		
В. Бобосов		**X**	**X**	**X**	**X**	**X**	**X**
Р.Ингхарт		**X**	**X**				
А.И.Соловьев			**X**	**X**			
Н.Кейзеров		**X**	**X**		**X**		**X**
Г.Ишманова	**X**	**X**	**X**	**X**			
Б.Тўйчиев	**X**	**X**	**X**	**X**			**X**
К. Ҳожиев			**X**				
Х.Одилқориев			**X**				**X**
Б.Омонов	**X**	**X**	**X**	**X**			**X**

Юқоридаги жадвалда таърифларининг контент таҳлилида сиёсий маданиятнинг қадриятлар билан боғлиқ элементлари ва йўналишлари жамиятнинг сиёсий генезисига сиёсий маданиятнинг таъсир курсатиш хусусиятларини, сиёсий фаолиятда индивидларнинг қизиқиш ва хулқ-атворини яққол кўришимиз мумкин. Шундан келиб чиқиб, сиёсий маданиятни

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

жамиятда шаклланадиган ва қабул қилинадиган, одамларнинг сиёсатга, давлат ва умуман жамият ҳаётига муносабатини белгиловчи қадриятлар, эътиқодлар, меъёрлар ва амалиётлардан таркиб топган тузилма сифатида талқин қилишимиз мумкин.

Умуман олганда, биз сиёсий маданиятни мавжуд жамият аъзоларининг тарихан шаклланган сиёсий эътиқодлари, ғоялари, онги, хулқ-атвор нормалари тизимидир. Ушбу қарашдан келиб чиқиб, сиёсий маданиятни – фуқароларнинг сиёсий тизимга, давлат ҳокимиятига, жамиятга ва бошқа сиёсий институтларга муносабатини шакллантирадиган қадриятлар, эътиқодлар, меъёрлар ва амалиётлар тизими сифатида қуйидаги элементларни алоҳида келтириб ўтишимиз мумкин.

Сиёсий маданият тузилиши.



Бизнингча, ушбу таркибий қисмларнинг бирлиги ва ўзаро таъсиридан бутун жамиятнинг ҳам, муайян шахснинг ҳам сиёсий маданияти шаклланади. Сиёсий маданиятнинг ушбу структурасининг асосий таркибий қисмлари сифатида қуйидаги элементларни алоҳида кўрсатдик:

1. Сиёсий институтлар давлатнинг сиёсий тизими, қонун чиқарувчи, ижро этувчи ва суд ҳокимиятларини, сиёсий партиялар ва манфаатдор гуруҳларни яратиш ва уларнинг фаолияти, сиёсий қарорлар қабул қилиш тартиблари, фуқаролик жамиятининг сиёсий ўзини ўзи ташкил этиши;

2. Сиёсий тажриба сиёсий муносабатларнинг ривожланиш тарихини турли шаклларда қайд этади: тарихий, адабий, илмий ёдгорликлар, сиёсий қадриятлар, анъаналар, урф-одатлар, сиёсий мафкура, унинг институтлари, нормалари, тамойиллари ва ижтимоий-сиёсий алоқалари билан ишлайдиган сиёсий тизим ва бошқалар. Бу тажриба озми-кўпми одамлар томонидан сиёсий ижтимоийлашув жараёнида ўзлаштирилади. Тарихий билимлар асосида

кишиларнинг сиёсий онги шаклланади, сиёсий йўналишлар, сиёсий хулқ-атвор намуналари ўрнатилади.

3. Сиёсий онг сиёсий жараёнлар ҳақидаги сиёсий тасаввурлар, ғоялар, билимлар, қарашлар, кўникма, эътиқод, қадрият, иммунитет ва урф одатлар ва меъёрлар мажмуи бўлиб, сиёсий маданият элементи сифатида уни уч компонентга бўлиш мумкин:

а) мафкуравий компонентга сиёсий билим, тасаввур, рамз, афсона баҳо, тушунча, назария, принцип ва ғоялар;

б) психологик компонентга сиёсий фаолият ва муносабатлар билан боғлиқ ҳис-туйғулар, кечинмалар, кайфиятлар, баҳо, қарашлар, фуқароларнинг сиёсий мослашуви;

в) менталитетга диний ва миллий хусусиятга эга бўлган барқарор ҳиссиётлар, кайфиятлар, қарашлар ва улар билан боғлиқ сиёсий хулқ-атвор, меъёрлар, урф-одатларни киритиш мумкин.

4. Сиёсий хулқ-атвор жамият сиёсий маданиятининг кўринишларидан биридир. У давлатнинг сиёсий ҳаётида иштирок этиш билан боғлиқ бўлган одамларнинг турли ҳаракатлари ва эътиқодларини ўз ичига олади. Сиёсий хулқ-атвор фуқароларнинг қадриятлари, эътиқодлари, манфаатлари ва эҳтиёжларини, шунингдек, уларнинг ҳукумат ва сиёсатчиларга бўлган муносабатини акс эттиради. У жамият сиёсий маданиятининг муҳим элементи бўлиб, сиёсий институтлар ва жараёнларнинг шаклланишига таъсир кўрсатади.

Сиёсий маданият – серқирра ҳодиса бўлиб, у бир вақтнинг ўзида бир нечта ижтимоий-сиёсий функцияларни бажаради. Сиёсий маданиятнинг ижтимоий мақсади, унинг сиёсий тизимга ва бутун жамиятга таъсири унинг вазифаларида ифодаланади [5-4-11]. Ҳозирда замонавий сиёсатшуносликда сиёсий маданиятнинг 9 та функцияси алоҳида кўрсатиб ўтилган [6-39]. Улар қуйидагилар:

1) **айнан мослаштириш** *(идентификация)* функцияси — шахсга сиёсий ўзлиги ва уни сиёсий ҳамжамиятга мансублигини, мавжуд сиёсий қадриятлар ва анъаналарга онгли равишда боғлиқлигини тушунишга имкон яратади;

2) **йўналтириш** функцияси — шахс ва гуруҳларнинг сиёсий роллари, мақсадлари, қадриятларини тушунишни таъминлаб, уларни сиёсий фаолиятининг муайян мақсад ва объектларга умумий йўналишини белгилашга ёрдам беради;

3) **мослаштириш** функцияси — янги сиёсий ғоялар ва стреотиплар ёрдамида ўзгарувчан шароитларга мослашиш ва жавоб беришга тайёр бўлишни таъминлайди;

4) **ижтимоийлаштириш** функцияси — сиёсий маданиятни ўзлаштириш жараёнида одамларнинг ўз манфаат ва имкониятларини англаш, сиёсатга бўлган муносабати ва сиёсий натижаларини шакллантиришдаги ролини белгилайди;

5) **барқарорлаштириш** функцияси — сиёсий жараёнлардаги турли ўзгарувчан, муаммоли вазиятларда жамият аъзоларида мавжуд сиёсий тизимга ва унинг институтларига нисбатан хайрихоҳ муносабатларни шакллантириб, ҳокимият яхлитлигини сақлашга ёрдам беради;

6) **бирлаштириш** функцияси — жамиятнинг турли табақа ва гуруҳларини ягона мафкуравий-сиёсий бирлик, қадриятлар, эътиқодлар ва меъёрлар тарғиботи орқали ижтимоий уйғунлигини яратиб, уларни жипслаштирган ҳолда сиёсий тизимини барқарорлиги ва давомийлигини таъминлашга замин яратади. Унга кўра, умумий қабул қилинган сиёсий-маданий қадриятлар, хулқ-атвор андозалари ва анъаналар одамларни битта сиёсий тизимга бирлаштиради ҳамда жамиятларни бир-биридан фарқлайди;

7) **алоқаларни таъминлаш** функцияси — жамиятда доимий сиёсий мулоқот ва фуқаролик муносабатларини, шунингдек, турли ижтимоий кучлар ўртасида зарур

маълумотлар алмашинувини таъминлаш орқали сиёсий тизимининг шаффоф ва жавобгарлигини таъминлаб фуқароларни сиёсий ривожланишлари билан таништириш ва уларнинг иштирокини рағбатлантиришга шароит яратади;

8) **жамиятнинг сиёсий тизими ва сиёсий ҳаётини янгилаш** функцияси — сиёсий маданият доирасида шаклланган ва қарор топган жамиятнинг сиёсий тузилишини ўзгартириш ҳақидаги янги ғоялар янги сиёсий институтлар, жараёнлар ва механизмларнинг яратилишига олиб келади *(масалан, монархнинг ваколатларини конституциявий чеклаш, ҳокимиятнинг тақсимланиши, умумий сайлов ҳуқуқи ғоялари ва ҳ.к.)*;

9) **сиёсий тузилишда ва сиёсий ҳаётда ворисийликни таъминлаш** функцияси - сиёсий маданият бунга янги ғояларни аввалги сиёсий тажриба билан боғлаш орқали эришади.

Бизнингча, юқоридаги чамбарчас боғлиқ ва бир-бирини тўлдирувчи функцияларни амалга ошириш қуйидаги энг асосий маданий муаммоларни ҳал қилишга ёрдам беради: а) асосий давлат рамзлари, қадриятлари ва меъёрлари узлуксизлиги асосида мавжуд ҳокимият ва сиёсий муносабатлар тизимини қайта ишлаб чиқариш ва ўзгарувчан сиёсий режимлар шароитида ҳам жамиятни бошқаришнинг асосий схемаларини ва фуқароларнинг сиёсий мулоқот шаклларини сақлаб қолишга; б) сиёсий ҳаётни қайта қуришга сезиларли таъсир кўрсатадиган янги сиёсий лойиҳалар, мақсад ва ғояларни илгари суришга имкон яратади.

ХУЛОСА

Сиёсий маданият одамларнинг сиёсий соҳадаги маънавий ва жисмоний фаолиятларидаги хатти-ҳаракатларида яққол кўзга ташланади. Сиёсий маданият элементлари эса айнан ушбу босқичга ўз таъсирини кўрсатади. Айнан одамларнинг сиёсий билимлари, таассуротлари, қарашлари, қадриятлари, анъаналари, сиёсий жараёнларга муносабати, иштироки кўринишлари сиёсий маданиятнинг таркибини ташкил этади. Мазкур элементлар сиёсий маданиятдаги мақсад ва вазифалар асосини ташкил этади. Сиёсий маданият функцияларини амалга ошиши ҳар қандай жамият фаровонлигини таъминлашга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармонининг деярли барча устувор йўналишлари ва кўплаб мақсадларида сиёсий маданиятни оширишга қаратилган вазифалар белгиланган. https://lex.uz/docs/5841063

2. Almond G., Verba S. The Civil Culture: Political Attitudes and Democracy in Five Countriyes. — Princeton, 1963. – P. 28

3. Карпова Наталья Владимировна. “Политическая культура как структурный элемент механизма функционирования политических систем” Вестник Московского университета. Серия 18. Социология и политология, vol. 22, no. 1, 2016. С. 182.

4. Усикова Л.Ф. Политическая культура. Локус: люди, общество, культуры, смыслы, 1, 2010. С. 90-101.

5. Омеличкин Олег В.. "Структура и функции политической культуры" Вестник Кемеровского государственного университета. Серия: Политические, социологические и экономические науки, 1 (3), 2017, pp. 4-11.

6. Тўйчиев Б., Омонов Б. Сиёсий маданият. Монография. Тошкент, Tafsir Books, 2024. – 39 бет.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Vaxobova Dilfuza Roziqovna
Buxoro davlat universiteti “Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa”
kafedrasi o‘qituvchisi, Buxoro davlat universiteti doktaranti
dilfuzavaxobova72@gmail.com

Taqrizchi O.T.Sharipova

Received 4th Janvier 2025, Accepted 10th Janvier 2025, Online 4th February 2025

ABU ABDULLOH RUDAKIY ADABIY –MA’NAVIY MEROSINING SHARQ OLIMLARI TOMONIDAN O‘RGANILISHI

Annotation. Rudakiy nomi bilan mashhur Abu Abdulloh Ja’far ibn Muhammad Rudakiy IX asrning atoqli fors-tojik shoiri bo‘lib, serqirra va betakror adabiy va she’riy ijodi bilan Sharq adabiyoti va madaniyatiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Abu Abdulloh Rudakiyning she’riyati go‘zal va hikmatli so‘z timsoliga aylanib, g‘oyalari Sharq xalqlari qalbi va ongida hamon sharafli o‘rin tutadi. Sharqda, Abu Abdulloh Rudakiy adabiy-ma’naviy merosini o‘rganish, mintaqa madaniy merosini asrab-avaylash, uning chuqur ildizlarini anglashning ajralmas qismidir.

Kalit so‘zlar: ma’naviy meros, fors-tojik adabiyoti, falsafiy g’oyalar, she’riyat tadqiqotchilari, sharq qadriyatlari.

ИССЛЕДОВАНИЕ ЛИТЕРАТУРНОГО И ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ АБУ АБДУЛЛЫ РУДАКИ УЧЕНЫМИ ВОСТОКА

Annotatsiya. Абу Абдулла Джафар ибн Мухаммад Рудаки, известный как Рудаки, был известным персидско-таджикским поэтом IX века, оказавшим большое влияние на литературу и культуру Востока своей уникальной и неповторимой литературой и поэзией. Поэзия Абу Абдуллы Рудаки стала символом красивого и мудрого слова, а его идеи до сих пор занимают почетное место в сердцах и умах людей Востока. На Востоке изучение литературного и духовного наследия Абу Абдуллы Рудаки, сохранение его культурного наследия является неотъемлемой частью глубокого понимания его корней.

Ключевые слова*:* духовное наследие, персидско-таджикская литература, философские идеи, исследователи поэзии, восточные ценности.

THE STUDY OF THE LITERARY AND SPIRITUAL HERITAGE OF ABU ABDULLAH RUDAKI BY EASTERN SCHOLARS

Аннотация. The renowned Abu Abdullah Ja'far ibn Muhammad al-Rudaki, also known as Rudaki, was an eminent Persian poet and philosopher of the 9th century, whose profound literary and poetic creations left a significant impact on the Eastern literature and culture. His poetry revolves around beautiful and wise metaphors, touching the hearts and souls of Eastern peoples, who hold him in high esteem. The exploration of Abu Abdullah Rudaki's literary legacy in the East is an indispensable part of understanding and appreciating the richness of this cultural heritage.

Key words: literary legacy, Persian-Tajik literature, philosophical ideas, literary researchers, Eastern traditions.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

KIRISH

Abu Abdulloh Rudakiy fors-tojik adabiyoti tarixidagi eng nufuzli va ko‘zga ko‘ringan shoirlardan biridir. Abu Abdulloh Rudakiy IX asrda yashab, umumjahon madaniyatiga katta ta’sir ko‘rsatgan mumtoz fors-tojik she’riyatining asoschisi bo‘ldi. Ushbu maqolada uning hayoti va ijodining Sharqda o‘rganish tarixini ko‘rib chiqamiz, shuningdek, uning fors she’riyati va jahon adabiyoti rivojiga qo‘shgan hissasi haqida so‘z yuritamiz. Rudakiy 858 yilda hozirgi Tojikiston hududida joylashgan Rudak qishlog’ida tug‘ilgan. Abu Abdulloh Rudakiy O‘rta Osiyo tarixida islom dini hududga kirib kelgan, zardushtiylik va boshqa qadimiy e’tiqodlar an’analari, madaniyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan bir davrning guvohi bo‘ldi. Bu xilma-xil ta’sirlar va madaniy ziddiyatlar, Abu Abdulloh Rudakiy ijodiga o‘z ta’sirini o‘tkazdi, adibning she’rlariga ma’naviy, ijtimoiy- falsafiy mazmuniga singdi**.** Shoir Abu Abdulloh Rudakiy adabiy merosida chuqur ijtimoiy-axloqiy falsafiy mazmun mavjud bo‘lib, ularda, ko‘pincha hayot mazmuni, adolat, inson taqdiri haqida mulohaza yuritiladi. Abu Abdulloh Rudakiy she’riyatida borliqning ma'nosi haqidagi savollarga murojaat qilib, dunyo haqidagi tasavvurini va undagi inson o‘rnini taqdim etdi. Abu Abdulloh Rudakiyning falsafiy g‘oyalari, nozik fikrlari, zamonaviy kitobxon va adabiyotshunoslarni hayot va olamni idrok etishiga ta’sir qiladi. Bundan tashqari, Rudakiy fors-tojik tili va adabiyoti rivojiga katta hissa qo‘shgan. Buyuk adibning she’riy shakllari va uslubi, o‘zidan keyingi shoirlar avlodlariga ta’sir etib, fors-tojik she’riyatining rivojlanishiga asos bo‘ldi.

Abu Abdulloh Rudakiyning tili sodda va oddiy, insonga yaqin edi va bu shoirning ijodini qadim Sharqda keng xalq ommasi orasida yoyilishiga yordam berdi. Sharqda Abu Abdulloh Rudakiy ma’naviy-adabiy merosini o‘rganish chuqur tarixiy va madaniy ildizlarga ega. Sharq olimlari, adiblari, she’riyat tadqiqotchilari uning ijodi va g‘oyalariga alohida e’tibor qaratib, she’rlarining teran ma’nosini, zamonaviy jamiyat uchun ahamiyatini anglashga harakat qiladilar. Abu Abdulloh Rudakiy adabiy merosini o‘rganish uchun olib borilgan tadqiqotlarda, tarixchi va tilshunoslar, adib yashagan tarixiy davrning ijtimoiy-madaniy holatini tahlil qilishgan, shuningdek, ayrimlari o‘z tadqiqotlarida buyuk adibning umuminsoniy g'oyalarining mintaqa adabiyoti, san’ati va tafakkurining rivojlanishiga ko‘rsatgan ta'sirini o‘rganishgan.

MATERIALLAR VA USULLAR

Abu Abdulloh Rudakiy ma’naviy-adabiy merosini Sharqga o‘rganish G’arbga nisbatan bir asrdan keyin boshlangan bo‘lsada, shoir Rudakiy adabiy-ma’naviy merosini o‘rganish juda tez sur’atlarda kechadi. G’arbda buyuk shoirning adabiy merosini o‘rganishda faqatgina ikki va uchta asosiy manbalardan foydalanilgan bo‘lsalar,Sharqda Rudakiyning adabiy merosini o‘rganishda, shu paytgacha o‘rganilmagan manbalardan foydalanilgan. Shu bilan birgalikda, Rudakiy ma’naviy-adabiy merosini o‘rganishda, o‘rta asrga xos tadqiqot usullari bilan birgalikda, zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanish, XX asr dastlabki yillarida boshlangan.

Rudakiy ma’naviy-adabiy merosini Sharqga o‘rganish, Hindistonlik mashhur islomshunos, tilshunos, olim va shoir Shibli No‘mani (1857-1914) tadqiqotlari bilan boshlangan. Aynan shu davrda Shibli No‘mani “Шер-ул-Аджам,” (Fors she’riyati tarihi) asarini yozgan. Shibli No‘mani o‘z asarida, shoir Rudakiy ma’naviy-adabiy merosiga katta e’tibor qaratgan. Shibli No‘mani o‘z davrining nozik tadqiqotchi va adabiyotshunosi sifatida, Rudakiyning she’riy, badiiy uslubi va ijodining axloqiy-badiiy xususiyatlarini aniqlashda katta yutuqlarga erishdi. [6,71b]

Abu Abdulloh Rudakiy ma’naviy-adabiy merosini o‘rgangan, boshqa bir Sharq davlatlardan biri, bu Turkiya davlati bo‘lib hisoblanadi. Turkiyada G’arb davlatlari va Hindiston davlatlari singari, Rudakiyning she’riyati nafaqat o‘quv qo‘llanmalarda, balki ilmiy tadqiqot ob'ekti sifatida ham

o‘rganildi. Turkiyalik tilshunos, adabiyotshunos va shoir Velet Chelebi Izbudak (1867-1953) o‘z asarida, adib Rudakiyning adabiy ijodining, fors-tojik adabiyotidagi buyuk tarixiy o‘rnini ochib berishga harakat qiladi. Velet Chelebi o‘z asarida shoir Abu Abdulloh Rudakiyni, Ellada kuychisi Gomer bilan taqqoslaydi. [6,73;7,155b]

Alohida e'tiborga loyiqki, Veled Chelebi musiqa asboblarini o‘rganib, shunday xulosaga keladi: "rūd" - o‘sha, "chang" musiqa asbobi bo‘lib, shoir Rudakiy aynan shu asbobni mahoratli chalishda mashhur bo‘lgan.

Boshqa bir Turkiyalik jurnalist, yozuvchi Xusayn Donish (1870-1943) o‘z asarida, shoir va mutafakkir Rudakiyning she’riyatiga alohida e’tibor beradi va uning fors she’riyatidagi alohida o‘rnini ta’kidlaydi. Aynan shu davrda chop etilgan “Turkiya Ensiklopedik Lug’ati”da, Rudakiyning adabiy ijodi batafsil yoritiladi.

1930 yildan boshlab, Eron davlatida Abu Abdulloh Rudakiyning adabiy ijodini o‘rganish juda katta miqyosda boshlandi.1930-1940 yillar orasida Eronda tarixchi, yozuvchi, shoir, tarjimon, Eron adabiyot va til akademiyasining a’zosi Said Nafisi (1895-1966) o‘zining 3 jilddan iborat “Abu Abdulloh Jafar ibn Muhammad Rudakiyning hayoti va ijodi” deb nomlangan monagrafiyasi nashrdan chiqaradi. Bu asar Rudakiy ma’naviy-adabiy merosini o‘rganishda, eng katta ilmiy hissa bo‘lib xizmat qildi va barcha tadqiqotchilar e’tirofiga sazovor bo‘ldi. Asarning birinchi jildida, Said Nafisi, Rudakiy yashagan tarixiy davrning siyosiy hayoti, iqtisodiy jihatlari va madaniy hayoti qirralarini, Movaroynnahr va Xurosonning tarixiy jug’rofiyasi haqidagi ma’lumotlarni beradi. Asarning 2 jildida, Said Nafisi Abu Abdulloh Rudakiyning hayot yo‘li va adib bilan bog’liq asosiy voqealarni bayon qiladi. Asarning 3 jildida, mumtoz fors-tojik adabiyoti vakillarining Abu Abdulloh Rudakiy to‘g’risidagi ma’lumotlarini va shoirning haligacha noma’lum ayrim baytlari haqida ma’lumotlar beradi. Abu Abdulloh Rudakiy adabiy merosini o‘rganishda, Said Nafisining tadqiqotlarining ahamiyati juda katta. Said Nafisining tadqiqotlari hozirgacha eng aniq va ishonchli ma’lumotlar hisoblanadi. Said Nafisi o‘z tadqiqotlari bilan o‘zidan oldingi, shoir Rudakiy adabiy ijodini o‘rgangan tadqiqotchilarning asosiy xatolarini topib tahlil qildi. [6,73;7,156 b]

1897 yilda Tehron shahrida “Devoni Rudakiy” nomi ostida chop etilgan ro‘yxatlar to‘plami nashr etilgan. Bu to‘plam Sharq va G‘arb davlatlarining turli kitob depozitariylarida, jumladan, uchtasi Buyuk Britaniya davlatida mavjud. Fors adabiyoti tadqiqotchisi Said Nafisi bu devondan, Rudakiyga tegishli baytlarni, boshqa shoirlarning baytlari bilan solishtirib, ajratishga muvaffaq bo‘ldi. Said Nafisiyning Rudakiy adabiy-ma’naviy merosi, hayoti va ijodiga oid asarlari, zamonaviy Eron Rudakiyshunos tadqiqotchi olimlari tomonidan e’tirof etilgan va fundamental tadqiqot sifatida ularning ahamiyati juda katta. Said Nafisiyning Abu Abdulloh Rudakiy adabiy-ma’naviy merosini o‘rganish borasidagi tadqiqotlari, mutafakkir Rudakiy adabiy merosi o‘rganish tarixining yangi bosqichini ifodalaydi. Ayniqsa, Rudakiy adabiy-ma’naviy merosini o‘rganish borasidagi xizmatlari juda beqiyos. Said Nafisi shoir Rudakiyning adabiy merosini aniqlash, tadqid qilish va nashr etish uchun bor kuchini sarfladi va bu sohaning rivojlanishida muhim rol o‘ynagan adabiy maktabga asos soldi.

She’riyat muxlisini Rudakiy bilan yaqindan tanishtirish maqsadida, Said Imomi qalamiga mansub“Rudakiy–shoirlar ustozi” asarini aslida, Said Nafisi tadqiqotlarining davomi desa bo‘ladi. Unda muallif, Somoniylar sulolasi davridagi siyosiy, madaniy va adabiy vaziyat, fors tilining xususiyatlari va she’rlar mavzularini tadqiq etadi. Bundan tashqari, Said Imomi shoir Rudakiy hayoti, she’rlarining mavzulari, hikmat va mahoratini atroflicha tadqiq etadi.

1939 yilda Badiuzamon Xurosoniyning "Suxan va suxanvaram" asari (Adabiyot va so‘z ustalari) kitobi nashrdan chiqdi. Bu kitobning birinchi qismi Xuroson va Movarunnahr shoirlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda Rudakiyga ham joy berilgan. Badiuzamon Xurosoniy dastlab manbalar

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

asosida, Abu Abdulloh Rudakiyning tarjimai holidan ma’lumot beradi, so‘ngra uning she’rlaridan ko‘plab namunalar keltiradi.

Rudakiy ijodi Eron adabiyotshunosi Rizozoda Shafak (1892-1971) ning “Eron adabiyoti tarixi” asarida juda chuqur tahlil qilingan. Muallif tazkira tuzuvchilari va ayrim shoirlarning bergan ma’lumotlariga asoslanib, Rudakiyning fors-tojik adabiyoti tarixida o‘rninini aniqlashga harakat qiladi. Rizozoda Shafak, shoir Rudakiyni “mohir so‘z ustasi va teran tafakkur egasi”,deb ta’kidlab o‘tadi. Bu fikrlarini asosi sifatida, Rudakiyning ijtimoiy-axloqiy,falsafiy qarashlari bayon qilingan baytlarini misol qilib keltiradi va qo‘shimcha qiladi:“Manbalarda Rudakiyning bunday misralari ko‘p bo‘lib, ular, shoirning g‘amlarga qarshi matonat bilan qarshi chiqqanidan dalolat beradi va taqdirning zarbalariga, qat’iyatli ruh va kuchli yurakni qarshi qo‘yishni, inson shaxsini barcha vaziyatlarda, qo‘rqmasdan va ikkilanmasdan qat'iyatli bo‘lishga undaydi. [6,74b]

Said Nafisi ilmiy tadqiqotini davom ettirgan bir qancha eron olimlari orasida Xalil Xatib Rahbar ham bor. 1995 yilda Xatib Xalil Rahbar o‘zining “Rudakiy” nomli qimmatli asarida shoirning 492 baytini to‘plab, sharhlab, ijod namunalaridagi so‘zlar ma’nolarini tahlil etadi, eng murakkab misralarning ma’nosini ochib beradi, grammatik qoidalarni tushuntiradi.

Muhammad Sodiq Humoyunfar o‘z navbatida, shoir Rudakiy bibliografiyasini ishlab chiqish orqali, mutaxassislar va adibning muxlislariga qimmatli xizmatlar ko‘rsatdi. Bibliografiya olti bobdan iborat bo‘lib, unda Humoyunfar she’riyat muxlislarini Rudakiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan fors va boshqa tillardagi asarlar bilan tanishtiradi. Asarda, Sharq mumtoz vakillaridan tortib, XX asrgacha antologiya tuzuvchi va tarixchilarning, shoir Rudakiy ijodi haqidagi barcha fikrlarini to‘pladi, buning natijasida tadqiqotchilarning endi ko‘plab asarlarni o‘rganishga hojat ham qolmaydi. Asar Rudakiy adabiy merosi haqidagi Markaziy Osiyo va Tojikistonlik mutaxassislarning tadqiqotlari haqida batafsil ma’lumotlar berilgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Eronda Abu Abdulloh Rudakiy haqida Said Nafisiydan keyin, batafsilroq tadqiqot olib borgan, forsshunos olim,Tehron universitetining professori Zabihulloh Safo (1911-1999) hisoblanadi. Zabihulloh Safo o‘zining“Eronda adabiyot tarixi“ asarida buyuk shoir Rudakiy haqidagi bahsli (Rudakiy taxallusining ma'nosi, shoirning o‘limi, qabri, ijod namunalari soni, ko‘zi ojizligi bo‘lganligi haqida) savollarga, manbalarga tayanib, javob topishga harakat qiladi.

Eronda nashr etilgan fors-tojik adabiyoti asoschisi Rudakiy hayoti va ijodiga bag’ishlangan yana bir Eronda nashr etilgan Hushang Mustafoning “Eronning buyuk shoirlari” haqidagi asari bo‘lib hisoblanadi.Bu asarda muallif, shoir Rudakiy haqida manbalardan foydalanib, batafsil ma’lumot beradi.

Sharq forsshunoslaridan, Eron ilm-fanining atoqli namoyandasi, islom tarixi, dinlar tarixi, ilohiyot va sxolastika tarixi, so‘fiylik tarixi va ijtimoiy fanlar tarixiga oid ko‘plab asarlar muallifi, Tehron universiteti professori, Abdulhusayn Zarrinkub (1923-1999) ko‘zga ko‘ringan tadqiqotchilardan biridir. Abdulhusayn Zarrinkubning Rudakiy ijodiga bag’ishlangan asarlari va maqolalari buyuk adibning bebaho merosini o‘rganishda manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, fors-tojik adabiyoti asoschisi bo‘lgan buyuk adib Abu Abdulloh Rudakiyning Sharqdagi ma’naviy merosi mintaqaning muhim madaniy –ma’naviy boyligini ifodalaydi. Uning serqirra va betakror she’riyatida Sharq she’riyati va falsafasining ma’naviy intilishlari, go‘zalligi mujassamdir. Rudakiy adabiy ijodini o‘rganish Sharq madaniy merosini chuqurroq tushunish va qadrlash, uning qadriyatlarini kelajak avlodlar uchun asrashga yordam beradi. Abu Abdulloh Rudakiyning ma’naviy merosini o‘rganish, Sharq madaniy-ma’rifiy boyliklarini, sharqona qadriyatlarni, asrab-avaylash va targ‘ib qilishga xizmat qiladi. Rudakiyning

she’rlari, falsafiy g‘oyalari hozir ham Sharq xalqlarining buyuk madaniy-ma’naviy merosi sifatida, san’at muxlislarining qalbida yashab, yangi kelajak avlodni haqiqiy go‘zalikni ko‘ra bilish va hayotdan saboq olishga o‘rgatmoqda. Abu Abdulloh Rudakiy adabiy-ma’naviy ijodi falsafiy teranligi va donoligi bilan ajralib turadi, aynan shu jihatlari tufayli, jahon ma’naviy hamjamiyatini qiziqtiradi. Rudakiyning inson tabiati, hayot mazmuni, odob-axloq haqidagi g‘oyalari, insoniyatni umuminsoniy qadriyatlar haqidagi tafakkurini boyitadi. Rudakiyning adabiy ijodidagi ijtimoiy-axloqiy g’oyalarini o‘rganish, insoniyat uchun abadiy dolzarb bo‘lgan mavzularini yoritishga yordam beradi, yangi g'oyalar va ayrim ijtimoiy-axloqiy fikrlarni qayta ko‘rib chiqishga sabab bo‘ladi. Buyuk adib, nodir iste’dod sohibi Abu Abdulloh Rudakiy nafaqat Markaziy Osiyoning boy, o‘ziga xos, noyob madaniyatini ifodalaydi, balki umuminsoniy g‘oyalar va qadriyatlarni jahon madaniy merosiga kiritdi.

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Брагинский И. С. Абу Абдаллах Джафар Рудаки. М. Наука, 1989.
2. Бадеъуззамон Фурузонфар. Сухан ва суханварон, Техрон, ч. 1, 1308.
3. Гафарова З. А ШЕ’Р-УЛ-АДЖАМ"-И ШИБЛИ НУМАНИ И ВОПРОСЫ РУДАКИВЕДЕНИЯ. https://cyberleninka.ru/https://ru.wikipedia.org/
4. Iran. viii. Persian literature (2) Classical Архивная копия от 18 октября 2020 на Wayback Machine // Iranica
5. Рудаки и 1000 лет персидской поэзии (Материалы международной конференции, г.Алматы, 4-5 ноября 2008 г.) 2017, 384 -390 с
6. Мирзоев А. М. Рудаки. Жизнь и творчество. М. Наука, 1968. с 70-74
7. М.Муллоахмад. Рудаки ва Рудакишуносон. (Мачмуаи маколахо). Душанбе.2012.155-160 b
8. The Encyclopaedia of Islam, New Edition. Leiden: Brill Publishers, 2019 https://en.wikipedia.org/wiki.Iran VIII. Persian literature (2) Classical статья из Encyclopædia Iranica
9. Тагирджанов А. Т. Рудакй: Жизнь и творчество. История изучения. - Ленинград: Изд-во ЛГУ, 1968,
10. Таърихи адабиёти Эрон (Аз Сомониён то Салчукиён), Техрон, 1318, сах. 41.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Muslima Tokhirovna Jabborova
University of Bussines and Science,
Namangan city, Republic of Uzbekistan

Published under peer review:
Doctor of Science in History, Associate Professor
Ulugbek Mansurov

Received 4th Janvier 2025, Accepted 10th Janvier 2025, Online 4th February 2025

APPLICATION OF THE GAME "ASSOCIATIONS" IN RUSSIAN LANGUAGE LESSONS FOR PRIMARY SCHOOL

Annotation. The article examines the use of the "Associations" game in Russian language lessons in primary school as an effective method for developing students' speech and cognitive skills. The game "Associations" helps primary schoolchildren expand their vocabulary, develop associative thinking, attention and memory, and also encourages constant workload.

Key words: game, association, dialogue, communication skill, motivation, educational process, vocabulary, speech, thinking, language barrier, Russian language.

BOSHLANG'ICH SINF RUS TILI DARSLARIDA "ASSOTSIATSIYALAR" O'YININI QO'LLASH

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinflarda rus tili darslarida o'quvchilarning nutqi va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali usuli sifatida "Assotsiatsiyalar" o'yinidan foydalanishning samaradorligi ko'rib chiqiladi. "Assotsiatsiyalar" o'yini boshlang'ich maktab o'quvchilarining so'z boyligini kengaytirishga, assotsiativ fikrlashni, e'tiborni va xotirani rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, darsga bo`lgan qiziqishlarini yanada oshiradi.

Kalit so‘zlar: o'yin, assotsiatsiya, dialog, muloqot qobiliyati, motivatsiya, o'quv jarayoni, lug'at, nutq, fikrlash, til to'sig'i, rus tili.

ПРИМЕНЕНИЕ ИГРЫ «АССОЦИАЦИИ» НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА ДЛЯ НАЧАЛЬНОГО КЛАССА

Аннотация. Статья рассматривает применение игры «Ассоциации» на уроках русского языка в начальной школе как эффективный метод развития речевых и когнитивных навыков учащихся. Игра «Ассоциации» помогает младшим школьникам расширить словарный запас, развивать ассоциативное мышление, внимание и память, а также поощряет постоянные нагрузки.

Ключевые слова: игра, ассоциация, диалог, коммуникативный навык, мотивация, учебный процесс, лексика, речь, мышление, языковой барьер, русский язык.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Введение. Игра «Ассоциации» является одной из эффективных и увлекательных методик, широко применяемых в преподавании русского языка. Её особенности позволяют развивать у учащихся не только творческое, но и аналитическое мышление, а также обогатить словарный запас и повысить интерес к учебному процессу.

Применение игры «Ассоциации» способствует активизации познавательной деятельности детей, помогая им лучше усваивать различные аспекты языка, такие как лексика, грамматика, правописание. В процессе игры учащиеся учат новые слова, расширяются представления о том, как используются слова, развивается внимательность и способность находить связь между понятиями и словами. Особенно важно, что игра помогает детям развивать навыки, память и креативность.

Актуальность исследования. Актуальность темы обусловлена следующими факторами:

— возрастные особенности младших школьников;

— развитие речи как приоритетная задача;

— интеграция игровых методов в обучение;

— необходимость повышения мотивации к обучению.

Методы исследования. В процессе изучения применения игры «Ассоциации» на уроках русского языка в начальных классах использовались следующие методы:

— теоретический метод. Анализ психолого-педагогической литературы, посвящённой развитию речевых навыков у младших школьников;

— наблюдение за образовательной деятельностью учащихся во время проведения игры «Ассоциации»;

— экспериментальная проверка эффективности игры «Ассоциации» в учебном процессе;

— анкетирование педагогов с целью изучения их отношения к использованию игровых методов обучения.

Обзор литературы по теме исследования. Вопросы развития речи через игровые технологии рассматриваются в трудах Л.С.Выготского, Д.Б.Эльконина, Н.Е.Щукиной и других учёных.

Л.С.Выготский в своих работах подчёркивал значение игры как ведущей деятельности для формирования ассоциативного мышления и речевых навыков у детей младшего школьного возраста. По его мнению, игра помогает ребёнку перейти от конкретного к абстрактному мышлению, что крайне важно для изучения языка. Он писал: «Игра позволяет ребёнку обобщать и осваивать новые понятия, что особенно важно в процессе обучения языку» [1].

Д.Б.Эльконин отмечал, что игровые технологии, такие как ассоциативные игры, стимулируют познавательную активность и эмоциональную вовлечённость учащихся, способствуя усвоению языкового материала: «Игра задаёт мотивы и цели учебной деятельности, что делает обучение более продуктивным» [2].

Н.Е.Щукина подчеркивала значимость активных методов обучения, включая игры, и их влияние на мотивацию и познавательную деятельность школьников: «Ассоциативные игры помогают ученикам включаться в процесс обучения и легче усваивать сложные темы» [3].

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Е.И.Пассов, разрабатывая коммуникативный метод обучения, утверждал, что ассоциативные игры являются важным инструментом в обучении языку, так как они способствуют развитию ассоциативного мышления и коммуникативных навыков: «Ассоциации помогают детям установить связи между изучаемыми словами и понятиями, облегчая их усвоение» [4].

Анализ литературы показывает, что игра «Ассоциации» является эффективным инструментом для развития речевых навыков у младших школьников. Она основывается на психолого-педагогических принципах и отвечает требованиям современных образовательных стандартов. Исследования подтверждают её высокую результативность в обучении и формировании у детей интереса к языку.

Младший школьный возраст (6–10 лет) – это важный этап в развитии ребенка, который характеризуется формированием учебной мотивации, когнитивных навыков и социального взаимодействия. Возрастные особенности детей этой группы оказывают большое влияние на подходы к обучению, в том числе на уроках русского языка. Этот возраст характеризуется высокой способностью к обучению, особенно в языковой сфере. Дети легко усваивают новый материал, особенно в игровой форме, благодаря активной работе механической и долговременной памяти. Развитие речи младших школьников – одна из приоритетных задач начального образования, особенно на уроках русского языка. Речь – это ключевой инструмент познания, коммуникации и самовыражения ребенка, и ее формирование в младшем школьном возрасте имеет решающее значение для дальнейшего интеллектуального и социального развития. Умение выражать свои мысли и понимать речь окружающих – основа успешного взаимодействия в учебной и социальной среде.

Интеграция игровых методов, таких как игра «Ассоциации», в процесс обучения младших школьников помогает эффективно развивать речевые навыки, расширять словарный запас и стимулировать креативное мышление. Этот метод особенно актуален для уроков русского языка, в том числе для детей. Форматы проведения игры «Ассоциации» могут быть по-разному. Например, классический формат, цепочка ассоциаций, ассоциации с картинками, группировка по темам и ролевая версия. Классический формат. Учитель называет слово, а ученики по очереди называют слова, с которыми у них оно ассоциируется. Например: Учитель: «зима». Ученик 1: «снег». Ученик 2: «мороз». Ученик 3: «новый год». Цепочка ассоциаций. Каждый ученик называет слово, ассоциирующееся с предыдущим словом. Например: Учитель: «лето». Ученик 1: «море». Ученик 2: «рыба». Ученик 3: «аквариум».

трубах «бору» и ударных инструментах «табул» («давул») и «наккаре» (котловидные, спаренные барабаны) [20, с. 36]. Музыканты исполнители на большом барабане назывались на иранский манер «давулзан» или по тюркски «давулджы», на малых барабанах «наккарезен» или «наккареджи» [20, 197]. 1475 г. датируется появление у крымских татар военного музыкального оркестра османского образца «мехтерхане» и барабана «давула», как символа наделения военноначальника султанской властью. Крымскотатарский историк Абдулгаффар Кырыми среди даров турецкого султана Мехмеда II Фатиха главному карачи Крымского ханства Ширин Эминек бегу называет бунчук, барабан и оркестр мехтерхане в полном составе [1, с. 88]. Крымский хан согласно османской иерархии занимал в империи место сразу после султана на одну ступень выше великого визиря (садразама) и являлся обладателем двух тугов (бунчуков), двух санджаков (знамен) и оркестра (мехтеран) полного состава в семь рядов [19, 2014]. Префект Каффы Эмиддио Дортелли Д`Асколи в составленном им в 1634 г. «Описании Черного моря и Татарии» отмечая пристрастие крымских татар к ударным музыкальным инструментам, писал, что: «К луке начальников из татарского дворянства всегда привязан тулумбас (литавровый барабан tamborrino)» [16, с. 161].

Тавуш (№ 5445) — **„звук, движение". Это вариант [слова] тавиш** [9, с. 864]. В языке степных крымских татар слова «давуш», «тавыш» также имеют одинаковое значение со словами «голос», «звук». **Бучй** (№ 5486) - **бучй кубуз — разновидность лютни со звонким звуком** [9, с. 870]. Возможно, что современное соответствие древнетюркскому музыкальному инструменту «бучи кубуз» представляет вариант кобуза с уменьшенным корпусом, более высоким настроем струн и резким звучанием со звонким повышенным звуком. То есть это «кобуз прима». В пользу данного предположения говорит общий в слове «бучи» с термином из языка южнобережных крымских татар «бучук» корень «буч», означающий «пили», «крои» отсюда «бучук» («половина»), «бир бучук» («полтора»). Аналогично у размера скрипок существует градация «целая», «половинная», «четвертная» отличающихся по мере уменьшения размера более высоким звучанием. Возможно, что и «бучи» во времена написания словаря означало «половинный», «маленький» кобуз. **Акама** (№ 5499) — **один из видов лютни** [9, с. 872]. В музыкальной крымскотатарской терминологии название «акама» отсутствует, «акама», в говоре южнобережных крымских татар Ялты и горных крымских татар села Буюк Озенбаш (н. Счастливое) означает «брату». **Тукимак** (№ 5520) — **„колотушка белильщика ткани"** [9, с. 874]. У крымских татар помимо «без токъумакъ» («ткать бязь»), «токъмакъ» (старотюркское «тукимак») означает железную с ребрами или деревянную с шипами колотушку-булаву, предназначенную для ведения ближнего боя и деревянную колотушку для игры на большом оркестровом барабане «давул». **Бучй** (№ 5705) — **„лютня с громким звучанием"** [9, с. 906]. «Бучй» на наш взгляд является упрощенной аналогией названия, описанного выше музыкального инструмента **«бучй кубуз»** (№ 5486) [9, с. 870]. **Бургуй** (№ 5838) **— „рог, в который трубят"** [9, с. 923]. Через двести с небольшим лет после ал-Кашгари название этого древнетюркского духового инструмента опубликовали в словаре «Codex Cumanicus» написанном в окрестностях административного центра Крымского улуса Золотой Орды города Солхат-Кырыма (н. Старый Крым) монахи францисканцы. Российско-немецкий тюрколог Василий (Вильгельм) Радлов в работе, посвященной этому памятнику старокрымскотатарского (кумано-кыпчакского) языка среди названий музыкальных инструментов из «Codex Cumanicus» приводит немецкий перевод Бургу - Trompete (Труба) [22, p. 20, 27, 46]. Бургу, получившая название от тюркского глагола «бур», «бурмакъ» («крути», «скручивать» в крымскотатарском языке) – зигзагообразная медная духовая труба. Бургу в турецком языке называются колки для натяжки струн на

музыкальных инструментах [17, s. 144.] и ключ для настройки музыкальных инструментов канун и кеман [21, s. 740]. В военных оркестрах турок сельджуков, османсков и крымских татар использовался духовой музыкальный инструмент «бору», «буру», а музыкантов владеющим им называли «борузан», «борузен». Должность борузен в турецкой и крымскотатарской армиях соответствовала званию капельмейстера военного оркестра. **Бузй** (№ 5917) — **[„танцевать”], кйз бузйдй „девушка (или др.) танцевала”. [Форма настояще-будущего времени и отглагольное имя:] бузйр, бузймак. Пословица: куртга бузйк билмас ййрим тар тйр „Старуха не умеет танцевать и говорит: у меня тесно”. Так говорят о тех, кто хвастается чем-либо [попусту], когда с них это спрашивают, они не могут привести подтверждение и придумывают отговор** [9, с. 937]. Термин «бузи» созвучен с татарским и башкирским «бий», «бийийик» в том же значении «танец, пляска», «давайте плясать». В языке южнобережных крымских татар существует выражение «буйю», «буйюлемек» («магия», «колдовство», «приворот»). Предполагаем, что это термин-отголосок доисламских верований в лексиконе крымских татар, обозначавшем у их предков тенгрианцев танцевально-трансовую часть ритуала камлания кама (шамана). Старотюркский термин «**куртга»** (крымтат. «къурткъа») - «старуха» распространен среди степных крымских татар. До тотального русификаторского переименования крымскотатарских топонимов 1945 – 1948 гг. самое крупное село степных крымских татар на полуострове называлось Бешкъурткъа («Пять старух»). Старотюркское выражение «**куртга бузйк билмас ййрим тар тйр»** - в крымскотатарском языке будет звучать: «Къурткъа буйювны бильмез, йерим тар дер». **Кубза** (№ 6022) — **[„играть на кобызе, лютне”]. ул кубуз кубзадй „он играл на кобызе (лютне)”. [Форма настояще-будущего времени и отглагольное имя:] кубзар, кубзамак** [9, с. 954]. В крымскотатарском языке выражение **ул кубуз кубзадй „он играл на кобызе (лютне)”** будет звучать: - «о къобуз чалды», «о къобузнынъ теллерини къопарды» («он оторвал струны кобуза»).

Жарла (№ 6080) — **[„плакать”; „трубить”]** [9, с. 963]. В языке степных крымских татар «жарла» («плакать») будет звучать «джыла» («плачь»), а «жарла» («трубить») - «жарылда» («шуми», «труби»). Звук, издаваемый старотюркским латунным духовым инструментом «бургу», называемым ираноязычным населением «карнай» (от персидского «карнай» - «рог») похож на звук «жар». Степные крымские татары на очень громкое и безыскусное музыкальное исполнение говорят: «чалгъыджылар бек жарылдаталар» («музыкантов очень шумят»). В степном крымскотатарском языке «джар» также означает «горе», «бедствие», а «джарлы» - «бедняга», «горемычный». **Кукла** (№ 6112) — **[„петь”, а вернее пой]. ар кукладй „человек пел песню, выводил напев”. [Форма настояще-будущего времени и отглагольное имя:] куклар, кукламак** [7, с.967]. Семантические параллели термина «кук», «кукла» - «пение», «пой», рассматривались в данной статье выше в блоке - **Кук (№ 5259)**, - **„мотив, напев”. эар кукландй „человек напевал песню”** [9, с. 838]. Выражение «ар куклади» в крымскотатарском языке будет звучать: «эр кукледи». **Йирла** (№ 6151) — **[„петь”, а вернее пой]. ар йирладй „человек пел”. [Форма настояще-будущего времени и отглагольное имя:] йирлар, йирламак** [7, с. 973]. Семантика и звучание термина «йирла» указанного в словаре тождественна аналогичному термину в крымскотатарском языке. В крымскотатарском языке музыкальный термин «йирла», как и у ал-Кашгари означает слово «пой», а - **ар йирладй „человек пел”** будет звучать «эр йирлады» («мужчина пел»). **[Форма настояще-будущего времени и отглагольное имя:] йирлар, йирламак** – в крымскотатарском языке **«йирлар»** означает «будет петь», «запоет», «песни», **«йирламак»** - «петь», **«йирлар йирламак» -** «петь песни». **Айала** (№ 6192) **- [„хлопать в ладоши”], кйз айаладй „девушка хлопнула в ладоши”. [Форма настояще-будущего времени и отглагольное имя:] айалар,**

айаламак. [9, с. 985]. В языке степных крымских татар термин «айаланмакъ» означает «долго возиться», «задерживаться», «делать что-нибудь очень долго». «Сен къайдаларда айаланып къалдынъ?» («Где ты так долго провозился?». **Чан** (№ 6301) **- „цимбалы”** [9, с. 106]. В крымскотатарском языке «чангъ», как и старотюркское **«чан»** - означает название музыкального струнного ударного инструмента рода цимбал, имеющего в Крыму также название «сантыр». Аналогичный ему меньшей формы струнный инструмент у крымских татар называется «къанун». «Чангъ» представляет собою трапециевидной формы крупный музыкальный инструмент с деревянным корпусом, на котором закреплены сорок две треххордные металлические струны. Звукоизвлечение при игре на нем, достигается с помощью двух ударных тростниковых, бамбуковых или выточенных из легких пород дерева палочек. **Чаңрак** (№ 6449) **чаңрак ун - „громкий, чистый звук”** [9, с. 1026] в крымскотатарском языке будет звучать «чанъгъыракъ ин» («звенящий звук»). **Куңрагу** (№ 6478) **- „колокольчик”** [9, с. 1030]. В говорах степных крымских татар сохранилось выражение «къынгъыракъ», «къынъгъырав» с одинаковым со старотюркским «кунрагу» значением «колокольчик».

Сравнительный семантический анализ сохраненной в словаре «Диван Лугат ат-Турк» музыкальной лексики старотюркских огузоязычных, кыпчакоязычных и карлукоязычных племен с традиционной для среденевекового Крыма музыкальной лексикой степных и южнобережных крымских татар выявил сохранявшуюся в течении тысячелетия связь между архаичной лексикой крымскотатарского языка и музыкальной терминологией тюркских народов эпохи Караханидов. Ко времени написания словаря «Диван Лугат ат-Турк» византийское администрирование в Юго-Западном Крыму вступало в период своего заката, а его равнинная и предгорная часть Крыма после оседания на здесь гуннов, булгар и хазар прочно вошла в сферу военной и этнополитической гегемонии продолжавших оседать на полуострове изгнавших из Северного Причерноморья мадьяр огузоязычных тюрок печенегов и потеснивших печенегов кыпчакоязычных тюрок куман-половцев.

Пятнадцать из шестнадцати музыкальных терминов, указанных в приведенном А. М. Ауэзовой списке музыкальных терминов из словаря «Диван Лугат ат-Турк» сохранили прямую, связанную с их первоначальной функцией в музыкальной сфере древних тюрков семантическую связь с музыкальной лексикой крымскотатарского языка. В тексте словаря «Диван Лугат ат-Турк» автором статьи было выявлено и подвержено лексико-семантическому анализу сорок древнетюркских терминов из музыкальной лексики огузских, карлукских и кипчакских народностей периодапериода государства Караханидов. Тридцать шесть из выявленных в тексте словаря музыкальных терминов - «**кубзади**», **«кубуз», «кушуг», «тиз», «рубаб»**, **«тумрук», «куврук», «сибизгу», «кубузлуг», «чал», «кубзаш», «бузут», «йарат», «какрат», «кубзат», «иңрат», «чиңрат», «йир», «йирагу», «тамур казук», «туг», «тувул», «тавуш», «бучй», «акама», «тукимак», «бучй», «бургуй», «бузй», «кубза», «жарла», «йирла», «айала», «чан», «чаңрак», «куңрагу»** имеют толкование и использование в языке южнобережных, горных и степных крымских татар, что является свидетельством обладания тюркскими предками крымскотатарского народа в эпоху Караханидов развитой музыкальной терминологией, инструментарием, высоким профессиональным вокальным и инструментальным исполнительским мастерством.

Заключения и Рекомендации (Conclusions and Recommendations)

К концу правления Караханидов на рубеже XII – XIII вв., в тюркской кочевой среде существование сообществ профессиональных музыкантов-исполнителей на кобузе было

свершившимся фактом, а тюркские музыкальные инструменты получили распространение в Европе [18]. Форпостом продвижения тюркских племен и тюркской музыкальной культуры на Запад, начиная с завоевания Крыма гуннами и заканчивая существованием Крымского ханства являлся Крымский полуостров. Музыкальное искусство общих предков современных тюркских народов, и в их числе крымских татар - кочевников древних тюрков, зародилось в регионах Центральной Азии, тесно соседствовавших с северными и западными китайскими провинциями, и в ходе тюрко-китайских межэтнических культурных контактов испытало влияние развитого музыкального искусства оседлого населения Китая.

Отзвуки древнетюркского периода генезиса музыкальной культуры современных тюркских народов в форме присутствия в музыкальном строе народной музыки некоторых тюркских и фино-угорских народов пентатонического музыкального лада наиболее явственно можно наблюдать в современной музыке волжских и сибирских татар, башкир, уйгур, алтайцев, хакасов, тувинцев, саха (якутов), шорцев, тофаларов, других тюркских этносов Сибири. В разной степени, пентатонический лад присутствует в народной музыке казахов, киргизов и ногайцев. Некоторые слабо-различимые вкрапления пентатонической музыкальной ладовости фрагментарно сохранились в нескольких единичных эпических музыкально-поэтических народных музыкальных произведениях, относящихся к музыкальному фольклору степных крымских татар, что говорит об исторической и культурной связи крымскотатарского музыкального искусства с музыкальной культурой тюрок, соседствовавшего с Китаем государства Караханидов. Практически в одно время с происходившим на территории государства Караханидов процессом обособления из древнетюркского этно-культурного массива карлукских, огузских, кыпчакских этно-культурных племенных общностей – причерноморские тюркские племена гуннского союза, нарушив античное спокойствие окраин греко-римского мира дали старт, продолженному тюрко-булгарами, хазарами, торками, гузами, печенегами раннесредневековому этапу процесса тюркизации Крыма, продлившемуся вплоть до появления на полуострове кыпчаков. Соседствовавшие на севере и западе с караханидами гузы, торки, печенеги и кыпчаки могли явиться ретрансляторами элементов музыкальной терминологии населения государства Караханидов в лексикон тюрков Крымского полуостров.

Список используемой литературы (Reference)

1. Абдулгаффар Кырыми. Умдет ал-ахбар. Книга 2: Перевод. Серия «Язма Мирас». Письменное наследие. Textual Heritage». Вып. 5 / Пер. с османского Ю.Н. Каримовой, И.М. Миргалеева; общая и научная редакция, предисловие и комментарии И.М. Миргалеева. Казань: Институт истории им. Ш. Марджани АН РТ, 2018. 200 с.
2. Аль – Фараби Абу Наср. / Перев. С арабского Алма-Ата, Изд. «Гылым». АН РК. Институт философии Аль-Фараби, 1992. 456 с.
3. Абу Али Ибн Сина (Авиценна), Канон врачебной науки. Кн 1. – Ташкент, 1954. кн 1. – С. 300. Цит. по: Джумаев А. Музыкально- эстетические взгляды Ибн Сины // Музыка народов Азии и Африки. – М.: Советский композитор, 1984. – С. 176.
4. Бернарда Моуссоли Арабская классическая музыка // Журнал Курьер ЮНЕСКО (на русском языке). №. 1978. 1000 лет арабской культуры (январь- март 1978 года). 54 с.
5. Даукеева С.Д. Концепция музыкальной науки Абу Насра Мухаммеда ал-Фараби в трактате «Большая книга музыки». Специальность 17. 00. 02 – музыкальное

искусство. Диссертация на соискание учёной степени кандидата искусствоведения Том I.Московская государственная консерватория им. П.И. Чайковского. Кафедра теории музыки. На правах музыки. Москва, 2000. 380 с.
6. Дмитриева Л.В. Каталог тюркских рукописей Института востоковедения Российской академии наук: Л. В, Дмитриева; (Отв. Ред. О.Ф. Акимушкин), М.: Вост. Лит., 2002. 616 с.
7. Ефремова Н.В., Мирский М.Б. Опубликовано 26 апреля 2023 г. в 11:54 (GMT+3). Обновление 26 апреля 2023 г. в 11:54 (GMT+3).
8. Книга путешествия. Турецкий автор Эвлия Челеби о Крыме (1666-1667 гг.) / Перевод и комментарии Е.В.Бахревского. Симферополь, 1999. 272.
9. Махмуд ал-Кашгари Диван Лугат ат-Турк / Перевод, предисловие и комментарии З.-А. М. Ауэзовой. Индексы составлены Р. Эрмерсом. Алматы: Дайк-Пресс, 2005. 1288 с.
10. Музыкальная эстетика стран Востока : сб. / отв. ред. В. П. Шестаков. – М. : Музыка, 1967. – С. 277.
11. Нариман Сейитяхъя. Къырым диван эдебиятынынъ муэллифлери ве эсас хусусиетлери: умумий бакъыш. // Йылдыз. № 4. 2004. С. 65 – 105.
12. Раджабов А. Из истории развития таджикской музыкальной культуры (V–XII вв.): Автореферат дисс. …канд. историч. наук. – Душанбе, 1982. – С. 16.
13. Фазлаллах Рашид ад-Дин. Огуз-наме. М. Дом Бируни, 1991. 1228 с.
14. Хайруллаев М.М. Абу Наср ал-Фараби. Москва, Наука, 1982. 303 с.
15. *Шихабаддин Йахйа Сухраварди. Воззрения философов. Перевод З. Дж. Мамедова и Т.Б. Гасанова. Баку, издательство «Елм», 1986. 32 с.*
16. Эмиддио Дортелли Д`Асколи. «Описании Черного моря и Татарии» / Записки Одесского общества истории и древностей. ЗООИД Т. 24. Одесса, 1902. С. 89 – 180.
17. Büyük Türkçe-Rusça Sözlük. Hazırlayanlar A.N. Baskakov: N.P. Golubeva: A.A. Kamileva. Moskava 1977. AN SSSR: Institut Vostokovedeniya. 967 c.
18. Gazimihal, Mahmut R. Ülkelerde kopuz ve tezeneli sazlarımız / Mahmut R. Gazimihal. – 2. Bsk. – Ankara: Kültür Bakanlığı, 2001. 192 s.
19. Necati Aydın. Kırım Hanları Osmanlıda Padişah Yedeğiydi. Önce Vatan Gazetesi. 01 Nisan 2014. S. 7.
20. Tarih – İ Sahib Giray Han. Dr. Özalp Gökbilgin. Baylan Matbaası. Ankara. 1975. 311 s.
21. TDK - Büyük Türkçe Sözlük - Tek Cılt; Yazar: Kolektif; Yayınevi: Türk Dil Kurumu Yayınları; Ilk baskı Yılı: 1945. 2523 s.
22. Vilhelm Radloff. Das türkische Sprachmaterial des Codex Comanicus. Manuscript der Bibliothek der Marcus-Kirche in Venedig. Nach der Ausgabe des Grafen Kuun (Budapest, 1880). (Lu le 25.11.1886), St.-Pbg., 1887. (M A, ser. VII, XXXV, № 6. C. 20, 27, 46).

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Mavrulova Munisa Abduxalilovna,
Doctor of Science in Philosophy, Associate Professor
Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Received 30th January 2025, Accepted 11th February 2025, Online 28th February 2025

MAFKURAVIY KURASH VA SOG‘LOM MADANIY EHTIYOJ

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda madaniyat va san’at masalalariga berilayotgan e’tibor, mazkur fenomen hodisaning jamiyat taraqqiyotiga, odamlar ma’naviy qiyofasining shakllanishiga ta’siri bilan bog‘liq holatlari tahlil etiladi. Shuningdek, maqolada mamlakat aholisida sog‘lom madaniy ehtiyojlarning shakllanishi, unga ta’sir etayotgan ob’ektiv va sub’ektiv omillar o‘rganilgan. “Ijtimoiy buyurtma”, “madaniy tahdid”, “madaniy xavfsizlik” masalalari bo‘yicha fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: madaniyat, sog‘lom ehtiyoj, mafkura, kurash, ijtimoiy buyurtma, madaniy tahdid, madaniy xavfsizlik, jamiyat, tarbiya, iste’molchilik, jamiyat, milliy axloq, inson qadri, vatan madhi.

ИДЕОЛОГИЧЕСКАЯ БОРЬБА И ЗДОРОВАЯ КУЛЬТУРНАЯ ПОТРЕБНОСТЬ

Annotation. This article analyzes the attention paid to issues of culture and art in New Uzbekistan, the influence of this phenomenon on the development of society and the formation of the spiritual image of the people. The article also discusses the formation of healthy cultural needs of the country's population, objective and subjective factors influencing this. Opinions were expressed on issues of "social order", "cultural threat" and "cultural security".

Key words: culture, healthy need, ideology, struggle, social order, cultural threat, cultural security, society, education, consumerism, society, national morality, human values, national anthem.

ИДЕОЛОГИЧЕСКАЯ БОРЬБА И ЗДОРОВАЯ КУЛЬТУРНАЯ ПОТРЕБНОСТЬ

Аннотация. В данной статье анализируется внимание, уделяемое вопросам культуры и искусства в Новом Узбекистане, влияние этого явления на развитие общества и формирование духовного облика народа. Также в статье рассматривается формирование здоровых культурных потребностей населения страны, объективные и субъективные факторы, влияющие на это. Были высказаны мнения по вопросам «социального порядка», «культурной угрозы» и «культурной безопасности».

Ключевые слова: культура, здоровая потребность, идеология, борьба, социальный порядок, культурная угроза, культурная безопасность, общество, образование, потребительство, общество, национальная мораль, человеческие ценности, государственный гимн.

Kirish(Introdustion). “Ma’naviyat. Asosiy tushunchalar lug‘ati”da madaniyatga shunday ta’rif beriladi: madaniyat (arabchada shaharga oid, farovon maskan, taraqqiyot o‘chog‘i) – tabiat va o‘zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o‘ziga xos shaklini ifodalaydigan tushuncha. Mazkur ta’rif ijtimoiy-gumanitar fanlarda uzoq vaqtlardan beri ishlatib kelinayotgan, an’anaviy ta’rif hisoblanadi.

Shubhasiz, madaniyat masalasida Sharq va G‘arbning o‘z qarashlari, nuqtai nazarlari bor. Shuningdek, madaniyatning yuzlab ta’riflari bor. Biroq, hozirgacha umume’tirof etilgan birorta

ta’rif mavjud emas. Har kim o‘z nuqtai nazaridan, g‘oyaviy-mafkuraviy pozitsiyasiga suyangan holda madaniyatga ta’riflar bermoqda. Bu holatni mutlaqo to‘g‘ri deyish mumkin, zero haqiqatga ilmiy tortishuvlar, bahslar asosidagina erishish mumkin.

Shu o‘rinda biz ham hammualliflikda yozgan asarimizda madaniyat kabi serqirra, fenomen hodisaga quyidagicha ta’rif berganmiz: madaniyat insonning yaratuvchilik faoliyatini tartibga soladigan, shaxs ma’naviy kamolotiga, ruhiy-aqliy hayotiga ma’no-mazmun beradigan, uning maqsad-muddaolarini jamiyat ijtimoiy mo‘ljali bilan uyg‘unlashtirishga yordam beradigan fenomen ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Shuni alohida qayd etish lozimki, O‘zbekistonda milliy madaniyatning yanada rivojlanishi, madaniyat va san’atning jamiyat ijtimoiy hayotidagi o‘rnining ortib borishi xalqimizning madaniy e’tiyojlarini shakllantirish va qondirish bilan uzviy bog‘liqlikda olib borildi. XX asrning 90-yillarida O‘zbekiston madaniy hayotida misli ko‘rilmagan katta o‘zgarishlar yuz berdi. 130 yilga yaqin davom etgan mustamlakachilik va bolshevistik-kommunistik mafkura yakkahokimligiga mamlakatimizning mustaqillikka erishganligining e’lon qilinishi bilan barham berildi.

Ammo, mustaqillikka erishilgandan keyin ham, deyarli chorak asr davomida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, buning uchun esa odamlarda sog‘lom ehtiyojni shakllantirish bo‘yicha olib borilgan ishlar o‘z natijasini beravermadi.

Shu o‘rinda, mamlakat rahbari Shavkat Mirziyoevning 2017-yil 3-avgustda ijodkor ziyolilar vakillari bilan bo‘lgan tarixiy uchrashuvi va unda qilingan ma’ruzani Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida madaniyat va san’at xodimlari uchun yaratilgan dasturilamal, deb hisoblash mumkin. Ma’ruzada shunday deyiladi: yurtimizdagi bugungi ijodiy muhitni kuzatsak, u qandaydir turg‘unlikka tushib, bir joyda depsinib turganday, ko‘pchilik ijodkorlarimiz o‘z tashvish va muammolari bilan o‘ralashib qolganday taassurot qoldiradi. Holbuki, madaniyat va san’at arboblari hamisha jamiyatning eng oldingi saflarida bo‘lishi, o‘z asarlari, faol grajdanlik pozitsiyasi bilan odamlarni ezgu maqsad va marralar sari boshlashi, ilhomlantirishi kerak emasmi?

Haqiqatdan ham mazkur davrdagi adabiy-badiiy jarayonlarda ko‘zga tashlanayotgan salbiy tendensiyalar, xususan madaniyat sohasida tijoratlashuv, shaxsiy manfaatlarning birinchi o‘ringa chiqayotgani, g‘oyaviy-badiiy jihatdan sayoz asarlarning bozori chaqqon bo‘lib borayotgani, ayniqsa, bugungi mafkuraviy kurashlarning kuchayib borishi tashvish uyg‘otmasdan qolmasdi. Afsuski, ijodiy uyushmalar tomonidan bunday holatlarga prinsipial baho berilmadi, ularni bartaraf etish bo‘yicha har tomonlama asoslangan amaliy takliflar o‘rtaga qo‘yilmadi.

Mazkur uchrashuvda mamlakat rahbari yana bir o‘ta muhim masalada o‘zining fikrini bayon etdi. Bu – madaniyat va san’atda ijtimoiy buyurtma masalasidir. U shunday deydi: bugungi imkoniyatdan foydalanib siz, azizlarga bir taklif bilan murojaat qilmoqchiman. Eng iste’dodli va mas’uliyatli yozuvchilarimiz, kino, teatr, musiqa va tasviriy san’at arboblariga ijtimoiy buyurtma berish masalasini tizimli asosda yo‘lga qo‘ysak, ularni yurtimizning turli hududlariga ijodiy safarlarga yuborib, yangi asarlar yaratishga rag‘batlantirsak, nima deysiz?

Shuni ta’kidlash lozimki, mamlakatimiz ziyolilari sovet mustabid tuzumi sharoitida ijtimoiy buyurtma tizimidan bezib qolgan edilar. Uning sababi esa ijtimoiy buyurtma asosida yaratilgan barcha asarlar sovet mafkurasiga xizmat qilar, bunda milliylik mutlaqo inkor qilinar edi. Endi esa ijtimoiy buyurtma xalqimizning milliy-madaniy ehtiyojlarini qondirishi, madaniyat va san’atni turli bachkana, mayda maishiy mavzulardan xalos qilishi lozim edi. Shu nauqtai nazardan ham bunday sog‘lom ijtimoiy buyurtmani xolis, haqqoniy va to‘g‘ri deyish mumkin.

Mamlakat rahbarining bu borada quyidagi fikrlari o‘ta qimmatli: ba’zi filmlarda mayda maqsadlar bilan yashaydigan, hayotga faqat iste’molchilik kayfiyati bilan qaraydigan kimsalar asosiy qahramon sifatida tasvirlanayotgani tashvish uyg‘otmasdan qo‘ymaydi. Eng yomoni, nomdor san’atkorlar, hatto “O‘zbekiston xalq artisti” degan yuksak unvonga sazovor bo‘lgan aktyorlar ham mana shunday kinolarda turli bachkana rollarni ijro etmoqda. Avval durustgina

filmlar yaratgan rejissyorlar ham, sal o‘tmasdan, xom-xatala asarlar bilan tomoshabinlarning ixlosini qaytarmoqda.

Madaniyat kabi o‘ta muhim fenomen hodisaning rivojlanishi, shubhasiz, odamlarda sog‘lom madaniy ehtiyojlarning shakllanishi bilan bog‘liq. O‘zbek xalqining tobora ortib borayotgan madaniy ehtiyojlarini qondirish hozirgi dunyoning tobora globallashuvi sharoitida yanada dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. Buning yana qator sabablari bor. Jumladan, mustaqillikning qariyb chorak asri davomida madaniyat va san’at, uning jamiyat ijtimoiy hayotida tutgan o‘rni masalasiga bo‘lgan e’tibor bugungi kun talablaridan ancha ortda qola boshladi. Shu bilan birga, madaniyat va san’atning rivojlanishi, ayniqsa, uning moddiy-iqtisodiy asoslarini mustahkamlash bo‘yicha olib borilgan ishlar ham bu bo‘yicha olib borilgan ishlar cheklanganligi tufayli samara bermadi.

Yana shu narsani ta’kidlash lozimki, bugungi tobora shiddat bilan kuchayib, kengayib borayotgan globallashuv va uning ta’sirida ichki va tashqi ma’naviy-madaniy, mafkuraviy tahdidlarning ortib borishi aholi madaniy ehtiyojlarini sayozlashtirishga, haddan ortiq darajada bachkanalashtirishga, g‘oyasiz, insonlar ongi va tafakkurini o‘tmaslashtirishga qaratilgan asarlarning urchib, ko‘payishiga olib kelmoqda. Bu esa jamiyatda haqli ravishda e’tirozlarning ortishiga sabab bo‘lmoqda edi.

Keyingi paytlarda ilmiy adabiyotlarga “madaniy tahdid” va “madaniy xavfsizlik” degan tushunchalar ham kirib kelmoqda. Madaniy tahdid ayniqsa ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida juda avj olganini ta’kidlash lozim. Bunday tahdid san’at, kino, teatr, musiqa, radio, televidenie, tasviriy san’at asarlari orqali xalqimizning ma’naviy olamiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ularni milliy qadriyatlardan uzoqlashishga, marginallik, gedonizm, kosmopolitizm g‘oyalariga tez asir tushishlariga sharoit yaratib beradigan xavfli ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Shuningdek, madaniy tahdid jamiyat a’zolarining madaniy ehtiyojlarini o‘tmaslashtiradigan omil ham sanaladi.

Aholi madaniy ehtiyojlarining shakllanishi va qondirilishiga madaniy xavfsizlik orqali erishish mumkin. Madaniy xavfsizlikni ikki ma’noda tushunish to‘g‘ri bo‘ladi. Birinchidan, madaniy xavfsizlikka jamiyat a’zolarining madaniy-ma’naviy, mafkuraviy immunitetining sog‘lomligi, bugun dunyoda tobora ko‘payib borayotgan turli ichki va tashqi ma’naviy tahdidlarga javob bera oladigan, o‘zining yuksak axloqiy e’tiqodining shakllanganligini namoyon qiladigan kishilar ma’naviy olami bilan ta’minlash mumkin.

Ikkinchidan, madaniy xavfsizlikni ta’minlash uchun uning huquqiy-me’yoriy mezonlarini ishlab chiqish talab etiladi. Biroq, uzoq yillar davomida bunday mezonlar yaratilmadi. Madaniy xavfsizlik madaniyat va san’at asarlariga milliy boylik sifatida qarash ko‘nikmasini ham shakllantiradi.

Ana shu ko‘nikmaning yo‘qligi oqibatida, ayni paytda, sohaga e’tiborning sustligi natijasida madaniyat va san’at asarlarini talon-taroj qilish holatlari ham tez-tez uchrab turibdi. 2022-yil 26-aprelda Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida turizm xizmatlari ko‘lamini kengaytirish va infratuzulmasini rivojlantirish chora-tadbirlari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Mamlakat bo‘ylab o‘tkazilgan tekshiruvlar natijasida 14 ta muzeydan 3000 dan ortiq noyob madaniy boyliklar o‘g‘irlanganligi, Buxoro Davlat muzeyida umumiy qiymati 31,5 mlrd. so‘m bo‘lgan 81 ta san’at asari, Xivadagi “Ichan-qal’a” davlat muzey fondida 101 ta muzey ashyosi soxtalashtirilgani ta’kidlangan. Umuman, keyingi 30 yil davomida madaniy meros ob’ektlariga yetkazilgan zarar 4 trillion so‘mdan ortiq, deb baholangan.

Farg‘onadagi muzeyda saqlanayotgan umumiy bahosi 2,5 mlrd. so‘mlik 70 ta noyob eksponat qalbakilashtirilgan, muzeyni kapital ta’mirlash uchun budjetdan ajratilgan 3,1 mlrd. so‘mi mansabdor shaxslar tomonidan talon-taroj qilingan. Shuningdek, muzeyda saqlanishi lozim bo‘lgan 1 dona rangtasvir va 1 dona grafika asari topilmagan.

Shuningdek, aholi madaniy ehtiyojlarini shakllantirish va qondirishda madaniyat va san’at xodimlarining o‘rni nihoyatda ta’sirchan ekanligi ham yetarli darajada e’tiborga olinmadi. Ularning maqomi huquqiy-me’yoriy jihatdan ta’minlanmadi, uzoq yillar davomida madaniyat to‘g‘risida Qonun qabul qilinmadi. Shuning uchun ham 2021-yil 23-yanvarda ilk bora O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishini mamlakat madaniy siyosatidagi jiddiy siljish, deyish mumkin.

Qonunga binoan mamlakatimizda madaniy faoliyat sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat etib belgilandi: ma’naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarning ustuvorligi; ijodiy faoliyat erkinligi; milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish; madaniyatlar xilma-xilligi; madaniyatlararo munosabatlarda teng huquqlilik; madaniy faoliyat sohasida ta’lim va tarbiyaning tizimliligi, ilmiyligi hamda uzluksizligi.

Yangi jamiyat barpo etish jarayonida jamiyat a’zolarining madaniy ehtiyojlari ham tobora ortib boradi. Bunda qurilayotgan jamiyat tomonidan talab etilayotgan ehtiyojlar ham son, ham sifat jihatidan ortib borishi tabiiy hol hisoblanadi. Shuning uchun ham, qabul qilingan “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunda madaniy faoliyat sohasidagi davlat siyosati masalasiga alohida e’tibor berilgan.

Xususan, mazkur qonunda belgilab qo‘yilgan quyidagi asosiy yo‘nalishlar jamiyat a’zolarining madaniy ehtiyojlarini yangi sharoitda shakllantirish va qondirishda muhim ahamiyat kasb etishi tabiiydir:

-madaniyatni rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;

-tarixiy va madaniy merosning but saqlanishini ta’minlash, shuningdek xalq ijodiyotini qo‘llab-quvatlash;

-madaniy faoliyat sohasida davlat-xususiy sheriklikni joriy etish;

-aholining madaniy ehtiyojlarini qanoatlantirish va madaniy xizmat sifatini yaxshilash;

-aholining, shu jumladan yoshlarning ijtimoiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish va ularni yaxshilash;

-yosh iste’dodlarni o‘qitish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish;

-madaniy faoliyat sohasida zarur shart-sharoitlarni va sog‘lom raqobat muhitini yaratish.

-xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Ushbu yo‘nalishlar mamlakat aholisining tobora ortib borayotgan madaniy ehtiyojlarini o‘z vaqtida va sifatli qondirishda, shubhasiz, muhim o‘rin egallaydi.

Yangi O‘zbekistonni qurish jarayonida madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish, jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini oshirish, uni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish hamda milliy madaniyatimizni jahonga tanitish yo‘lida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, so‘nggi 7 yil mobaynida madaniyat va san’at sohasiga oid O‘zbekiston Respublikasining 4 ta Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 37 ta farmon va qarori, hukumatning 105 ta qaror va farmoyishlari qabul qilindi. Soha xodimlari maqomini oshirish maqsadida 15 aprel kuni Madaniyat va san’at xodimlari kuni etib belgilandi.

Madaniyat va san’at sohasi vakillarining mulkiy huquqlarini jamoaviy asosda boshqarish hamda himoya qilish maqsadida “San’atkor, ijodkor va ijrochilarning mualliflik huquqlarini himoya qilish palatasi” tashkil etildi. Aholiga sifatli madaniy xizmat ko‘rsatish maqsadida O‘zbekiston davlat filarmoniyasi, O‘zbekiston Teatr arboblari uyushmasi, Xalqaro festivallar direksiyasi”, “O‘zbek davlat simfonik orkestori”, “Bahor” davlat raqs ansambli faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Aholi madaniy ehtiyojlarining shakllanishida milliy madaniyatning o‘rni alohida ahamiyatga ega. O‘zbek milliy madaniyati va san’ati uzoq ming yillar davomida shakllanib, rivojlanib keldi. Ammo, ko‘hna tarix milliy madaniyatimizning necha bor bosqinchi-

mustamlakachilar tomonidan yo‘q qilishga harakat qilindi. Biroq, milliy madaniyatimiz poydevori, uning ildizlari haddan tashqari mustahkam va chuqur bo‘lganligi uchun ham qiyinchiliklarga qaramasdan u o‘zining mavjudligi, milliyligini yo‘qotmadi.

Ayniqsa sovet mustabid tuzumi davrida milliy madaniyatimizga yetkazilgan ziyon-zahmatlar ta’siri kuchli bo‘ldi, uning salbiy oqibatlari hali ham yo‘qolmadi. Shuning uchun ham, keyingi yillarda xalqimizning milliy madaniyatni rivojlantirishga bo‘lgan tabiiy ehtiyojini qondirish uchun jiddiy ishlar olib borildi. Chunonchi, ming yillar qa’riga borib taqaladigan milliy tariximizni tiklash, unut bo‘lib ketayotgan milliy an’ana va qadriyatlarimizni yosh avlodga bus-butun yetkazish maqsadida O‘zbek milliy maqom san’ati va Respublika baxshichilik san’ati markazlari, Baxshichilik san’atini rivojlantirish jamg‘armasi, Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa instituti, hududlarda namunaviy maqom va baxshichilik ansambllari tashkil etildi.

Mamlakat aholisining sog‘lom madaniy ehtiyojlarini shakllantirish va qondirish maqsadida Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati instituti, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filiali, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali, O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining Urganch filiali hamda Musiqa sohasi pedagoglarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi tashkil etildi.

Tadqiqot metodologiyasi (Researsh Methodology). Aholi madaniy ehtiyojlarini shakllantirish va qondirishda turli festivallar, ko‘rik-tanlovlarning o‘rni ham katta bo‘lmoqda. Birinchidan, bunday tadbirlar mamlakatda madaniy hayotning jonlanishiga imkon yaratsa, ikkinchidan, keng xalq ommasi ichidan yangi iste’dodlarning paydo bo‘lishiga sharoit yaratadi. Eng muhimi, ana shunday ijodiy muhit natijasida aholi barcha tabaqalarining an’anaviy tarzda mavjud bo‘lgan, biroq, keyinchalik turli mafkuraviy, tashkiliy sabablar tufayli unutib borilayotgan milliy madaniyatimizga bo‘lgan qiziqishlari tobora orta boshlaydi.

Shuning uchun ham mamlakat taraqqiyotining keyingi 7-8 yillari davomida bunday madaniy tadbirlarni keng miqyosda tashkil etishga alohida e’tibor berila boshladi. Jumladan, har ikki yilda bir marta Shahrisabz shahrida Xalqaro maqom san’ati anjumani, Xalqaro baxshichilik san’ati, Xivada xalqaro “Lazgi” raqs hamda Qo‘qon shahrida Xalqaro hunarmandchilik festivallari o‘tkazilishi yo‘lga qo‘yildi.

Madaniy meros ob’ektlari va san’at ashyolarini restavratsiya qilish bo‘yicha milliy maktab, shuningdek, xalq cholg‘ulari, milliy raqs, maqom yo‘nalishlarida respublika ko‘rik-tanlovlari qayta tiklandi. Masalan, Boysun tumanida “Boysun bahori” xalqaro folklor festivali, Marg‘ilon shahrida “Buyuk Ipak yo‘li” xalqaro musiqa folklor festivali, Nurota tumanida “Nurli navolar” xalqaro festivali tashkil etildi.

Yuqorida madaniyat va san’at sohasida ijtimoiy buyurtma to‘g‘risida fikrlashgan edik. Haqiqatdan ham, mazkur sohada aholining tobora ortib borayotgan madaniy ehtiyojlarini mazmunli, milliy yo‘nalishlarga boy san’at asarlari bilan qondirishda ijtimoiy buyurtmaning o‘rni benihoya katta. Shuning uchun ham 2020 yildan boshlab davlat budjeti mablag‘lari hisobidan xarid qilingan, ommaviy ijroga mo‘ljallangan dramatik, musiqali va musiqali-dramatik asarlarni xususiy teatrlarda ham sahnalashtirish va ijro etishga ruxsat berildi.

2022 yildan boshlab madaniyat va san’at sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Inson qadri uchun” ezgu g‘oyasi asosida har yili teatrlarda sahnalashtiriladigan kamida 40 ta yangi spektaklga, kompozitorlar va bastakorlarga 40 ta yangi musiqa asarlar hamda 100 ta yuksak badiiy saviyadagi Internet va ijtimoiy tarmoqlar uchun mo‘ljallangan audiovizual asarlar va kamida 150 ta eng yaxshi milliy qo‘shiqlarni karaoke yordamida ijro qilish uchun qayta ishlashga davlat buyurtmasi berildi.

“Madaniyat kunlari”, “Vatan madhi”, “Madaniyat karvoni” kabi tadbirlar aholi madaniy ehtiyojlarini qondirishda alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Shu o‘rinda, keyingi yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda taniqli ijodkorlar, san’atkorlar, harbiy orekstr va

ansambllar ishtirokida o‘tkazilgan “Vatan manzumasi” tadbirini keying yillarda yaratilgan eng sara loyihalardan biri sifatida baholash mumkin.

“Vatan manzumasi” adabiy-badiiy tadbiri alohida, xalqimizni o‘tmish tarixiy-madaniy merosidan faxrlanishga undaydigan, jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy birlikni mustahkamlashga yo‘naltiradigan mutlaqo yangi yo‘nalish sifatida O‘zbekiston madaniy hayotida o‘ringa ega bo‘ldi. Tadbir barcha viloyatlarda keng namoyish qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Teleradiokompaniyasi tomonidan ko‘p marotaba ko‘rsatildi. Milliylik va zamonaviylik g‘oyalari bilan sug‘orilgan ushbu tadbir, shubhasiz, jamiyat a’zolari madaniy ehtiyojlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Dunyoning shiddat bilan globallashuvi sharoitida jamiyat ijtimoiy-madaniy muhitini sog‘lomlashtirish aholi madaniy ehtiyojlarini shakllantirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Yuqorida qayd etilgani kabi, so‘nggi yillarda mamlakatda ana shu muhitni yaratish borasida ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Madaniyat va san’at sohasining moddiy ta’minotini yaxshilash, huquqiy-me’yoriy barqarorligini ta’minlash natijasida muayyan yutuqlarga erishildi.

Biroq, hali bu sohada ko‘zlangan yirik masalalarni hal etish imkoni bo‘lmadi. Turli ob’ektiv va sub’ektiv sabablar bunga to‘siq bo‘lmoqda. Ob’ektiv sabablar jumlasiga jahoniy integratsiya tufayli turli ichki va tashqi ma’naviy-madaniy, mafkuraviy tahdidlarning ortib borishini kiritish mumkin. Sub’ektiv sabablarga esa madaniyat va san’at sohasiga mutassaddi bo‘lganlarning jamiyatda, dunyoda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni chuqur, ilmiy jihatdan tahlil qila olish va to‘g‘ri xulosa chiqara olmasliklari holatini kiritish mumkin.

Bunday holat esa joylarda madaniyat va san’at muassasalari ishlarining samaradorlik darajasining pastligi bilan ham baholanishi mumkin. Masalan, Navoiy viloyatidagi davlat umumta’lim maktablarida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari ham yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi. Chunonchi, Konimex va Navbahor tumanlaridagi maktablarda “Yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikka qarshi qanday kurashish kerak?”, degan savolga respondentlarning 20 foizi “Yangi tarbiyaviy filmlar va ularni maktablarda namoyish etish lozim”, deb javob berganlar. Qiziltepa tumanida esa bu raqam 25 foizni tashkil etgan.

Javoblardan shunday xulosa qilish mumkinki, aholi, shu jumladan, maktab o‘quvchilari tarbiyaviy filmlar ko‘rishga ehtiyoji bor. Biroq, yuqorida ta’kidlangani kabi yaratilayotgan filmlarning asosan mayda maishiy mavzularni yoritishga qaratilganligi oqibatida kishilarning bu boradagi tobora ortib borayotgan ehtiyojlari qanoatlantirilmayapti.

Aholi madaniy ehtiyojlarini muttasil ravishda oshirib borish jamiyatni ijtimoiy-ma’naviy barqarorligini ta’minlashning muhim omili hisoblanadi. Bunda aholi, ayniqsa yoshlarning madaniyat va san’atga oshnoligi, turli to‘garaklardagi faolligi alohida ahamiyatga ega. Shu ma’noda 2023 yilning iyul oyida Qoraqalpog‘iston Respublikasi yoshlari o‘rtasida o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovnoma natijalari ham muayyan xulosalarga kelishga imkon beradi.

Xulosa va takliflar (Conslusion/Resommendations). Tadqiqotda ishtirok etganlarning 62 foizi bugungi kunda yoshlarning madaniyat va san’at sohasida to‘garaklarga qatnashish imkoniyatlari borligini bildirgan bo‘lsalar, 29,5 foiz respondentlar bu borada olib borilayotgan ishlardan nisbatan xabardorligini bildirganlar. So‘rovda qatnashganlarning 8,5 foizi bu bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadbirlardan umuman xabari yo‘qligini bildirganlar.

Jahoniy mafkuraviy kurashlar, siyosiy-g‘oyaviy kurashlar tobora kuchayib borayotgan hozirgi davrda yoshlarni turli ichki va tashqi tahdidlardan asrab qolishning yo‘llaridan biri – ularni fan va san’at to‘garaklariga keng jalb etishdan iboratdir. Bu narsa birdaniga uch muhim muammoni hal etishga imkon beradi. Birinchidan, bunday to‘garaklarga qatnashuvchilarning turli mafkuraviy xavf-xatarlardan xalos bo‘lish imkoniyati kuchayadi. Chunki, ularning muayyan to‘garaklardagi ishtiroki aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, yoshlar bu orqali o‘z iste’dodlarini

namoyish qilish va vaqtni behudaga o‘tkazmaslik ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar. Ikkinchidan, to‘garaklar yoshlarda ilm-fan sohalari bilan birga madaniyat va san’atning biron bir turiga bo‘lgan qiziqishlarini uyg‘otishi, kelajakda shu sohaning biron turi bo‘yicha mutaxassis bo‘lishlariga imkon yaratishi mumkin. Uchinchidan, to‘garaklar yoshlarda va umuman jamiyat a’zolarida madaniy ehtiyojlarning shakllanishiga yordam beradi.

Shu o‘rinda quyidagi uchta holatga alohida e’tibor berish lozim, deb o‘ylaymiz: birinchidan, jamiyat ma’naviy-madaniy muhiti, aholi madaniy ehtiyojlarini shakllanishi, qondirilishi eng avvalo muayyan davrda yaratilgan va iste’mol qilinayotgan barcha madaniy meros namunalariga bog‘liq. Ya’ni, mazkur asarlar aholining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-mafkuraviy qiyofasiga qanchalar darajada ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsata olishi o‘ta muhim. Madaniy merosning “ijtimoiy kuchi” jamiyat a’zolarining faolligini, ularning milliy birligini, safarbarligini ta’minlovchi ta’sirchan omil bo‘lib maydonga chiqadi. Bunda o‘sha madaniy meros, yaratilgan asarlarning adabiy-badiiy quvvati, hech shubhasiz, ustuvor ahamiyatga ega bo‘ladi. Ayni paytda mazkur ikki buyuk kuch – asarning “ijtimoiy kuchi” va “adabiy-badiiy quvvati” birlashgan zamonda va makonda madaniyat va san’atning tom ma’nodagi qudrati vujudga keladi.

Ikkinchidan, madaniyat va san’atdagi “ijtimoiy kuch”ning jamiyat va millat taraqqiyotiga ta’siri tufayli aholi madaniy ehtiyojlari ortib boradi. Shuning uchun ham har qanday asarning badiiy-ruhiy quvvatini uning jamiyat a’zolarining ijtimoiy-ma’naviy faolligini oshirishda, kishilar ma’naviy olamining qay yo‘sinda shakllanganligida ko‘rish mumkin.

Uchinchidan, yaratilgan asar, madaniy merosning shaxs va jamiyatga foydalilik darajasi uni iste’mol qiluvchi uchun yaratilgan shart-sharoitiga ham bog‘liq. Bunday sharoit madaniy meros iste’molchisining jamiyatda tutgan ijtimoiy o‘rni, uning maqomi, madaniy ehtiyojlarni qondirish maqsadida yaratilgan infratuzulma kabilar bilan bog‘liqdir. Bu bir-biri bilan bog‘liq masalalar jamligi asosidagina aholi madaniy ehtiyojlarini shakllantirish va to‘laqonli qondirish mumkin.

Shu ma’noda jamiyatda kuchli ma’naviy makonni yaratish, yoshlarni turli mafkuraviy tahdidlardan asrab qolishning uchun zarur bo‘lgan eng muhim omillardan biri – madaniyat va san’at asarini, madaniy merosni yaratuvchisi hamda uni iste’mol qiluvchisi o‘rtasidagi o‘zaro manfaatdorlikni topish bilan bog‘liq. Teatr, kino, muzeylarga aholining kam tashrifi, yaratilgan nashr etilgan millionlab asarlarning savdo rastalarida taxlanib yotishi, minglab madaniyat va san’at to‘garaklariga o‘quvchilar tashrifining kundan-kunga kamayib borishini ham madaniyat va san’at sohasi ijodkorlari va ular asarlarini iste’mol qiluvchilar o‘rtasidagi nomutanosib manfaatlar natijasi, deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Маънавият. Асосий тушунчалар луғати”. – Тошкент, “Маънавият”, 2021. – 285-бет.

2. Маврулов А., Маврулова М. Маданият назарияси – Тошкент, 2023. 36-бет.

3. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. -“Халқ сўзи”, 2017 йил 4 август.

4. Илёс Исломов. Маънавий хавфсизлик. – Тошкент, “Complex Print”, 2023. – 84-бет.

5. Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлигининг жорий архиви.

6. Қорақалпоғистон Республикасида ёшларнинг ижтимоий-маънавий кайфияти тўғрисида маълумот. –Тошкент, 2023. -17-бет.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Farhod Jurakulovich Muradov
Senior Lecturer, Department of Social and
Humanities Department of the Tashkent Institute of Economics and Management
Institute of Economics and Management. Tashkent. Uzbekistan.
farhodmuradov1974@gmail.com

Published under peer review:
Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences,
Associate professor O.Abdumuminov

Received 30th January 2025, Accepted 11th February 2025, Online 28th February 2025

UNITED NATIONS STRATEGIES IN EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION IN UZBEKISTAN

Annotation: This work is dedicated to the main strategies of the United Nations in the field of education, science, and innovation in Uzbekistan. In the context of rapid global development and digitalization, the UN emphasizes the need to modernize educational systems and implement innovative approaches. The main directions include the development of inclusive education, improving the quality of educational programs, supporting scientific research, and stimulating innovative activities. The UN program in Uzbekistan aims to adapt international standards, build sustainable partnerships, and create favorable conditions for youth, which in turn contributes to the socio-economic development of the country and its integration into the global community. Special attention is given to issues of sustainable development, gender equality, and accessibility of education for all segments of the population.

In the implementation of UN strategies in Uzbekistan, particular attention is paid to the integration of technology into the educational process. The introduction of digital tools and platforms not only improves access to quality education but also develops 21st-century skills such as critical thinking and creativity.

Moreover, the UN actively supports initiatives aimed at strengthening cooperation between educational institutions, research centers, and businesses, which fosters the creation of an ecosystem for innovation development. An important aspect is the training of personnel that meets the demands of the modern labor market, ensuring sustainable economic growth and social development.

It is also worth noting that UN programs in Uzbekistan focus on enhancing the level of scientific research in priority areas such as Ecology, Healthcare, and Information Technology. This creates a foundation for developing the country's scientific potential and its integration into the international scientific community. Within the framework of the Sustainable Development Goals by 2030, directions for improving the quality of education and developing cooperation mechanisms are being considered.

Keywords: Quality Education, Inclusive Education, Science, Innovations, International Cooperation, Education Standards, Scientific Research, Digital Education, Research Centers, Strategic Planning, Educational Resources, Social Equality, Social Partnership, Funding Mechanisms.

ОСНОВНЫЕ СТРАТЕГИИ ООН В ОБЛАСТИ ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: Данная работа посвящена основным стратегиям Организации Объединенных Наций в области образования, науки и инноваций в Узбекистане. В условиях стремительного глобального развития и цифровизации, ООН акцентирует внимание на необходимости модернизации образовательных систем и внедрения инновационных подходов. Основные направления включают в себя развитие инклюзивного образования, повышение качества образовательных программ, поддержку научных исследований и стимулирование инновационной деятельности. Программа ООН в Узбекистане направлена на адаптацию международных стандартов, формирование устойчивых партнерств и создание благоприятных условий для молодежи, что в свою очередь способствует социально-экономическому развитию страны и

интеграции в глобальное сообщество. Особое внимание уделяется вопросам устойчивого развития, гендерного равенства и доступности образования для всех слоев населения.

В рамках реализации стратегий ООН в Узбекистане особое внимание уделяется интеграции технологий в образовательный процесс. Внедрение цифровых инструментов и платформ позволяет не только улучшить доступ к качественному образованию, но и развивать навыки XXI века, такие как критическое мышление и креативность.

Кроме того, ООН активно поддерживает инициативы по укреплению сотрудничества между образовательными учреждениями, научными центрами и бизнесом, что способствует созданию экосистемы для развития инноваций. Важным аспектом является подготовка кадров, соответствующих требованиям современного рынка труда, что обеспечивает устойчивый экономический рост и социальное развитие.

Также стоит отметить, что программы ООН в Узбекистане фокусируются на повышении уровня научных исследований в приоритетных областях, таких как экология, здравоохранение и информационные технологии. Это создает основу для формирования научного потенциала страны и её интеграции в международное научное сообщество. В рамках целей устойчивого развития до 2030 года рассматриваются направления повышения качества образования, а также развития механизмов сотрудничества.

Ключевые слова: Качественное образование, Инклюзивное образование, Наука, Инновации, Международное сотрудничество, Стандарты образования, Научные исследования, Цифровое образование, Исследовательские центры, Стратегическое планирование, Образовательные ресурсы, Социальное равенство, Социальное партнерство, Механизмы финансирования.

BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING O‘ZBEKISTONDA TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYA SOHASIDAGI ASOSIY STRATEGIYALARI

Annotatsiya: Ushbu maqola Birlashgan Millatlar Tashkilotining O‘zbekistonda ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasidagi asosiy strategiyalari masalalariga bag‘ishlangan. Global jadal rivojlanish va raqamlashtirish sharoitida BMT ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurligini ta’kidlaydi. Asosiy yo‘nalishlar qatoriga inklyuziv ta’limni rivojlantirish, ta’lim dasturlari sifatini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash va innovatsiyalarni rag‘batlantirish kiradi. BMTning O‘zbekistondagi dasturi xalqaro standartlarni moslashtirish, barqaror sheriklik munosabatlarini shakllantirish va yoshlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan bo‘lib, bu o‘z navbatida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuviga xizmat qilmoqda. Barqaror rivojlanish, gender tengligi va aholining barcha qatlamlari uchun ta’limdan foydalanish imkoniyatini ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekistonda BMT strategiyalarini amalga oshirish doirasida texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Raqamli vositalar va platformalarning joriy etilishi nafaqat sifatli ta’lim olish imkoniyatlarini yaxshilaydi, balki XXI-asrning tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kabi ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Bundan tashqari, BMT innovatsiyalarni rivojlantirish ekotizimini yaratishga xizmat qiluvchi ta’lim muassasalari, ilmiy markazlar va biznes o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash tashabbuslarini faol qo‘llab-quvvatlaydi. Zamonaviy mehnat bozori talablariga javob beradigan, barqaror iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy rivojlanishni ta’minlovchi kadrlar tayyorlash muhim jihatdir. Shuningdek, BMTning O‘zbekistondagi dasturlarida ekologiya, sog‘liqni saqlash va axborot texnologiyalari kabi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar darajasini oshirishga alohida e’tibor qaratilgani ham e’tiborga loyiq. Bu mamlakat ilmiy salohiyatini shakllantirish va xalqaro ilmiy hamjamiyatga integratsiyalashuviga zamin yaratadi. 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida ta’lim sifatini oshirish, hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqish yo‘nalishlari ko‘rib chiqilmoqda.

Kalit so‘zlar: Sifatli ta’lim, Inklyuziv ta’lim, Fan, Innovatsiya, Xalqaro hamkorlik, Ta’lim standartlari, Ilmiy tadqiqotlar, Raqamli ta’lim, Tadqiqot markazlari, Strategik rejalashtirish, Ta’lim resurslari, Ijtimoiy tenglik, Ijtimoiy sheriklik, Moliyalashtirish mexanizmlari.

Введение. Образование, наука и инновации являются краеугольными камнями устойчивого развития общества и экономики. В условиях глобальных вызовов, таких как изменение климата, экономические кризисы и социальные неравенства, эти сферы становятся еще более значимыми для достижения целей устойчивого развития, установленных ООН.

ООН играет важную роль в сфере образования, науки и инноваций в Узбекистане. В рамках целей устойчивого развития ООН до 2030 года в Узбекистане определены стратегические цели, такие как повышение качества образования, обеспечение инклюзивного образования, стимулирование научных исследований и укрепление международного сотрудничества. В данной статье будут проанализированы основные стратегии ООН в сфере образования, науки и инноваций в Узбекистане, а также их реализация и результаты.

Эти стратегии служат для повышения глобальной конкурентоспособности Узбекистана, обеспечения устойчивого развития общества и подготовки молодежи с современными знаниями и навыками. Сотрудничество с ООН имеет важное значение для расширения успехов в области образования и социально-экономического развития страны.

В Узбекистане образование рассматривается как стратегический ресурс, необходимый для формирования высококвалифицированной рабочей силы и стимулирования инновационного потенциала страны. С учетом исторических и культурных особенностей, а также современных мировых тенденций, Узбекистан активно работает над реформированием своей образовательной системы, привлекая внимание международных организаций, включая ООН.

Образование играет центральную роль в социально-экономическом развитии стран, обеспечивая основу для формирования квалифицированной рабочей силы и стимулирования инноваций. В Узбекистане, как и в других странах, образование рассматривается как стратегический ресурс, способствующий устойчивому развитию общества и экономики. Одной из основных задач является обеспечение доступности образования для всех слоев населения. В Узбекистане предпринимаются усилия по увеличению числа учебных заведений, особенно в отдаленных и сельских районах. Это позволяет сократить разрыв между городскими и сельскими населёнными пунктами, предоставляя равные возможности для всех.

ООН и другие международные организации подчеркивают важность внедрения современных образовательных стандартов, обновления учебных программ и повышения квалификации преподавателей. Это включает в себя интеграцию современных технологий в образовательный процесс и развитие критического мышления у учащихся и студентов.

Качественное образование напрямую связано с экономическим ростом. Подготовка специалистов, отвечающих требованиям рынка труда, способствует повышению производительности и конкурентоспособности экономики. В Узбекистане акцент делается на развитие профессионального образования и обучения, что позволяет молодежи быстрее адаптироваться к изменениям на рынке труда.

В условиях сложной ситуации, вызванной последствиями пандемии, в Узбекистане особое внимание уделяется тому, что образование и воспитание молодежи подняты на уровень государственной политики. Процессы реализации прав детей и молодежи на образование и создания для них комфортных условий существенно совершенствуются на основе идеи "Новый Узбекистан начинается с порога школы", что является практическим выражением этой мысли.

Как отмечал Президент Узбекистана Ш.М. Мирзиёев, "Сегодня мы строим социальное государство, в котором каждый человек, независимо от его национальности,

языка или религии, сможет реализовать свои способности и таланты, знания и опыт. С этой целью мы мобилизуем все наши силы и ресурсы для интеллектуального и физического развития молодежи, чтобы они могли получить качественное образование и занять достойное место в жизни" [1].

Поддержка разработки образовательной политики является одной из ключевых функций ООН и других международных организаций в Узбекистане. Это направление включает несколько важных аспектов:

- Международные организации, такие как ЮНЕСКО, предоставляют экспертные рекомендации по созданию и реализации национальных образовательных стратегий. Они помогают анализировать существующую образовательную систему, выявлять проблемы и разрабатывать стратегии, направленные на их решение;
- Организации содействуют интеграции международных стандартов и практик в национальную образовательную политику. Это позволяет Узбекистану не только соответствовать глобальным требованиям, но и улучшить качество образования, учитывая лучшие практики из других стран;
- Международные организации организуют тренинги и семинары для государственных служащих и образовательных экспертов, что способствует повышению их квалификации в области разработки и реализации образовательной политики. Это обучение охватывает актуальные вопросы, такие как инклюзивное образование и инновационные подходы к обучению;
- Поддержка в проведении исследований и сборе данных о состоянии образования позволяет более точно оценить потребности и проблемы системы. Международные организации помогают разрабатывать инструменты для анализа, что способствует созданию информированных политик;
- Международные организации выступают в роли консультантов, предлагая свои услуги для разработки и реализации образовательной политики. Они также содействуют партнерству между правительственными учреждениями, неправительственными организациями и образовательными учреждениями, что способствует более комплексному подходу к реформам.

Стратегии ООН в Узбекистане направлены на обеспечение устойчивого развития в области образования, науки и инноваций, обеспечение социальной справедливости и создание образовательной системы, соответствующей глобальным стандартам. Стратегии ООН в области образования, науки и инноваций в Узбекистане включают следующие основные направления:

- Современные образовательные стандарты: ООН способствует модернизации образовательных программ, внедрению современных педагогических методов и повышению квалификации учителей.
- Образовательные ресурсы: Обеспечение учебными материалами и ресурсами для образовательных учреждений.
- Равные возможности: Расширение образовательных возможностей для всех социальных слоев, особенно для женщин и людей с ограниченными возможностями.
- Помощь малоимущим: специальные программы для облегчения доступа к образованию, исходя из социального положения.
- Поддержка научных исследований и инновационных проектов в Узбекистане. Внедрение технологий: интеграция современных технологий в образование и науку.
- Обмен знаниями и опытом через международные семинары, тренинги и выставки, улучшение образовательной системы страны через специальные проекты ООН.

- Помощь в разработке стратегических планов правительства Узбекистана в области образования и науки, разработка эффективной образовательной политики с учетом опыта развитых стран.

- Стимулирование международного обмена между исследователями и учеными, внедрение цифровых образовательных платформ.

- Внедрение инновационных образовательных методов и технологий. Проектирование образовательных проектов для решения социальных проблем.

Узбекистан, принимая во внимание глобальные тенденции развития, стремится реализовать эти цели ООН. Качественное образование, обеспечение равных возможностей для всех и стимулирование научной активности способствуют социально-экономическому развитию страны.

В рамках целей устойчивого развития ООН до 2030 года в Узбекистане разработаны конкретные стратегии для развития образования, науки и инноваций. Работы в этих направлениях направлены на обеспечение социальной справедливости в обществе, расширение образовательных возможностей для каждого и развитие современных науки и технологий.

В рамках стратегий ООН, направленных на поддержку образовательной системы Узбекистана, интеграция технологий играет ключевую роль. Эти стратегии направлены на модернизацию образовательного процесса и подготовку молодежи к вызовам современного мира.

Интеграция технологий в образовательный процесс в рамках стратегий ООН в Узбекистане не только улучшает качество образования, но и способствует формированию нового поколения, готового к инновациям и изменениям в глобальном обществе. Эти усилия направлены на создание устойчивой и инклюзивной образовательной системы, которая отвечает требованиям времени и потребностям будущего.

Следует отметить, что за последние годы охват дошкольного образования увеличился с 21% до 70%, а в высшем образовании — с 9% до 38%. Кроме того, благодаря созданию дополнительных возможностей для образования женщин, начиная с 2021 года, ежегодно выделяется более 3 тысяч специальных грантов для девушек, что в свою очередь улучшило уровень охвата высшим образованием для молодых женщин в 5 раз. В результате введения бюджетной квоты для девушек, в учебном году 2021-2022 года 60% студентов составили женщины [2].

Во всем мире образование, наука и инновации являются важными элементами экономического развития и социального прогресса. ООН ставит перед собой цель повышения качества и эффективности образования. В Узбекистане разрабатываются специальные программы для внедрения современных образовательных стандартов, повышения квалификации учителей и улучшения образовательных ресурсов. В результате этого в образовательных учреждениях внедряются современные педагогические методы. Реализация концепции инклюзивного образования имеет важное значение в проектах ООН в Узбекистане. Разрабатываются специальные программы для расширения образовательных возможностей для всех социальных слоев, особенно для малоимущих и людей с ограниченными возможностями. Это способствует облегчению доступа к образованию и обеспечению социальной справедливости [3].

В области науки и инноваций ООН вносит вклад в развитие страны путем содействия научным исследованиям, реализации инновационных проектов и внедрения современных технологий в Узбекистане. В рамках программы ООН "Наука и технологии" поощряется международный обмен среди исследователей и ученых.

Таким образом, образование является ключевым фактором развития, который влияет на все аспекты жизни общества. В Узбекистане, с поддержкой ООН и других международных организаций, предпринимаются шаги для улучшения доступности и качества образования, что, в свою очередь, способствует социально-экономическому развитию страны.

Цель и миссия. Дальнейшее совершенствование специальных программ и ресурсов для обеспечения инклюзивного образования, расширение возможностей для получения образования для людей с ограниченными возможностями;

- Укрепление механизмов финансирования научных исследований и развитие международного сотрудничества при реализации научных проектов;
- Предоставление грантов и ресурсов для реализации инновационных проектов, поощрение инноваций на основе исследований;
- Укрепление сотрудничества с международными учебными заведениями, расширение возможностей для обмена знаниями и изучения опыта;
- Интеграция цифровых технологий в образовательный процесс, расширение возможностей получения знаний через онлайн образовательные платформы.

Эти цели помогут усилить эффективную реализацию стратегий ООН в области образования, науки и инноваций в Узбекистане и поддержать социально-экономическое развитие страны.

Выводы и наблюдения. Ключевая роль образования: Образование является основой для устойчивого развития, обеспечивая подготовку квалифицированных кадров и способствуя инновациям.

Доступность и качество: Увеличение доступности образования в Узбекистане требует одновременно повышения его качества. Это включает в себя обновление учебных планов, внедрение современных технологий и повышение квалификации педагогов.

Экономическая связь: Качественное образование напрямую связано с экономическим ростом. Подготовка специалистов, соответствующих потребностям рынка труда, является важным фактором для повышения производительности и конкурентоспособности экономики.

Социальное равенство: Образование должно быть доступным для всех слоев населения, включая уязвимые группы. Это способствует социальному равенству, что важно для создания гармоничного общества.

Устойчивое развитие: Включение тем устойчивого развития в образовательные программы формирует сознание ответственного гражданина, готового к решению глобальных вызовов.

Международное сотрудничество: Поддержка со стороны ООН и других международных организаций играет ключевую роль в реформировании образовательной системы Узбекистана, что позволяет стране эффективно интегрироваться в глобальные образовательные процессы.

Прогресс в области образования в Узбекистане требует комплексного подхода, включающего как системные изменения, так и активное вовлечение всех заинтересованных сторон.

Устойчивое развитие образования может быть достигнуто только при наличии четкой стратегии и координации действий на всех уровнях — от государственного до местного.

Эти выводы подчеркивают важность образования как движущей силы для развития Узбекистана, а также необходимость комплексного подхода к решению существующих проблем в этой сфере.

Заключение: Основные стратегии ООН в области образования, науки и инноваций в Узбекистане играют важную роль в обеспечении социально-экономического развития страны. Направления, такие как обеспечение качественного образования, развитие инклюзивного образования, поддержка научных исследований и инновационных проектов, стимулирование механизмов сотрудничества и стратегическое планирование, способствуют созданию образовательной системы, соответствующей глобальным стандартам.

Через эти стратегии ООН реализует проекты, направленные на обеспечение социальной справедливости, облегчение доступа к образованию и развитие современных науки и технологий в Узбекистане. Сотрудничество с ООН поможет предоставить необходимые ресурсы и возможности для повышения устойчивости и эффективности образовательной системы страны.

Последние результаты показывают эффективность деятельности ООН в Узбекистане и перспективы в области образования, науки и инноваций. Развитие в этих направлениях будет способствовать повышению конкурентоспособности Узбекистана на глобальном уровне и обеспечению благосостояния его населения.

Использованные источники:

1. Обращение Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева к Олий Мажлису и народу Узбекистана. 2022.

2. А. Саидов. Новый Узбекистан – парламентские шаги на пути к устойчивому развитию // Официальный сайт Законодательной палаты Республики Узбекистан. 2023.

3. Ғ. Мирзо. Цели устойчивого развития ООН и образовательная система Нового Узбекистана: гармония и эффективность. // Официальный сайт Национального центра по правам человека Республики Узбекистан. 2024.

4. Материалы республиканской научно-практической онлайн-конференции "Узбекистан и ООН: взаимное сотрудничество и устойчивое развитие". – Т.: Центр повышения квалификации юристов, 2021.

5. "Узбекистан — ООН: приоритетные направления сотрудничества." // Официальный сайт Законодательной палаты Республики Узбекистан. 2024.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Ashurova Khurshida Sag‘dullaevna
Associate Professor of the Department of “Humanities and Information Technologies” Samarkand State Institute of Foreign Languages
xurshidashurova01@gmail.com

Published under peer review:
Doctor of Science in Philosophy, Professor Kholiqov Yunus

Received 30th January 2025, Accepted 11th February 2025, Online 28th February 2025

LIFE AND LITERARY-EDUCATIONAL ACTIVITIES OF HOJI MUIN SHUKRULLO FROM THE SAMARKAND JADIDS

Annotation: The article extensively covers the life and creative activity of Hoji Muin Shukrullo o‘g‘li. First, it focuses on his early education and the first steps he took on the path of enlightenment. It analyzes Hoji Muin’s deep respect for his mentors, his aspiration to continue their academic traditions, and especially how his interest in enlightenment and literature began. The article also discusses Hoji Muin’s love for poetry, the development of his creative work, and his activity in the field of dramaturgy. Through his poetic works and dramatic creations, he raised issues concerning the spiritual condition of the people, social changes in life, and the pressing matters of his time, introducing innovations that were relevant to the era through his literary pursuits. Hoji Muin's dedication to educating the younger generation and his efforts in this field are particularly noteworthy. He not only strove to spread enlightenment widely but also supported new methods in the field of science and education. The article also provides a detailed account of his role in educating youth and the work he did on the path of enlightenment.

Keywords: social, political, spiritual, educational, life and work, mentor, poetry, dramaturgy, education and upbringing, press, nationality, values, knowledge, ethics, science.

SAMARQAND JADIDLARIDAN HOJI MUIN SHUKRULLONING HAYOTI VA ADABIY-MA’RIFIY FAOLIYATI

Annotatsiya: Maqolada Hoji Muin Shukrullo o‘g‘lining hayoti va ijodiy faoliyati keng yoritilgan. Dastlab, uning ilk ta’lim olgan davri va o‘zining ma’rifatparvarlik yo‘lida qilgan birinchi qadamlariga to‘xtalib o‘tiladi. Hoji Muinning o‘z ustozlariga bo‘lgan chuqur hurmati, ularning ilmiy an’analarini davom ettirishga bo‘lgan intilishi, ayniqsa, uning ma’rifatparvarlik va adabiyotga bo‘lgan qiziqishining boshlanishi bilan bog‘liq tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada Hoji Muinning she’riyatga bo‘lgan muhabbati va uning ijodi rivoji hamda dramaturgiya sohasidagi faoliyati haqida so‘z yuritiladi. O‘zining she’riy asarlari va dramatik ijodida xalqning ruhiy holati, ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar va zamonning dolzarb masalalarini ko‘tarib, u o‘zining adabiy izlanishlari orqali zamonaga mos yangiliklar kiritganligi yoritilgan. Yosh avlodni tarbiyalashdagi Hoji Muinning jonkuyarligi va bu boradagi mehnatlari alohida e’tiborga sazovordir. U, nafaqat ma’rifatni keng tarqatishga harakat qildi, balki ilm va tarbiya sohasida yangi usullarni qo‘llab-quvvatladi. Maqolada uning yoshlarni tarbiyalashda tutgan o‘rni va ma’rifatparvarlik yo‘lida qilgan ishlari ham batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy, ma’rifiy, hayoti va ijodi, ustoz, she’riyat, dramaturgiya, ta’lim-tarbiya, matbuot, milliylik, qadriyatlar, bilim, axloq, ilm-fan.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

ЖИЗНЬ И ЛИТЕРАТУРНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ИЗ САМАРКАНДСКИХ ДЖАДИДОВ ХОДЖИ МУИНА ШУКРУЛЛО

Аннотация: В статье широко освещена жизнь и творческая деятельность Ходжи Муина Шукурло. Сначала рассматриваются его первые шаги в обучении и первые шаги на пути просветительской деятельности. Особое внимание уделяется глубочайшему уважению Ходжи Муина к своим учителям, его стремлению продолжать их научные традиции, а также анализируется начало его увлечения просветительством и литературой. В статье также рассматривается любовь Ходжи Муина к поэзии, развитие его творчества и его деятельность в области драматургии. В своих поэтических произведениях и драматическом творчестве он поднимал вопросы, касающиеся духовного состояния народа, социальных изменений в жизни общества и актуальных проблем своего времени, внося новшества через свои литературные поиски. Особое внимание уделяется его преданности делу воспитания молодого поколения и его трудам в этой области. Он не только стремился широко распространять просвещение, но и поддерживал новые методы в области науки и воспитания. В статье подробно рассматривается его роль в воспитании молодежи и его деятельность на пути просвещения.

Ключевые слова: социальный, политический, духовный, просветительский, жизнь и творчество, учитель, поэзия, драматургия, образование и воспитание, пресса, национальность, ценности, знания, мораль, наука.

KIRISH

Samarqand jadidchilik harakatining ilg‘or vakillaridan biri bo‘lgan Hoji Muin Shukrullo o‘g‘li XX asrning boshlarida faol ma’rifatparvar va ijodkor etakchi sifatida tanilgan.

Hoji Muin 1883-yilning 19-martida Samarqand shahrining Ruhobod guzarida tug‘ilgan. Yoshligidan she’riyatga bo‘lgan qiziqishi uning ijodiy faoliyatiga kirib kelishida muhim ahamiyat kasb etgan. Hoji Muin o‘z tarjimai holida, o‘n bir yoshida Yassaviy va Mashrab she’rlaridan, shuningdek, «Tuhfat ul-ushshoq» to‘plamidagi ayrim g‘azallardan g‘oyat ta’sirlanganligini ta’kidlaydi va she’rlar yozishni boshlaganini yozadi.

U o‘n ikki yoshida ota-onasidan ayriladi va shundan so’ng, Ruhobod guzari masjidining imomi bo‘lgan bobosi Mirsaid Sharif o‘g‘li qo‘lida tarbiya topadi. O‘smir Hoji Muin bobosidan arab tili qoidalari va diniy ilmlarni o‘rgana boshlaydi. Bu bilimlarning mukammallashuviga o‘z davrining taniqli olimi va ziyolisi Sayidahmad Vasliy bilan (1900 yili) tanishuv katta imkoniyat yaratdi. Demak, Hoji Muin o‘n sakkiz yoshgacha dastlab bobosi, keyinchalik Vasliy ta’siri ostida arabcha sarf, navh va muayyan darajada diniy bilimlarni o‘zlashtiradi. Shuningdek, Vasliy uning she’riyatga bo‘lgan muhabbatini oshirdi, o‘z davrining ma’rifatparvarlari davrasiga ham olib kirdi[1.5.]. Uning ilmiy rivojlanishida Sayidahmad Vasliy bilan tanishuvi muhim o‘rin tutadi. Vasliy, o‘z davrining taniqli olimi va ma’rifatparvari bo‘lib, Hoji Muinning ilmiy qiziqishlarini yanada rivojlantirishga yordam bergan. Vasliy ta’siri ostida Hoji Muin nafaqat arabcha sarf, navh kabi bilimlarni rivojlantirdi, balki uning she’riyatga bo‘lgan qiziqishlarini yanada kuchaytiradi va ma’rifatparvarlar davrasiga kirish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi. Demakki, bu davrga kelib Hoji Muinning ilmiy izlanishlari nafaqat diniy, balki adabiy sohada ham davom etganini ko‘rishimiz mumkin. Vasliyning uning she’riyatga bo‘lgan qiziqishini oshirishi uning ijodiy faoliyatining rivojlanishiga ham katta turtki bo‘lgan edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Hoji Muinning muallimlik faoliyati 1901-yilda eski maktabda boshlandi. Shu maktabda o‘qituvchilik qilganida orttirilgan tajribalar va Abduqodir Shakuriyning ta’lim metodlari ta’sirida, 1903-yil avgust oyida Samarqand shahrining Xo‘ja Nisbatdor mahallasida yangi usuldagi maktab ochib, unda o‘qituvchilikni davom ettirdi. Hoji Muin maorifparvar, vatanparvar

va fidoiy inson sifatida ushbu maktabni o‘z hisobidan ochdi. U hech qachon moddiy manfaatni birinchi o‘ringa qo‘ymadi, balki Behbudiy, Shakuriy, Ajziylarning maktab an’analari va ta’lim tizimini davom ettirib, o‘z yosh avlodini ilm va ma’rifatga yo‘naltirishga harakat qildi. Hoji Muinning zamondoshlari bilan suhbatga asoslanib, adabiyotshunos olim R.Muqumov, “Hoji Muin maktabda bolalarni savodxon qilish uchun sarflanadigan mablag‘ni xalqdan yig‘magan, balki o‘zining Devoli ko‘ndalang qishlog‘idagi bog‘chasida yetishtirgan shirin-shakar mevalarni bozorga chiqarib sotish evaziga to‘plagan. Maktabdorlikdan daromad olishni sira o‘ylamagan”[2.20-25.], - deb yozadi. Bu ma’lumotdan ko‘ramizki Hoji Muinning maktab tashkil etishdagi fidoiyligi va moddiy manfaatdan uzoq bo‘lganligi e’tiborga molik. Demakki, Hoji Muin maktabni tashkil qilish uchun zarur bo‘lgan mablag‘ni xalqdan yig‘magan, balki o‘zining mablag‘idan ochgan. Bu, uning maorifparvarlikdagi fidoyiligining yana bir ko‘rsatkichidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bilishning aniq usullari yig‘indisiga tayangan holda ilmiy tahlillar o‘tkazilib, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, tahlilning mantiqiy usullari hamda natijani ilmiy o‘rganish uslublaridan foydalanildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Hoji Muin maktabdorlikdan daromad olishni o‘ylamay, faqat yosh avlodning ta’lim-tarbiyasiga hissa qo‘shishga intilgan. U, aslida, o‘zining ilmiy-ma’rifiy faoliyatini pul topish maqsadida emas, balki millatning kelajagi uchun qilgan. Bu holat uning ijtimoiy mas’uliyatini va yuksak ma’naviyatini aks ettiradi.

Aynan shu yillarda Hoji Muin ustozi Vasliyning uyida jadidlarning yetakchisi bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiy bilan tanishib, suhbatda bo‘lishi uning hayotida tubdan o‘zgarish yasadi va yangi qarashlar davrini boshlab beradi. Ayniqsa, Behbudiyning “Muxtasari jug‘rofiyai umumiy” kitobining “Tadbiqoti diniya” qismidagi “Ba’zi eski xurofot va isroiliyat so‘zlari bizning tafsir kitoblarimizgacha kirib ketgan” mazmunidagi jumlalari uning fikrida tubdan o‘zgarish yasadi. Hoji Muin tavsi’i ma’lumotiga turk-totor matbuoti sabab bo‘lgan bo‘lsa, Behbudiy hazratlarining mazkur bir ikki jumla so‘zi birinchi marotaba, fikriy inqilobga uchratganligini e’tirof etadi[3.29.]. Shu davrdan boshlab, u Behbudiyning izdoshiga aylanadi.

Yangi tashkil qilingan maktablarga, jumladan, Hoji Muin maktabiga ham, eski maktabning ta’lim va tarbiya usuli mos kelmas edi. Shuning uchun o‘sha davrda eng avvalo yangi o‘quv adabiyotlarni yaratish dolzarb muammoga aylangan edi. Buni yaxshi tushungan Hoji Muin boshqa jadid muallimlari qatori o‘ta mas’uliyatli va shu bilan birga sharafli bo‘lgan vazifani ham o‘z zimmasiga oldi. U 1908 yilda yangi usuldagi maktablar uchun fors tilida «Rahnamoi savod» darsligini chop ettirdi. Zamondoshi Ismatilla Rahmatullazoda bilan hammualliflikda o‘zbek tilida “O‘qituvchi” nomli alifbo kitobini ham tayyorlaydi.

Bu davrda yangi jadid maktablarida ta’lim va tarbiyani uzviy va uzliksiz olib borish zarur edi. Shuning uchun ham Hoji Muin o‘quvchilarga nafaqat dars berish bilan chegaralandi. Balki o‘z davrining mashhur va tajribali pedagoglaridan biri hisoblangan Abduqodir Shakuriyning iltimosiga binoan bolalarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega deb hisoblangan bir qancha she’rlarni turkchadan fors tiliga tarjima qiladi. Hoji Muin mazkur tarjimalar asosida 1914 yilda «Guldastai adabiyot» nomli she’riy to‘plamni nashr qildirdi. To‘plamdagi Hoji Muin tomonidan 1908–1914 yillarda yaratilgan “Xitob va go‘daki beilm”, “Nasihat”, “Muxammas”, “Ittifoq”, “Shikoyat”, “E’tirof” kabi milliy va maishiy xarakterdagi she’rlar uning qalamiga masub bo‘lib, qolganlari esa tarjima she’rlardir. Hoji Muinning ushbu kitobi “yangi o‘zbek she’riyatining dastlabki namunalaridan biri edi”[4.210-212]. Ammo bu to‘plam 2010-yilda chop etilgan Hoji Muinning “Tanlangan asarlarida” keltirilmagan.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning 1914-yilda sahnaga qo‘yilgan “Padarkush” asari ta’siri Hoji Muin ijod yo‘nalishini she’riyatdan dramaturgiyaga burib yubordi. U keyinchalik, mohir dramaturg, o‘tkir publitsist bo‘lib etishdi va o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy muhitini mohirona tavsirlab ham beradi. Nusratullo Qudratulla o‘g‘li bilan hamkorlikda yozilgan to‘rt pardali «To‘y» p’esasi 1914-yilda bosmadan chiqadi. Birin-ketin dramaturg Hoji Muinning uch pardali «Eski maktab – yangi maktab» p’esasi (1916 y.), to‘rt pardali drama(fojiaviy asar)si «Mazluma xotun» (1916 y.), bir pardali intermediya (kulguli asar)si «Ko‘knori» (1916 y.) yaratildi. Barcha asarlarida shu davrning dolzarb ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy muammolariga serqirrali va keng qamrovli ijodkor sifatida yondashdi va jiddiy e’tibor qaratdi. Shuningdek, jamiyatning ma’rifiy taraqqiyotiga monelik qilayotgan ijtimoiy illatlarning sabablarini tahlil qilishga va ularni bartaraf qilish yo‘llarini ko‘rsatishga harakat qildi.

Jamiyat va xalqning jaholatdan qutilishida milliy matbuotning muhim ahamiyatga ega ekanligining munozaraga o‘rin qoldirmasligini Hoji Muinning publitsistika sohasidagi faoliyatida ko‘rish mumkin. Insonga suv va havo qanchalik zarur bo‘lsa, shu davrda milliy matbuot ham jaholatdan qutilish uchun shunchalik zarur, deb hisoblagan. Hoji Muinning maqolalari bot-bot gazeta va jurnallarning sahifalarida ko‘rinar edi. Dastlab “Turkiston viloyatining gazetasi”da o‘z maqolalari bilan muntazam qatnashib turadi. Keyinchalik, 1913-yili u Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Samarqand” gazetasi hamda “Oyna” jurnali chiqa boshlagach, ularda matbuot va teatrning ahamiyati, axloq-odob masalalari, xalqning ma’naviyatini shakllantirish, ta’lim-tarbiya haqida qator maqolalarini e’lon qilib boradi. Bu gazeta va jurnallarga shu davrning peshqadam ma’rifatparvari Mahmudxo‘ja Behbudiy muharrirlik qilgani uchun, ular ziyolilar va xalq orasida obro‘-e’tiborga ega bo‘ldilar. Shuning uchun Behbudiyning hurmatiga sazovor bo‘lgan. Shoir, dramaturg, publitsist sifatida Hoji Muin 1913-1914 yillardagi mehnat faoliyatini bir muddat “Samarqand” gazetasi va “Oyna” jurnali bilan bog‘liq bo‘lganligi bejiz emas. Ammo shu bilan birga, u o‘zining pedagogik faoliyatini ham to‘xtatmasdan olib borgan. U 1916-yilgacha Samarqand shahrining turli mahallalarida yangi usulda bolalarning savodini chiqarishda jonbozlik ko‘rsatadi.

Hoji Muinning hayoti va ijodiga 1917-yil fevralidagi voqealar sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Uningcha, Vatan ozodligi va xalqning erkinligi uchun kurashish vaqti kelgan edi. Shuning uchun, publitsist sifatida Hoji Muin ma’rifiy mavzularga nisbatan ijtimoiy-siyosiy masalalarga ko‘proq e’tibor qaratib, matbuotdagi faoliyatini kuchaytirdi. Xususan, "Hurriyat" gazetasida bosilgan maqolalarida Turkiston muxtoriyati, bolsheviklar va saylovlar to‘g‘risidagi fikr-mulohazalari va xulosalari o‘z ifodasini topgan.

Sho‘rolar hokimiyati o‘rnatilgandan keyin Hoji Muin uning nashri bo‘lgan “Mehnatkashlar tovushi” gazetasida faoliyat ko‘rsatdi. Dastlabki yillarda yozgan maqolalarida uning ijtimoiy-siyosiy masalalarga nisbatan aniq nuqtai-nazarga ega bo‘lmaganligini ko‘rish mumkin. Publitsist mehnatkashlar hokimiyati deb atalgan yangi tuzumning siyosiy hayotidagi noqislikni Chor Rossiyasi davridan qolgan meros, degan fikrda ham bo‘lgan. U o‘zining o‘tkir qalamini xalqning og‘ir ahvolini yoritishga, hukumatning ayrim qarorlarini xalq ommasiga tushuntirib berishga qaratgan edi. Ammo tez orada sho‘rolar hukumati to‘g‘risidagi orzu-umidlari sarob ekanligini anglay boshlagan.

Shuningdek, uning “Yurt qayg‘usi”, “Sho‘roi islomiya va saylov”, “Namoyish to‘g‘risida” nomli maqolalarida sho‘rolar hukumatining ijtimoiy siyosatidan norozilik kayfiyati borligi sezilib turadi. Bolsheviklarning siyosiy basharasi ochiq-oydin fosh qilingan “Bolsheviklar va biz”sarlavhali maqolasi “Hurriyat” (1918 yil 9 yanvar), “Boy bo‘lmoq yo‘llari” nomli maqolasi “Zarafshon” (1922 yil 3 noyabr) gazetalarida chop etiladi. “Mashrab” jurnalining 1924-yilgi 1-sonida “Ezma” taxallusi bilan “Azroilmi, soliqchimi?” nomi bilan chiqarilgan qisqagina maqolasida “Magar Nikolay vaqtida bizdan biror noshukurlik o‘tgan ekankim, bu kun haq taolo

“bolshevik” degan bir toifa maxluqni boshimizga musallat qildi. Xudoyo, tavba qildim. Yana o‘zining bilasan. Mulk o‘zingniki, nima xohlasang qilmoqqa qodirsan...”[5.2.], bu maqolalarida Hoji Muin bolsheviklarni Nikolay davridagi hukumatga o‘xshatib, ularning xalqga yetkazgan zarari haqida so‘z yuritadi, bu uning sho‘rolar hukumatiga nisbatan chuqur noroziligini ifodalaydi. Shu fikrlarning o‘ziyoq bolsheviklarga umid qilish befoyda ekanligi va muallifning qat’iy siyosiy xulosaga kelganligidan dalolat beradi. Bunday tanqidiy maqolalarni o‘sha davrda matbuotda e’lon qilish jasorat namunasi edi. Ammo bu keyinchalik Hoji Muinga qimmatga tushdi. Yangi tuzum yalovbardorlari vatanparvar publitsist Hoji Muinning tanqidiy maqolalariga befarq qaramadilar. U maxsus xizmat muassasalarining “nazariga tushdi”, aniqroq qilib aytganda “qora ro‘yxat”ga olinadi.

Hoji Muin Shukrullo o‘g‘li Mehriyning qatag‘on qilish ayni avj pallasiga kirgan vaqtda yozgan «Ijodiy tarjimai holim» (1937 yil) qo‘lyozmasi hayoti, serqirrali ijod yo‘li, dunyoqarashi, pedagogik faoliyati, nashr etilgan va etilmay qolgan, tiriklik davrida maxsus yo‘qotilgan asarlari haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish uchun muhim ahamiyatga egadir. Bu noyob qo‘lyozmada yozilishicha, 1937-yilgacha uning o‘nta kitobi bosilib chiqqan va 20ga yaqin to‘plam-kitoblari bosilish arafasida bo‘lgan. Hoji Muin 30 yillik ijodiy faoliyati davomida 23 xil gazeta va jurnallarda adabiy, ilmiy va ijtimoiy mavzularda taxminan 200 tacha maqola, 400 tacha turli xabar va 1500 misraga yaqin o‘zbeka hamda tojik tilidagi she’rlarni e’lon qilgan.

XULOSALAR

Hoji Muin ijodida biografik mazmundagi maqolalar muhim o‘rin egallaydi. U o‘zining zamondoshlari va yaqinlarini, jumladan o‘zi uchun katta ta’sir ko‘rsatgan shaxslarni chuqur tahlil qilgan va ularning hayot yo‘llarini, ilmiy-ijodiy faoliyatini yoritgan. Xususan, uning ustozi va maslakdoshi bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti, ijodi va uning vafoti munosabati bilan yozilgan uchta maqola Hoji Muinning adabiy merosi va ta’lim-tarbiyaga bo‘lgan yuksak hurmatini ko‘rsatadi. Shuningdek, mashhur muallim va muharrir Shokir Muxtoriy, islohotparvar olim va shoir Sayidahmad Vasliy kabi shaxslarning tarjimai hollari ham Hoji Muin tomonidan qalamga olingan. Bu maqolalar faqatgina shaxslarning hayotini yoritibgina qolmay, balki ularning o‘z zamonidagi ma’rifatparvarlik va ijtimoiy-siyosiy kurashdagi o‘rni hamda ta’sirini chuqur tahlil qilgan.

Bundan tashqari, Hoji Muin hajviy maqolalar yozishda ham faoliyat yuritgan. U ko‘plab taxalluslarda, jumladan, Boturbek, Mashrab, Ezma, A’rofiy, Chaqimchi, Mug‘ombir kabi taxalluslar bilan hajviy maqolalar yaratgan. Ushbu maqolalar uning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi noxush holatlarni, insonlarning iroda va axloqiy zaifliklarini, shuningdek, o‘z zamonasining qiyinchiliklarini hajviy tarzda ifodalagan. Hoji Muin bu maqolalarda o‘zining o‘tkir fikrlash qobiliyati va zamonani keskin tahlil qilish uslubini ko‘rsatdi.

Ammo Hoji Muinning hayoti va ijodi o‘zi qo‘llagan g‘oya va printsiplarga sodiq bo‘lish bilan birga, o‘z zamonining siyosiy voqealari va hukumat bosimi ostida rivojlandi. Sho‘rolar hukumatining qarshi kurashchisi sifatida u 1929-yilda qamoqqa olindi. Uning qamoqqa olinganligi va shundan keyin davom etgan ta’qiblar uning siyosiy faoliyatiga qarshi olib borilganligi natijasida bo‘ldi. 1932-yilgacha qamoqda saqlangan va ozod etiladi. So‘ng, 1938-yil yanvarida yana qamoqqa olindi. Bu davrda Hoji Muin siyosiy qarashlari va adabiy faoliyati tufayli ko‘plab jismoniy va ma’naviy qiyinchiliklarga duch keldi. U 1942-yilda Solikamsk qamoq lagerlaridan birida vafot etdi. Uning o‘limi, o‘z davrining siyosiy repressiyasi va adabiy kurashlarining yomon natijalaridan biri sifatida tarixda qoldi.

Hoji Muinning hayoti va ijodi uning xalqining erkinlik, adolat va ilm-ma’rifat yo‘lidagi kurashining yorqin namunasi bo‘lib, bugungi kunda ham uning o‘rni va ta’siri yodga olinmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Hoji Muin. Tanlangan asarlar. To‘ldirilgan 2-nashri. T:. Ma’naviyat. 2010.
2. Muqumov R. Hoji Muin kim edi?// Muloqot, 1994, 5-6-sonlar.
3. Hoji Muin. Tanlangan asarlar. Toshkent “Ma’naviyat” 2005. 29-bet.
4. B.Qosimov, Sh.Yusupov, U.Dolimov, Sh.Rizaev, S.Axmedov. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. Toshkent “Ma’naviyat” 2004.
5. Hoji Muin. Arzoilmi, soliqchi?. “Mashrab” jurnali, 1924 yil, 1-son.
6. Sag‘dullaevna, Ashurova Xurshida. “Biography of Saidakhmad Vasliy in the Works of his Contemporary of Khodji Muin” Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences 14 (2022): 75-78.
7. Saghdullaevna, Ashurova Khurshida. “The History of Origin of the Philosofical Doctrine of Jadidism” Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture 2.12 (2021): 1-3.
8. Ortiqovich, Xoliqov Yunus. "GLOBALLASHUV DAVRIDA BARQAROR TARAQQIYOTNI TA’MINLASHDA BAG ‘RIKENGLIKNING O ‘RNI."*Science and innovation* 3.Special Issue 19 (2024): 724-726.
9. Ortiqovich, Xoliqov Yunus. "МИЛЛАТЛАРАРО БАҒРИКЕНГЛИК МАДАНИЯТИНИНГ АХЛОҚ БИЛАН УЙҒУНЛИГИ."*E Conference Zone*. 2023.
10. Ortiqovich, Xoliqov Yunus. "MILLATLARARO MADANIYAT VA BAG’RIKENGLIKNI RIVOJLANTIRIShDA MILLIY QADRIYATLARNING ORNI." *E Conference Zone*. 2023.
11. Ortiqovich, Xoliqov Yunus. "COMPATIBILITY OF THE CULTURE OF INTERNATIONAL TOLERANCE WITH MORALITY."*Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development* 15 (2023): 337-339.
12. Artikovich, Khalikov Yunus. "THE ROLE OF NATIONAL VALUES IN THE DEVELOPMENT OF INTERNATIONAL CULTURE AND FORGIVENESS."*Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development* 15 (2023): 344-348.
13. Ortiqovich, Xoliqov Yunus. "YANGI O‘ZBEKISTONDA BAG’RIKENGLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MILLATLARARO ALOQALARNING MOHIYATI." (2022).
14. Kholikov, Yu O. "ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ."*ВЕСТНИК МАГИСТРАТУРЫ* (2022): 102.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Gulnara Sultankulova
University of Science and Technology (Tashkent)
Lecturer, Department of Social Sciences

Published under peer review:
Doctor of Science in Philosophy, Associate Professor
Sh.Tadjibayeva

Received 30th January 2025, Accepted 11th February 2025, Online 28th February 2025

TALABALARDA MUAMMOLI VAZIYATLARNI YENGISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. Maqolada o‘quv jarayonida va jamoat orasida talabalarning stressli vaziyatdan xalos bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Unda psixologiyadagi “Koping nazariyasi” haqidagi fikrlar milliy muhitga oid vaziyatlar asosida tahlil etiladi.

Tayanch so‘zlar: stressli vaziyatlar, rejalarni o‘zgartirish, muddatlarni kechiktirish, resurslarni qayta taqsimlash, ijtimoiy yordam, yaqinlar, do‘stlar, hamkasblar, Richard Lazarus, amerika psixologlari, sharqona tarbiya, xalq maqollari.

ISSUES OF FORMING STUDENTS' SKILLS OF OVERCOMING PROBLEM SITUATIONS

Abstract. The article deals with the issues of forming students' skills of coping with stressful situations in the educational process and in society. The ideas of ‘coping theory’ in psychology are analysed on the example of situations related to the national environment.

Key words: stressful situations, change of plans, postponement of deadlines, redistribution of resources, social support, relatives, friends, colleagues, Richard Lazarus, American psychologists, Eastern education, folk proverbs.

ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ У СТУДЕНТОВ НАВЫКОВ ПРЕОДОЛЕНИЯ ПРОБЛЕМНЫХ СИТУАЦИЙ

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы формирования у студентов навыков совладания со стрессовыми ситуациями в образовательном процессе и в социуме. Анализируются идеи «теории совладания» в психологии на примере ситуаций, связанных с национальной средой.

Ключевые слова: стрессовые ситуации, изменение планов, перенос сроков, перераспределение ресурсов, социальная поддержка, близкие, друзья, коллеги, Ричард Лазарус, американские психологи, восточное воспитание, народные пословицы.

Kirish (Introduction)

Inson jamiyatda yashar ekan, o‘z maqsadlari yo‘lida juda ko‘p qiyinchiliklarga duch keladi. Bu jarayon bir umrga davom etadi. Qiyinchilik psixologiyada stress deyiladi. Stress maqsadga yetishga to‘siqni his etish demakdir. Stressga qarshilik - bu muayyan vaziyatda insonning boshqalar tomonidan qilinishi mumkin bo‘lgan monelikka qarshi turish, u bilan

mubohasa qilish, murosa qilish, ko‘ndirish, rozi qilish, yengish, g‘olib chiqish, taslim qilish kabi vaziyatlarni taqozo qiladi. Stressli vaziyatlarga bolalar, o‘smirlar, balog‘at yoshidagi individlar, qizlar va o‘g‘il bolalar duch kelishi tipik hodisa sanaladi. Chunki ularda hali tajriba, bilim, huquqiy ma’lumotlar yetarli bo‘lmaydi. Muhitga moslashish, vaziyatni baholash, kattalar bilan muloqot layoqati yetarli bo‘lmaydi.

Stressli vaziyatdan chiqib ketishda inson nafsiga turli yo‘llar va ixtiyorlar berilgan. Ammo chiqishda uni foyda yoki zarar kutib turadi. Foyda masrurlik, shodlik keltirsa, zarar pushaymonlik, afsus va nadomat olib keladi. Psixologik pedagogikada yengish strategiyalarining bir qator turlari ishlab chiqilgan. Yengish strategiyalarining turli xil tasniflari mavjud. Olimlar 400 ta koping haqida ma’lumotlarni tasnif etishgan. Ulardan eng mashhur tasnif amerikalik psixolog Richard Lazarusga tegishlidir. Koping haqidagi bilimlar o‘zbek tiliga yetarli tarjima etilmagan. Ular asosan, ilmiy tadqiqotlarda ta’riflangan.

Mavzuga oid manbalar tahlili (Analysis of sources related to the topic)

XX asrning 70-yillarida amerikalik psixolog R. Lazarus o‘zining shogirdi Syuzan Folkman bilan hamkorlikda koping mavzusida juda samarali ishlagan. S.Folkman uning rahbarligida doktorlik ilmiy darajasiga ega bo‘lgan (1979). Ularning “Stress, baholash va yengish” kitobi (1984) vaziyat talablari, stressor, shaxs va uning javoblari o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirlarni tavsiflovchi “stressning tranzaksiyaviy modeli”ni taqdim etadi.

R.Lazarus va S.Folkman yengish strategiyalarini baholashning birinchi standartlashtirilgan usulini ishlab chiqdilar, ya’ni “Yengish yo‘llari so‘rovnomasi (keyinchalik “Yengish yo‘llari nazorat ro‘yxati”) texnikasini ishlab chiqdilar. Ularning asari T.L. Kryukova va boshqalar tomonidan Rossiyada rus tiliga tarjima etilgan. R.Lazarusning A. Delongis, J. Richard Jennings (1965–1969), Rend J. Gruen (1981–1985) va boshqa shogirdlari yirik olimlar sifatida tanilgan.

1991 yilda nafaqaga chiqqanidan so‘ng ham R.Lazarus faol ishlashni davom ettirdi, maqolalar va kitoblar yozdi. O‘zining keyingi asarlarida (1991; 1994; 1999) u his-tuyg‘ular, hissiy rivojlanish va psixopatologiya bo‘yicha nazariy va empirik tadqiqotlar natijalarini jamladi va baholashning deyarli yigirma xil hissiyotlarga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatdi.

R.Lazarusning “Sportdagi stress va tashvish” asari 1983-yili yaratilgan. Uning Bernis Lazarus bilan hammualliflik qilgan, qarish jarayonidagi his-tuyg‘ular va yengish strategiyalarini o‘rganadigan “Qarishga qarshi kurash” ishi 2006-yili nashr etilgan. Buyuk olim 2002-yili 100 yoshida dunyoni tark etgan. Uning hamda shogirdlari tadqiqotlari o‘zbek tiliga tarjima etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Bilishning aniq usullari yig‘indisiga tayangan holda ilmiy tahlillar o‘tkazilib, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, tahlilning mantiqiy usullari hamda natijani ilmiy o‘rganish uslublaridan foydalanildi.

Asosiy tahlil va natijalar (Results and analyses)

Richard Lazarus va Syuzan Folkmanlarning “Stress, baholash va yengish” kitobida odamlar stressli vaziyatlarni qanday qabul qilishlari, o‘z imkoniyatlarini qanday baholashlari va stressni yengish uchun qanday strategiyalardan foydalanishlari haqida tadqiqotiy tavsiflar mavjud. R.Lazarus strategiyalarning ikkita asosiy guruhini aniqlagan: muammoga yo‘naltirilgan va hissiyotga yo‘naltirilgan. [1] Ularga ko‘ra, muammoga yo‘naltirilgan kurash strategiyalari muammoni hal qilishga yoki vaziyatni o‘zgartirishga qaratilgan. Agar odam vaziyatga ta’sir qilish imkoniyati va resurslari borligiga ishonsa, bu usul uning uchun samarali bo‘ladi.

Ushbu tur quyidagi strategiyalarni o‘z ichiga oladi: ma’lumot qidirish va harakatlarni rejalashtirish. Ushbu turdagi kurash muammo haqida ko‘proq ma’lumot olish va uni hal qilish uchun harakat rejasini ishlab chiqish istagiga asoslanadi. Masalan, sizni katta bir anjumanda chiqishingiz dasturga kiritilgan. Ammo birdaniga sizni dasturdan olib tashlashgani haqida

informatsiya oldingiz. Bu sizga stress sanaladi. Siz bu dasturda chiqishni juda xohlaysiz, bu sizning keyingi ijodiy yo‘lingizda muhim sanaladi. Bunda siz shoshilmasdan harakat qilishingiz lozim. Avvalo, dastur maqsadi, ahamiyati, jamoatchilikning unga qiziqish darajasini aniqlaysiz. Dasturdagi o‘z o‘rningizni aniqlaysiz, qayta dasturga kiritishlari uchun yo‘l qidirasiz. Ammo sizga ma’lum bo‘lishicha, sizning mavzularingiz dasturga yetarli darajada muvofiq emas. Shunda siz vaziyatni o‘zgartirish bo‘yicha rejalar tuzasiz. Agar tashqi omil sizning ishtirokingizdan ko‘ra ishtirok etmasligingizga muvofiq bo‘lsa, undan voz kechasiz. Bunda siz uchun stressning hech qanday keragi yo‘q. Buni stressni oson yechish deyiladi. Agar siz bu dasturda qanday bo‘lmasin ishtirok etishni ko‘zlab, g‘irrom yo‘llarni tanlasangiz, yangi muammolarga duch kelishingiz mumkin. Sizda ko‘rolmaslik, g‘iybat, hasad hissi paydo bo‘lishi mumkin. Odatda bunday vaziyatlar san’atkorlar faoliyatida ko‘p uchraydi. “Siz hovliqasiz, nimalardir qilasiz, qayergadir shoshasiz. Hech bo‘lmasa bir daqiqa to‘xtab, o‘zingizga savol berganmisiz? “Bularning bari nima uchun?”, “Qayoqqa ketyapman-u, mendan keyin nima qoladi?”. To‘g‘ri qalbimizning tub-tubidan nimadir ingrab turadi, bularning bari keraksiz iztiroblar ekanligini anglagandek bo‘lamiz.”[2]

Qiyinchiliklarni faol ravishda yengish. Ushbu strategiyani qo‘llagan kishi muammoning o‘z-o‘zidan yo‘qolishini kutmaydi, balki uni hal qilish imkoniyatlarini qidiradi. Faol pozitsiyani egallash o‘zingizni ishonchli his qilishingizga va vaziyatni nazorat qilishingizga yordam beradi. Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni” komediyasidagi Nigoraning oilada eski qarashlarga suyanib olgan qaynonasiga qarshi kurashi qiyinchiliklarni faol yengishga misol bo‘la oladi. Nigora stressli vaziyatda muvaffaqiyatga erishish uchun maqsadlarini rejalashtirdi, qayta baholadi, o‘zi kabi vaziyatdan iztirob chekayotgan boshqa ovsinlari bilan birgalikda muammoni ijobiy hal eta oldi. [3] Bu rejalarni o‘zgartirish, muddatlarni kechiktirish yoki resurslarni qayta taqsimlash usuli sanaladi.

Talabalar bo‘lajak mutaxassis-fuqaro sifatida ijtimoiy yordamga, maslahat va yo‘l-yo‘riqqa ehtiyojmand bo‘ladi. Ijtimoiy yordam - yaqinlaringiz, do‘stlaringiz yoki hamkasblaringizning sizga ruhiy va moddiy yordami. Ushbu strategiya boshqalardan yordam, maslahat yoki ekspert fikrini so‘rashni o‘z ichiga oladi. Bunga hodisalarni yanada qulayroq nuqtai nazardan qayta baholash usullari ham kiradi. Buni shoir Erkin Vohidov “do‘st topishga intilish” bilan yengish mumkinligini yaxshi yoritib bergan:

Do‘st bilan obod uying, gar bo‘lsa u vayrona ham,
Do‘st qadam qo‘ymas esa vayronadur koshona ham.
Do‘st qidir, do‘st top jahonda, do‘st yuz ming bo‘lsa – oz,
Ko‘p erur, bisyor dushman bo‘lsa u bir dona ham. [4]

Do‘stning umumiy ma’nosi Sharq axloqshunosligida zahira tipiga kiritilgan. Forobiyga ko‘ra, zahira ikki qism bo‘ladi: 1. Mol-amlok. 2. Sadoqatli, beta’ma do‘stlar. [5]

Demak, siz muhtoj bo‘lgan vaqtda yordam olishingiz mumkin bo‘lgan kishi siz uchun strategik zahira hisoblanadi. U sizga stressli vaziyatda kerak bo‘lib qoladi. Ammo do‘st bo‘lishning muhim sharti shuki, siz bilan faol munosabatda bo‘ladigan shaxs uchun avval siz o‘z bilim va imkoniyatlaringiz orqali unga ko‘mak bergan bo‘lishingiz kerak. Shu orqali u sizni o‘ziga do‘st hisoblagan bo‘ladi. Demak, ikki tomonlama ruhiy va moddiy yordamlashuv do‘stlik deyiladi.

Vaziyatga boshqa tomondan qarash. Bu uni hal qilishning yangi, yanada samarali usullarini topishga yordam beradi. Mavjud muammoni hal qilish uchun o‘tmishdagi muvaffaqiyatli tajribalardan foydalanish mumkin. Siz bir muammoni an’anaviy usulda hal qilmoqchisiz. Bunda siz “Men tushgan vaziyatga boshqalar tushganda qanday hal etgan edi?”, degan savolni o‘zingizga berishingiz kerak. Bunda vaziyat tarixining obyektiv va subyektiv sabablarini tahlil qilishingiz kerak.

Hissiy yo‘naltirilgan kurash strategiyalari ham mavjud. Ushbu usullar vaqtinchalik yordam deb ham ataladi, chunki ular muammolarni hal qilishga emas, balki ular tufayli hissiy stressni kamaytirishga qaratilgan bo‘ladi. Ba’zi hollarda keyinchalik stressli vaziyatdan chiqish yo‘lini topish uchun ehtiroslarning intensivligini kamaytirish kerak. Bundan tashqari, agar inqirozni hal qilish sizga bog‘liq bo‘lmasa, hissiyotlarga yo‘naltirilgan strategiyalar kerak. Hissiy yo‘naltirilgan kurash quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin: Tuyg‘ularni oshkor qilish - ba’zida stressdan xalos bo‘lish uchun his-tuyg‘ularingizni ochib tashlashingiz kerak - bu haqda gapiring, boksga boring, yig‘lang. Bu hol muhimlikni miyadan kamaytirishga yordam beradi. Misol uchun, siz hozirgi vaziyatda ijobiy tomonlarni topishga harakat qilishingiz yoki boshqa vazifaga o‘tishingiz mumkin. Buni chalg‘ish deymiz. Bundan tashqari, agar vaziyat mahrumiyatga ega bo‘lmasa, unda siz uning qarorini kechiktirishga harakat qilishingiz mumkin.

Stressga hissiy yo‘naltirilgan kurash o‘zbek jamiyatida, ayniqsa ayollar orasida ko‘p sodir bo‘lgan. Ikkinchi jahon urushida erkaklar frontga ketganda ayollar turmushning barcha og‘irliklarini o‘z yelkasida ko‘targan. Buni ular o‘z ashulalarida aks ettirishgan. Eri va o‘g‘li frontga ketgan, “qora xat” olgan ona o‘z dardini she’rda ifodalab, yengil tortgan, o‘z dardini mahalladoshlari bilan baham ko‘rgan:

Qiyg‘ir edim, qironda qanotlarim qirqildi,
Yigirma bir yoshimda urush meni tul qildi.
Tullar, mining tulporga, tim tepani kezamiz,
Nemis-fashist boshini ketmon bilan ezamiz.

Ketmonimiz kertilgan, yerni choping – yetilgan.
Yonib ketgan yorginam qayga dafn etilgan?
Yonib ketgan yorimni ko‘rdingizmi, harbiylar,
Yo jismini bir yerga ko‘mdingizmi, harbiylar.

Harbiylar-o, harbiylar, sizlarga o‘q tegmasin.
Farzandingiz boshini “Yetimman” deb egmasin.
Yetimman deb yig‘lagan, farzandlarim sog‘ bo‘ling,
Onangizning ko‘nglini ko‘targuvchi tog‘ bo‘ling. [6]

Ushbu folklor namunasida insonning urush va qirg‘inga qarshi isyoni, yovuzlikka nafrati, shu bilan birga kelajakka umidi yorqin aks ettirilgan.

Hazil, vaziyat haqida hazillashishga urinish. Dam olish - bu usul chuqur nafas olish texnikasi, meditatsiya, yoga va boshqa dam olish turlarini o‘z ichiga oladi. Psixologlar foydalanishni tavsiya etmaydigan kuchlanishdan xalos bo‘lishning disfunksional usullari ham mavjud: his-tuyg‘ulardan qochish va e’tibor bermaslik. Muammoning mavjudligini tan olmaslik, uni qadrsizlantirish yoki “gilam ostidan supurish” ham strategiyadir. Ammo bu faqat kelajakda muammo bilan muqarrar qarama-qarshilikni kechiktiradi. Ammo, buning foydasi shundaki, kechiktirish jarayonida inson o‘ziga yangi kuch to‘playdi, nafas rostlaydi, keyin katta kuch bilan undan chiqib ketish imkoniyatini beradi. “Qalpoq” hajviy ko‘rsatuvi miniaturalarida ushbu usuldan keng foydalaniladi. Hayotda ko‘p g‘irromliklarga duch kelgan Mamayramat yig‘laydigan vaziyatlarda ham kulgili gap-so‘zlarni aytib, atrofidagilarni yengadi, ularga jazo beradi. [7]

Spirtli ichimliklar yoki giyohvand moddalar sizni qisqa vaqtga stressni unutishga yordam beradi, ammo oxir-oqibat ular yanada ko‘proq muammolarni keltirib chiqaradi. Bu irodasizlik natijasidir. Har bir insonning stressga javoban foydalanadigan o‘ziga xos kurash strategiyalari borligini tushunish muhimdir. Tuyg‘ularga yo‘naltirilgan usullardan foydalanish, agar ular vaziyatga va individual ehtiyojlarga mos kelsa, foydali bo‘lishi mumkin.

Sxematik terapiya - oddiy so‘zlar bilan stressni yengish. Bunda jon koyitmagan holda hamma ishlatadigan so‘zlardan foydalanishni tushunamiz. Xalq tilida ko‘p ishlatiladigan so‘z va iboralardan foydalanish. Masalan, “Shunga shunchami?”, “O‘ziga insof bersin”, “Menga nima”, “Ordona qolsin”, “It hurar, karvon o‘tar”, “g‘am yema”.

Qanday qilib to‘g‘ri strategiyani tanlash kerak? R.Lazarus: “Tegishli strategiyani tanlash temperament, sog‘liq, ijtimoiy muhit, tajriba va vaziyatga bog‘liq. Ba’zi odamlar o‘zlarining barcha kuchlarini muammoni hal qilish uchun sarflashni afzal ko‘rishadi, boshqalari esa hissiy komponentga e’tibor berishadi”, deydi.[8]

1994-yildan – 2018-yilgacha Amerika Qo‘shma Shtatlarida 12 yoshdan – 20 yoshgacha bo‘lgan yoshlarning xatti-harakatlar vositasida stressni yengish bo‘yicha eng yirik tadqiqotlardan biri o‘tkazilgan. Ushbu so‘rovnomaga ko‘ra, bu toifadagi eng mashhur hissiy kurash televizor tomosha qilish yoki do‘stlar bilan suhbatlashish bo‘lib chiqqan. Biroq, natijalar ko‘rsatganidek, bu stress bilan kurashish uchun ozgina yordam beradi, xolos.

Muammoni hal qilish uchun har xil turdagi strategiyalarni birlashtira olish muhimdir. Bu sizga kerakli effektga tezroq erishishga yordam beradi va agar bitta kurash yordam bermasa, siz boshqa xatti-harakatlar modeliga e’tibor qaratishingiz mumkin. Strategiyani tanlashda siz quyidagi omillarni hisobga olishingiz kerak: Muammo turi. Agar muammo o‘ziga xos bo‘lsa va muayyan yechimga ega bo‘lsa, muammoga yo‘naltirilgan strategiyalarni tanlash yaxshidir. Agar muammo hissiy holat bilan bog‘liq bo‘lsa, unda hissiy nazorat bilan ishlash maqsadga muvofiqdir. Odamlar o‘zlarining xohish-istaklari va moyilliklarida farqlanadi. Ba’zilar uchun ijtimoiy yordamdan foydalanish qulayroq bo‘lishi mumkin, boshqalari uchun vaziyatni qabul qilish qulayroq bo‘lishi mumkin.

Muayyan strategiyani talab qilishi mumkin bo‘lgan o‘ziga xos hayot sharoitlari. Misol uchun, agar siz qattiq tashvishga tushib qolsangiz, ehtimol qabul qilish muammoni hal qilishdan ko‘ra samaraliroq tanlov bo‘ladi. Agar tanlangan strategiya kerakli natijaga olib kelmasa, unda siz boshqasini tanlashingiz kerak.

Qanday qilib yangi kurash strategiyalarini o‘rganish kerak? Siz foydalanadigan kurash strategiyalari to‘plami kengaytirilishi va takomillashtirilishi mumkin. Bu stressga moslashish qobiliyatini va hayot sifatini yaxshilaydi. Psixologik tadqiqotlarda talaba yoshlarga quyidagi tavsiyalar bejiz berilmagan: “Yangi kurash ko‘nikmalarini egallash uchun bilimingizni oshiring. Hozirda hamma narsa yaxshidek tuyulsa ham, avval qo‘llagan strategiyalaringizni toping va bilib oling. Olingan bilim eng kutilmagan daqiqada foydali bo‘lishi mumkin. Harakatda turli strategiyalarni qo‘llashni boshlash uchun, kundalik vaziyatlarda, masalan, siz tirbandlikda asabiy bo‘lganingizda va asta-sekin murakkabroq vaziyatlarda yangi narsalarni sinab ko‘ring”.[9]

Talabalar o‘qishni o‘zlashtirishda, davomatda muammo paydo bo‘lganda, sessiyada stressga tushadi. Stress holatda o‘z vaqtida ovqatlanmaslik oshqozon kasalligiga chalintiradi. Shuning uchun sog‘ligingizga g‘amxo‘rlik qiling. Jismoniy va ruhiy salomatligingizga e’tibor bering. Sog‘lom turmush tarzi stressni kamaytirishga va moslashish qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Muammoni o‘zingiz tushunishingiz qiyin bo‘lsa, psixologdan yordam so‘rang. Mutaxassis stress bilan kurashishning samarali strategiyalarini tanlashga va ularni o‘rganishga yordam beradi.

Yordam guruhlarida qatnashing. Yordam guruhiga qo‘shiling yoki shunga o‘xshash muammolarga duch kelgan boshqalar bilan bog‘laning. Bu sizga qo‘llab-quvvatlanayotganlik hissini beradi va boshqalar bilan tajriba almashishingizga yordam beradi.

Inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini va ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o‘zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy

qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir. Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida bozor infratuzilmasi uchun kadrlar tayyorlash ko‘lami ko‘paydi (abituriyentlarni qabul qilish 1990 yilgi 2,8 mingdan, 2022 yilga kelib 50 minggacha ortdi. Bozor iqtisodiyoti asoslariga qishloq joylardagi yoshlarni o‘rgatish niyatida qator biznes maktablar, litseylar va kollejlar tashkil etildi. Mehnat bozori tez sur’atlarda iqtisodiy yo‘nalishdagi mutaxassislar bilan boyib bormoqda. [10]

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo‘ljalni to‘g‘ri ola bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo‘naltirilgandir. Bularning bari yoshlarga motivatsiya berishdan iboratdir.

Xulosa (Conclusion)

Respublikamizda sotsial munosabatlar muammolari jahon ilmiy tafakkurining har xil yo‘nalishlari natijalari asosida tadqiq qilinayotganligini alohida ta’kidlash joizdir. Bu muammolarni yangi, yuqori ilmiy darajada tadqiq qilish imkoniyatlari vujudga keldi. Endi bu muammoni konkret psixologik tadqiqot bilan yechish joiz. Chunki bu muammoni, balki butun ijtimoiy hayot jarayonlarini keng qamrovda, kompleks xarakterda va amaliy natijalar asosida chuqur tadqiq qiladi.

Mamlakatda yoshlarga madad berish, bozor iqtisodiga o‘tishda ijtimoiylashuv, kichik va o‘rta biznesga jalb etish, huquqiy madaniyatni shakllantirish, ta’lim va o‘z bilimini hamda madaniy hordiq sifatini oshirishni tashkil etish, har tomonlama xalqaro aloqalarni yo‘lga qo‘yish rejalar ishlab chiqilgan. Jumladan, “Mamlakatning yosh bunyodkorlari” klubida madaniy va ma’naviy tiklanish, jahon hamjamiyatiga ochiqlik borasida munozaralar o‘tkazilmoqda, “Amir Temur: shaxs, davlat, renesans” multimedia qomusini yaratish uchun fond tomonidan kredit berilgan.

Ushbu imkoniyatlar yoshlar xulqidagi umidsizlik, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga ishonchsizlik, iqtisodiy qiyinchiliklardan qo‘rqish kabi stresslardan xolos etish ishlariga yordam beruvchi omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

[1]. Лазарус Р., Фолкман С. Стресс, оценит и преоделит. М.: 1984.
[2]. Norbekov M. Tentakning tajribasi -1. “Spectrum Media Group” nashriyoti. T.: 2016. 319 b. -B.8.
[3]. Caid Ahmad. Kelinlar qo‘zg‘oloni. Komediya (O‘zbek Milliy akademik drama teatri spektakli). Ziyouz.com.
[4]. Umr va nafs. Risola. “Yangi asr avlodi” nashriyoti. T.: 2002. 32 b. -B.24.
[5].Erkin Vohidov. Yoshlik devoni. G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. T.: 1969. –B.42.
[6]. EraliyevB., Ostonaqulov I., Abdulahatov N. O‘zbekiston ziyoratgohlari va qadamjolari. Toshkent viloyati va Toshkent shahri. 3-kitob. “Turon Zamin Ziyo” nashriyoti. 2015. 340 b.1 – B.189.
[7]. “Qalpoq” hajviy ko‘rsatuvlari. Yangi kulgi oficial. YouTube kanali. 2020.
[8]. Лазарус Р., Фолкман С. Стресс, оценит и преоделит. М.: 1984. стр.132.
[9]. Лазарус Р., Фолкман С. Стресс, оценит и преоделит. М.: 1984. стр.201.
[10]. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini 2023 yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 12 sentabr 2023.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Каримова Дилафрўз Обиджоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
ЎзР ФА Ўзбекистон тарихи давлат музейи
Тарих илмий бўлими мудири

Тақризчи: Фурқат Тошбоев.
Тарих фанлари доктори, профессор.

Received 30th January 2025, Accepted 11th February 2025, Online 28th February 2025

АҲМАДАЛИ АСҚАРОВ: АФРОСИЁБ ЁДГОРЛИГИНИ САҚЛАШ ВА МОВИЙ ОСМОН ОСТИДАГИ МУЗЕЙГА АЙЛАНТИРИШ ҒОЯСИ ТАШАББУСКОРИ

Аннотация. Ушбу мақолада таниқли ўзбек археолог олими, академик Аҳмадали Асқаровнинг Сармарқанд Археология институти директори лавозимида ишлаган даврида, Самарқанднинг қадимий тарихини ўзида мужассам этган Афросиёб ёдгорлигини ўрганиш, очилган объектларини очиқ осмон остидаги музейга айлантириш ғоясини илгари сурган. Бу борада кўплаб ташкилий ишларни амалга оширган. Мақола ушбу долзарб ва ечими халигача кутилаётган масалага бағишланган.

Калит сўзлар: археология, олим, Аҳмадали Асқаров, Афросиёб ёдгорлиги, Самарқанд шаҳри, реставрация, музейлаштириш, очиқ осмон остидаги музей, топилма.

АХМАДАЛИ АСКАРОВ: ИНИЦИАТОР ИДЕИ СОХРАНЕНИЯ ПАМЯТНИКА АФРОСИЯБ И ПРЕВРАЩЕНИЯ ЕГО В МУЗЕЙ ПОД ГОЛУБЫМ НЕБОМ

Аннотация. В данной статье рассказывается о деятельности выдающегося узбекского археолога, академика Ахмадали Аскарова в период его руководства Самаркандским археологическим институтом. В это время он выдвинул идею изучения памятника Афрасиаб, который олицетворяет древнюю историю Самарканда, и превращения открытых объектов в музей под открытым небом. В этом направлении он проделал значительную организационную работу. Статья посвящена данной актуальной проблеме, решение которой до сих пор ожидается.

Ключевые слова: археология, ученый, Ахмадали Аскаров, памятник Афрасиаб, город Самарканд, реставрация, музеефикация, музей под открытым небом, археологическая находка.

AHMADALI ASKAROV: INITIATOR OF THE IDEA OF PRESERVING THE AFRASIYAB MONUMENT AND TURNING IT INTO A MUSEUM UNDER THE BLUE SKY

Annotation: This article discusses the activities of the prominent Uzbek archaeologist, Academician Akhmadali Askarov, during his tenure as Director of the Samarkand Institute of Archaeology. During this period, he proposed the idea of studying the Afrasiab site, which embodies the ancient history of Samarkand, and transforming its excavated structures into an open-air museum. He carried out significant organizational work in this regard. The article is dedicated to this pressing issue, which still awaits resolution.

Key words: archaeology, scientist, Akhmadali Askarov, Afrasiab monument, Samarkand city, Restoration, museumification, open-Air museum, archaeological find.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Кириш (Introduction)

Буюк тарихда ҳеч нарса изсиз кетмайди. У халқларнинг қонида, тарихий хотирасида сақланади ва амалий ишларида намоён бўлади. Шунинг учун ҳам у қудратлидир. Тарихий меросни асраб-авайлаш, ўрганиш ва авлодлардан авлодларга қолдириш давлатимиз сиёсатининг энг муҳим устувор йўналишларидан биридир [1]. Ўзбекистонда археологик ёдгорликлар сони жиҳатидан кўп бўлганли билан дунёда энг олдинги ўринлардан бирини эгаллайди. Археологик ёдгорликларнинг кўплиги, ушбу ҳудудда юксак цивилизацияга эга халқлар яшаганлигидан, қадимий маданияти ниҳоятда юқори даражада бўлганлигидан далолат беради.

Ҳар қандай давлат тараққиёт сари интилар экан, доимо тарихга назар ташлаб, мавжуд урф-одатлар, анъаналар ва қадимий ёдгорликларни ўрганишга ва сақлашга интилиши табиий. Айниқса, бу борада музейларнинг ўрни беқиёсдир. Чунки музейлар ўтмишдан келган тарихий маданият, маърифат, табиат ёдгорликларининг яхлит тизимига солинган йиғиндиси бўлиб амалдаги қонун-қоидага мувофиқ равишда сақланади ва намойиш қилинади [2, – B. 17-18].

Музейлар тузилиши жиҳатидан икки хил бўлади. Очиқ турдаги музейлар ва ёпиқ музейлар. Дастлабки очиқ осмон остидаги музейлардан бири "Скансен" оролида жойлашган бўлиб у 1891 йилда Джург Дюркрден томонидан Стокгольмда (Швеция) очилган, унинг номи аксарият Европа тилларида этнографик музейларнинг номига айланди. Очиқ турдаги музейлар сирасига мамлакатимиздаги буюк тарихий шаҳарлар очиқ осмон остидаги ёдгорлик-архитектура меъморий иншоотлар киради. Бунга кўҳна Бухоро, Самарқанд, Хива, Шаҳрисабз, Қўқон, Тошкент ва бошқа шаҳарлардаги тарихий меъморий ёдгорликлар, археологик жойлар ва ўтмиш асрларидаги қадимий аҳоли яшаган манзилгоҳ қолдиқларини мисол қилиб кўрсатишимиз мумкин. Очиқ осмон остидаги музейларнинг ўзига хос томонларидан бири шундаки, улар майдони жиҳатидан турлича бўлади. Бундай турдаги музейларда айрим экспонатларни қўл билан ушлаш, ишлатиб кўриш имкониятининг мавжудлиги туристларга ўтмиш даври тўғрисидаги тасаввурларини янада яқинроқ ҳис қилиш имконини беради. Ушбу муассасалар тарихий ўтмиш ва замонавий дунё ўртасида кўприк бўлиб хизмат қилади.

Таҳлил ва натижалар (Analysis and results)

Археолог – олим ўз фаолияти давомида археологик ёдгорликларни музейлаштириш масалаларига ҳамда мавжуд музейларнинг археология фондини янги экспонатлар билан бойитиш борасида ҳам фаол ишларни олиб бормоқда. Музейлаштириш масалаларига олим 1970-йилларнинг ўрталаридан, Самарқанд Археология институти директори бўлиб фаолият олиб борган даврдан эътибор қаратган. Самарқанд шаҳри ҳудудидаги йирик ёдгорлик Афросиёб – археологик объектини очиқ осмон остидаги музейга айлантириш зарурлигини асослаб кўрсата олган. Бу ҳақида олимнинг шахсий архивида мавжуд бўлган ҳужжатларни ўрганиш жараёнида етарли ва асосли маълумотга эга бўлиш мумкин.

Йиллар давомида Самарқанд халқаро туризмнинг муҳим марказларидан бирига айланди. У нафақат сўнгги ўрта асрларнинг ноёб меъморий ёдгорликлари, балки дунёга машҳур – Афросиёб шаҳри (қадимий Самарқанд харобалари) билан ҳам машҳур.

1966 йилда қадимги Самарқанд-Афросиёбда VII аср ўрталарига тегишли Самарқанд (Smarakansa) ихшиди(подшоси) Вархуман саройининг топилиши, сарой деворий суратларини очилиши, ранг-баранг суратлар ичидаги персонажларнинг бирини кийими этагида, шу расмларни чизган мусаввир суратида қадимги суғдча ёзувнинг борлиги жаҳон илмий жамоатчилигининг эътиборини ўзига тортди. 1966 йил баҳорида

Афросиёбни кесиб ўтган Тошкент-Самарқанд магистрал йўлини тўғрилаш вақтида, С-80 маркали бўльдозер пичоғи ер остида кўмилиб ётган ранг-баранг деворий суратли монументал бино деворларини буза бошлайди. Бундан хабар топган археологлар академик Я.Ғ.Ғуломов бошчилигида Афросиёбда келиб, бузилган деворий суратлар милодий VII аср ўрталарига тегишли Самарқанд подшоларининг сарой қолдиқлари эканлигини аниқлашгач, янги йўл қурилиши тўхтатилиб, ушбу жой археологик қазишмалар майдонига айланди [14].

Афросиёб деворий суратлари хорижий сайёҳлар эътиборига тушиб, уларнинг Самарқандга кириб келиш оқими фавқулотда кўпайиб кетди. Ҳатто, 1966 йил 13 июлда (№370 рақами остида) Республика ҳукуматининг “Афросиёбда археологик илмий тадқиқотларни янада ривожлантириш тўғрисида” махсус қарори қабул қилинди. Шу қарорда Афросиёб “Давлат археологик қўриқхонаси” деб эълон қилинди [3, – Б. 47-52]. Афросиёб шаҳар ёдгорлигидан ҳозирги вақтда ҳукмдор саройи ва турар-жой – шаҳристон қисми сақланиб қолган.

Афросиёбни илмий жиҳатдан тадқиқ этишда дастлаб XIX аср охири -XX аср бошлари В.Л.Вяткин, кейинчалик, 1958 йилда ташкил этилган Самарқанд археологик экспедицияси фаолияти муҳим аҳамиятга эга бўлди. Хусусан, Самарқанд археологик экспедицияси томонидан шаҳарнинг пайдо бўлиши, шаклланиш ва ривожланиши тарихи, шаҳар фортификацияси, стратиграфияси, сув таъминоти, ҳунармандчилиги, ободончилиги ва шаҳарнинг атрофдаги қишлоқлар билан алоқалари кенг қамровли тадқиқ этилади. 1988 йилдан Афросиёбда ўзбек-француз халқаро қўшма экспедицияси иш бошлади. Жумладан, археологик қазишмалар жараёнида аниқланган моддий маданият намуналари шаҳарни бундан 2750 йил олдин пайдо бўлганлигини кўрсатди. 1965 йилда дунёга машҳур Вархуман саройи деворий суратлари топилган бўлса, 2000-2004 йилларда Қорахонийлар даврига оид деворий суратлар аниқланади. Ушбу деворий суратлар Сўғдиёна тасвирий санъатининг нақадар юксак бўлганлигини яққол кўрсатиб турибди [4, – В. 114-116].

XX асрнинг иккинчи ярмида қадимий Афросиёб харобаларидан, “Афросиёб” музейидан 150-200 метр ғарб томонда топилган сарой VII асрга оид деворий суратлар очилган. Саройнинг баъзи хонларидги деворлар бошдан-оёқ рангтасвир асарлари билан безатилган. Ўн уч аср ўтганлигига қарамай, сурат ранглари ва бўёқларининг равшанлиги кишини ҳайратга солади (деворий суратлар ҳозирги кунда “Афросиёб” музейи залларида намойиш этилмоқда). Бу саройнинг 11х11 м ҳажмдаги марказий зали жуда яхши сақланган. Бошқа хоналарнинг деворлари сингари залнинг деворлари ҳам пахсадан қурилган бўлиб, сомонли лой билан юпқа сувоқ қилинган, сўнг ганч билан сувалиб, сурат чизилган. Сақланиб қолган деворларнинг баландлиги 2-2,5 метрга тенг. Деворларнинг юқори қисми бузилиб кетган. 1985 йилдан бошлаб таъмирланган деворий суратлар кенг жамоатчиликка намойиш этилмоқда [5, – Б. 104-106].

Самарқанд вилояти раҳбарияти томонидан қадимги шаҳар – Афросиёбда очилган археологик объектларни “Мовий осмон остидаги музей”га айлантириш ғояси кўтарилди. Археология институти ушбу ғояни амалга ошириш йўлида қатор таклифлар илгари сурди. Аввало, қатор илмий ташкилий ва молиявий хўжалик масалаларни комплекс ҳал этиш, биринчи навбатда, Самарқандда Афросиёб ёдгорлиги қошида кучли илмий ишлаб чиқариш базасига эга бўлган махсус “Реставрация ва консервация институти”ни ташкил этиш масаласи кўтарилди; иккинчидан, ушбу институтга илмий ва амалий ишлар билан шуғулланувчи мавжуд мутахассисларни жалб қилиш ва юқори малакали кадрлар тайёрлаш; учинчидан, бўлажак институтнинг бевосита вазифаси қилиб, Самарқанддаги барча меъморий ёдгорликлар ва қазишмалар жараёнида

очиладиган археологик объектларни, археологик артефактларни, деворий суратлар ва қадимги қўлёзма асарларини таъмирлаш ва қотириш масаласи хал этиш зарурати мавжуд эди. Чунки, асоси ғалвирак хом лой, пахса ва хомғиштдан ташкил топган қурилиш материаллари ташқи таъсирга бардош бера олмайди, ҳатто монументал бинолар ҳам ҳаво намлиги таъсирида тез нурашга мойилдир [6, – Б. 12]. Шу боис, “Мовий осмон остидаги музей” объектларини сақлашда реставраторларнинг роли беқиёсдир. Демак, ёдгорликларни илмий реставрация қилиш усулларини кашф этмай туриб, Афросиёбда очилаётган объектларни кимёвий ва техникавий таъмирлаш ва қотириш, шунингдек, “Мовий осмон остидаги музей” яратиш мумкин эмаслиги қатьий қўйилди.

Ўтмиш тарихимиздан маълумки, қадимдан пишиқ ғиштлардан барпо этилган меъморий комплекслар қошида, уларни ҳолати билан мунтазам шуғулланувчи таъмирчи усталар сақлаш анъанага айланган. Бунинг учун ҳар бир монументал комплекснинг муайян ҳолатини сақлаб туриш учун улар қошида, уларга вақф мулклари ажратилган, таъмирчи усталар белгиланган, уларнинг ҳолати билан мунтазам шуғулланиш анъанага айланган. Акс ҳолда, уларнинг умрини узайтириш мумкин бўлмаган, деган тушинчалар берилди.

Самарқандда Археология институти яқинида Республика маданият вазирлигига қарашли архитектура ёдгорликларини таъмирлаш, ишлаб чиқариш устахонаси мавжуд. Ўзбекистон Фанлар академиясининг Археология институти таркибида эса, археологик объектларнинг кимёвий қотириш ва консервация қилиш методларини ишлаб чиқиш масалалари билан шуғулланувчи махсус бўлим ташкил этилган. Институт реставраторлари ғалвирак қурилиш материалларидан ишланган артефактларни кимёвий қотириш янги усулини ишлаб чиқади. Бу усул бир неча бор лаборатория шароитида, археологик объектларда синаб кўрилади. Масалан, Афросиёбнинг антик даврига оид мудофаа деворини қотиришда тажрибадан ўтказилган. Бронза даври ёдгорлиги Сополлитепада, антик давр ёдгорлиги Фаёзтепада ушбу метод кенг кўламда қўлланилиб, шу йўналишда илмий изланишлар олиб бориш мумкинлиги аниқланди.

Аммо Институтда бу борада изланишлар билан шуғулланаётган кичкина гуруҳ кучи билан кенг кўламда археологик объектларни қотириш ва очиқ осмон остидаги музейларга айлантириши мумкин эмас. Бу масала билан Республика ҳукумати даражасида шуғулланишни талаб этади. Бу эса таклиф этилаётган махсус реставрация ва консервация институтини ташкил этиш йўлидаги биринчи қадам бўлади [3, – Б. 83-89].

Жаҳонда моддий маданий мерос ёдгорликларини сақлаш, реставрация ва консервация қилиш, уларнинг эскириш жараёнини секинлаштириш, музейлаштириш ҳамда келгуси авлодга етказиш бугунги куннинг асосий муаммоларидан бўлиб келмоқда [7, – Б. 3].

1965-йил 26-февралда Афросиёб шаҳарчаси ҳудудидан йўл ўтказиш ишлари бошланади. Музей илмий ходимлари кўҳна тепаликдаги қурилиш ишларида археологик назоратни амалга оширадилар [8, – В. 13.; 9, – В. 13]. Натижада мўғуллар истилосига қадар бўлган даврдаги Самарқанд тарихига оид янги фактлар, қатор ноёб топилмалар қўлга киритилади. Улардан энг машҳури Афросиёб деворий суратлари эди.

Шаҳар чегаралари 145 гектардан ортиқ майдонни эгаллаган Афросиёб турар-жой манзилгоҳлари 1966 йилнинг июнь ойида Ўзбекистон Вазирлар кенгашининг “Афросиёб шаҳар ёдгорлигини тарихий-археологик жиҳатдан ўрганиш чора-тадбирлари ҳақида”ги қарори қабул қилинган [10, – В. 54-56]. Ушбу қарорга кўра, Афросиёб археологик қўриқхона, деб эълон қилинади ва у ерда археологияга тааллуқли

бўлмаган ишларни олиб бориш қатъий таъқиқланади. Археологик изланишлар олиб борилиб, ушбу тарихий шаҳарнинг чегараларини аниқлаш ва уни муҳофаза қилиш бўйича вазифалар белгиланган.

Фанлар академияси томонидан ишлаб чиқилган 1966 – 1970-йилларга мўлжалланган Афросиёб шаҳарчасида ўтказиладиган археологик тадқиқотлар режаси тасдиқланади. Очилган объектлар тадқиқ этиб бўлингач ва консервация ишлари якунланиши билан Ўзбекистон маданият вазирлиги моддий маданият ёдгорликларини муҳофаза қилиш бош бошқармасига топшириш белгиланади [9, – В. 72-73] .

Олиб борилган изланишлар ва амалий ишлар натижасида 1970-йилда Самарқанд шаҳри тарихини ёритувчи – Афросиёб музейи ташкил этилади. Афросиёб шаҳарчаси Аҳмадали Асқаров ташаббуси билан Самарқандда очилган Ўрта Осиёда ягона бўлган Археология институти ташкил этилган даврдан бошлаб, айниқса, 1974 йилдан қазиш ишлари марказида бўлиб келган. Ушбу ёдгорлик 200 гектардан катта ҳудудни эгаллаган бўлиб, ҳозирги кунгача археологлар томонидан кўплаб экспедициялар ўтказилган, аммо, ёдгорлик ҳудуди тарихий шаҳар сифатида муҳофазага олинмаган эди. Бу ерда музейнинг ташкил этилиши ёдгорликни давлат муҳофазасига олинишида ва қўриқланишида муҳим ўрин тутди.

Афросиёб ёдгорлиги ҳорижий мутахассисларни ҳам ўзига жалб қилган. Айниқса, мустақилликнинг дастлабки ўн йиллигида, 1996 – 1997 - йилларда Франция ва Италия олимлари билан ҳамкорликда Афросиёб деворий суратлари илмий жиҳатдан тадқиқ этилди [11, – В. 97]. Шу билан бирга, музей-қўриқхонанинг илмий архиви 1997-йилда Самарқанд вилоят архиви илмий-техник гуруҳи билан биргаликда рўйхатга олинди ҳамда 1982 - 1997-йилларга тегишли бўлган ҳужжатлар илмий муомалага киритилди [12, – В. 22].

Тадқиқотчи М.Юнусов ўз тадқиқотида Самарқанд давлат музей-қўриқхонаси таркибидаги Афросиёб музейи фондининг шаклланишига ҳисса қўшган археологларни келтириб ўтган. Улар қуйидагилар: Албаум Л.И., Аскаров.А.А., Анарбаев А.А., Ахроров И.А., Ахунбабаев Х.Г., Брусенко Л.Г., Дадабаев Г.Д., Жуков В.Д., Иваниский И.Д., Кабанов.С.К., Кривошей Р.И., Кулик М.М., Лебедева Т.И., Немсева Н.Б., Обелченко О. В., Пачос М.С., Саидов М.М., Тереножкин А.И., Тругер Е.Б., Фёдоров М.Н., Шишкин В.А., Шишкина Г.В [9, – В. 147].

А.Асқаров 1979 йилда Фанлар академияси Археология институтининг директори лавозимида ишлаган даврда Ўзбекистон КПнинг Марказий комитети биринчи котиби Ш.Р.Рашидовга, Ўзбекистон Коммутистик партияси Самарқанд виояти комитети биринчи котиби Б.Р.Рахимовга ҳамда ЎзССР Фанлар академияси президенти академик А.С.Содиқовга йўллаган ЭСЛАТМА мурожаатномасида қуйидагилар келтирилган. “Афросиёбдан 100 йилдан ортиқ вақт давомида қазиб олинган турли хил археологик материаллар мамлакатимиз ва хориждаги кўплаб музейларнинг экспозицияларини безаб турибди. Бироқ, Афросиёб қадимги аҳоли пунктлари қазиш пайтида биз ҳар йили бир қатор объектив сабабларга кўра музей залларида табиий муҳитда намойиш этилиши мумкин бўлмаган кўргазма объекти сифатида беқиёс катта аҳамиятга эга бўлган бошқа материалларни кашф этамиз. Бу даврни тавсифловчи ўзига хос тафсилотларга эга ноёб меъморий объектлар - сарой мажмуалари, турар - жойлар, ҳунармандчилик массивлари, жамоат ва диний мажмуалар - ибодатхоналар ва масжидлар, шаҳар истеҳкомининг излари, кўчалар, уйларнинг ички қисмлари, сопол печлар, ўчоқлар, тандир ва бошқалар. Афсуски, кўплаб намойиш қилиш учун қимматли комплекслар турли вақтларда очилади, улар ҳалокатли табиий омиллар таъсири остида аниқлигини аллақачон йўқотган. Уйлар, саройлар, жамоат, диний бинолар ва

устахоналарнинг ички тузилишининг кўплаб тафсилотлари йўқолган, деворларнинг ғиштлари вайрон қилинган ва талон-тарож қилинган. Шу сабабли, бир вақтнинг ўзида ушбу объектларни сақлаш масалаларини жиддий ҳал қилиш ва уларни очиқ осмон остидаги музей экспонатига айлантириш вақти келди" [6, – Б. 12].

Ушбу ғояни ишлаб чиқиш учун жиддий давлат ёндашуви зарур бўлиб, вазифа махсус илмий муассаса - кучли реставрация институтини яратиш билан боғлиқ кўплаб илмий, ташкилий, иқтисодий ва молиявий масалаларни ҳар томонлама ҳал қилишни талаб қилар эди. Ишлаб чиқариш базаси, барча турдаги маҳсулотларни: архитектура, археологик жойларни тиклаш, деворий расмлари, ноёб архив ҳужжатлари ва қадимий қўлёзмаларни сақлаш ва жамлаш учун зарур эди.

Бундай илмий ва ишлаб чиқариш муассасасини яратишнинг ҳаётий зарурати, қадимги даврларда қурилиш соҳасида лойдан (пахса, хом ғишт) кенг фойдаланилган. Улар тарихий ривожланишни ўрганишда муҳим бўлиб, афсуски, табиий ёғингарчиликларнинг ўзида улар ўз хусусиятларини йўқотади. Шунинг учун Афросиёб турар-жой мажмуасида очиқ осмон остидаги музей яратиш ғоясини амалга ошириш учун реставраторлар қатъий сўзга эга бўлиши муҳим. Биз аҳоли манзилининг очиқ объектларини тиклаш учун кимёвий ва муҳандислик сақлаш усулларини ишлаб чиқмасдан туриб, очиқ осмон остидаги музей яратиш ҳақида ўйлаш мумкин эмаслигини яхши биламиз [6, – Б. 12].

Ўзбекистонда 60 йиллар охирида бошланган археологик тадқиқотлар даврида қадимги кўҳна шаҳарларни ўша пайтда хом ғишт иншоотларни консервация қилишнинг самарали методлари мавжуд бўлмаган ва шу сабабли улардан кўпгинаси тупроқ билан кўмиб қўйилган эди. Масалан, Афросиёбдаги подшо Вархуманнинг сарой мажмуасини киритиш мумкин. Унинг тантаналар залида бутун жаҳонга машҳур бўлган VII аср нақшлари топилган. Қазиб олинган ва ўрганилган хоналарни кўмиб қўйиш амалиёти ҳозир ҳам кўп сонли ёдгорликларда мавжуд бўлиб, уларда ҳозир ҳам археологик қазилмалар олиб борилмоқда [13, – Б. 89].

Фанлар Академияси Археология институти реставраторлари олдига лой ва хом ғиштдан қурилган археологик объектларни консервация қилиш бўйича кимёвий методларни ишлаб чиқиш вазифаси қўйилган эди. Олиб борилган тадқиқотлар натижасида тажриба майдонларида консервантлар сифатида диизоцианатлар синфига мансуб мономерлар гуруҳи танланди [13, – Б. 90].

Афросиёбнинг антик давр турар-жой манзилида қадимий қалъа деворини сақлаб қолиш пайтида такрорий лаборатория синовлари ва далада янги усулни текшириш хом ашёни диизосиянатлар мономерлари билан маҳкамлашнинг яхши самара беришини кўрсатди. Ишлаб чиқилган усулни хом ғиштдан ва пахсадан қурилган меъморий объектларни сақлашда кенг фойдаланиш учун тавсия этилиши мумкин. Бироқ, институт реставраторларининг кичик гуруҳи томонидан кимёвий ва муҳандислик консервацияси бўйича кенг кўламли объектлардаги ишларни амалга оширишнинг имкони йўқ [6, – Б. 17].

Афросиёб ва республиканинг бошқа ёдгорликларида очиқ осмон остидаги музейни яратиш бўйича самарали иш олиб борадиган кучли ишлаб чиқариш базасига эга илмий-ишлаб чиқариш бирлашмаси ёки реставрация институтини яратиш учун қўшимча штат бўлинмалари ва тегишли моддий-техник база муҳим бўлиб, уларсиз ҳар қандай қимматли ғоя қоғозда қолади [3, – Б. 81-88].

Натижалар шуни кўрсатдики, ёдгорликларни сақлаш ва тиклаш фан ютуқларидан ажратилган ҳолда амалга оширилмайди. Шу кунгача Самарқанд махсус илмий реставрация устахонасида халқ ҳунармандлари тажрибасидан келиб чиқиб,

кўплаб амалий ишлар олиб борилди. Бироқ, реставрация ишларининг сифати республикада қадимги усталар даражасидан ҳам пастлигича қолмоқда. Замонавий илм-фан ва қурилиш технологиясининг имкониятлари реставрация ишларининг сифатини кескин ошириб, уларни асл даражасига яқинлаштириши мумкин [14].

А. Абдуразоқовнинг Афросиёб ранг тасвири ва уни музейлаштириш муаммолари ёритилган китобида [15, – Б. 136] деворий суратларни кимёвий услубда қайта тиклаш амалда қўлланилган чора-тадбирлари ишлаб чиқилган [7, – Б. 53].

Афросиёб деворий суратларининг ноёб намуналарини ўрганиш ва реставрация қилиш бўйича намунали ишлар амалга оширилди. Илмий изланишларда аниқланишича, нақшларнинг ҳолати ва уларни ясаш техникасини ҳисобга олган ҳолда, фрагментларга ишлов бериш учун сунъий сувоқларнинг янги таркиблари, иккиламчи бўёқ қатламларни ажратиш методлари ишлаб чиқилган. Шу билан бир вақтда қадимги усталар томонидан ишлатилган материаллар (сувоқ ва ганч қатламлари)нинг кимёвий таркибини ўрганиш ишлари олиб борилган. Фрагментларни консервация-реставрация қилишнинг энг мақбул усули материалларни тўғри танлай олишдир. Ушбу ёдгорликни бизгача етиб келган ҳолатида сақлаб қолиш гарови ҳисобланади ва унга йўқолган мустаҳкамликни бахш этиш имконини беради [16, – Б. 94].

Таъкидлаш керакки, Ўзбекистонда консервация ва реставрация қилиш соҳасида эътиборга сазовор бўлган бой тажриба мавжуд. Лекин, консервация қилиш ва кимёвий-технологик ўрганишда маълум муаммолар бор. Ҳозирги вақтда лабораторияларда бадиий маданият предметларини илмий реставрация қилиш учун зарур бўлган айрим таҳлил турларини амалга ошириш имкониятлари мавжуд эмас. Ушбу муаммоларни ҳал этишда хорижий ташкилотлар ва мутахассислар ёрдам бериб келмоқда. Ўзбекистон археологлари табиий фанлар ютуқларини археологияда қўллашда ҳар доим биринчилардан бўлган. Масалан, Барселона Университетининг кимёвий-технологик лабораторияси билан архиометрия ва геофизика дастури бўйича олиб борилган ишларни айтиш мумкин. Айниқса, Эски Термизда амалга оширилган геофизикавий тадқиқотлари қизиқарлидир. Мазкур ёдгорликдан археологик қазилмаларни бажармасдан антик дунё даврига мансуб алоҳида қурилмаларнинг тузилиши ҳақида қизиқарли маълумотларни олинган [13, – Б. 89]. Фикримизча, бундай технологияларни ривожлантириш келгусида ижобий натижаларга эришишда муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

Сўнгги йилларда олиб борилган илмий изланишларда ёдгорликларда аниқ фанлар усулларига асосланган замонавий ускуналар ёрдамида ажойиб кашфиётлар қўлга киритилмоқда. Бунга мисол қилиб, даврлаштириш, таркибларни аниқлаш ва тасвирларни 3D форматида расмга олиш соҳаларидаги усулларни келтириш мумкин. Ушбу билим ва воситалар ўтмишдаги меҳнат қуроллари ясаш технологиялари ва ҳунармандчилик тарихини тўғри талқин қилиш имконини беради [16, – Б. 15].

Археологик ва меъморий обидалар ва ёзув ёдгорликларини сақлаш ва тиклаш дастурларини илмий ишлаб чиқиш, зудлик билан кимёвий ва технологик тадқиқотлар ва табиатни муҳофаза қилиш бўлими жойлашган махсус илмий-ишлаб чиқариш бирлашмасини яратиш билан боғлиқ кўплаб илмий, ташкилий, иқтисодий ва молиявий масалаларни ҳар томонлама ҳал қилишни талаб қилади. Афросиёб ва республиканинг бошқа ёдгорликларида очиқ осмон остидаги музейни яратиш бўйича самарали иш олиб борадиган кучли ишлаб чиқариш базасига эга илмий-ишлаб чиқариш бирлашмаси ёки реставрация институтини яратиш учун қўшимча штат бўлинмалари ва тегишли моддий-техник база зарурлиги таъкидланган. Ҳатто, олим раҳбарлигидаги ишчи гуруҳ

томонидан “Афросиёбда очиқ осмон остидаги музей яратиш”асосномаси ҳам ишлаб чиқилган.

Афсуски, XX асрнинг 70 йилларида А.Асқаров бошчилигида кўтарилган Афросиёб ёдгорлигини очиқ осмон остидаги музейга айлантириш масаласи шунча ҳаракат ва мурожаатлар бўлишига қарамасдан халигача амалга оширилмай келмоқда. 200 гектардан ортиқ майдонга эга ушбу кўп қатламли ёдгорликнинг ҳеч бўлмаганда маълум бир қисми, бир аҳоли манзилини очиқ осмон остидаги музейга айлантиришнинг ўзи бу ёдгорликка эътиборни кучайишига, туристлар оқимининг кўпайишига, шу билан бирга бир муҳим ёдгорликнинг маълум бир қисмини бўлсада музейлаштириб, сақланиб қолишига сабаб бўлган бўлар эди.

Аҳмадали Асқаров ўтган асрнинг 70-йилларининг охирларидан юқорида айтиб ўтилган ишлаб чиқариш базасига эга бўлган илмий муассасани яратиш ғояси билан чиққанлиги олимнинг маданий меросни сақлаш борасидаги алоҳида жасорати, деб айтиш мумкин. Бунинг учун махсус реставрация илмий марказлари ва мутахассисларини тайёрлаш зарурлигини тўғри таъкидлаб ўтган. Чунки, бугунги кунда ҳам археологик объектларни сақлаб қолиш, уларнинг энг муҳимларини очиқ осмон остидаги музейга айлантириш, реставраторлар илмий марказини яратиш масалалари долзарблигича қолмоқда. Бундан деярли ярим аср олдин олим томонидан кўтарилган ушбу тарихни сақлаб қолиш билан боғлиқ бўлган ўта жиддий иккита масала ҳозиргача амалга оширилиши кечикаётган муаммолигича қолмоқда. Ёдгорликларни юқори сифатда тиклаш ва консервация қилиш тегишли мутахассисларнинг илмий усулларини доимий равишда такомиллаштиришга, халқаро тажрибаларни кузатиб бориш ва амалий синовдан ўтказиб бориш зарурлигини тақазо этади.

Хулоса ва таклифлар (Conclusion/Recommendations)

Хулоса қилиб айтганда, тарихий-маданий ёдгорликларни музейлаштирилган, қисман музейлаштирилган ва музейлаштириш зарур бўлган объектларга ажратиш, археологик ёдгорликлар таснифлаш ҳамда музейлаштириш услублари ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқдир. Тарихий маданий ёдгорликларни музейлаштириш, сақлаш ва таъмирлаш усуллари хилма-хилдир. Янги технологияларнинг жадаллик билан ҳар бир соҳага, шу жумладан маданий мерос объектларини сақлаш ва консервация қилишда фойдаланиш ижобий самара бериши тасдиқланмоқда. Энг муҳими, тарихий объектларнинг асл ҳолатини иложи борича узоқ муддатга сақлаш ва намойиш этишдир. Бундай амалиётлар маданий меросини асраб-авайлашда жуда аҳамиятлидир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати (References)

1. Шавкат Мирзиёевнинг Ислом ҳамкорлик ташкилоти Ташқи ишлар вазирлари кенгашининг 43-сессиясидаги нутқидан, 2016 йил.
2. Toshboyev F.E. Muzeyshunoslik. Toshkent. “Mahmud Az-Zamaxshariy”. 2023. – B. 17-18.
3. Асқаров А. Меҳнат ва курашда тобланган ҳаёт йўлларим. Тошкент, “Donishmand ziyosi”. 2024. – Б. 47-52.
4. Сирочева Г. Афросиёб – Самарқанднинг энг қадимий ёдгорлиги // «Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. 2022. – B. 114-116.

5. Мустафокулов С., Аҳмедов Ж. Афросиёб музейининг деворий суратлари ҳақида // “Моддий-маънавий мерос ва умумбашарий қадриятлар” Республика илмий-амалий конференцияси. – Тошкент, 2015. – Б. 104-106.
6. Академик А. Асқаров шахсий архиви. Афросиёбни очиқ осмон остидаги музейга айлантириш масаласи. 21.02. 1979. – Б. 12.
7. Курязова Д.Т. Ўзбекистон моддий маданий меросини ўрганиш, сақлаш ва музейлаштиришнинг назарий методологик асослари // тарих фанлари доктори диссертацияси. Тошкент, 2021. – Б. 3.
8. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi ilmiy arxivi, 1-jamga’arma, 1-ro‘yxat, 1955-jild, – B.13.
9. Yunusov M. Samarqandda muzey ishi: shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va muzeylashtirish tamoyillari (XIX asrning oxiri –XXI asr boshi) // Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. Toshkent, 2023. – B.72.
10. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi ilmiy arxivi, 1-jamga’arma, 1-ro‘yxat, 1517-jild, – B. 54-56.
11. O‘zMA, M-7 jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 548-yig‘ma jild. – B. 97.
12. O‘zMA, M-7 jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 547-yig‘ma jild, – B. 22.
13. Аҳмедов Ж. Фарғона водийсидаги тарихий-маданий ёдгорликларни музейлаштириш (XIX-XXI асрлар) // тарих фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси. Тошкент, 2020. – Б. 89.
14. Аҳмадали Асқаров билан “Археологик объектларни сақлаб қолиш масаласи” мавзусида олиб борилган ижодий сухбат. 2017 йил. 22 февраль.
15. Абдуразаков А. А. Живопись Афрасияба и проблемы ее музеефикации. – Ташкент, Фан. 1994. – С. 136.
16. Аҳмедов Ж. Ўзбекистонда археологик ёдгорликларни сақлаш муаммолари // “Фарғона водийси тарихининг долзарб муаммолари” мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуман материаллари. Наманган, 2022. – Б. 15.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Muxamedova Munisa Sabirovna
Doctor of Philosophy (PhD) in History, Professor
National Institute of Arts and Design named after Kamoliddin Behzod
munisa.muhamedova@mail.ru
https://orcid.org/0000-0002-7574-9724

Published under peer review:
Doctor of Sciences in History (DSc),
Professor, Ismailova Jannat Khamidovna

Received 30th January 2025, Accepted 11th February 2025, Online 28th February 2025

PRINCIPLES OF DEVELOPMENT OF SOCIAL AND COMMUNICATIVE FUNCTIONS OF MUSEUMS IN UZBEKISTAN (on the example of the 60s of the xx century)

Abstract. This article explores the socio-communicative improvement of museums in Uzbekistan in the 1960s, focusing on the activities of local history museums, based on the state of excursions, exhibitions, and scientific research work. In particular, the study analyzes the traveling exhibitions organized in the museums of Bukhara, Namangan, Khorezm, Samarkand, and other regions. Additionally, the article identifies certain shortcomings in the activities of museums in the 1960s-1970s, including issues related to the training of qualified specialists and the lack of a developed documentation system for the design of museum exhibits.

Keywords: social and communicative functions, local history museums, excursions, exhibitions and scientific research work, scientific passports of museums, exhibition pavilions, labeling.

O‘ZBEKISTON MUZEYLARI IJTIMOIY-KOMMUNIKATIV FUNKSIYALARINING RIVOJLANISH TAMOYILLARI (XX asrning 60-yillari misolida)

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston muzeylarining 1960-yillardagi ijtimoiy-kommunikativ takomillashuvi o‘lkashunoslik muzeylari faoliyati misolida ekskursiya, ko‘rgazmalar va ilmiy tadqiqot ishlari holati asosida tadqiq etilgan. Jumladan, Buxoro, Namangan, Xorazm, Samarqand va boshqa hududlardagi muzeylarda tashkil etilgan ko‘chma ko‘rgazmalar tahlil etilgan.
Shuningdek, 1960-70-yillardagi muzey faoliyatidagi ayrim kamchiliklar mutaxassis kadrlar tayyorlashdagi muammolar, muzey ashyolarini rasmiylashtirishdagi eksponatlarga nisbatan mukammal hujjatlashtirish tizimining ishlab chiqilmaganligi ham asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-kommunikativ funksiyalar, o‘lkashunoslik muzeylari, eksursiya, ko‘rgazmalar va ilmiy tadqiqot ishlari, muzey ilmiy pasportlari, ekspozitsion pavilonlar, etiketaj.

ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНО-КОММУНИКАТИВНЫХ ФУНКЦИЙ МУЗЕЕВ УЗБЕКИСТАНА (на примере 60-х годов xx века)

Аннотация. В данной стате исследуется социально-коммуникативное совершенствование музеев Узбекистана в 1960-х годах на примере деятелности краеведческих музеев, основываяс на состоянии экскурсий, выставок и научно-исследователских работ. В частности, проведен анализ передвижных выставок, организованных в музеях Бухары, Намангана, Хорезма, Самарканда и других регионов. Кроме того, обоснованы некоторые недостатки в деятелности музеев 1960–1970-х годов, включая проблемы подготовки квалифицированных специалистов и отсутствие разработанной системы документatsii по оформлению музейных экспонатов.

Ключевые слова: социально-коммуникативные функции, краеведческие музеи, экскурсии, выставки и научно-исследовательская работа, научные паспорта музеев, экспозиционные павильоны, этикетаж.

Kirish. 1950-yillarning ikkinchi yarmi – 1960-yillarning boshigacha bo‘lgan qisqa davr sobiq Ittifoq va respublikalar madaniyati tarixida «iliqlik» davri deb atala boshladi. Bu jarayonda

ijtimoiy hayot va madaniy jarayonlarda bir muncha o‘zgarishlar kuzatildi, jiddiy nazorat holatlari kamaydi. O‘zbekistonda ham madaniy jarayonlar takomillashuvida erkinliklar berilishi, sotsializmni mustahkamlashga ko‘maklashishni ijodiy kuchlarni faollashtirish maqsadini ko‘zlagani ma’lum bo‘ldi. Ushbu qisqa imkoniyat, erkin nafas olish madaniy hayotni sezilarli jonlantirdi. Jumladan, muzey ishida tabiat va madaniy merosni asrash muammolariga e’tibor kuchaydi. Ushbu yillarda jamoa muzeylarining umumiy soni o‘sib, dastlabki muzey qo‘riqxonalar yaratildi. O‘lkashunoslik, tarixiy, badiiy muzeylar tizimini yaratishga faol kirishildi.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbekiston muzeylarining bu davrga oid faoliyati bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar asosan siyosiy-g‘oyaviy targ‘ibot jarayonlari misolida tadqiq etilgan. Bu borada, L.M.Landa va Yu.I.Glassning hamda X.Sodiqova, Yu.Glass, Ye.Soylar tayyorlagan yo‘l ko‘rsatkichlari ilmiy-ommabop nashrlar hisoblanib, ularda o‘sha davrda tashrifchilar uchun muhim ahamiyat kasb etgan markaziy O‘zbekiston muzeylari ekspozitsiyalarining umumiy holati tahlil etilgan [1]. Shuningdek, O‘zbekiston muzeyshunosligiga oid tadqiqotlar orasida N.Sodiqovaning asarlari alohida ajralib turadi [2,5,6,7,8,9.]. Ulardagi davr talabiga ko‘ra kiritilgan mafkuraviy jihatlarni hisobga olmaganda, O‘zbekistonda muzey ishining deyarli bir asr davomidagi taraqqiyoti, yutuqlari va muammolari atroflicha o‘rganilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Milliy arxividagi Madaniyat vazirligi Muzeylar Boshqarmasi faoliyatiga oid yig‘majildlarda keltirilgan faktologik ma’lumotlarni muallif tomonidan ilmiy muomilaga kiritilishi, ushbu davr muzeylar faoliyatini batafsil o‘rganishda muhim manbaa bo‘lib xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. 1961-yil Butunittifoq hududi bo‘yicha 929 ta muzey davlat muzeylari ro‘yxatga olingan bo‘lib, ulardan - tarixiy revolyusion – 35 ta, o‘lkashunolik - 431 ta, tarixiy – 89 ta, badiiy, teatr va musiqa muzeylari – 179 ta, tabiiy ilmiy muzeylar – 39 ta, korporativ va boshqa turdagi muzeylar – 29 ta ekanligi keltirib o‘tilgan. Bulardan Rossiya – 492 ta, Ukraina – 132 ta, Gruziya SSSR – 68 ta, Litviya – 38 ta, Belorus – 38 ta, Estoniya – 31 ta, Qozog‘iston – 25 ta, Latviya – 24 ta, Armanitson – 22 ta, Ozarbayjon – 18 ta, Uzbekiston – 17 ta, Moldaviya – 12 ta, Qirg‘iziston – 7 ta, Turkmaniston – 4 ta, Tojikiston – 4 ta. Ulardan 758 tasi SSSR Madaniyat ministrligi tizimida va 171 tasi SSSR Fanlar Akademiyasi tizimida edi. Muzey fondlarida umumiy hisobda 26 mln. eksponatlar saqlangan[8]. Davlat muzeylarida 14 ming kishi faoliyat olib borgan bo‘lib, ulardan faqatgina 5 mingtasi ilmiy xodimlar bo‘lgan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra Butuniitifoq muzeylar bo‘yicha 50 mln. kishi tashrifi qayd etilgan. Ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etilishi nuqtai nazaridan Gruziya muzeylari (12 ta monografiya) yetakchi sanalgan. Ularning orasida Tretyakov galereyasi, A.S.Pushkin nomidagi Tasviriy san’at muzeyi, Davlat Ermitaji, Politexnika muzeyi va O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyi ham qayd etib o‘tilgan. Shuningdek, maxsus muzey nashrlarini yetishmasligi 1940-yilgacha nashr etilgan “Sovetskiy muzey” jurnali faoliyatini yo‘lga qo‘yish taklifi berib o‘tildi. Tretyakov galereyasi va A.S.Pushkin nomidagi Tasviriy san’at muzeyida 1949–1952-yillarda kichik bosmaxonalar ochilgan bo‘lib, ular ham noma’lum sabablarga ko‘ra 1953-yilda likvidatsiya qilingan edi.

O‘zbekiston muzeylarida 1960-yilda muzeyga tomoshabinlar tashrifi 122 724 tani tashkil etgan bo‘lib, 1959-yilga nisbatan 12 ming kishidan ortiq bo‘lgan.Ulardan eng ko‘p tashrif Buxoro hududiga to‘g‘ri kelib, Ark ekspozitsiyasi bo‘ylab – 78 012 kishi, Moxi Xosa – 25 963 ta, Zindon ekspozitsiyasi bo‘yicha – 18 749 ta tomoshabin tashrifi qayd etildi.

Namangan viloyat o‘lkashunoslik muzeyi faoliyati 1969-yillar oxiriga kelib, Farg‘ona vodiysidagi eng rivojlangan muzeylar qatoriga kirdi. 1970-yillardagi taqdim etilgan statistik ma’lumotlarga ko‘ra o‘rtacha 1 yillik ko‘rinishda 75 000 tamoshabinga 350 ta ekskursiya tashkil etildi. Bu ko‘rsatgich 1968-1969-yillar oralig‘ida 81 467 ta tamoshabinga 252ta ekskursiya tashkil etilgan edi[12. 204-217v.]. Ko‘chma ko‘rgazmalar tashkil etilishida esa Namangan rayoni tumanlari bo‘yicha 20 kunlik turlar tashkil etilgan bo‘lib, 19 308 kishiga 333 ta ekskursiya tashkil etildi. Viloyatda 4 ta xalq muzeylari tashkil etilib, Chustda Sverdlov kolxozida, Kuybishev va

Yangiqo‘rg‘on rayonlarida 3 ta bo‘limdan iborat ekspozitsiyalar tashkil etildi (Sovet davri bo‘limi: O‘rta Osiyoda ishchilar sinfini paydo bo‘lishi va rivojlanishi, Revolyusiyagacha qadar tarixiy davr bo‘limi: Feodallik va arab bosqinchilari, Tasviriy san’at bo‘limlari)[13,15v.]. Muzey ilmiy xodimlari Fayoztepa va Sopollitepa hududlarida UzSSR Fanlar Akademiyasi ilmiy tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda arxeologik ekspeditsiyalarda faol ishtirok etishdi. Topilgan arxeologik materiallar institut xodimlari tomonidan ilmiy tadqiq etilganidan so‘ng, qisman muzey ekspozitsiyasiga ham taqdim etildi[13,16v.]. Chekka joylardagi qishloq aholisiga tashkil etilgan ko‘chma ko‘rgazmalarda 86 000 tamoshabin tashrifi qayd etilgan. Yil davomida umumiy asosda 104 ta umumiy va 126 ta tematik asosda 230 ta ekskursiya tashkil etildi.

Muzey zallarida olib borilgan ekskursiyalardan tashqari mahalliy hududning tarixiy joylariga ham 37 ta ekskursiya tashkil etilgan edi [13,32-33v]. 1969-yil muzeyda quyidagi ko‘chma ko‘rgazmalar tashkil etilgan:

1. “Samarqandning me’moriy yodgorliklari” N. V. Golubesning rang tasvir asarlari bo‘yicha;
2. Sadriddin Ayniyning hayoti va faoliyati
3. O‘zbek ayollarining kommunistik qurilishdagi faoliyati
4. Samarqand me’moriy yodgorliklari fotoko‘rgazmasi.

Bu ko‘rgazmalarga jami 21 183 tamoshabin tashrif buyurdi [13,33 v.].

Tashkil etilayotgan ekspozitsiyalarda barcha bo‘limlar ko‘rsatib berilmagan edi. O‘zbek mumtoz adabiyoti namoyondalari Nodira, Uvaysiy, Zebiniso, Muqimiylarning ijodi mavjud emas edi. Sovet madaniyati bo‘limida urushgacha bo‘lgan me’morchilik va shaharsozlik ko‘rsatilmagan, ilm, madaniyat va Toshkent shahrining me’morchiligi to‘liq ochib berilmaganligi ham tanqid ostiga olindi. Ekspozitsiyaning yutuqlaridan biri esa tomoshabinlar e’tiborini jalb etgan II Jahon urushigacha bo‘lgan O‘zbekiston san’ati ustalari Uyg‘ur, Qori Yoqub, Lutfulla, Xojaev, Narzullaev va boshqa hunarmandlar ijod namunalari yaqqol tasvirlangan edi [13,38 v.]. Adabiyot bo‘limida urushgacha bo‘lgan davr: Uyg‘un, Oydin, Oybek, Hamid Olimjon, Komil Yashin, G‘ofur G‘ulom va boshqalarning ijodi namoyish etilmadi. Ayrim eksponatlarda ashyolarni ko‘rsatuvchi etiketajlari mavjud emas. Ommaviy ishlarda xujjatlashtirish ishlari olib borilmagan. Ko‘chma ko‘rgazmalarning hisoboti, xujjjatlashtirish ishlari va qishloq joylarda o‘tkazilgan ko‘chma ko‘rgazmalarda tashrifchilarning soni ham hisoblab o‘tilmagan, ko‘rgazmalarning mavzuli ekskursiyalari ham yaratilmagan edi [13,39v.].

Yuqoridagi faktlarga qaraganda bir qancha o‘tkazilgan ko‘rgazmalarda va ekspozitsiyalarda ham yaxshi ishlar olib borilgan bo‘lishiga qaramay, tajribaga ega bo‘lgan mutaxassis va xodimlarning yetishmovchiligi sabab bo‘ldi.

Xorijiy mamlakatlardan esa 437 kishi qayd etilgan va 51 ta ekskursiya zayavkasi qabul qilingan [13,40v.]. Muzeydagi lektorlik guruhi tomonidan 8 xil mavzuda ma’ruzalar tayyorlandi – Buxoro tarixi ocherkidan, Buxoro yetti yillikda, Islom dini haqida va boshqalar. Muzey lektoriyalarida 2262 kishiga 28 ta leksiyalar o‘qildi. 1960 yildan boshlab 2 ta o‘lkashunoslik to‘garagi tashkil etilgan bo‘lib, 30 ta o‘quvchi tinglovchilar birlashtirdi va ularning ijodiy ishlari asosida ko‘rgazmalar tashkil etildi.

1961-yilda esa muzeyning barcha filiallari bo‘yicha 125 000 belgilangan yillik reja o‘rniga 139 178 ta tomoshabin tashrifi qayd etilib yillik reja 111% bajarildi. 1961-yilda sobiq sovet respublikalari va kapitalik davlatlardan 485 kishi tashrifi qayd etildi va ulardan ekskursiya uchun 50 ta zayavka kelib tushgan edi.

Muzey faoliyatida bir qancha kamchiliklar bo‘yicha muzey direktori Axror Maxmudovning o‘z hisobotining xulosa qismida ham ma’lumotlar keltirib o‘tadi [14,5v.]. Bu borada muzeyning putevoditeli ishlab chiqilmaganligi, xalq amaliy san’atiga doir ekspozitsiya tematik ekspozitsion plani yaratilmaganligi, muzeyda etnograf va rassom bezakchi mutaxassislari mavjud emasligi

keltirib o‘tilgan. Muzeyda fotomateriallar, badiiy bezak uchun xom ashyo yetishmasligi xam ekspozitsiya muhitini jonlantira olmasdi.

O‘zSSR Madaniyat ministrligining 1962-yil 19-martdagi № 76-sonli buyrug‘iga asosan Bolohovuz masjidi ham Buxoro-tarixiy o‘lkashunoslik muzeyi ekspozitsiya maydoniga moslashtirildi. U yerda muzeyning ko‘rgazma zali tashkil etilib, Buxoro mahalliy rassomlar ko‘rgazmasi”, “Ateistik ko‘rgazma” va “Buxoro yetti yillikda” ekspozitsiyalari tashkil etildi[14,6v]. Shuningdek bu yerda ko‘chma ko‘rgazmalar ham o‘tkazila boshladi unda Tojikiston tarix muzeyi, O‘zbekiston davlat san’at muzeyi, O‘zbekiston Madaniyat Ministrligi ko‘rgazma va panoramalar direksiyasi tomonidan xalq amaliy san’ati va etnografiyasiga doir ko‘rgazmalar tashkil etildi.

Xorijiy tomoshabinlarning muzeyda tashkil etilgan tomoshabinlar tashrifi kitobiga ekspozitsiyani boyitish fikrlarini inobatga olgan holda tarix bo‘limi tomonidan “Buxoro qo‘g‘irchoq teatri” ekspozitsiyasi tashkil etilib, unda tomoshalarga doir noyob fotosuratlar, teatr rekvizitlari va qisman turistlar uchun tomoshalar tashkil etila boshladi. Regxona hududida esa Buxoro amirining ma’muriy boshqaruvi va kotibiyatiga doir inter’er yaratildi [15,26 v.]. Shuningdek ekspozitsiyaning tugallanish qismida to‘quvchi hunarmand manekeni ham joylashtirildi. Ekspozitsiyalar yangilanishida “Buxoro amirligida irrigatsiya tizimi”, “Ayollarning maishiy hayoti”, Buxoro amirligida maktablar kabi tematik ekspozitsiyalar ishlab chiqildi. Zindon, Salomxona va Jomiy masjididagi ekspozitsiyasidagi mavjud ashyolarning annotatsiyasi va etikitejlari rassom bezakchi M. Aronov tomonidan yangilandi.

1962-yilda esa Buxoro muzeyining barcha filiallari bo‘yicha 136 629 kishi tashrifi qayd etilgan bo‘lib, yillik reja bo‘yicha 130 ming kishi ko‘p tomoshabin tashrif buyurgan. Xorijiy tomoshabinlar soni 248 kishi tashrif buyurgan bo‘lib, 40 zayavka qabul qilingan. Bu yilda o‘tgan davrga nisbatan ekskursiyalar sonining kamayishi muzeyda shtatlar soni va fond inventirazatsiyasi jarayoni bilan bog‘liq edi. Rus va fransuz tillarida namunali ekskursiya olib boruvchi ilmiy xodim T. Kagarmanov ham ikki oy mobaynida fond oldi berdisiga jalb etildi. Sababi muzeyda uzoq yillar etnograf va numizmat shtati kiritilmaganli sababli muzey fondlaridagi yig‘ilgan 60% ashyoning ilmiy pasporti yaratilmagan va muzeylashtirilmagan edi. Maxalliy tomoshabinlarga esa atigi 44 ta tematik ekskursiyalar o‘tilgan bo‘lib, ularda 1025 kishi ishtirok etdi [14,16 v.]. Shu yili muzeyga bitta agitmashina sifatida yuk mashinasi ajartilib, 14 viloyat kolxozlarida ilmiy xodim Axmad Qosimzoda tomonidan ko‘chma ko‘rgazmalar tashkil etildi. Buxoro shahrining ishlab chiqish korxonalarida Buxoro ipakchilik fabrikasi, Buxoro korako‘l zavodi Kirov nomidagi madaniyat istirohat dam olish bog‘ida, kolxoz va sovxozlarda ilmiy xodimlar A.Revazov va F.Radjapovlar tomonidan 78 ta ma’ruzalar olib borildi.

1963- yilda esa xorijiy turistlar uchun ishlab chiqilgan sayyohlik marshrutiga kiritilgan Buxoro oblast tarix-o‘lkani o‘rganish muzeyi xodimlari tomonidan “Mehnat shuhrati muzeyi” ni tashkil etildi. “Oktyabr X yilligi” pillakashlik fabrikasida tashkil etilgan ushbu muzeyni tashkil etishda fabrika ma’muriyati, kasaba soyuz tashkiloti va ishchilar kollektivi ishtirok etdi. Atlas, shoyi, duxoba bilan bezatilgan katta ekspozitsion zalda fabrika tarixiga doir hujjatlar, diagrammalar namoyishga qo‘yilgan edi. Tarixiy yetti yillikka oid fabrika kollektivining yutuqlari, ramziy “mehnat g‘alabalari” ekskursiya davomida xorijiy turistlarga namoyish qilina boshladi [16].

1962-1963-yillarda O‘zbekistonda muzey ishiga jiddiy e’tibor qaratildi. O‘zbekiston SSSR madaniyat ministrligi sistemasida o‘n to‘rt, Fanlar Akademiyasi va “Bilim” jamiyatiga qarashli yana to‘rtta muzey tomoshabinlarga xizmat qildi. Sovet davridagi voqealarga doir hujjatlarni to‘plash va ko‘rgazmaga qo‘yishga e’tibor kuchaytirildi. 1962-1963-yilda respublikamizda o‘lkashunoslik va tarix muzeylari 20 450 eksponat – asl hujjatlar to‘plagan bo‘lsalar, shulardan 4670 tasi Sovet davrini tasvirlar edi. Toshkentdagi yirik muzeylar kabi Samarqand, Buxoro, Namangan, Xorazm va Chirchiq muzeylar to‘plagan materiallar asosida ko‘chma ko‘rgazmalar taqdim eta boshladi [4]. Respublikadagi muzey ishlarini rivojlantirishda Samarqand shahri

Respublika madaniyat va san’at muzeyi xodimi G.Upfal, Surxondaryo tarix o‘lkashunoslik muzeyi direktori R.Fayozov, Namangan shahar o‘lkashunoslik muzeyi direktori N. Ahmedov, O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyi ilmiy kotibi Yu.Buryakov, Xorazm oblast tarix-revolyusiya muzeyi direktori S.Yusupov, Respublika tabiat muzeyi xodimi V.Kurbatovlar o‘sha davr siyosatiga xos bo‘lgan “mehnat va revolyusiya traditsiyalarini” propaganda qilishda faol ishtirok etdilar [17,2v.].

O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi tizimda Toshkent va Qo‘qon shaharlaridagi A.S.Pushkin nomidagi Adabiyot muzeyi, Hamza nomidagi Adabiyot muzeyi, Nukus shahridagi Qoraqalpog‘iston ASSR o‘lkashunoslik muzeyi (Nukus shahrida) [18,73] kiritilgan edi. Ushbu muzeylarda tashrifchilar bilan ishlashda bir qancha ishlar amalga oshirildi. Namangan, Xorazm va Buxoro o‘lkashunoslik muzeylarida doimiy lektoriylar faoliyat olib bordi. Yakshanba o‘qishlari tashkil etildi [18,68v.]. 1962-63-yillar oralig‘idagi mavjud muzeylarda 500 dan ortiq leksiyalar tashkil etildi. Ulardan 200 tasi muzeyda o‘tkazilgan bo‘lsa, 300 dan ortig‘i esa ko‘chma leksiyalar edi. Ekskursiya mavzulari tematikasi quyidagilardan iborat edi: “Buxoro tarixi”, “Buxoro yettiyilikda”, “Chirchik tarixi”, “Namanganning o‘tmishi, buguni va kelajagi”, “Samarqand shahri tarixi”, “Farg‘onaning tarixiy o‘tmishi”, “Farg‘ona vodiysining geografik xarakteristkasi”, “Chirchiq xududining o‘simlik va hayvonot olami”[18,68v]. Lekin shu bilan birga xar bir muzey ilmiy-ateistik propaganda mavzularida ekskursiya loyihalarini ishlab chiqdi. Ulardan, “Islom dinining reaksion xususiyatlari”, “Erda hayotning paydo bo‘lishi”, “Eski urf odatlar”. Xorazm muzeyi tomonidan individual ekskursiyalar tashkil etish ham yo‘lga qo‘yildi.

Atetistik bilimlar targ‘ibotida Xorazm muzeyi yaxshi ishlar olib bordi. Paxlavon Maxmud maqbarasida Ateizm muzeyi ochildi. Bu yerda dinga qarshi maxsus ekspozitsiyalar tashkil etildi. 1963 yilda Namangan shahrida ham Xo‘jamin kabri maqbarasida ham ilmiy ateistik filial tashkil etildi.

Chirchik o‘lkashunoslik muzeyida esa respublika planetariysi filiali ochildi. Bu yerda tabiiy fanlar bo‘yicha leksiyalar tashkil etildi, diafilmlar namoyishiga yo‘lga qo‘yildi. Leksiyalar targ‘ibotida Buxoro va Andijon o‘lkashunoslik muzeylarida katta kamchiliklar kuzatildi. Ushbu muzeylarda sovet davri yutuqlari bo‘yicha birorta ham tematik mavzulardagi ekskursiyalar olib borilmagan edi. 1962-1963 yillar mobaynida O‘zbekiston muzeylari bo‘yicha 50 dan ko‘rgazmalar tashkil etgan ulardan 38 tasi ko‘chma ko‘rgazma sifatida tashkil etilgan. Shularning 13 tasi Xorazm muzeyi tomonidan tashkil etilgan. 1960 -1965 yillar yakuniga kelib muzeylarga 3 mln tomoshabin tashrifi qayd etilgan bo‘lib, ularning orasida ko‘rgazmalarda 806 ming kishi, ekskursiyadarda 470 ming kishi, muzey lektoriylarida 117 ming kishi tashrifi ham keltirib o‘tilgan [19,7 v.].

Ayniqsa shu davrdagi vaqtli matbuot nashrlarida, Nukus shahridagi o‘lkashunoslik muzeyida tashkil etilgan O‘zbekiston rassomlari va grafiklari asarlarining ko‘chma ko‘rgazmasi eng ko‘p tomoshabin tashrifi qayd etilgan ko‘rgazma sifatida qayd etildi. Ko‘rgazmada respublika rassomlarining yuzdan ortiq asarlari qo‘yilgan qo‘yilgan bo‘lib, ulardan O‘zbekiston SSR xalq rassomi A.Tatevosyanning “Qovun sotish”, respublikada xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi Z.Kovalevskayaning “Urgutda”, A.Abdullaevning “Student” kabi polotnolari tomoshabinlarda zo‘r taassurot qoldirdi [3]. Yosh rassomlar Yu.Elizarov, R.Axmedov, T. Oganesov, M. Nabiev, K. Eminovlarning o‘zbek xalqining mazmundor hayoti, go‘zal tabiatini aks ettirilgan asarlari ham tomoshabinlarda katta qiziqish o‘yg‘otdi.

1961-yildan boshlab, Respublika san’at muzeyida “Tasviriy san’at asoslari” mavzuda lektoriy tashkil qilinib uning yil ish rejalari va ma’ruzalar nomi “Qizil O‘zbekiston” gazetasining “E’lonlar” ruknida nashr ettirib turdi. Lektoriyda “Tasviriy san’atning turlari va janrlari”, “Rasmga qanday munosabatda bo‘lishi kerak”, “Dekorativ va amaliy san’at” va boshqa mavzularda muzeyning ilmiy xodimlari leksiyalar olib bordi [11]. Ushbu lektoriylar faoliyatida san’atshunos olimlar, filologlar, ekskursavod-gidlar va talabalar ishtirok eta boshladi.

1963-yilga kelib esa Ko‘rgazmalar direksiyasi va panorami tomonidan tashkil etilgan ko‘rgazmalarda 481 ming kishi, M.Oybek nomidagi O‘zbekiston tarixi davlat muzeyiga 187 ming, muzey ko‘chma ko‘rgazmalarida 52 ming va ekskursiyalarda 40 ming, O‘zbekiston davlat san’at muzeyida esa 118 ming kishi tashrifi, 14 ming kishi esa ekskursiya va leksiyalarda tomoshabin tashrif buyurgan [19,7v.].

O‘lkashunoslik muzeylari tizimida Buxoro o‘lkashunoslik muzeyi yetakchi hisoblanib, 223 ming kishi, 64 ming ekskursiya tinglovchilari, Xorazm tarixiy revolyusiya muzeyiga 100 ming kishi, 60 ming ekskursiya tinglovchilari, Samarqand tarixi va madaniyati muzeyida 221 ming kishi, 35 ming ekskursiya tinglovchilari va Korakalpok san’at va o‘lkashunoslik muzeyida 74 ming kishi va 25 ming ekskursiya tinglovchisi bo‘lganligi keltirib o‘tilgan [19,8v.].

1964-yilga kelib, respublikadagi Samarqand va Buxoro muzeylarida “mehnatkashlar” uchun fondlar bo‘yicha ochiq eshiklar kuni tashkil etish orqali ekspozitsiyadan o‘rin olmagan noyob madaniy boyliklarni ko‘rish imkoniyatlariga ega bo‘ldilar. 1963-yilda umumiy hisobda 1mln 200 kishi muzeylarga tashrifi qayd etilgan bo‘lsa bu 1961-yilga nisbatan 300 ming kishiga ko‘p edi [19,8v.]. Ekskursiyalar soni, ayniqsa tematik ekskursiyalar soni 1961 yilga nisbatan 2,5 barobarga oshdi. 1962-63-yillar mobaynida muzey fondlariga 20 450 yangi eksponatlar kirim qilindi. Muzey ilmiy xodimlari UZSSR Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda arxeologik, etnografik va geologik ekspeditsiyalarda ishtirok etdilar. Malaka oshirish va tajriba almashish maqsadida O‘zbekiston muzeylarining 18 ta ilmiy xodimlari Moskva, Leningrad, Kazan, Siktivkar, Riga va boshqa shaharlarda bo‘lib qaytdilar.

1964-yilga kelib esa, O‘zSSR Madaniyat vazirligi muzeylari tizimidagi ilmiy xodimlari ro‘yxati quyidagicha edi.

1. Tarix muzeyi – 27 ta ilmiy xodim, 7 ta laborant, 2 ta ekskursavod
2. San’at muzeyi – 13 ta ilmiy xodim
3. Tabiat muzeyi – 14 ta ilmiy xodim, 3 ta laborant
4. Samarqand muzeyi – 8 ta ilmiy xodim
5. Buxoro muzeyi – 9 ta ilmiy xodim
6. Xorazm muzeyi – 6 ta ilmiy xodim
7. Surxondaryo – 6 ta ilmiy xodim
8. Farg‘ona – 6 ta ilmiy xodim
9. Andijon muzeyi – 4 ta ilmiy xodim
10. Namangan muzey – 6 ta ilmiy xodim
11. Ko‘qon muzey – 4 ta ilmiy xodim
12. Chirchik muzeyi – 3 ta ilmiy xodim
13. Angren muzeyi – 1 ta ilmiy xodim [20,112v.]

Xulosa va takliflar. Umumiy muzeylar holatiga ko‘ra ekspozitsiyalarda yetarli darajada eksponatlar qamrab olinmagan edi. Bulardan mavjud rang tasvir asarlarining 25%, haykalataroshlik asarlarining 20%, amaliy san’at asarlarining 15% foydalanilgan xolos. Umumiy eksponatlardan sovet davrini xarakterlaydiganlarni faqatgina 15% foydalanilgan. Muzeylar tizimidagi yana bir kamchiliklardan biri so‘nggi yillarda tomoshabinlar sonini keskin kamayishi bilan bog‘lanadi. 1968-yilga nisbatan 1969-yilda tomoshabinlar 207 mingga qisqardi. Bulardan o‘lkashunoslik muzeylariga 129,8, memorial muzeylarga 53,2, tabiiy ilmiy muzeylarga 32 ming, badiiy muzeylarga 24 ming kishiga qisqargan. 1965-yilga nisbatan olganda Davlat san’at muzeyida ham tomoshabinlar soni to‘rt barobarga kamaygan [21,2v.]. Bunga asosiy sabab zilzila tufayli muzey binosining ko‘chirilishi va ekspozitsiyada eksponatlar soning kamayishi bilan 1968-yilga nisbat tomoshabinlar soni 28 ming kishiga kamaydi. Ekspozitsiyalarda to‘liq va mukammal taqdimotlar yo‘qligi, muzeylarga keluvchilar sonining kamayishi, shuningdek, muzey binolarining vaqtincha yoki doimiy ko‘chirilishi muzeylarning ommalashishiga, ijtimoiy-madaniy va ta’limiy rolini

shakllantirishga to‘sqinlik qildi. Shuningdek, muzeylarning faoliyat turlarining mukammallashtirilishi, xususan, yangi tashkiliy-huquqiy tizimlar va ilmiy ishlarning kuchaytirilishi, sohaga yangi va ijobiy yo‘nalishlarni o‘rnatishga xizmat qilganligi aniqlandi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati

1. Музей истории народов Узбекистана им. М.Т.Айбека / Наука в Узбекистане. Т. II. Общественные науки. – Ташкент: Фан, 1974.
2. Гласс Ю.И., Ланда Л.М. Музеи Узбекистана. Путеводитель-справочник. – Ташкент: Госизд., 1961. – 182 с.;
3. Садыков Х., Гласс Ю., Цой Е. Музеи Узбекистана. Путеводитель-справочник. – Ташкент: Фан, 1978. – 118 с.
4. Мадаминов С. Кўчма выставка. Қизил Ўзбекистон. 1960 йил. 10 июль.
5. Музей ҳаёт мактаби. Совет Ўзбекистони. 5 февраль. 1964 йил.
6. Садыкова Н.. Музейное дело в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1975. – 290 с.
7. Содиқова Н.. Маданий ёдгорликлар хазинаси. – Тошкент: Фан, 1981. – 270 б.
8. Садыкова Н.. Единство научно-исследовательской и идейно-воспитательной работы музеев Узбекистана. Ташкент: Фан, 1987.;
9. Садыкова Н.. Историография и источники по музейному строительству. Ташкент: Фан, 1987.
10. Содиқова Н.. Мулки торож ўзбегим. Тошкент: Фан–хазина, 1995. – 42 б.;
11. Содиқова Н.. Ўрта Осиёда музейларнинг шаклланиши // Мозийдан садо. Тошкент, 1999. – № 1–2. – Б. 16–23.
12. Худойберганов К. Музейда лекторий. Қизил Ўзбекистон. 21 февраль. 1961 йил.
13. O‘zbekiston Milliy arxivi, R - 2487-jamg‘arma, 3-ro‘yxat, 498-ish, 232-varaq. (Управление культуры просветительские учреждение. Основные материалы о переписке с Минестерствами культуры СССР УзССР и другими организациями О мерах по улучшению деятельности музеев за 1961-1962 г.г.)
14. O‘zbekiston Milliy arxivi, R - 2296-jamg‘arma, 3-ro‘yxat, 3041-ish, 81-varaq. (Управление культурно-просветительных учреждений. Документы об участии музеев республики во Всесоюзном смотре музеев.1970 г.)
15. O‘zbekiston Milliy arxivi, R - 2487-jamg‘arma, 3-ro‘yxat, 482-ish, 148-varaq. (Управление культуры просветительские учреждение. Материалы о работе Бухарского областного историко-краеведческого музея за 1961-1962 года.)
16. O‘zbekiston Milliy arxivi, R - 2487-jamg‘arma, 3-ro‘yxat, 627-ish, 148-varaq. (Управление культуры просветительские учреждение. Материалы о работе Бухарского областного историко-краеведческого музея за 1963 года.)
17. O‘zbekiston Milliy arxivi, R - 2487-jamg‘arma, 3-ro‘yxat, 482-ish, 148-varaq. (Мўминов Ш. Меҳнат шуҳратининг ойнаси. Бухоро ҳақиқати. 17 май 1963 й. № 96.)
18. O‘zbekiston Milliy arxivi, R - 2487-jamg‘arma, 3-ro‘yxat, 797-ish, 2-varaq. (Управлния культуры просвет. Учреждения. Материалы республиканского совещания семинара музейных работников республик Средней Азии а Казахстана. Г. Самарканд. Сентябрь-октябрь 1963 года.)
19. O‘zbekiston Milliy arxivi, R - 2487-jamg‘arma, 3-ro‘yxat, 789-ish, 123-varaq. (Управления культуры просвет. Учреждения. Переписка с Министерством культуры СССР, научно исследовательским институтом Музееведения и др.организациями. 1963 год.)
20. O‘zbekiston Milliy arxivi, R - 2487-jamg‘arma, 3-ro‘yxat, 773-ish, 68-varaq. (Управления культуры просвет. Учреждения. Переписка с Министерством культуры СССР, научно исследовательским институтом Музееведения и др.организациями. 1963 год.)
21. O‘zbekiston Milliy arxivi, R - 2296-jamg‘arma, 4-ro‘yxat, 25-ish, 144-varaq. (Справки, отчёти, доклады, информационные материалы по охране и реставрации памятников культуры и работа музеев в Узбекистане.)
22. O‘zbekiston Milliy arxivi, R -2487-jamg‘arma, 3-ro‘yxat, 1910-ish, 10-varaq. (Управление культурно-просветительных учреждений. Справки о работе музеев УзССР 1969 г.)

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Jumayev Oybek Maratovich
Independent researcher
Under the Republican Centre for Spirituality and Enlightenment
Institute for Social and Spiritual Research
oybekmaratovich8@gmail.com

Published under peer review:
Doctor of Political Science, Associate Professor
Mansur Musaev

Received 30th January 2025, Accepted 11th February 2025, Online 28th February 2025

THE ISSUE OF STUDYING THE PROBLEM OF POVERTY

Abstract: The article considers poverty as a social phenomenon subjected to scientific and philosophical analysis. The essence of the concept of poverty, criteria for its definition, types and manifestations are examined using examples from different countries and regions in a comparative analysis.

Keywords: poverty, phenomenon of poverty, absolute poverty, relative poverty, poor people, poor and destitute, very rich.

KAMBAG‘ALLIK MUAMMOSINI O‘RGANISH MASALASI

Annotatsiya: maqolada kambag‘allik ijtimoiy hodisa sifatida ilmiy va falsafiy tahlil qilingan bo‘lib, kambag‘allik tushunchasining mohiyati, uni aniqlash mezoni, turlari va ko‘rinishlari turli mamlakat va mintaqalar misolida qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: kambag‘allik, kambag‘allik fenomeni, mutlaq kambag‘allik, nisbiy kambag‘allik, kambag‘al odamlar, kambag‘al va qashshoq, juda boy.

ВОПРОС ИЗУЧЕНИЯ ПРОБЛЕМЫ БЕДНОСТИ

Аннотация: В статье бедность рассматривается как социальное явление, подвергнутое научному и философскому анализу. Исследуются суть понятия бедности, критерии её определения, виды и проявления на примерах различных стран и регионов в сравнительном анализе.

Ключевые слова: бедность, феномен бедности, абсолютная бедность, относительная бедность, бедные люди, бедные и нищие, очень богатые.

Kirish (Introduction)

Ijtimoiy-falsafiy yondashuv kambag‘allikning davlat siyosati va ijtimoiy ongda qanday idrok etilishi va hal qilinishini ko'rib chiqishga taklif qiladi. Kambag‘allik nafaqat iqtisodiy mahrumlik holati, balki madaniy, siyosiy va mafkuraviy kontekstlar vositasida yuzaga keladigan holatdir. Misol uchun, jamiyatlar kambag‘allikni qanday aniqlash va o‘lchash uni yengillashtirish uchun o‘rnatilgan qo‘llab-quvvatlash tizimlariga ta’sir qiladi. Kambag‘allik bilan bog‘liq stigma odamlarning o‘zini-o‘zi qadrlashi va ijtimoiy integratsiyalashuviga ta’sir qilishi, ularning imkoniyatlar va resurslardan foydalanishiga ta’sir qilishi mumkin. Bundan tashqari,

kambag‘allikning global o‘lchovi davlatlar o‘rtasidagi tengsizlik muammolarini ta’kidlaydi, bu yerda dunyoning bir qismida boylik ko‘pincha boshqa qismida ekspluatatsiya yoki mahrumlik bilan mos keladi. Ushbu global istiqbol bizni iqtisodiy o‘zaro munosabatlarimizning axloqiy oqibatlari va ularni boshqaradigan siyosatlar haqida o‘ylashga undaydi.

Mavzuga oid adabiyoylarning tahlili (Literature review).

Kambag‘allik muammosi haqidagi dastlabki fikrlashlari bilan Marks Gegelning huquq falsafasini tanqid qila boshladi. “1844-yilgi iqtisodiy va falsafiy qo‘lyozmalar” davridan to “Kapital”gacha: “kambag‘allik muammosi”ning kelib chiqishi milliy xo‘jalik tizimi darajasida o‘rganilib, kambag‘allik nazariyasi bosqichma-bosqich pishib, nihoyat asos soldi. “Kambag‘allik falsafasi” (1846–1851) nashr etilganidan bir necha yil o‘tgach, Yevropada keng ko‘lamli inqilobiy to‘lqin boshlandi.

Xitoyda “Falsafaning qashshoqligi” mavzusidagi tadqiqotlari nisbatan kech boshlangan bo‘lsa, 20-asr boshlarida asosan hujjatlarni tarjima qilish va yapon olimlarining tegishli munozaralaridan iqtibos keltirish bilan shug‘ullandi. Xitoyning Renmin universitetida va boshqalar, deyarli istisnosiz, tarixiy materializm va marksizmga tayanadi “Falsafaning qashshoqligi” ning ahamiyati uning siyosiy iqtisod tarixidagi o‘rni bilan izohlanadi.

1980–1990-yillarda sovet va Sharqiy Yevropa olimlarining «Falsafaning qashshoqligi» bo‘yicha tadqiqot natijalariga to‘liq tayanish asosida marksistik falsafa tarixi, siyosiy iqtisodiy ta’limot tarixi va boshqalar bo‘yicha ilk mahalliy darsliklar yaratildi.

1980-yillarga kelib “kambag‘allik” shunchaki kam daromadlilik emas, balki ko‘p o‘lchovli tushunchaga aylangan degan g‘oya keng e’tirof etilgan edi. Ayniqsa, 1990-yillarda Amartya Sen [1] “qobiliyatli kambag‘allik” nazariyasini taklif qildi, bu esa bevosita ko‘p o‘lchovli kambag‘allik ko‘rsatkichiga olib keldi. Kambag‘allikni bartaraf etish va kambag‘allikka barham berish siyosatini o‘rnatish ham ko‘p qirrali muammolarni hal etishga e’tibor qarata boshlaganidan dalolat beradi.

Rossiya va boshqa MDH davlatlari tadqiqotchilari N.Arxangelskaya, [2] L.Axmadeyev, [3] L.Bondarenkolarning [4] olib borgan ilmiy ishlari kambag‘allik bilan bog‘liq masalalarni kengroq yoritishgan va ijtimoiy turmush tarzidagi mavjud muammolarni iqtisodiy hal etish salohiyatiga ega bo‘lmagan aholi qatlamini kambag‘allar deb ta’riflashgan.

D.Gobson, [5] D.Saks, [6] singari yetuk xorijiy olimlar kambag‘allik va aholining boshqa ijtimoiy muammolarini o‘rganish borasidagi ilmiy nazariyalarni yanada boyitishga erishgan.

Xususan, O‘zbekistonlik olimlar va tadqiqotchilar qatorida Ibragimova N.M., [7] Muxitdinova M.Z., [8] Mustafokulov Sh.I. [9] va boshqalarning ilmiy izlanishlarida kambag‘allikka oid masalalar alohida muammo sifatida chuqur o‘rganishga harakat qilingan.

Umuman olgan kambag‘allik masalasini ijtimoiy-falsafiy o‘rganish turli mamlakatlardagi siyosiy boshqaruv, iqtisodiy vaziyat va ma’naviy-mafkuraviy jarayonlarga bog‘liq xodisa sifatida o‘rganilganini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa kambag‘allik masalasini yakdil falsafiy tahlil qilish va tadqiq etishni taqozo etadi.

Tadqiqot metodoliyasi (Research Methodology).

Kambag‘allik muammosi va uning mazmun-mohiyati turli xil ijtimoiy-falsafiy qarashlar doirasida tahlil qilinadi. Falsafada kambag‘allik muammosini o‘rganish masalasi ilmiy nazariy kengroq yoritiladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Kambag‘allik aslida oddiy, ammo murakkab hodisa. Kambag‘allikning ma’nosi va uning o‘lchov meyorlari hali aniqlanmagani uchun murakkab deb aytiladi. Kambag‘allik mavzusi haligacha olimlar o‘rtasida bahs-munozaralar davom etmoqda. Ammo boshqa nuqtai nazardan qaraganda, kambag‘allik fenomeni juda oddiy, chunki ta’rif haqida qanday bahslashmang, kambag‘allik oddiy va obektiv tarzda mavjud. Shunday ekan, kambag‘allik eng avvalo moddiy hayotning holati, deyishimiz mumkin, ammo kambag‘allik hech qanday holatda moddiy hayotning

oddiy holati emas. Kambag‘allik ham ijtimoiy tuzilmaviy hodisadir. Ehtiyojsiz, kambag‘allik degan narsa yo‘q, tekshirishsiz kambag‘allikni ham anglab bo‘lmaydi.

Darhaqiqat, biz kambag‘al tushunchasini qashshoq odamlarga nisbatan ishlatganimizda, bu allaqachon bir guruh odamlarni nazarda tutayotganimizni anglatadi. Ijtimoiy tuzilmada bu odamlar guruhi ko‘pincha muayyan ijtimoiy tabaqalanish strukturasining tarkibiy elementiga aylanadi. Har qanday jamiyatda “kambag‘al odamlar” bo‘lsa-da, ijtimoiy tuzilishdagi “kambag‘al odamlar” ma’nosi turli jamiyatlarda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. An’anaviy jamiyatlarda ham daromad, past ijtimoiy mavqe va avlodlar o‘rtasidagi meros ko‘pincha birlashtiriladi. Binobarin, bunday jamiyatda kambag‘allar nafaqat osonlik bilan aniqlanadigan tashqi belgilarga ega, balki ko‘p jihatlari bo‘yicha boylardan keskin farq qiladi. Zamonaviy jamiyatda maqom, irsiy va tug‘ma omillarning ahamiyati pasaymoqda, chunki bugungi kunda ijtimoiy maqomning o‘zgarishi tez-tez uchraydi. Shu sababli, ba’zi odamlar zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanishni alohida shaxslar bilan qat’iy aloqasi bo‘lmagan pozitsiyalar yoki jamiyatdagi ba’zi “tor imkoniyatliliklar” deb biladilar. Boshqacha qilib aytganda, zamonaviy jamiyatdagi tabaqalanish yoki odamlarning ijtimoiy mavqei ko‘pincha ijtimoiy harakatchanlik bilan bog‘liq.

Kambag‘allar uchun nima qilinganligi ularning yashash sharoitlari va ijtimoiy mavqeini qanday o‘zgartirish qiyinligiga, shuningdek, qashshoq qatlamning yashash sharoitlari va ijtimoiy mavqeini o‘zgartirish usullari va mexanizmlariga bog‘liq. Muammoni shu nuqtai nazardan ko‘rib chiqsak, rivojlangan mamlakatlarda kambag‘allik muammosini hal qilishning ikki xil usulini ham tushunishimiz mumkin.

Yondashuvlardan biri kambag‘allikda bo‘lgan avlodga, jumladan, iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish, bandlik sharoitlarini yaxshilash va farovonlikni oshirishga qaratilgan. Aslida, bu kambag‘allikda yashayotgan bu avlod uchun turli sa’y-harakatlar bilan, albatta, turmush sharoitini yaxshilash mumkinligini ma’lum darajada tan olish bilan barobar, lekin ularning ijtimoiy mavqeini tubdan yaxshilash juda qiyin.

Kambag‘allikning ijtimoiy mavqeini chinakam yaxshilash uchun boshqa yondashuv, ya’ni ularning farzandlariga ta’lim mexanizmi orqali yuqori ijtimoiy maqomga o‘tish imkoniyatini yaratish kiradi. Ya’ni, avlodlar o‘rtasidagi mobillik orqali kambag‘allar orasida ayrim kishilarning ijtimoiy mavqei o‘zgaradi. Shu ma’noda, kambag‘allikning tabiatiga ijtimoiy harakatchanlik ta’sir qiladi. Nisbatan tez-tez ijtimoiy harakatchanlikka ega bo‘lgan jamiyatlarda kambag‘allik ijtimoiy tabaqalanish ma’nosiga ega bo‘lsa-da, bunday kambag‘allik kuchli o‘zgaruvchanlikka ega va qattiq tuzilishga aylanmaydi. Ijtimoiy harakatchanlikni yuzaga keltirish oson bo‘lmagan jamiyatlarda kambag‘allikdan kelib chiqadigan tarkibiy omillar nisbatan qattiq bo‘lib, bir tomondan, ular ijtimoiy chetlanish sifatida namoyon bo‘lsa, ikkinchi tomondan, kambag‘allikning takrorlanishi yoki takror ishlab chiqarilishi sifatida namoyon bo‘ladi.

Kambag‘allik dunyodagi ko‘plab murakkab ijtimoiy hodisalarga o‘xshaydi. Haqiqatan ham haddan tashqari batafsil standartlarni o‘rnatish qiyin bo‘lishi mumkin, ammo bu ba’zi eng asosiy hukmlarning o‘rnatilishiga to‘sqinlik qila olmaydi.

Mutlaq kambag‘allik deb atalmish shaxs yoki oilaning eng kam turmush darajasini saqlab qola olmasligi, nisbiy kambag‘allik esa normal turmush darajasiga nisbatan olinadi. Umuman olganda, agar shaxs yoki oilaning daromadi daromadning yarmidan kam bo‘lsa milliy o‘rtacha darajaga ko‘ra, u yoki ular nisbatan kambag‘allik holatida, deb aytishimiz mumkin. Mutlaq ma’nodagi kambag‘allik va nisbiy ma’nodagi kambag‘allik o‘rtasidagi farq odamlarga o‘zlari duch keladigan kambag‘allik muammosini, shu jumladan uning sabablari, xususiyatlari va ijtimoiy oqibatlarini yaxshiroq baholash imkonini beradi.

Mutlaq kambag‘allik ko‘proq e’tiborni jalb qiladi. Chunki mutlaq kambag‘allik ko‘pincha oziq-ovqat va kiyim-kechak yetishmasligi, ko‘chada uxlash, to‘yib ovqatlanmaslik, ozg‘inlik, tilanchilik, hatto kasallik va o‘lim bilan bog‘liq. Tegishli ma’lumotlarga ko‘ra, dunyoda hali ham

kunlik daromadi 2 AQSH dollaridan kam bo‘lgan 2,8 milliard kishi bor, bu rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining yarmidan ko‘pini tashkil qiladi. Ulardan 1,2 milliard kishi kuniga 1 AQSH dollaridan kam maosh oladi.

Nisbiy kambag‘allik muammosi mutlaq kambag‘allikdan ko‘ra kamroq hayratlanarlidir. 1990-yillar oxirida Wall Streyet Journal gazetasida chop etilgan maqolada 30 milliondan ortiq amerikalik “kambag‘allikda yashayotgan” hayoti tasvirlangan. Bu kambag‘allar bugungi kunda qanchalik kambag‘al? 1995 yilda kambag‘al uy xo‘jaliklarining 41 foizi o‘z uylariga ega edi. Har bir kambag‘al oilada o‘rtacha 3 ta yotoqxona, 1,5 ta hammom, avtoturargoh, balkon yoki hovli bor. 750 000 dan ortiq kambag‘allar 150 000 dollardan ortiq uy-joyga ega, shundan 200 000 ga yaqin kambag‘allar uyning qiymati 300 000 AQSH dollaridan oshadi. Kambag‘al oilalarning 70 foizi shaxsiy avtomobilga ega, ulardan 27 foizi ikkitadan ko‘p. Kambag‘al oilalarning 97 foizi rangli televizorga ega, shundan oilalarning deyarli yarmi ikkitadan ko‘p. AQShda kambag‘allar o‘rta sinfdan ko‘ra ko‘proq. Kambag‘al oilalar bolalari yuqori daromadli oilalar farzandlariga qaraganda ko‘proq go‘sht iste’mol qiladilar va ularning protein iste’moli odatdagidan ikki baravar ko‘p. Shuning uchun biz AQSH aholini ro‘yxatga olish byurosining Qo‘shma Shtatlardagi kambag‘allik haqidagi hisobotini bo‘rttirib, odamlarni chalg‘itayotganlikda ayblashimiz ham mumkin. Bu yerda biz tushuntirmoqchi bo‘lgan narsa, “juda boy” davlatda kambag‘allik qanday sodir bo‘ladi. Aslida, yuqoridagi maqola kambag‘allikning sodda tushunchasini aks ettiradi. Bu soddalashtirish u aniq hayotiy vaziyatni uning kontekstidan butunlay ajratib olishida namoyon bo‘ladi. Darhaqiqat, odamlarning hayot haqidagi mulohazalari, hayotga nisbatan his-tuyg‘ulari, hatto obektiv ravishda muayyan turmush sharoiti hayotning asosiy ehtiyojlarini qondira oladimi yoki yo‘qmi - barchasi aniq vaziyatlar bilan bog‘liq.

Yuqorida aytib o‘tilgan yashash sharoitlariga ega bo‘lgan odam Afrikaning kambag‘al davlatida boy odam bo‘lishi mumkin, ammo Amerika Qo‘shma Shtatlarida kambag‘al odam bo‘lishi mumkin; bu kambag‘al Afrika davlatida u boshqalardan ustunlik hissini his qilishi mumkin, Birlashganda Davlatlar, u his qilishi mumkin bo‘lgan narsa - muvaffaqiyatsizlikdan umidsizlik hissini aks ettiradi.

Nisbiy kambag‘allik ko‘pincha odamlar nisbiy mahrumlik hissi deb ataydigan ijtimoiy mentalitetni yaratadi. Nisbatan mahrumlik tushunchasi birinchi marta amerikalik sotsiologlar Stover va boshqalar tomonidan “Amerikalik askar” (1949) kitobida taklif qilingan. Bu boshqa odamlar yoki boshqa guruhlar bilan mos yozuvlar sifatida shakllangan psixologik tuyg‘u. Haqiqiy ijtimoiy hayotda atrofdagi qo‘shnilar bilan solishtirish natijasida shakllanadigan bunday tuyg‘u odamlarning munosabati va xatti-harakatlariga kuchliroq ta’sir qilishi mumkin. Odamlarning kambag‘allikdan noroziligi mutlaq kambag‘allikdan emas, balki nisbiy kambag‘allikdan, ya’ni boshqalarga nisbatan pastroq mavqeidan kelib chiqadi. Ba’zi taraqqiyot siyosatshunoslari, shu jumladan S.Xantington, diqqatga sazovor hodisani kashf etdilar, ya’ni mamlakatda tez iqtisodiy o‘sish davrlari ko‘pincha oldingi kambag‘allik davrlariga qaraganda ko‘proq ijtimoiy tartibsizliklar bilan birga keladi. Ushbu hodisa ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda sodir bo‘lgan. Bu holat Xantington ta’kidlashicha, tez iqtisodiy o‘sish davrida odamlarning umidlari ham tez o‘sib boradi, bu tez o‘sib borayotgan umidlar va haqiqiy qoniqish darajasi o‘rtasida tafovut hosil qiladi va shu bilan umidsizlik tuyg‘usini yaratadi. Aynan shu umidsizlik ijtimoiy beqarorlik manbaiga aylanadi. Bu tushuntirish, albatta, mantiqiy asosga ega. Ammo uni sinchiklab tahlil qilsangiz, xuddi shu fonda yana ikkita omilni e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi:

Birinchi omil bu yerda tilga olingan nisbiy mahrumlik hissidir. Iqtisodiyotning jadal o‘sish davrida iqtisodiy va ijtimoiy sharoit tez o‘zgarib turadi, ijtimoiy tabaqalanish kuchayib boradi. Xususan, dastlab bir sinfga mansub bo‘lgan yoki o‘xshash maqomga ega bo‘lgan odamlar differensiatsiya jarayonida bir-biridan juda uzoqlashishi mumkin. Shunday qilib, bunday murakkab ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda qarama-qarshilik kuchayadi va nisbiy mahrumlik hissi kuchayadi.

Ikkinchi omil shundaki, tez iqtisodiy o‘sish davrida ko‘pchilik odamlarning daromadlari ortib borayotgan bo‘lsa-da, ularning ba’zilari uchun daromadlar shu davrda ortadi. Daromad ortishi bilan ko‘proq xarajatlar ham bo‘ladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

- Odamlarning “kambag‘allik” haqidagi tushunchasi chuqurlashib borar ekan, kambag‘allikni bartaraf etish va kambag‘allikni bartaraf etish siyosati ham o‘zgardi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan muloxazalarni xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, kambag‘allik muammosi kambag‘allikdan bevosita kelib chiqqan yoki kelib chiqadigan bir qator ijtimoiy muammolarni anglatadi.
- Kambag‘allik kambag‘allikni keltirib chiqaradi. Dangasalik, layoqatsizlik, past intellekt, befarqlik, bo‘ysunish, fatalizm kabi kambag‘allik madaniyati, maktab ta’limiga e’tibor bermaslik kambag‘allikning asosiy sabablari deb o‘ylash to‘g‘ri emas.
- Kambag‘allik nafaqat iqtisodiy tushuncha, balki asosiy fuqarolik huquq va qobiliyatlari bilan ham bog‘liq bo‘lib, uning mohiyatini huquq va qobiliyatlarning qashshoqligi tashkil etadi.
- Iqtisodiy rivojlanish kambag‘allikni yo‘q qilish shart emas. Boy mamlakatlarda yoki mamlakat ichidagi boy hududlarda kambag‘allar ko‘p?
- “Kambag‘allikni” oddiygina “oziq-ovqat va kiyim-kechak yetishmasligi” bilan tenglashtirib bo‘lmaydi.

Kambag‘allar boylarning hayotini osonlashtiradi va kambag‘allar shaharlarni qayta qurish va buzish kabi ijtimoiy o‘zgarishlar xarajatlarini ko‘tarishga ishlatiladi va hukumat siyosatidagi o‘zgarishlar tufayli asosiy ishsizlarga aylanadi.

Kambag‘allikni oddiy va tez bartaraf etish qiyin, chunki undan kimdir foyda ko‘radi. Shuning uchun muammoni hal bo‘lishiga aks ta’sir ko‘rsatuvchi omillar borligini unutmaslik lozim.

Adabiyotlar (References)

1. Amartya Sen: “Taraqqiyotni erkinlik bilan ko‘rish”, Ren Tzen va YU Tzen tomonidan tarjima qilingan, Xitoyning Renmin universiteti nashriyoti, 2002 , 15-bet.
2. Arxangelskaya N. Lovushki bednosti.: Ekspert. - № 16.12.02.2010g. -s.2-5.
3. Axmadeyev L. Bednost: sotsialniy portret yavleniya.: Ekonomika i upravleniye. - 2010g.- №4.-78s.
4. Bondarenko L. Izmereniye selskoy bednosti (metodologiya i opit). Ekonomika i upravleniye. -№10 - 2009.- s. 15-23.
5. Gobson Dj. Problemi bednosti: Per. s angl./ Pod red.L.Zaka. Izd.2-ye.-M.: Knijniy dom «LIBROKOM», 2011.-216s.
6. Saks D.D., Konets bednosti. Ekonomicheskiye vozmojnosti nashego vremeni. Pers. S angl. N.Edelmana. - M.: Izd.Instituta Gaydara, 2011.-424s.
7. Ibragimova N.M. “Aholi iste’molini makroiqtisodiy prognozlashtirishning uslubiy yondashuvlarini takomillashtirish” Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2019 y.
8. Muhiddinova M.Z. “Aholi turmush darajasini baholash: tahlil va samara” – Xalqaro moliya va hisob ilmiy electron jurnali. № 2, aprel, 2019 yil.
9. Mustafoqulov Sh.I. “Kambag‘allik ayb emas, biroq ...”. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2020 yil 25 mart, № 62 7564.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Komila Shoyimova
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o‘qituvchisi
komilashoyimova@gmail.com
https://orcid.org/0009-0004-0881-5236

Taqrizchi: filologoya fanlati bo‘yicha falsafa dortori (PhD), U.Sh.Turayeva

Received 30th January 2025, Accepted 11th February 2025, Online 28th February 2025

SEMANTIK O‘ZGARISH JARAYONLARIDA QADIMIY VA YANGI TOPONIMLARNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqolada qadimiy va yangi toponimlarning semantik o‘zgarish jarayonlari Termiz va Winchester shaharlarining toponimik tizimi misolida tahlil qilinadi. Tarixiy, lingvistik va ijtimoiy omillar ta’sirida toponimlarning qanday o‘zgarishi, ularning fonetik va semantik jihatdan rivojlanishi o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari toponimiyaga oid ilmiy izlanishlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, maqolada geografik nomlarning tarixiy rivojlanish bosqichlari, ularning madaniy va milliy xususiyatlari aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: Toponimiya, semantik o‘zgarish, Termiz, Winchester, tarixiy-lingvistik omillar, fonetik rivojlanish, geografik nomlar.

THE INTERCONNECTION OF ANCIENT AND MODERN TOPONYMS IN THE PROCESSES OF SEMANTIC CHANGE

Abstract. This article analyzes the semantic transformation processes of ancient and modern toponyms using the toponymic system of Termez and Winchester as a case study. The influence of historical, linguistic, and social factors on toponymic changes and their phonetic and semantic evolution is explored. The research findings hold significant importance for scientific studies in toponymy. Additionally, the paper discusses the historical development of geographical names, reflecting their cultural and national characteristics.

Key words: Toponymy, semantic change, Termez, Winchester, historical-linguistic factors, phonetic development, geographical names.

ВЗАИМОСВЯЗЬ ДРЕВНИХ И НОВЫХ ТОПОНИМОВ В ПРОЦЕССАХ СЕМАНТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ

Аннотация. В данной статье анализируются процессы семантических изменений древних и новых топонимов на примере топонимической системы городов Термез и Винчестер. Рассматриваются изменения топонимов под воздействием исторических, лингвистических и социальных факторов, а также их фонетическое и семантическое развитие. Результаты исследования имеют важное значение для научных исследований в области топонимики. Кроме того, статья рассматривает исторические этапы развития географических названий, их культурные и национальные особенности.

Ключевые слова: Топонимия, семантические изменения, Термез, Винчестер, историко-лингвистические факторы, фонетическое развитие, географические названи.

Kirish

Har bir narsa va hodisaning nomi mavjud bo‘lib, bu dunyoda biror obyektni nomsiz tasavvur etish mumkin emas. Nomlar predmet va tushunchalarni bir-biridan farqlash, ularni aniqlash va

muloqot jarayonida qo‘llash uchun zarur hisoblanadi. Bu tamoyil geografik obyektlarning nomlanishiga ham bevosita taalluqlidir. Har qanday joyning o‘ziga xos nomi bo‘lib, u ushbu hududni boshqa joylardan ajratib turadigan lingvistik birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu lingvistik birlik toponim deb ataladi.

Toponim termini yunoncha kelib chiqishga ega bo‘lib, *topos* – “joy”, *onoma* – “nom” degan ma’nolarni anglatadi. Demak, toponim geografik obyektning nomi sifatida tushuniladi. Mazkur atamaning keng qamrovli ta’rifi haqida mashhur rus tilshunoslari N.V. Podolskaya va A.V. Superanskaya ta’kidlaganidek, toponim faqat Yer yuzasidagi emas, balki undan tashqarida mavjud bo‘lgan har qanday geografik obyektni ifodalovchi nomlar uchun umumlashtiruvchi atama sifatida qaraladi.

Toponimlar tilning tarixiy taraqqiyoti va ijtimoiy-madaniy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular xalqning madaniy merosi, tarixiy xotirasi va lingvistik xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Toponim va unga aloqador terminlarning keng qamrovli mohiyati E. Begmatov va N. Uluqov tomonidan tuzilgan lug‘atda batafsil yoritilgan bo‘lib, unda toponim bilan bog‘liq 130 ga yaqin atama izohlangan.

Geografik obyektlarning atamashunoslikdagi umumlashma nomi **toponim** hisoblanadi. Ushbu atama asosida shakllangan **toponimiya** va **toponimika** sohalari muayyan hududda yashovchi millat va xalqlarning tarixiy rivojlanishi, o‘tmishi hamda etnik xususiyatlarini aks ettiradi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillaridanoq ma’naviy ma’rifiy islohotlar, ma’naviy kamolot tarbiyasi masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ma’naviyat tushunchasining asosida turuvchi ona tili va uni har tomonlama rivojlantirishga bo‘lgan doimiy e’tibor benihoya kuchaydi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan tarixiy nutqida shunday degan edi: “Globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug‘at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o‘zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo‘llanishini ta’minlash dolzarb vazifa bo‘lib turibdi”. O‘zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish borasidagi bu talab o‘zbek tilining, hech istisnosiz, barcha sathlariga oid hodisalarni yanada chuqurroq, yanada xolisroq, yanada kengroq tadqiq etishni taqozo etadi. O‘zbek tili kommunikativ va semantik-leksik sathidagi ana shunday tadqiq etilishi lozim bo‘lgan muammolardan biri toponimlardir. Shuning uchun ham boshqa tilshunosliklarda bo‘lgani kabi, o‘zbek tilshunosligida ham toponimik tizim tadqiqiga bo‘lgan ehtiyoj yanada ortib bormoqda. O‘zbek tilshunosligi oldida “O‘zbekiston taraqqiyotining bugungi yangi bosqichi – milliy yuksalish davri talablaridan kelib chiqib, ona tilimizning jamiyatdagi o‘rni va nufuzini oshirish” masalasi turgan ekan, o‘zbek tilini dunyo tilshunosligining zamonaviy tadqiq usullari orqali ilmiy asosda chuqur o‘rganish maqsadga muvofiq. Shuning uchun toponimiyani tavsiflash o‘zbek tilshunosligining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu esa mazkur ishning dolzarb ekanligidan dalolat beradi. Kishilar oq-qorani tanib tirikchilik qila boshlashibdiki, tevarak-atroflaridagi yerlarni, daryo-ko‘llarni, tog‘lar-u qir-adirlarni, o‘tloq-yaylovlarni ma’lum bir nom bilan atab kelganlar. Dastlabki toponimlar oddiy turdosh otlardan farq qilmaydigan sodda nomlar bo‘lgan. Atrof tabiiy muhiti haqidagi tasavvur kengayib, bir buloqni ikkinchisidan, bir o‘tloqni boshqasidan, yaqindagi tepalikni narigisidan farqlash ehtiyoji tug‘ila boshladi.

Toponimlardagi semantik o‘zgarish jarayonlari

Semantik o‘zgarish jarayoni tarixiy, lingvistik va ijtimoiy omillar ta’sirida shakllanadi. Toponimlarning semantikasi quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha o‘zgarishi mumkin:

1. **Ma’nodagi kengayish** – toponim avval tor ma’noda qo‘llangan bo‘lsa, keyinchalik kengroq ma’noga ega bo‘lishi mumkin.

2. **Ma’nodagi torayish** – ba’zan toponim umumiy tushunchadan aniq geografik nuqtaga nisbat berilgan holda o‘zgaradi.

3. **Ma’nodagi ko‘chish** – tarixiy voqealar va aholi migratsiyasi natijasida ba’zi toponimlarning ma’nosi tubdan o‘zgarishi mumkin. Termiz shahri Markaziy Osiyoning eng qadimiy shaharlardan biri bo‘lib, uning nomi turli tarixiy davrlarda turlicha talqin qilingan: Qadimgi fors tilida “Taramita” shaklida uchraydi, bu nom Buddaviylik davrida muhim diniy markazlardan biri bo‘lganiga ishora qiladi. Arab manbalarida “Tarmiz” yoki “Tarmidh” shaklida uchraydi va bu atama IX–X asrlarda Islom madaniyatining rivojlanishi bilan bog‘liq holda talqin qilingan. Zamonaviy Termiz nomi tarixiy jarayonlar natijasida shakllangan bo‘lib, unda turkiy va forsiy unsurlar mavjud. Termiz toponimining semantik tahlili shuni ko‘rsatadiki, u o‘zining ilk shaklidan farqli ma’no qamroviga ega bo‘lib, qadimiy diniy markazdan savdo va strategik ahamiyatga ega shahar nomiga aylangan. Vinchester – Buyuk Britaniyaning janubida joylashgan va tarixan muhim bo‘lgan shaharlardan biridir. Uning nomi quyidagi bosqichlarda rivojlangan.

Metod va metodologiya

Ushbu maqola qiyosiy tilshunoslik va onomastika (nomshunoslik) yo‘nalishiga asoslanadi. Tadqiqotda **strukturaviy, funksional va tarixiy-etimologik yondashuvlar** qo‘llanadi. **Qiyosiy yondashuv** – Termiz va Winchester shaharlarining toponimik tizimi o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash uchun ishlatiladi. **Tarixiy-etimologik yondashuv** – toponimlarning kelib chiqishi, rivojlanishi va ma’no o‘zgarishlarini o‘rganish uchun qo‘llaniladi. **Sotsiolingvistik yondashuv** – joy nomlarining ijtimoiy, madaniy va tarixiy omillar ta’sirida qanday shakllanganligini o‘rganish uchun ishlatiladi. **Semantik tahlil** – toponimlarning semantik tuzilishi va ularning mantiqiy bog‘liqligini aniqlash uchun qo‘llanadi.

Tadqiqot metodlari

Tadqiqotda quyidagi asosiy metodlar qo‘llanadi: **Qiyosiy-tarixiy metod** – Termiz va Winchester shaharlarining toponimlarini tarixiy kontekstda solishtirish orqali ularning kelib chiqishi va rivojlanishini aniqlash. **Lingvistik tahlil** – toponimlarning fonetik, morfologik va semantik jihatlarini o‘rganish. **Etimologik tahlil** – joy nomlarining ildizini aniqlash, ularning qadimiy tillardagi ma’nolarini izohlash. **Kartografik metod** – har ikkala shaharning geografik xaritalari yordamida toponimik obyektlarning joylashuvi va nomlanishining hududiy xususiyatlarini o‘rganish. **Sotsiolingvistik so‘rov** – Termiz va Winchester shaharlarida yashovchi aholi orasida so‘rov o‘tkazish orqali toponimlarning ishlatilish darajasini o‘rganish.

Rim davrida "Venta Belgarum" nomi bilan tanilgan bo‘lib, bu nom kelt qabilasi Belgarum va Rimcha "Venta" (bozor, markaz) so‘zidan kelib chiqqan. Anglosakson davrida "Wintanceastre" shaklida qayd etilgan, bunda "ceaster" so‘zi rimliklar tomonidan qurilgan shahar ma’nosini anglatgan. Zamonaviy "Vinchester" nomi esa fonetik qisqarish va ingliz tilining rivojlanishi natijasida shakllangan. Vinchesterning toponimik o‘zgarishlari qadimgi Rim davridan tortib, o‘rta asrlarga qadar davom etgan murakkab jarayonni ko‘rsatadi. Uning semantik taraqqiyoti shahar ahamiyatining turli davrlarda o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Termiz va Winchester geografik jihatdan turli qit’alarda joylashgan bo‘lsa-da, ularning toponimik rivojlanishida umumiy jihatlar mavjud: **Tarixiy qatlamlar**: Har ikkala shahar nomi qadimgi davrlardan shakllangan bo‘lib, tarixiy hodisalar natijasida semantik o‘zgarishlarga uchragan. **Til va fonetik moslashuv**: Winchesterda anglosaksoncha fonetik o‘zgarishlar, Termizda esa forsiy va turkiy fonetik ta’sir kuzatiladi. **Funktsional o‘zgarishlar**: Ikkala shahar ham ma’lum bir davrda harbiy va iqtisodiy markaz bo‘lib, ularning nomlari bu funksiyalarni aks ettirgan holda o‘zgargan. Termiz va Vinchester toponimlarining semantik o‘zgarish jarayonlarini tahlil qilish orqali shuni ko‘rish mumkinki, qadimiy va yangi toponimlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ularning rivojlanishi tarixiy, lingvistik va ijtimoiy omillar bilan belgilanadi. Toponimlarning semantik o‘zgarishi ko‘plab lingvistik omillarga bog‘liq. Ushbu o‘zgarishlar asosan quyidagi turlarga bo‘linadi:

Metonimik o‘zgarishlar – toponimning dastlabki ma’nosi hudud yoki obyektning boshqa bir xususiyatiga ko‘chishi natijasida o‘zgaradi. Metaforik o‘zgarishlar – tabiiy yoki sun’iy obyektlarning o‘zaro taqqoslanishi natijasida toponim yangi ma’no kasb etadi. Fonetik o‘zgarishlar – vaqt o‘tishi bilan toponim tarkibiy elementlarining talaffuzdagi o‘zgarishi natijasida semantik o‘zgarish yuz beradi. Ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar – tarixiy hodisalar va siyosiy jarayonlar natijasida toponimning yangi mazmun kasb etishi. Tarixiy jarayonlar davomida ba’zi toponimlar o‘z shaklini yoki ma’nosini saqlab qolgan bo‘lsa, ayrimlari butunlay o‘zgargan. Misol uchun: O‘rta Osiyo toponimlari: Buxoro shahri nomining qadimiy „Vihara“ (budda monastiri) so‘zidan kelib chiqqanligi haqida gipotezalar mavjud.Buyuk Britaniya toponimlari: Londondagi Temza daryosi nomi kelt tilidan kelib chiqqan bo‘lib, u “qaram daryo” ma’nosini anglatgan[2]. Qadimiy toponimlar ko‘pincha xalq etimologiyasi natijasida yangi ma’no kasb etadi. Masalan, o‘zbek toponimlarida arabcha va forscha so‘zlarning kirib kelishi natijasida semantik o‘zgarishlar kuzatiladi. O‘zbek va ingliz tillaridagi toponimlar turli tarixiy davrlarda turlicha o‘zgarishga uchragan. Masalan: O‘zbekistondagi toponimlar: Termiz shahri nomining qadimiy yunoncha „Tarmita“ so‘zidan kelib chiqqani taxmin qilinadi[3]. Angliyadagi toponimlar: Vinchester shahri nomi lotincha „Venta Belgarum“ iborasidan kelib chiqqan bo‘lib, keyinchalik fonetik o‘zgarish natijasida hozirgi shaklga ega bo‘lgan. Toponimlarning leksik-semantik guruhlarini belgilash, ularni ma'lum tiplarga ajratish va shu asosda tasniflash bu birliklarning ma’nolarini aniqlashda muhim o‘rin tutadi. Toponimlarning leksik-semantik ma’nolarini aniqlash orqali nomlar etimologizatsiyasiga, asosan, lingvistik birliklarning ana shu xususiyatlariga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Toponimik leksika o‘zbek tili leksik tizimining umumiy fonida qaralsada, ayni paytda, o‘ziga xos semantik va funksional xususiyatlarga ham ega.

Xulosa

Toponimlarning semantik o‘zgarishi murakkab va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, u turli lingvistik, ijtimoiy va tarixiy omillar ta’sirida yuzaga keladi. Qadimiy va yangi toponimlarning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish til taraqqiyoti va madaniy o‘zgarishlar tarixini anglashga imkon beradi. Mahalliy toponimik tadqiqotlar mahalliy aholining joy nomlarini o‘z muhiti elementlariga nisbatan qanday ishlatishini aniqlash uchun olib boriladi. Bu jarayon xaritada mavjud bo‘lgan nomlarni aniqlashtirish va qo‘llashni va xaritalarda ko‘rinmaydigan mahalliy nomlarni to‘plashni o‘z ichiga oladi. Hudud yoki aholi punktida qolish qisqa (kunning bir qismi) yoki uzoqroq (bir necha kun) bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. A. Mukhtarov, *O‘zbek toponimlari tarixi*, (Toshkent: Fan, 1985), 34.
2. John Smith, *British Toponyms*, (London: Oxford University Press, 2002), 45.
3. Sh. Karimov, *O‘rta Osiyo geografik nomlari etimologiyasi*, (Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010), 67.
4. Richard Wilson, *A History of English Place Names*, (Cambridge: Cambridge University Press, 2015), 92.
5. Berezovich E.L. Semanticheskie mikrosistemyi v russkoy toponimii: Dis. … kand. filolnauk. Ekaterinburg, 1992. -264 c.
6. Golomidova M.V. Iskusstvennaya nominatsiya v russkoy onomastike: Dis. … d-ra filolnauk. Ekaterinburg, 1998. -232 c.
7. Kubryakova E.S. Nominativnyiy aspekt rechevoy deyatelnosti. M.: Nauka, 1986. -159 c.Nepokupnyiy A.P. Teoriya i metodika onomasticheskih issledovaniy. M.: Nauka, 1986.
8. Ponomareva O.B. Kognitivnyie i pragmo-stilisticheskie aspektyi semanticheskoy derivatsii (na materiale angl. yazyika v sopostavlenii s russkim i nemetskim yazyikami). Tyumen: TyumGU, 2005. -264 c.
9. Raevskaya O.V. Slojnyie slova sovremennogo frantsuzskogo yazyika (imennoe slojenie): Dis. … kand. filol. nauk. M., 1981. -170 c.
10. Rut M.E. Obraznaya nominatsiya v russkom yazyike: Ekaterinburg, 1992. -144c.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Ismailova Shamsiya Kurultaevna
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi
“Boshqaruv mahorati” kafedrasi dosenti, pedagogika fanlari nomzodi.

Taqrizchi: psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) E.R.Raximova

Received 30th January 2025, Accepted 11th February 2025, Online 28th February 2025

FAN, TA’LIM VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRASIYaSI SHAROITLARIDA OLIY TA’LIM MUASSASALARINI BOSHQARISHNING INNOVASION OMILLARI

Annotasiya: ushbu maqolada fan, ta'lim va ishlab chiqarish integrasiyasi sharoitlarida oliy ta'lim muassalarini boshqarishning innovasion jihatlariga bag‘ishlangan. Hususan, zamonaviy sharoitlarda dual ta'lim mazmun-mohiyati, ushbu ta'lim shaklini joriy qilish shart-sharoitlari, boshqaruv tizimi oldida turgan muhim strategik maqsadlar, ularni amalga oshirishda faoliyatga ilmiy-innovasion yondashuvlar tahlil qilingan. Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integrasiyasini ta'minlashda dual ta'lim imkoniyatlari o‘rganilgan. Fan, ta'lim va ishlb chiqarish integrasiyasini amalga oshirishda pedagogik tizimni boshqarishga ilmiy-innovasion yondashuvlar mazmuni tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: fan, ta'lim va ishlab chiqarish integrasiyasi, oliy ta'lim muassasasi boshqaruvi, dual ta'lim, moliyaviy va akademik mustaqillik, pedagogik tizim, tizimli boshqaruv, boshqaruvga ilmiy-innovasion yondashuvlar.

INNOVATIVE FACTORS OF THE MANAGEMENT OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN THE CONDITIONS OF INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRODUCTION

Annotation: This article is devoted to the issues of management of higher educational institutions in the conditions of integration of science, education and production. The modern requirements for the training of highly qualified personnel in the conditions of academic independence of a higher educational institution are analyzed. The author especially considers the issue of the effectiveness of introducing dual education into the pedagogical process. Dual education is considered as an important element of the pedagogical system. Scientific and innovative approaches to managing the pedagogical system in the context of the introduction of dual education are also analyzed. The pedagogical system is analyzed as an important socio-economic factor that ensures the effectiveness of the implementation of dual education.

Key words: management of a higher educational institution, dual education, pedagogical system, system management, innovative approaches to management.

ИННОВАЦИОННЫЕ ФАКТОРЫ УПРАВЛЕНИЯ ВЫСШИМИ УЧЕБНЫМИ ЗАВЕДЕНИЯМИ В УСЛОВИЯХ ИНТЕГРАЦИИ НАУКИ, ОБРАЗОВАНИЯ И ПРОИЗВОДСТВА

Аннотация: Статья посвящена вопросам управления высшими учебными заведениями в условиях интеграции науки, образования и производства. Анализируются современные требования к подготовке кадров высшей квалификации в условиях академической самостоятельности высшего учебного заведения. Особое внимание автор уделяет вопросу эффективности внедрения дуального образования в педагогический процесс. Дуальное образование рассматривается как важный элемент педагогической системы. Также анализируются научные и инновационные подходы к управлению педагогической системой в условиях внедрения дуального образования. Педагогическая система анализируется как важный социально-экономический фактор, обеспечивающий эффективность внедрения дуального образования.

Ключевые слова: управление высшим учебным заведением, дуальное образование, педагогическая система, системное управление, инновационные подходы к управлению.

KIRISh

Bugungi kunda Respublikamizda yoshlarning har tomonlama keng bilim olishlari, kasb egallashlari, o‘z qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimida yoshlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash ishlari yanada takomillashtirilib, ilg‘or xorij tajribalari, innovasion texnologiyalar, istiqbolli loyihalar amaliyotga keng tadbiq qilinmoqda.

2024 yil 5 fevral kuni Prezident Sh.M.Mirziyoev raisligida ta'lim, sog‘liqni saqlash, raqamlashtirish va sport sohalarida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ta'lim sifatini oshirish-Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘li ekanligi alohida ta'kidlandi. Ayniqsa, oliy ta'limda mutaxassislar tayyorgarligini yangi bosqichga ko‘tarish, faoliyat samaradorligiga erishishda fan, ta'lim va ishlab chiqarish sohalari integrasiyasini innovasion tashkil qilish, ish beruvchi tashkilotlar talablarini inobatga olish va hamkorlikni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratish zamon talabi ekanligi alohida ta'kidlandi. Darhaqiqat, yosh avlod ta'lim va tarbiyasini tizimli amalga oshirish, natijaga yo‘naltirish, pedagogik tizim ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda zamonaviy boshqaruvni innovasion tashkil qilish echimini kutayotgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi shundan iboratki, jamiyatimiz zamonaviy ijtimoiy-iqtisoiy rivojlanish tendensiyalarini inobatga olgan holda oliy ta'lim boshqaruvining innovasion mexanizmlarini o‘rganish hamda mehnat bozoridagi o‘zgarishlar sharoitida kadrlar raqobatbardoshligiga erishishda fan, ta'lim va ishlab chiqarish integrasiyasini ta'minlashda pedagogik tizimni etakchi omil sifatida tadqiq qilishdan iborat bo‘ldi.

MAVZUGA OID ADABIYoTLAR TAHLILI

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.03.2021 yildagi 163-sonli qaror bilan “Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida” qarori tasdiqlandi. Ushbu qarorga muvofiq Respublikamizda barcha oliy ta'lim muassasalarida 2023-2024 o‘quv yilidan boshlab dual ta'lim tashkil etildi. Qaror mohiyatan oliy ta'limda mutaxassislar tayyorgarligida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integrasiyasini ta'minlash va asosiysi kadrlar raqobatbardoshligiga erishishni ta'minlashga qaratilgan.[2, 1 b.]

Qarorda professional ta'lim tizimda dual ta'limni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad va vazifalar aniq belgilab berilgan. Shuningdek dual ta'limni tashkil etish va uning bosqichlari, ishlab chqarish amaliyotini olib borish tartibi, ta'lim jarayoni ishtirokchilari huquq va majburiyatlari hamda boshqa tashkiliy masalalar ko‘rsatilgan.

Dual ta'lim shakli –bu mutaxassislar tayyorgarligi davomida o‘qishning nazariy qismi bevosita oliy ta'lim muassasalarida va amaliy qismi esa ish beruvchi tashkilotlarda o‘tkazilishi rejalashtirilgan ta'lim hisoblanadi. Dual ta'lim Respublikamiz professional ta'lim tizimda mutlaqo yangi hodisa sifatida e'tirof etish mumkin. 2023-2024 o‘quv yilidan boshlab bu ta'lim shakli oliy ta'lim muassasalarida bosqichma-boqich joriy qilmoqda.

Respublikamiz professional ta'limida dual ta'lim shaklini tashkil qilishda rivojlangan xorijiy davlatlar, xususan Germaniya, Avstriya, Bubk Britaniya, Gollandiya, Fransiya, Italiya tajribalari o‘rganildi. Germaniya Federativ Respublikasining bu boradagi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, dual ta'lim shakli mamlakat iqtisodiyotining barcha sohalari kesimida tashkil qilingan hamda mutaxassislar tayyorgarlashda fant, ta'lim va ishlab chiqarish integrasiyasini ta'minlashda yuqori samaradorlikka ega. Amaliy natijalar shuni ko‘rsatadiki, talabalar hamkor tashkilotlarda nazariy ma'lumotlarning amaliy tadbiqini bevosita hamkor tashkilotlarda dual ta'limda qatnashish orqali kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari va eng muhimi kasbiy rivojlanish uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni egallashlari mumkin. Dual ta'lim

pedagogik tizimning muhim unsuri sifatida zamonaviy oliy ta'lim boshqaruviga yangicha yondashuvni talab qiladi.

Bu borada o‘z echimini kutayotgan quyidagi muammolarni tadqiqot ob'ekti sifatida ko‘rsatishimiz mumkin:

1) 2023-2024 o‘quv yiladan boshlab oliy ta'lim tizimida dual ta'lim (4+2) joriy etildi. Bu borada oliy ta'lim muassasalari boshqaruvida qator tashkiliy vazifalar o‘z echimini kutmoqda. Oliy ta'lim muaasasalari rahbarlari oldida amaliyot ob'ektlarini to‘g‘ri tanlash, faoliyat natijadorligiga salbiy ta'sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni belgilash, ularni bartaraf qilishda dual ta'lim sub'ektlarining barchasi bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, samarali qarorlar qabul qilish muhim ekanligini ko‘rsatishimiz mumkin.

2) Dual ta'limni tashkil qilishdan maqsad fan, oliy ta'lim va ishlab chiqarish integrasiyasini ta'minlash, kadrlar tayyorgarlashda jamiyatning zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishlarini inobatga olishdan iborat. Shunday ekan, dual ta'lim sharoitida mutaxassis kadrlar tayyorgarligi bilan bog‘liq tashkiliy, didaktik, shaxsiy-psixologik omillarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf qilish oliy ta'lim boshqaruvining dolzarb vazifalaridan hisbolanadi.

3) Bu sohada eng muhim muammolardan yana biri oliy ta'limning ilm-fanda erishilgan innovasiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilinishida integrativ vazifani bajarishi kutilmoqda. Qachonki oliy ta'limda boshqaruv innovasiyalarga ochiq bo‘lgan taqdirdagida bu masalalarni bajarishda yaxshi natijalarga erishish mumkin. Ilmiy tadqiqot natijalarining ishlab chiqarishga jadal joriy qilinishi oliy ta'limning innovasion mobilligini hamda pedagogik tizim samaradorligini belgilaydi.

Pedagogik tizim ko‘rsatkichlari iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat olib borayotgan kadrlar salohiyati kesimida baholanadi hamda oliy ta'lim boshqaruvi natijadorligini, innovasiyalarga qanchalik ochiq ekanligini belgilaydi. Pedagogik tizim boshqaruvi qanchalik samarali tashkil qilinsa, natijadorlik jamiyatimiz hayotida aks etadi. Dual ta'limni samarali tashkil qilish bilan bog‘liq muammolar oliy ta'limda pedagogik tizim boshqaruvining innovasion-tashkiliy hamda ijtimoiy-psixologik jihatlarini tahlil qilishni taqazo qiladi.

A.Abdurasulov, Yu.V.Vasileva, G.L.Ilin, A.Karimjonovlarning fikricha, pedagogik tizim – bu o‘sib kelayotgan yosh avlod, shuningdek, katta yoshdagilar ta'lim-tarbiyasi maqsadlariga moslashtirilgan o‘zaro bog‘liq unsurlardan tarkib topgan tuzilmadir. [3,7,11,13] Pedagogik tizimning muhim unsuri bo‘lgan dual ta'lim boshqaruvi samarali bo‘lishi ko‘p jihatdan tizimning barcha qatnashchilari bilan qaytma aloqaning izchil yo‘lga qo‘yilganligiga bog‘liq.

V.M.Filippovning fikricha, pedagogik tizim o‘zida uzviylikni aks ettiradi va ijtimoiy muhit hamda pedagogik jarayon qatnashchilarining moddiy va ma'naviy qadriyatlariga tayanadi hamda shaxs kamolotini ta'minlovchi ijtimoiy hodisa hisoblanadi. [12]

Shunday ekan, zamonaviy fan, ta'lim va ishlab chiqarish integrasiyasi sharoitlarida pedagogik tizim ijtimoiy hayot qonun-qoidalari va tamoyillariga binoan o‘z faoliyat yo‘nalishini belgilab oladi. Pedagogik tizim o‘zida jamiyat rivojlanish yo‘nalishlari va istiqbolini aks ettiradi va o‘z navbatida uning taraqqiyotiga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYaSI

Pedagogik tizimni boshqarishga bir qancha ilmiy yondashuvlar mavjudki, tadqiqotchilar tomonidan quyidagi tavsif keltiriladi. Boshqaruvga tizimli yondashuv. P.I.Tretyakovning fikricha, boshqaruv o‘zaro uzviylikni hosil qiluvchi yaxlit tizimdir va uning unsurlari bir-birini taqazo qiladi. Boshqaruvga tizimli yondashuvdan maqsad pedagogik jarayon qatnashchilarining hamkorligiga, qabul qilinayotgan qarorlar natijadorligi erishishdan iboratdir.[13, 46 b.]. Bizning fikrimizcha, dual ta'lim sharoitida ishlab chiqarish ob'ektida mavjud didaktik muhit pedagogik tizimning muhim unsurlaridan biri hisoblanadi.

Ko‘pgina tadqiqotchilar tomonidan pedagogik tizim boshqaruviga faoliyatli yondashuvning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati alohida e'tibor qaratilgan. Bunda boshqaruvning barcha funksiyalari, ya'ni maqsadni belgilash, dual ta'lim sharoitida pedagogik tizim ishtirokchilari va ularning tashkiliy, ta'limiy-didaktik vazifalarini muvofiqlashtirish, faoliyatini rejalashtirish, tashkillashtirish, motivasiya, yo‘naltirish, kommunikasiya, axborot ta'minoti, nazorat, qarorlar qabul qilish, tahlil, tashxis, faoliyatni baholash, inson resurslarini kasbiy-intellektual salohiyatidan kelib chiqib tanlash kabi jihatlarini inobatga olish nazarda tutildi. Dual ta'lim maqsadlarining jarayon ishtirokchilari tomonidan to‘liq anglanishi, rahbarlar tomonidan ularni amalga oshirish mexanizmlarini puxta rejalashtirish orqali yakuniy natijalar samaradorligi ta'minlanadi.

Boshqaruvga motivasion yondashuvda mutaxassislar tayyorlash jarayonlariga dual ta'limni tadbiq qilishdan ko‘zlangan stretegik maqsadlarga erishishda inson omilini inobatga olgan xolda ish olib borish nazarda tutiladi. Diqqat markazda jarayon qatnashchilari, rahbar kadrlar, ta'lim oluvchilar, pedagog-xodimlarning boshqaruvga bo‘lgan munosabati yoki ularda muayyan qarorlar ijrosiga nisbatan motivasiyaning mavjudligi hisobga olinadi. Bunda dual ta'lim maqsadlarini ro‘yobga chiqarishi lozim bo‘lgan pedagog-xodimlarda faoliyatda yuzaga kelgan tashkiliy-didaktik muammolarni bartaraf qilishga nisbatan motivasiyani yuzaga keltirish muhim hisoblanadi. Motivasiya rahbarning muayyan vakolatlari ko‘rsatgichi bo‘lib, xodimlarning shaxsiy va ijtimoiy-psixologik sifatlarini qanchalik to‘g‘ri anglay olishini bildiradi.[13, 67 b.]

Xodimlar motivasiyasi muayyan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan, biror shaxs (ayrim shaxs yoki shaxslar guruhi)ni faoliyatga rag‘batlantirish jarayonidir. Rag‘batlantirish xodimlarda ijodiy mehnatga, yuqori samaradorlik ko‘rsatkichlariga qiziqish uyg‘otishga qaratilgan. Bu ularni moddiy ta'minlash va o‘zlarida hamda jamoada mehnat munosabatlarida ishchanlikni ta'minlovchi kuchli omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Boshqaruvga sinergetik yondashuvda dual ta'limda pedagogik tizim ishtirokchilari o‘zaro hamkorligini ta'minlash, o‘z mehnatlarini oqilona tashkil qilish, o‘z-o‘zlarini boshqarish orqali jarayondan ko‘zlangan natijalarga, ya'ni talabalarning ishlab chiqarish muhitida o‘z bilim va malakalarini namoyon qilishlari, kasbiy o‘zlikni anglashlariga yordam berishni nazarda tutiladi.

Boshqaruvga vaziyatli yondashuv rahbarlik faoliyatini muayyan vaziyatlardan kelib chiqqan xolda olib borilishini nazarda tutadi. Boshqaruvchilik faoliyati aniq vaziyatlarga qarab rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Buning uchun dual ta'limni amaliyotga tadbiq qilishda vujudga kelgan vaziyatlarni tahlil qilish va yuzaga kelgan muammolarni aniqlash, turli o‘quv-tarbiyaviy vaziyatlar negizida pedagogik tizimning rivojlanishini bashorat qilish, muammoning echimini taklif qilish, nizolarni bartaraf etish va qo‘lga kiritilgan natijalarni tahlil qilish lozim bo‘ladi.

Boshqaruvga refleksiv yondoshuv rahbarning o‘zining boshqaruvchilik faoliyatini tahlil qilishi, baholashi va tashxislashi nazarda tutiladi.

Rahbarga refleksiv faoliyat boshqaruv natijalarini tahlil qilish, baholash va muammolarni hal qilishda juda zarurdir. Malakali rahbar kengroq fikrlashga, muammoga turli nuqtai-nazardan yondashishga va kutilmagan echimlarni topishga harakat qiladi. Boshqaruvga refleksiv yondashuv rahbarga o‘zaro aloqasi bo‘lmagan hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni topishga yordam beradi. Bunday rahbar keng fikrlaydi, nostandart echimlar taklif qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mavhum fikrlashga to‘sqinlik odatda yangi, o‘ziga xos echimlarni topishga xalaqit beradigan perseptiv, hissiy, axloq me'yorlari bilan bog‘liq to‘siqlardir. Ko‘pincha rahbarlar muammolarni hal qilish va vazifalarni bajarish uchun belgilangan me'yorlarni chetlab o‘tishlari qiyin, shuning uchun yangi g‘oyalar rad qilinishidan qo‘rqadilar.

Boshqaruvga milliy-hududiy yondashuv dual ta'lim imkoniyatlaridan keng fodalanishda muhim ahamiyatga ega. Bunda boshqaruvchilik faoliyatini amalga olirishda har bir hududning

va o‘sha joy aholisining milliy xususiyatlarini hisobga olish nazarda tutiladi. Milliy-hududiy boshqaruvda mahalliy aholining ijtimoiy-madaniy rivojlanish darajasi, oliy ta'lim muassasasining fan, ta'lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integrativ vaziflarni hal qilishda qo‘llayotgan boshqaruvning innovasion mexanizmlariga bo‘lgan munosabati, ma'muriy-hududiy, demografik omil, ijtimoiy infratuzilma, aholi bandligi, migrasiya xamda iqtisodiy ho‘jalik faoliyat turlari inobatga olinishi kerak bo‘ladi. Bularning barchasi muayyan hududning o‘zigagina xos bo‘lgan qirralarini ochib beradi, ya'ni pedagogik tizimni rivojlantirish, dual ta'limni tashkil qilishda mahalliy sharoitlar hisobga olinadi.

Boshqaruvda natijalarga asoslanganlik. Bunda boshqaruv natijalari asosida faoliyatga vaqti-vaqti bilan o‘zgarishlar kiritiladi. Boshqaruv jarayoni qatnashchilari o‘z faoliyatini samarali amalga oshirish maqsadida kelgusi harakatlarini tizimli tahlil qiladilar hamda muvofiqlashtirib boradilar. Natija sifatida talabalarning kasbiy bilim darajasi, ko‘nikma va malakalari, tarbiyalanganligi, shuningdek mehnat bozorida ular egallagan kompetensiyalarga ehtiyojning ortishi, ish beruvchi tomonidan yosh kadrlar kasbiy kompetensiyalariga bo‘lgan talablar nazarda tutilsa, o‘qituvchining ish sifati darslar samaradorligi, kasbiy mahorati kabilarda namoyon bo‘ladi.

Ta'lim muassasasi rahbarining tadqiqotchilik faoliyati refleksiv jarayonlarga asoslanadi, ya'ni dual ta'limda pedagogik jarayon ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish va zarur sharoitlarni yaratish, natijalarni baholash va qarorlar qabul qilish, tahlil va baholashni o‘z ichiga oladi.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'lim muassasalari boshqaruv faoliyatining ijtimoiy funksional xususiyatlari, oliy ta'lim muassasalarini boshqarishning strategik maqsadlari, uslublari, vazifalari va amalga oshirish yo‘llari ilmiy asoslangan. Oliy ta'lim muassasalarining rahbarlari boshqaruv faoliyatining modeli, zamonaviy rahbar qiyofasi ishlab chiqilgan, uni tashkil etuvchi komponentlar asosida baholash mezonlari, ish samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari belgilangan hamda mazkur model va mezonlardan oliy ta'limni boshqarishdagi ahamiyati asoslangan.[14,15,16]

Oliy ta'limni boshqarishni rejalashtirishda faoliyat maqsadi, mazmuni va vazifalari inobatga olinadi. Umumiy maqsadlarga erishishda vazifalarni bajarishning ketma-ketligi belgilanadi hamda qo‘llaniladigan boshqaruv metodlari tanlab olinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshqaruv vositalarining nazariy-metodologik asoslari pedagogik jarayonlarning yangi shaklini vujudga keltiruvchi, ta'lim jarayonining tarkibiy tuzilishining sifatlarini belgilovchi yangi g‘oyalar hisoblanadi. Ta'lim muassalari rahbarlari o‘z faoliyatini innovasion tashkil qilishi uchun quyidagi shart-sharoitlarning mavjud bo‘lishi talab qilinadi:

1) Professor-o‘qituvchilar jamoasida jamiyatimiz uchun yangi bo‘lgan dual ta'limni tashkil qilish va amalga oshirish bilan bog‘liq o‘z kasbiy-kompetensiyalarini rivojlantirish va takomillashtirish bilan bog‘liq g‘oyalar, motivasiyaning mavjudligi;

2) Dual ta'lim vazifalarini amalga oshirishda pedagog hamda talabalarning yangi tajribalarga ochiqligi;

3) Mutaxassislar tayyorgarligi jarayonida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integrasiya ta'minlanganligi, ish beruvchilar bilan faol hamkorlikning yo‘lga qo‘yilganligi va uning natijadorligi;

4) Ish beruvchilar tomonidan yosh mutaxassislar kasbiy kompetensiyalariga bo‘lgan talablar mazmuni va ularning amaldagi xolati;

5) Ijtimoiy tuzilma sifatida dual ta'lim ishtirokchilarining hamkorlikda faoliyat yuritishga tayyor ekanliklari, tashabbuskor pedagogik jamoaning shakllanganligi;

6) Mehnat bozori talablariga mos xolda dual ta'lim mazmunining to‘g‘ri belgilanganligi, integrativ o‘quv dasturlarining ishlab chiqilganligi va amaliyotga tatbiq etish sharoitlarining mavjudligi;

7) Dual ta'lim sharoitida pedagogik tizim sub'ektlarining ijodiy rivojlanishlari uchun sharoitlarning mavjudligi;

8) Ta'lim muassasida psixologik xizmatning samarali tashkil etilganligi;

9) Yagona ta'lim-tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishda ishlab chiqarish ob'ektida didaktik jarayon qatnashchilari, professor-o‘qituvchilar, tyutorlar, talaba va ota-onalar, jamoat tashkilotlari ijodiy hamkorligining mavjudligi.

Oliy ta'lim muassasi rahbarining innovasion faoliyati ijodiy, tahliliy va tadqiqotchilik jihatlarini o‘z ichiga oladi. Zamonaviy ta'lim muassasining rahbari ijodiy faoliyati pedagogik ijodkorlikda, ilmiy-ijodiy fikrlashga moyillikda namoyon bo‘ladi.

Innovasion faoliyatning yana bir jihati tahliliy faoliyat bo‘lib, zamonaviy ta'lim muassasi bajarishi zarur bo‘lgan nostandart masalalarni hal qila olish, jamoa faoliyatida ijodiylikni qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish, vaziyatli yondoshuv hamda amalga oshirilgan tahlillar asosida boshqaruv texnologiyalarini yangilab borish zarur hisoblanadi.

Boshqaruv ko‘nikmalari rahbarning psixologik xususiyatlari, xissiy-irodaviy sifatlari, ijodiy fikrlashi, intellektual qobiliyati bilan ham uzviy bog‘liq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan fikrlar va qarashlar asosida quyidagi xulosalarni bildirishimiz mumkin. Birinchidan,zamonaviy sharoitlarda oliy ta'lim boshqaruvi vazifalarini bajarishda innovasion metod va vositalarga ijodiy yondashish orqali bo‘lg‘usi mutaxassislar kasbiy tayyorgarligini sifatli tashkil qilishga erishish mumkin. Ikkinchidan, boshqaruv metodlari va rahbarlik uslublaridan foydalanishda jamiyat talablarini inobatga olish, fan, oliy ta'lim, ishlab chiqarish va ijtimoiy muhit munosabatlarida integrasiyani ta'minlash muhim hisoblanadi. Uchinchidan, dual ta'lim sharoitida ish beruvchilar, pedagogoglar va talabalar o‘rtasida boshqaruv jarayoni natijalarini baholash maqsadida ijtimoiy so‘rovnomalarni o‘tkazib turish boshqaruvdagi xato va kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf qilish va faoliyatga zarur o‘zgarishlarni kiritishga yordam beradi. To‘rtinchidan, moliyaviy va akademik mustaqillik sharoitida dual ta'lim vazifalarini amalga oshirishda integrativ ta'lim dasturlarining amaliyotga tatbiq qilinishi bo‘yicha monitoringni yo‘lga qo‘yish hamda rivojlangan davlatlar tajribasidan samarali foydalanish strategik maqsadlarga erishishda muhim ahamiyatga ega. Beshinchidan, dual ta'lim muhitida hamkor ishlab chiqarish ob'ektida zamonaviy texnologiyalarning mavjudligi, soha yo‘nalishi bo‘yicha jahon standartlari talablariga mosligi, yosh kadrlar kasbiy salohiyatini oshirishda innovasion omilkorligini tahlil qilish va baholab borish lozim.

Darhaqiqat, Yangi O‘zbekistonni, Uchinchi Renessansni bunyod qilishdek ijtimoiy muhim ahamiyatga ega bo‘lgan vazifalarni ro‘yobga chiqarish bugungi kun ta'lim tizimi rahbarlaridan yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda tashabbuskorlikni, tizimlilikni, kreativlikni hamda faoliyatga innovasion yondashuvni talab qiladi.

Manba va adabiyotlar:

1. ПҚ-61-сон, 24.12.2021 й. “Давлат таълим муассалаларига молиявий мустақиллик бериш чора-тадбирлари тўғрисида” .-Тошкент, 2021 й.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори- 163-сон, 29.03.2021 й. “Профессионал таълим тизимида дуал таълимни ташкил этиш чора-тадбирлари ҳақида”.- Тошкент, 2021 й.
3. Abdurasulov A.A., Baratbayev B.B. Ta'limda korporativ boshqaruv.- Toshkent, 2020, 226 b.
4. Ashurov Z.A., Jalilov F.A., Urinov B.N. Zamonaviy korporativ boshqaruv (xorijiy tajriba).- Toshkent, 2022,
5. Боймуродов Н.«Раҳбар психологияси». «Янги аср авлоди», 2007 йил.
6. Демин Г.А. Методы принятия управленческих решений.-Пермь, 2019.
7. Karimjonov A. Pedagogik tizimni boshqarish asoslari.-T., TPU, 2009.
8. Ильин Г.Л. Инновациии в образовании. –М.: “Прометей”, 2015
9. Махмудов И.И. Бошқарув профессионализми: психологик таҳлил.-Тошкент, "Academya", 2011.
10. Менеджмент в образовании / под ред. С.Ю.Трапицина.-Москва, «Юрайт», 2021.
11. Практикум по теории управления. Учебное пособие./ Под ред. Ю.В.Васильевой – М.: “Финансы и статистика”, 2005 г.
12. H.Rasulov Yangi O'zbekiston: davlat va jamiyat boshqaruvining g'oyaviy-mafkuraviy asoslari.-Toshkent, 2023, 182 b.
13. Шамова Т.И., Третьяков, Капустин Н.П.Управление образовательными системами.-М.: “Владос”, 2002.
14. Шипилина Л.А. Менеджмент в образовании.-Омск, “Издательство ОмГПУ”, 2017.
15. Филиппов В.М. Управление высшей школой: опыт, тенденции, перспективы.-Москва, “Логос” 2016.
16. Hayitov O.E. Boshqaruv psixologiyasi.Toshkent, 2020, 251bet.
17. Управление образовательными системами : учеб. пособие для студ. вузов / Т. И. Шамова, Т. М. Давыденко, Г. Н. Шибанова ; под ред. Т. И. Шамовой. - 5-е изд., стер. - М. : Академия, 2008.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

ФАРИДА АБДУРАХИМОВА

Педагогика фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Республикаси Оила ва хотин қизлар қўмитаси ҳузуридаги
Оила ва гендер илмий тадқиқот институти бўлим бошлиғи

Taqrizchi p.f.d., professor
O.Musurmonova

Received 30th January 2025, Accepted 11th February 2025, Online 28th February 2025

ЎЗБЕКИСТОН ЖАМИЯТИДА МИЛЛИЙЛИК ВА ДИН УЙҒУНЛИГИНИНГ АҲАМИЯТИ

Аннотатция. Мазкур мақолада миллий ва диний қадриятларнинг тикланиши ва ривожланиши хақида сўз юритилади. Муаллиф конфессияларо уйғунликни таъминлашда “Ўзбекистон тажрибаси”, ёшларнинг маънавий-ахлоқий тарбиясида миллий қадриятлар ва диний анъаналар, маънавий-ахлоқий тарбия ва имон-эътиқод уйғунлиги тахлил қилинган .

Таянч тушунчалар. Нация, миллий маънавият, секляризм, скуляризм, дунёвийлик, миллий қадрият.

НАЦИОНАЛЬНОСТЬ И РЕЛИГИЯ В УЗБЕКСКОМ ОБЩЕСТВЕ ВАЖНОСТЬ ГАРМОНИИ

Абстрактный. В статье рассматриваются вопросы восстановления и развития национальных и религиозных ценностей. Автор анализирует «узбекский опыт» в обеспечении межконфессионального согласия, гармонии национальных ценностей и религиозных традиций в духовно-нравственном воспитании молодежи, духовно-нравственном воспитании и вере.

Основные понятия. Нация, национальная духовность, секуляризм, светскость, мирской образ жизни, национальные ценности.

THE IMPORTANCE OF NATIONAL AND RELIGIOUS HARMONY IN UZBEK SOCIETY

Abstract. This article discusses the restoration and development of national and religious values. The author analyzes the "Uzbek experience" in ensuring interfaith harmony, national values and religious traditions in the spiritual and moral education of young people, spiritual and moral education and the harmony of faith and belief.

Key word. Nation, national spirituality, secularism, secularism, secularism, national value.

Кириш. .Миллийлик ҳақида фикр юритар эканмиз, бу тушунчани билиб олишни “миллат” тушунчасини изоҳлашдан бошлаш мақсадга мувофиқ.

“Миллат” сўзи “ўзак”, “туб моҳият”, “негиз” деган маънони билдиради. “Миллат” сўзи араб тилида қуйидаги уч маънони англатади: биринчи –дин, мазҳаб; иккинчи – уммат;, учинчи – халқ, қавм. Миллат сўзи Қуръони Каримда ҳам қўлланилган. Қуръонда ҳар бир миллат вакили ўз миллий қадриятларини ривожлантириши савобли иш, ўз миллатидан, қавмидан кечиб, бошқа миллатга ўтиб олиши эса гуноҳ деб таърифаланган.

Европа адабиётида қўлланиладиган “нация” сўзи эса қабила, халқ деган маънони билдиради.

Миллийликка таҳдид-миллатга таҳдид.

Юрт борки ўз тарихи бор. Миллат борки, ўз қадрияти, урф-одати, анъана ва маданияти бор. Бу урф-одатлар, қадрият ва маданиятлар миллатнинг савиясини, заковат ва фаросатини, эътиқоди ва ишончини ўзида акс эттириб туради. Бу иборалар қисқа қилиб миллийлик деб аталади.

Миллийлик – муайян халққа, миллатга хос бўлган, уни бошқалардан фарқини кўрсатувчи хусусиятлар мажмуи. Миллийлик миллатнинг тарихи, қадриятлари, анъаналари, маданияти, яшаш тарзида яққон намоён бўлади.

Биз фарзандларимизнинг баркамол руҳий дунёси учун, уларнинг маънавий-ахлоқий жиҳатдан етук, жисмонан соғлом бўлиши учун доимо қайғуришимиз, курашмоғимиз даркор. Ана шу жараёнда халқимизнинг миллийлик қиёфаси, руҳияти, дунёқараши, қадриятлари, бир сўз билан айтганда миллийлиги яққол намоён бўлади.

Инсон маънавияти учта асосни ўз ичига олади.

Маърифий, эстетик, ахлоқий.

Миллий маънавият-муайян элат, миллатга унинг аждодларига хос бўлган ғоят қимматли маънавий бойликдир. Миллий маънавиятда-миллий ҳис, туйғу, руҳият ҳам муҳим ўрин эгаллайди. Миллий манфаат ҳам муҳим роль ўйнайди. Унинг асосий белгиси ва ўзаги-миллий ахлоқдир.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. 2023 йилда Ўзбекистон Республикаси Референдумида умумхалқ овоз бериш орқали қабул қилинган Ўзбекистон Ресубликаси Конституциясининг 1-боб, 1-моддасида Ўзбекистон-бошқарувининг республика шаклига эга бўлган суверен, демократик, ҳуқуқий, ижтимоий ва дунёвий давлат деб белгиланган.

Дунёвийлик-Аллоҳга имон келтирган холда, уни қалбда сақлаб, Яратган инъом этган ақл-заковат, билим ва тажрибани ишга солиш, эл-юртни обод қилишга ҳисса қўшиш, халқнинг ҳурматини қозонишдир. Зеро, “Халқ рози бўлса, Холиқ рози бўлади”, дейди улуғ мутафаккиримиз Алишер Навоий.

Дунёвийлик дахрийлик эмас. Ўзбекистонда “дунёвийлик”нинг мазмун-моҳияти тўғри англаб етилган. Виждон эркинлиги таъминланишининг ўзи дунёвийликдир. Шунга кўра, бугунги кунда секуляризм-мустақил Ўзбекистоннинг ижтимоий-сиёсий ва Констутциявий маслагидир.Тўғри йналтирилса у жамиятни кўпроқ толерантликка ва барча сохаларни тенг англашга бошлайди. Дунёвийлик тамойили бир-биридан ажралмас уч қадриятга асосланади.

1. Виждон эркинлиги;

2. Барча динлар ва диний ташкилотларнинг қонун олдида тенглиги;

3. Дин давлатдан ажратилганлиги.

Ўзбекистонда динга бўлган муносабат муайян меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар ва қонунлар орқали тартибга солинади. Конунлар фуқароларнинг динга муносабатини белгилаши хуқуқларини таьминлайди хамда ижтимоий адолат, тенгликни химоя қилинишини таьминлайди.Мустақиллик эса ислом маданиятининг ривожланиши учун янада шароит яратдию Юртимизда дунёвийлик ва динийлик ўртасида бошқалар учун андза қилиб кўрсатишга арзигулик янги нисбат ва боғлиқлик шаклланди , натижада динлараро бағрикенглик ва толерантлик шаклланди.

Ислом дини диний ва дунёвий илмга умумий даъват қилган. Масалан, Занжий Ибн Холид айтади: “Болалик пайтимизда Зуҳрийнинг ҳузурига кирган эдик. У Зот бизга: “Илм талаб қилинглар. Шунда сиз дунёни истасангиз ҳам унга етишасиз, охиратни истасангиз ҳам унга етишасиз”-дедилар”. Аммо динда фақиҳ бўлишга алоҳида урғу берган. Расулуллрҳ Соллаллоҳу Алайҳи Васаллам: “Аллоҳ кимга яхшиликни ирода этса, уни дин ишида фақиҳ қилиб қўяди”-дедилар. Бу ҳадис Муовия Розияллоҳу Анҳудан ривоят бўлган. Муттафакун Алайҳ.

Ушбу ҳадисга биноан илм эгалари улуғ фазилат эгаси эканликлари маълум бўлади.

Бугунги кунда кенг тарқалган талқинга кўра, секуляризм-барча динлар ҳамда турли қарашларни тенг ҳурмат қилиш, барча фуқароларнинг қонун олдида тенглигидир. Айни вақтда, “секуляризм” атамаси бир маъноли тушунча бўлмай, вақт, минтақа ва мамлакатга қараб тинимсиз ривожланиб боради.

Дунёвийлик ва ижтимоий-иқтисодий тараққиёт эҳтиёжлари ҳамиша ҳамоҳанглик касб этиб келган. Яъни дунёвийлик қотиб қолган догма эмас. Аксинча, у мунтазам равишда такомиллашиб борувчи ҳодисадир.

Қадрият дейилганда – инсон ва инсоният учун аҳамиятли бўлган миллат, элат ва ижтимоий гуруҳларнинг манфаатлари ва шу туфайли улар тамонидан баҳоланиб қадрланадиган табиат ва жамият неъматлари, ҳодисалари мажмуини тушунмоғимиз лозим. Қадриятлар категорияси одамлар қадрлайдиган нарсаларга ва фикр ва воқелик ўртасидаги муносабатларга боғлиқ. Қадриятлар амал қилиш доирасига кўра 3 га бўлинади: миллий, минтақавий ва умуминсоний.

Таҳлил ва натижалар . Шарқ халқларининг бир неча минг йиллар мобайнида яратган шундай бебаҳо одоб-ахлоқ қоидалари,жаҳонга кўз-кўз қилса арзийдиган қадриятлари борки, уларни унутиш ўтган авлодлар хотираси олдидагина эмас, ҳозирги ва келажак насл-насабларимиз олдида ҳам кечирилмайдиган энг катта гуноҳи азимдир.

Мустақиллик йилларида хам Ўзбекистонда миллий қадриятларни тиклаш ва ривожлантириш , уларни келажак авлод учун сақлаб қолиш борасида кўп ишлар амалга оширилди. Бу жараён орқали ёшларимизда ватанпарварлик, миллиё ғурур ва ижтимоий бирдамлик хисси мустахкамланмоқда.Таьлим ва тарбия жараёнида ёшларга ахлоқий бузулишлврдвн сақланиш , ижтимоий маьсулиятни ошириш ва миллий қадриятларимизга хурмат кўрсатишка ўргатилмоқда.

Миллий қадриятларимиз ҳаётнинг барча жаҳаларида намоён бўлади. Халқимизнинг миллий тартибатига хос бўлган меҳр-оқибат, мурувват, андиша, ор-номус, меҳнатсеварлик, оққўнгиллик, бағрикенглик фазилатлари жамиятнинг юксак қадрияти даражасига кўтарилишда бевосита миллий ғоянинг тарғиботи, ғоявий тарбиянинг таъсири каттадир.

Миллий қадриятларнинг тикланиши ва ҳаётга кенг тадбиқ этилиши давлат ва жамиятимиз томонидан амалга оширилган кенг ислоҳатларда яққол намоён бўлмоқда. Агар уларга эътибор берсак, барчасининг замирида инсон қадри, меҳр-саҳоват, буюк аждодлар меросига ҳурмат каби қадриятларни кўришимиз мумкин.

Одоб-аҳлоқ, таълим-тарбия соҳасидаги қадриятларимиз бизлар учун фақат миллий меросгина эмас, балки инсоният маънавий ҳаёти борасида катта ўрин олиши мумкин бўлган маънавий бойлик ҳамдир. Ана шу миллий қадриятларимизни тиклаш, улардан тўла баҳраманд бўлиш, ёш авлодни улар билан таништириш мустақиллигимизни мустаҳкамлашда, одамларда инсонпарварлик, ватанпарварлик сингари фазилатларни қарор топтиришда муҳим омил бўлиб хизмат қлади.

Маънавий ва ахлоқий поклик, ҳаё, иймон, инсоф, диёнат, ор-номус, меҳр-оқибат, меҳмондўстлик, инсонпарварлик ва бошқа умуминсоний ва миллий қадриятлар жамият тарққиётида муҳим ўрин тутади.

Ота-онани қадрлаш, уларнинг беминнат хизматини унутмаслик, дуоларини олиш – болаларнинг фарзандлик бурчи. Бу миллий қадриятларимизнинг энг муҳим талабларидан биридир. Буюк боболаримиз айтганидек, ота-она учун хизмат қилмоқ фарзандлар учун мажбуриятдир.

“Ота-она иккисига хизматни бирдек қил, хизматинг қанча ортиқ бўлса ҳам кам деб бил. Икки дунёинг обод бўлишини истасанг, шу икки одамнинг розилигини ол! Туну кунинга нур бериб турган-бирисини ой деб бил, иккинчисини қуёш. Уларнинг сўзларидан ташқари бир нарса ёзма, улар чизган чизиқдан ташқарига бир қадам ҳам босма. Ҳамма хизматни сен одоб билан бажар, “адаб” сўзидаги “дол” каби қоматингни хам қил”.

Катталарга иззат-икром, кичикларга меҳр-шафқат, ота-оналарга эъзоз, фарзандларга меҳр-садоқат – булар инсонни инсон сифатида улуғлайдиган, ахлоқий, маънавий жиҳатдан гўзал ва баркамол қиладиган қадриятлардан бўлиб ҳисобланади.

Миллий тарбия – у ёки бу миллатни, элатни ташкил қилувчи кишиларнинг миллий маданиятни, меросни, қадриятларни, урф-одатларни, анъаналарни ўзлаштиришдаги фаолиятини ривожлантириш бўлиб, у миллий онг ва миллий ўзликни англашнинг суъектидир.

Миллий тарбиянинг асосий йўналишлари-миллатпарварлик, ватанпарварлик, халқпарварлик, юксак инсонийлик, меҳнатсеварлик, меросни, урф-одатни, қадриятларни, фан, техника, технологияларни ўзлаштириш ва ривожлантириш, меҳр-оқибат, иймон-эътиқод, ор-номус, инсоф-диёнат, миллий ва умуминсоний қадриятларни моҳиятини тушуниб етиш ва унга амал қилиш руҳиятини шакллантириш кабилардир.

Миллий ва диний қадриятларнинг тикланиши жамиятда ижтимоий баркрорлик ва маънавий етуклик бўлишини таьминлаб беради, ёшлар тарбиясида қадриятларни кенг

тарғиб этиш уларни интеллектуал етук бўлишига ёрдам беради. Қадриятлар ва мўлжалларни йўқотиш ёки вужудга келган қадриятлар тизимидан воз кечиш-муқаррар тарзда жамиятнинг таназзулга юз тутиши ва парчаланишига олиб келади.

Хулоса ва таклифлар. Жамиятни қадриятлар билан таништириш нафақат таълим тизимидан бали оиладан хам бошланади. Мухтарам Президентимиз айтганларидек: “Одамларимиз билиши керак, оила биз учун муқаддас. Оилани сақлаб қолмасак биз ўзлигимизни йўқотамиз. Оила кичик ватан, оила тинч бўлса, бахтли бўлса ватан тинч бўлади”.

Оиланинг муқаддас вазифаси-қобилиятли фарзандларни ўстириш, уларни жисмоний, интеллектуал ва маънавий томондан етук қилиб ота-онасига, Ватанга садоқатли инсонлар қилиб тарбиялашдан иборат.

Мақсад: диний ва унёвий билимлар уйғунлигини ривожлантириш асосида таълим сифатини ошириш.

Бу борада барча соҳада малакали кадрларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини оширишнинг яхлит, самарали тизимини яратиш энг асосий масалалардан биридир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/docs/6445145.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi» 699-son qonuni. https://lex.uz/docs/5491534.
3. Мирзиёев Ш.М.-Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. –Тошкент.: Ўзбекистон. 2019. -Б. 376.
4. Ibrohim U. Dunyoviylik — dinsizlik emas-“Yangi O‘zbekiston” gazetasi ; 2021 yil 3 iyul, № 135 (391)
5. Қуронов М. Миллий тарбия. Монография. − Т.: 2004. – 210 б.
6. Макбрайен Д. От секуляризма к исламу: религия в современном Кыргызстане. - Санкт-Петербург: Библиороссика; Бостон: Academic Studies Press, 2023. - 341 с.
7. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат. – Т., Шарқ, 2000. – 318 б
8. Назаров Қ.-Аксиология. Қадриятлар фалсафаси. Тошкент. “Академия”. 2011.137б
9. Рафикова, Д. К., & Каримова, Г. Й. (2020). Ёшларни ижтимоий фаоллигини оширишда қадриятларнинг аҳамияти. перекрёсток культуры, 2(1).
10. Ёвқочев Ш.-Сиёсат ва дин. Ўқув қўлланма. Тошкент. 2011. –Б. 98.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 01 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Tukhtamurodov Azizbek
Doctoral Student of Namangan State University
email: tuxtamurodovazizbek@gmail.com

Published under peer review:
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc),
professor X.Najmiddinova

Received 30th January 2025, Accepted 11th February 2025, Online 28th February 2025

IMPROVEMENT OF THE ERGONOMIC COMPETENCE OF THE STUDENTS OF PEDAGOGY IN RELATION TO DIGITAL TECHNOLOGIES

Abstract: Teachers of general educational institutions should act rationally based on the requirements of pedagogical ergonomics in order to increase the effectiveness of training and education, they should be fluent in all aspects of organizing a safe and comfortable educational process in an educational institution, they should be extremely responsible for their duties, they should have the qualities capable of ensuring the safety and comfort of the educational process.

Key words: ergonomics, pedagogical ergonomics, informatics, ergonomic competence, student and educational tools.

PEDAGOGIKA YO‘NALISHI TALABALARINING RAQAMLI TEXNOLOGIYALARGA OID ERGONOMIK KOMPOTENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: Ta’lim muassasalari o‘qituvchilari ta’lim va tarbiya samaradorligini oshirish borasida pedagogik ergonomika talablariga asosan oqilona faoliyat yuritishlari, ta’lim muassasasida xavfsiz va qulay o‘quv jarayonini tashkil etishning barcha jabhalarini mukammal egallashlari, o‘z lavozim vazifalariga nisbatan o‘ta mas’uliyatli bo‘lishlari, ta’lim jarayoni xavfsizligi va qulayligini ta’minlay olish sifatlarining ularda mavjudligi muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: ergonomika, pedagogik ergonomika, informatika, ergonomik kompetentlik, o‘quvchi va ta’lim vositalari.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЭРГОНОМИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАПРАВЛЕНИЙ ПРИМЕНИТЕЛЬНО К ЦИФРОВЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ

